


JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

G.G'. NAZAROVA, N.M. SALIXOVA

JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI

O'quv qo'llanma

TOSHKENT - 2011

G.G'. Nazarova, N.M. Salixova. "Jahon iqtisodiyotini globallashuv'i". /prof. N.X. Jumaev tahriri ostida (o'quv qo'llanm TDIU, 2011 y. 320 bet.


Taqrizchilar: Shodiev R.X. – prof. i.f.d., Ziyadullaeva L.S. – do i.f.n.

Ushbu o'quv qo'llanmada jahon iqtisodiyoti globallashuv jarayonlarining mohiyati, globallashuv sharoitida xalqaro iqtisod munosabatlar ko'rinishlarining rivojlanish xususiyatlari, global o'zaro bog'lilikning ziddiyatlari va muammolari, globalashuv sharoiti O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va uni oshirish omillari kabi dolzarb masalalar yorilgan.

O'quv qo'llanma iqtisodiy yo'naliш va mutaxassisliklarda ta'lim olayotgan talabalar, aspirant-tadqiqotchilar va jahon iqtisodiyotining globalashuvi masalalari bilan qiziquvchi mutaxassislarga mo'ljallangan.

В данном учебном пособии рассмотрены такие актуальные вопросы, как сущность процессов глобализации мировой экономики, особенности развития международных экономических отношений в условиях глобализации, противоречия и проблемы глобальной взаимозависимости, конкурентоспособность Республики Узбекистан и факторы его повышения.

Учебное пособие предназначено для студентов экономических направлений и специальностей, аспирантов-соискателей, специалистов, интересующихся вопросами глобализации мировой экономики.



*O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining
20 yilligi va Toshkent Davlat iqtisodiyot
universitetining 80 yilligiga bag'ishlanadi*

SO'ZBOSHI

XX asrning oxirgi choragi jahon iqtisodiyoti o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tishi boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu yangi bosqich oldingi rivojlanish bosqichlaridan tubdan farq qiladi. Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi, ularning rivojlanish darajasi, madaniyat, tarixiy an'analardagi barcha farqlarga qaramay, shunday bosqichga o'tdiki, bu bosqichni "globallashuv" deb atamoqdalar.

Globallashuv tushunchasi iqtisodiyot, siyosat va madaniyatga ham birdek taalluqlidir. Biroq aynan iqtisodiyot globallashuvi barcha globallashuv jarayonlarining negizini tashkil etadi va o'matilgan jahon tuzilmasiga tahdid soladi.

Globallashuvni iqtisodiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, u jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi. Globallashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Jumladan, globallashuv natijasida transmilliy korporatsiyalar, ularning turli ko'rinishdagи xalqaro birlashmalari faoliyatining tarkib topishi va kengayishi, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajaga o'tishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining yanada kuchayishi ro'y beradi.

Iqtisodiy globallashuv qator yangi sifat belgilariga egaligi tufayli uni iqtisodiy hayot baynalmilallahuvining alohida bosqichiga ajratish mumkinki, bu bosqich o'tgan asrning boshi yoki o'talariga nisbatan farq qiladi. Xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'liqligi hozirgi vaqtda nafaqat kuchliroq namoyon bo'lmoqda, balki global darajaga chiqib, deyarli barcha mamlakatlarni qamrab oladi. Albatta, eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlар iqtisodiyotlari o'zaro birikib ketadi, lekin boshqa mamlakatlар ham turli tezlik va jadallik bilan umumjahon jarayonlariga jalb etiladi. Kompyuter texnikasi va elektron telekommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, yuqori tezlikka va tejamkorlikka ega transportning paydo bo'lishi barcha qit'alar va davlatlarni bir-biriga Yaqinlashtirdi, xalqaro ayrboshlashning keskin o'sishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratdi.

Mamlakatdan mamlakatga ko'chayotgan tovarlar va xizmatlar, kapital va ishchi kuchi oqimlari, global kompaniyalar va axborot tizimlari, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va korporatsiyalar faoliyati global iqtisodiyotni tashkil etadiki, unga barcha milliy xo'jaliklar u yoki bu darajada qo'shiladi. Global iqtisodiyotdagi har qanday uzilishlar esa xavf-xatarlarni olib keladi. Bunga 2008 yilda ro'y bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yaqqol misol bo'ladi.

Shu sababli hozirgi kunda globallashuv ko'pchilik mamlakatlar tomonidan ularning milliy manfaatlari va o'zligiga tahdid sifatida qabul qilinmoqda. O'zbekiston ham globallashuv natijasida ochilayotgan imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy xavf-xatarlarga duch kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim – O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi»¹ degan so'zlarini yana bir bor esga olish muhimdir.

O'zbekistonning globallashuv jarayonlaridagi ishtiroki ushbu jarayon oqibatlarining ma'lum darajada iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkinligidan darak beradi. Shu sababli globallashuv sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda uning zamonaviy xususiyatlarini e'tiborga olish, puxta o'ylangan oqilona iqtisodiy siyosatni yuritish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z tarixi, madaniyati va an'analarini hurmat qiluvchi hamda boshqa mamlakatlar oldidagi majburiyatlariga rioya qiluvchi teng huquqli sherik sifatida, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishning o'z yo'lini tanlab oldi va undan og'ishmay bormoqda.

Bu yil barchamiz ona yurtimiz, O'zbekistonimizning yangi tarixidagi eng buyuk va qutlug' sanalardan biri – Vatanimiz mustaqilligining 20 yillik shonli bayramini keng nishonlaymiz. O'tgan davr mobaynida O'zbekiston jahon xo'jaligida o'zining munosib o'rnnini topishga muvaffaq bo'ldi. Izchil yuqori o'sish sur'atlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tiziminining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki,

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009. 11-b.

Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.¹

Ayni paytda biz o'z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to'g'ri ekanini va amalda o'zini to'la oqlaganini hayotning o'zi yana va yana tasdiqlab bermoqda. Ushbu modelning tamoyillari asosida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo'yicha har tomonlama va chuqur o'ylangan tadrijiy taraqqiyot dasturini izchil amalga oshirganimiz inqirozning, jahon bozoridagi keskin o'zgarish va beqarorlikning iqtisodiyotimizga, moliya va bank tizimiga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.²

Yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etdi. SHuningdek ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar – aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga yetgani diqqatga sazovor.

Ayni paytda jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlarni hisobga olishimiz, egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lismiz zarur. CHunki ro'y berishi mumkin bo'lgan turli falokatlar, jahon iqtisodiyotining yuksalishi va inqirozini oldindan ko'rish imkonini beradigan, har tomonlama chuqur o'ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo'lgan mamlakatgina pirovard natijada muvaffaqiyatga erishadi.

Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi sharoitlarida milliy iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

¹ I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fugarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisasi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2010. – 56 b.

² I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qildi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

Kasbiy faoliyati xo'jalik sohasi bilan bog'liq har bir mutaxassis uchun o'z faoliyatida alohida korxona doirasidagi jarayonlarga jahon bozorining ta'sir qilish omillarini u bank, zavod yoki savdo kompaniyasi bo'lishidan qat'i nazar, bilishi va hisobga olishi kerak bo'ladi. Bunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy ko'rinishlarining globallashuvi xususiyatlarini tahlil qilish, ularga moslashish omillarini o'rganish makro va mikrodarajada jahon va milliy xo'jalik kon'yunkturasidan muvaffaqiyatli xabardorlikning zaruriy shart-sharoiti hisoblanadi.

Shu sababli "Jahon iqtisodiyotining globallashuvi" fani jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida yetuk mutaxassislarни tayyorlashda, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida mamlakatning jahon xo'jaligiga samarali integratsiyalashuvini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.

1-BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

1.1. Globallashuv tushunchasining mohiyati

Jahon iqtisodiyotida XX-XXI asrlar bo'sag'asida globallashuv tushunchasi tobora keng qo'llanilmoqda. Globallashuv muammolari tarixchilar, iqtisodchilar, texnologlar, faylasuflar va ko'plab mamlakatlarning hukmron doiralari hamda jamiyat vakillari tomonidan muhokama qilinmoqda. Globallashuv tarafдорлари va unga qarshi bo'lganlarning mayjudligi ushbu tushuncha turlicha talqin qilinishini anglatadi. Globallashuv tarafдорларининг fikricha, globallashuv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, aholi farovonligini oshiradi, yangi ish o'rnlari yaratilishiga imkon beradi. Globallashuvga qarshi bo'lganlar esa, u savdo ekspansiyasining kuchayishi, iqtisodiy jinoyatlarning ortishi (qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarish, noqonuniy reeksport, narkotik moddalar savdosining oshishi va h.k.) atrof-muhit ifloslanishi, texnika xavfsizligiga amal qilmaslik, bolalar mehnatidan foydalanish va boshqa noxush hodisalar bilan bog'liq muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarda kuchayishiga olib keladi deb hisoblaydilar. Umuman olganda globallashuv jarayonini to'xtatib bo'lmaydi. Tahlilchilar globallashuv jahon iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va ekologik tendensiyalarga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishlari lozim bo'ladi.

"Globallashuv" tushunchasi ilk bor amerikalik olimlar tomonidan kiritilgan. T.Levitt 1983 yilda "Bozorlarning globallashuvi" nomli maqolasida globallashuvni oldin tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada ko'p ko'rsatkichlarga ega bo'lgan istemol tovarlari standartlashishi uchun global bozorlar paydo bo'lishi bilan bog'liq yangi tijorat voqelegi deb atagan.¹

Iqtisodchi N.Trift globallashuvning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatadi:

- moliyaviy markazlashuvning kuchayishi. Uning yordamida kredit mablag'lari shakllantiriladi, kreditlar beriladi va foydalaniladi, shuningdek kapitalning ishlab chiqarish ustidan hukmronligi o'rnatiladi;
- axborotlar ahamiyatining oshishi;
- global oligopolianing to'xtovsiz kengayishi;
- transmilliy korporatsiyalar sonining ortishi;

¹ Глобализация мирового хозяйства: Учеб. пос / Под ред. М.Н. Осьмовой, А.В. Бойченко. - М.: ИНФРА-М, 2006. С.1.

- transmilliy iqtisodiy diplomatiyaning shakllanishi va milliy davlat hokimiyatining globallashuvi.

Kaliforniya universiteti professori M.Kastels globallashuv jarayonini “yangi kapitalistik iqtisod” deb atab, unda axborot, bilim va informatsion texnologiyalar ishlab chiqarish va raqobatbardoshlik o’sishning asosiy manbasi ekanligini ta’kidlaydi.

Rossiyalik olima I.G.Vladimirovaning fikricha, globallashuv jahon iqtisodiyoti baynalmilallahuvining eng yuqori bosqichidir.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyotining globallashuvi jahon iqtisodiyotining o’zaro bog’liq turli soha va jarayonlarining kuchayib borishi, jahon xo’jaligida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va bilimlar bozorini asta-sekinlik bilan yagona bozorga aylanishini bildiradi.

1.2. Globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi omillar

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM) ilk davlatlar bilan bir paytda ob’yektiv reallik sifatida paydo bo’lgan keng ko’landagi rang-barang aloqalar va munosabatlarning muhim tarkibiy qismini ifodalaydi. Uzoq tarixga nazar tashlar ekanmiz, qadimgi sivilizatsiyalar eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklarda yoq iqtisodiy sohada o’zaro aloqalar olib borishganiga doir bir talay misollarga duch kelamiz, chunki ular hoh Qadimiy Misr yoki Shumer madaniyati bo’lsin, xoh Ind vodiysi madaniyati yoki Shan-In davridagi Xitoy bo’lsin, kelib chiqishining avtoxtonligi (avtonomligi) va jug’rofiy jihatdan ajralganligiga qaramasdan, bir-birlari bilan xo’jalik munosabatlarini o’rnatishga va ularni keyin ham davom ettirishga intilishgan.

Juda ko’p manbalar shundan guvohlik beradiki, ahyon-ahyonda tartibsiz tabiatdagi natural tovar ayriboshlash ko’rinishdagi munosabatlar o’rniga asta-sekin antik davr (eramizdan avvalgi I minginchi yillar - eramizning I minginchi yillarining o’talari)ga xos bo’lgan tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi asosidagi doimiy xo’jalik aloqalari vujudga keladi.

O’rta asrlarning boshlanishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilgarilanma harakatida iqtisodiyotning yalpi naturallashuvi, mulkning korporativ-tabaqalangan tuzilmasi va ijtimoiy munosabatlarning sakralizatsiyasiga asoslangan orqaga chekinishni keltirib chiqardi. Biroq shaharlarning o’sishi va savdo-sudxo’rlik kapitalining rivojlanishi Buyuk jug’rofiy kashfiyotlar ochilgan davrda mamlakatlar o’rtasida iqtisodiy sohadagi aloqlarning misli ko’rilmagan darajada kengayishiga va

Yevropadagi yetakchi davlatlar: Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Fransiya va Britaniyaning kolonial imperiyalari tashkil topishiga poydevor yaratdi.

Aynan ana shu omil, shuningdek, ishlab chiqarish, transport va aloqa vositalarida ulkan olg'a siljishni ifodalagan XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlaridagi sanoat to'ntarishi (inqilobi) zamonaviy ko'rinishdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi uchun zarur bo'lgan muhit sifatida global iqtisodiy makrotizimni yuzaga kelish jarayoniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, insoniyatni XIX-XX asrlar bo'sag'asida taraqqiyotning industrial davriga o'tishi an'anaviy ko'rinishdagi hududiy xo'jalik tizimlari evolyutsiyasidan oldingi davrga yakun yasadi, jahon miqyosida Yevropa (to'g'rirog'i, ingliz-amerika) bozor iqtisodiyoti modelining g'alabasini ifodaladi.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomonidan Yevropa, Shimoliy Amerika va, ma'lum darajada, Yaponiya milliy xo'jaliklarini, ikkinchi tomonidan keng ko'lamdagi mustamlaka periferiyalarni o'z ichiga olgan jahon iqtisodiy kompleksi (majmuasi)ning yuzaga kelishi xalqaro iqtisodiy munosabatlар tizimining shunday ko'rinishining yaralishiga olib keldiki, bu ko'rinish shu holatda ma'lum o'zgarishlar bilan hozirgi kunda ham mavjud bo'lib kelmoqda. Albatta, o'tgan o'n yillik davr xalqaro iqtisodiy munosabatlар tabiatи va tuzilmasiga ma'lum o'zgartirishlar kiritdi. Mustamlakachilik imperiyalarining tugatilishi va rivojlanayotgan mamlakatlar (180 dan ortiq) deb atalmish guruhlarning vujudga kelishi natijasida iqtisodiy aloqalar uch iqtisodiy markaz, ya'ni AQSH, Yevropa, Yaponiya bilan Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasidagi yosh davlatlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishini oldi. SSSRning tarqalib ketishi va sobiq sotsialistik mamlakatlarning tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo'liga o'tishi rejali-buyruqbozlik xo'jaligining samarasiz ekanligi va rivojlanishning bozor modeliga keng ko'lamda o'tish muqarrar ekanligini namoyish qildi. Va, nihoyat, ixtisoslashuv va kooperatsiyaning chuqurlashuvi bilan birga kuzatiluvchi ishlab chiqarishning baynalmilallahuvi bir qator integratsion guruhlar, shuningdek, universal va ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar paydo bo'lishini rag'batlantirdi.

Globallashuv jarayonlarining tezlashishiga bir necha omillar ta'sir etadi, bu omillarning asosiyлari quyidagilar hisoblanadi:

- yopiq tipdagи milliy iqtisodiyotdan ochiq iqtisodiyotga o'tish;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- davlat tomonidan tartibga solish usullarining takomillashuvi;
- transmilliy korporatsiyalarning paydo bo'lishi;

- baynalmilal iqtisodiy ayirboshlash mexanizmlarining vujudga kelishi;

- fan va texnikaning rivojlanishi.

Davlatlarning yopiq tipdagi xo'jalik tizimi (avtarkiya)dan qutilishga intilishi haqida gapirganda, yetakchi mamlakatlar o'z siyosatlarida global bozor makrotizimini qurishning asosiy sharti bo'lgan barcha uchun barobar raqobat muhitini saqlash yoki yaratishni ilgari suruvchi «ochiq eshiklar» va «teng imkoniyatlar» tamoyillarini amalda qo'llaganliklarini qayd etib o'tish kerak.

Xalqaro mehnat taqsimotiga kelsak, iqtisodiy turmushning ushbu favqulodda hodisasi xo'jalik taraqqiyotining ilmiy-texnikaviy tarkibiy qismi birinchi darajali ahamiyat kasb etganligi tufayli yangi sifatlarga ega bo'ldi. Natijada, milliy iqtisodiyotlarning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy-jug'rofiy omil ikkinchi darajali bo'lib qoldi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, transmilliy korporatsiyalar (TMK) nomini olgan xalqaro monopolistik guruhalr davlat chegaralarini kesib o'tish orqali sayyoramizning barcha mamlakatlari va hududlari bo'ylab menejment va marketingning yangi uslublarini tarqatish yo'nalishida globallashuv jarayonlariga ta'sir etmoqda.

Xo'jalik sohasida baynalmilal ayirboshlash mexanizmlari sezilarli darajada murakkablashdi - ko'plab yangi huquqiy me'yor va tartiblar paydo bo'ldiki, ular xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olindi hamda iqtisodiy masalalar bo'yicha ikki va ko'p tomonlama bitimlarda mustahkamlandi.

Oxirgi ellik yil davomida bir necha rivojlanish bosqichlarini, ya'ni avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, biologizatsiya kabilarni boshidan kechirgan ilmiy-texnikaviy inqilob global jahon bozorida tamomila yangi segmentning - axborotlar va texnologiyalar bozorining paydo bo'lisinga olib keldi.

Global xo'jalik makrotizimi tuzilmasini tabiiy ravishda murakkablashuvi bozor muhiti funksiyalarining tabaqlanishi bilan birga kuzatiladi. Bu funksiyalarning asosiyлари qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- indikativ — bozor agentlari, ya'ni ishlab chiqaruvchilar, vositachilar va iste'molchilarni tovar va xizmatlarga talab va taklif tamoyillari yo'nalishi to'g'risida axborotlardan xabardor qilish;

- tartibga solish — jahon narxлари harakatiga ta'sir o'tkazish;

- kommunikativ — harakatdagи bozor agentlari o'rtasida aloqalarni ta'minlash;
- sanatsiyalash — raqobat kurashi jarayonida bozorning «o'z-o'zini davolashi» jarayoni, ya'ni iqtisodiy jihatdan samarasiz kompaniyalarni bartaraf etish va talabga ega bo'limgan mahsulotlar ishlab chiqarishni to'xtatish.

1.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy xususiyatlari

XX asrning oxirgi choragi jahon iqtisodiyoti o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tishi boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu yangi bosqich oldingi rivojlanish bosqichlaridan tubdan farq qiladi. Mutaxassislar uzoq muddatli tamoyillarni belgilash va kelajakdagi iqtisodiy strategiyani aniqlashga intilgan holda tuzilmaning eng xarakterli belgilarini muhokama qilishni davom ettirayotgan bo'lsalar-da, hozirgi kundayoq xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy tuzilmasining quyidagi xususiyatlari o'z-o'zidan namoyon bo'lib turibdi:

- a) samarali, yuqori texnologik hamda resurslarni tejovchi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan tavsiflanuvchi axborotlar iqtisodiyotini shakllantirish;
- b) konveyer, keng xalq ommasi iste'moliga asoslangan industrial tizimni davlat, aralash va, ayniqsa, xususiy kompaniyalarning alohida yo'naltirilgan kreativ (ijodiy) xo'jalik faoliyatiga o'zgartirish;
- v) milliy iqtisodiyotlarni ochiqlashtirish tamoyillarining hududiy miqyosdagi yopiq iqtisodiy bloklarni shakllantirish tamoyili bilan qo'shilib ketishi;
- g) xalqaro korporatsiyalar ahamiyatining ortib borishi sharoitida davlatning tartibga solish rolining kuchayishi;
- d) hal etilishida jahondagi barcha mamlakatlarining jamoaviy harakatlarini talab qiluvchi, sivilizatsiyaning global muammolari deb atalmish ekologik, xom ashyo, demografik kabi muammolarning keskinlashishi.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim belgilarini sanab o'tgan holda, kasbiy faoliyat xo'jalik sohasi bilan bog'liq har bir mutaxassis uchun o'z faoliyatida alohida korxona doirasidagi jarayonlarga jahon bozorining ta'sir qilish omillarini u bank, zavod yoki savdo kompaniyasi bo'lishidan qat'i nazar, bilishi va hisobga olishi kerak bo'ladi.

Shuning uchun xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy ko'rinishlarini globallashuvini o'rganish, ularni modellashtirish usullari ko'p omillarga asoslangan tahlil va statistikani qo'llanishiga qarab turlituman bo'lismiga qaramasdan, makro va mikrodarajada jahon va milliy xo'jalik kon'yunkturasidan muvaffaqiyatli xabardorlikning zaruriy shart-sharoiti hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining turli sohalarini qamrab oladi, ya'ni;

- tashqi, xalqaro, jahon miqyosidagi tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual mulk ob'yeektlari savdosini;

- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatini (ishchi kuchi, kapital, axborot);

- xalqaro moliya-kredit va valuta operatsiyalarini (beg'araz moliyalashtirish va yordam, iqtisodiy munosabatlar sub'yeektlarining kredit va qarzları, qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, maxsus moliyaviy mexanizmlar va vositalar, valuta operatsiyalari);

- ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologik, injiniring va axborotlar sohasidagi hamkorlikni.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi:

- eng avvalo ishlab chiqarish baynalmilallahuvining chuqurlashuvi. Ishlab chiqarish baynalmilallahushi iste'mol uchun yaratiladigan mahsulotni tayyorlashda jahoning turli davlatlari ishlab chiqaruvchilari qatnashishini namoyon qiladi. Jahon savdosining asosiy qismini yarim tayyor mahsulotlar egallaydi. Ishlab chiqarishning baynalmilallahuvida TMK yetakchi hisoblanadi;

- kapitalning baynalmilallahuvini chuqurlashuvi, ya'ni davlatlaro xalqaro kapital harakatining o'sishi, bunda eng avvalo to'g'ri investitsiyalar ko'rinishida, fond bozorlarining baynalmilallahushi;

- ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy, texnologik bilimlar vositalarini almashinuvini natijasida, shuningdek xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, xalqaro miqyosda ishlab chiqarish resurslarining joylashuvi natijasida ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi;

- xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlovchi global miqyosdagi material, axborot, tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi;

- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida ayirboshlashni baynalmilallahuvini kuchayishi, bunda xalqaro

hamkorlikning ishlab chiqarish sohasiga nisbatan xizmatlar sohasi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanadi.

- xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o'sishi. Bunda rivojlangan davlatlarda kambag'al davlatlardan kelgan ishchi kuchlarini malaka talab qilmaydigan yoki past malaka talab qiladigan ishga jalb etiladi.

- ishlab chiqarish va iste'molning baynalmilallashuvini atrof-muhitga ta'sirining ortishi, bu esa zamonaviy global muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishini keltirib chiqaradi;

Globallashuv jarayoni quyidagilarga o'z ta'sirini o'tkazadi:

- mintaqaviy integratsion jarayonlarni jadallashtirish;
- hozirgi paytda xo'jalik yuritishni to'liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiyotini ochiqligi ta'minlash;

- barcha bozorlardagi ishtirokchilarining to'siqlarsiz qatnashuvini ta'minlash;

- moliyaviy va savdo operatsiyalarning qonun-qoida va chegaralarini universallashtirish;

- bozorlarni tartibga solish va nazorat qilishni bir me'yorga keltirish, ya'ni unifikatsiya qilish;

- kapital joylashtirish, investitsion jarayonlar va umumjahon to'lov hisob tizimini standartlashtirish.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashuv davlatlar va integratsion uyushmalarning iqtisodiy faoliyka intilib, savdo va investitsion to'siqlarni olib tashlash, erkin savdo hududlarini tashkil qilish asosida paydo bo'ladi. Undan tashqari globallashuv jarayoni davlatlararo xo'jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, axborot va siyosiy miqyosdagi o'zaro kelishuvlarni ham qamrab oladi.

Mikroiqtisodiy darajadagi globallashuv kompaniyalar faoliyatining ichki bozordan tashqarida kengayishi natijasida paydo bo'ladi. Ko'pgina yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) global miqyosda harakat qiladi: ular chegarasi va milliy egaligidan qat'iy nazar iste'molchilarining talabini qondirishi kerak. TMK uchun ichki bozorga nisbatan ko'pincha tashqi iqtisodiy faoliyat muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ular globallashuv jarayonining sub'yekti bo'ladi. TMK – bu globallashuvning asosi, uni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir.

1.4. Globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari

Globallashuvning bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarga ega. Globallashuv jarayonining ijobiy tomonlarini quyidagicha tavsiflash mumkin.

Globallashuv natijasida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv chuqurlashib boradi. Bunda mablag' va resurslar samarali sarflanadi. Globallashuv jarayonining asosiy ustunliklaridan biri, xarajatlarning qisqarishi, narxlarning pasayishi va barqaror iqtisodiy o'sishga olib keluvchi ishlab chiqarish miqyosidagi iqtisod qilish hisoblanadi.

Globallashuvning ijobiy jihatlaridan yana biri erkin savdodan keladigan yutuq barcha mamlakatlarni qanoatlantiradi. Globallashuvda raqobatning kuchayishi yangi texnologiyalarni yaratilishini va mamlakatlar o'tasida keng tarqalishini ta'minlaydi. Ushbu sharoitda xorijiy to'g'ri investitsiyalar su'ratining oshishi jahon savdosining o'sishiga olib keladi. Globallashuvning yana bir afzalligi xorijiy davlatlarning ilg'or ilmiy-texnik, texnologik va malakali darajadagi qisqa muddatda va nisbatan kam xarajat talab qiladigan yangiliklarni amaliyatga tadbiq etish natijasida iqtisodiy qulaylikka erishishidir.

Globallashuv jarayonida xalqaro raqobat kuchayib, milliy bozordagi ichki raqobatchilarga tashqi bozordagi kuchli raqiblar ham qo'shiladi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayoni eng avvalo iste'molchilarga qulay, bunda raqobat ularga narxlarni pasaytirish va tanlash imkoniyatini beradi.

Globallashuv ilg'or texnologiyalarni tarqalishi va global miqyosidagi ishlab chiqarishning ratsionallashuvi natijasida mehnat unumdarligini oshishiga olib kelishi, shuningdek jahon miqyosidagi innovatsiyalarni amaliyatga uzlusiz tadbiq etishi mumkin.

Globallashuv davlatlarga moliyaviy resurslarining asosiy qismini aylanishini ta'minlashga keng imkoniyat beradi. Globallashuv jahon hamjamiyatini birlashishini turli sohalardagi harakatlarni faollashtirishni talab qiluvchi insoniyat uchun umumiyl bo'lgan muammolarni, eng avvalo ekologik muammolarni hal qilish uchun jiddiy asos yaratadi.

Umuman olganda, ko'pchilik mutaxassislar, globallashuvning pirovard natijasi jahondagi mamlakatlarda farovonlikni oshishiga olib keladi, deb umid qiladilar.

Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, jahon iqtisodiyotining globallashuvi turlicha talqin qilinmoqda. Bu jarayonga nafaqat olimlar, mutaxassislar va ekspertlar balki turli mamlakatlarning fuqarolari ham

turlicha munosabat bildirmoqda. Globallashuv jarayonlari rivojlangan mamlakatlarda hayrihohlik bilan, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xavotir bilan qabul qilinmoqda. Buning sababi shundaki, globallashuv jarayonining afzalliklari barcha mamlakatlarga teng taqsimlanmaydi. Shuning uchun globallashuvdan kim foyda ko'radi, degan savol munozaralarga sabab bo'layotgan eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar mavqeini mustahkamlab, ularga qo'shimcha afzalliklar beradi. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida globallashuv jarayonining kengayishi past rivojlangan mamlakatlar mavqeini salbiy o'zgarishiga sabab bo'lib, ularni globallashuv jarayonini sub'yektlariga emas, balki obe'ktlariga aylantirishi mumkin.

Demak globallashuv jarayonlarining alohida mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sirining darajasi ushu mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rniga bog'liq. Amalda afzalliklarning asosiy qismi boy davlatlarga yoki individlarga tegadi.

Globallashuv sharoitida markazlashtiruvchi kuchlarning markazlashishi bilan bog'liq bo'lgan buzg'unchilik ta'siri yuzaga chiqishi mumkinki, bu mamlakat ichidagi an'anaviy aloqalarning uzilishiga, ijtimoiy muammolarning kuchayishiga, mazkur jamiyat uchun begona bo'lgan salbiy oqibatlar tufayli barcha mamlakatlarda yuzaga keladigan muammolar sifatida quydagilarni keltirish mumkin:

- globallashuvdan keladigan afzalliklarning milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlari o'rtasida bir xil taqsimlanmasligi;
- milliy iqtisodiyotda sanoatlashishning sekinlashuvi.

1.5. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarning rivojlanish tendensiyalari

Zamonaviy globallashuvning asosiy xususiyatlari kapital, tovar va xizmatlar, ishchi kuchining erkin harakati inson qobiliyatlaridan unumli foydalanish imkoniyatlarining ortishida namoyon bo'ladi. Ushbu omillar ta'sirida rivojlanayotgan mamlakatlarning globallashuv afzalliklaridan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini oshirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Ayni vaqtida iqtisodiy siyosatni yuritishda ularning e'tiborga olinmasligi natijasida salbiy oqibatlarga olib keluvchi havflar ham kelib chiqadi.

Xalqaro kapital migratsiyasi. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsion texnologiyalar taraqqiy etishi bilan birgalikda xorijiy investitsiyalar, portfelli investitsiyalar va bank ssudalaridan iborat kapitallarning xalqaro harakatining kuchayishi globallashuvning diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy mablag'lar xalqaro oqimining o'sish sur'atlari xalqaro savdo hajmining o'sish sur'atlarini sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Ayniqsa, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini o'sib borayotgani diqqatga sazovordir.

Xalqaro kapital harakati uning barcha ishtirokchilariga daromad keltiradi. Xorijiy investorlar xalqaro miqyosdagi bozorlarga kirish orqali tavakkalchilikni diversifikatsiyalanishiga erishib, jahon miqyosida daromad olish imkoniyatini qo'lga kiritmoqdalar. Odatda investitsiya qabul qiluvchi davlatlarda foyda normalari yuqori bo'lib, bu investorlarning o'z kapitallarini yuqori foyda darajasini ta'minlovchi hududlarga yo'naltirishiga turki bo'ladi.

O'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda milliy xo'jalik tizimini rivojlantirish, shuningdek ishlab chiqarish va eksportning diversifikasiyaga erishish maqsadida mavjud tarmoqlarni rivojlantirish va yangilarini yaratishga ehtiyoj yuqori hisoblanadi. SHu vaqtning o'zida, bunday iqtisodiyotga ega aksariyat mamlakatlar ushbu maqsadlarga erishishda ichki resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq turli muammolarga duch kelmoqdalar. Bunday sharoitda jahonning ulkan kapital resurslari bozoriga kirish ushbu mamlakatlar uchun jamg'arishdan ko'ra ko'proq investitsiyalarni amalga oshirish, iqtisodiyotni isloh qilish va o'sish sur'atlarini jadallashtirish, moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda milliy valuta va bank tizimini mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda jahon moliya bozorlari afzallikkalaridan foydalanish imkoniyatini beradi.¹

Investitsiya jalg qilish natijasida iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish ko'p jihatdan kapitalning qaysi shaklda kirib kelishiga bog'liq. Masalaga bu kabi nuqtai nazardan yondashish bevosita xorijiy investitsiyalarning yuqori darajadagi afzallikkлага ega ekanligidan dalolat beradi. Bevosita xorijiy investitsiyalar ko'rinishidagi xalqaro kapital harakatining afzallikkalariga transmilliy kompaniyalarning ustuvorligini belgilovchi omil, bu - texnologiyalarning jahon bozorida sotilmasligi bo'lib, o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakat bunday imkoniyatga faqatgina bevosita xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali ega bo'lishi mumkin. Bevosita

¹ «Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003.

xorijiy investitsiyalarning o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun afzal xususiyatlaridan bo'lib uning markasi, imidji, mol yetkazib beruvchilar bilan aloqasi, sotuv kanallari, jahon bozoridagi marketing tadqiqotlari, boshqaruv malakasi va jahonga mashxur TMKlarning ishlab chiqarish-tijorat sirlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash dasturlaridan foydalanishiga imkon berib, iqtisodiyot samaradorligi va raqobatbardoshligi darajasining oshishga olib kelmoqda.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning tashkil etilishi raqobat muhitini yaratish orqali tovar va xizmatlar sifatini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va avvallari bozorning mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan monopollashtirilgan tarmoqlarida tovar va xizmatlar sifat standartlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

Erkin savdo. Tovar va xizmatlarning erkin savdosini globallashuvning o'ziga xos xususiyatidir. Ma'lumki, iqtisodiyotning nisbiy afzalliklarga ega tarmoqlarda ixtisoslashuvi va xalqaro savdoda ishtirok etishi aholi daromadlari va farovonligi oshishining qo'shimcha manbai bo'lib hisoblanadi. Xalqaro savdo bu kabi yutuqlarga boshqa yo'llar orqali ham erishishi mumkin. Fan-teknika yutuqlaridan foydalanish natijalari xalqaro savdo orqali boshqa mamlakatlarga bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri tarqaladi. To'g'ridan-to'g'ri tarqalish fan-teknika yutuqlarini o'zida mujassam etgan texnologiyalarning jahon bozorida sotilganida va boshqa mamlakatlar ularni xarid qilganida sodir bo'ladi. Bilvosita tarqalish yangi texnika va texnologiya ishlab chiqilgan mamlakat eksport tarmoqlari samaradorligi oshganida va tovarlar sifatining yaxshilanganida ro'y beradi.

Erkin savdo milliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlari sifatining yaxshilanishi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, import orqali ishlab chiqaruvchilar soni kam bo'lgan yoki xorijiy tovar sifati darajasiga yetmagan iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatni vujudga keltirib, tovar tannarxining pasayishini ta'minlaydi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning kuchli raqobat mavjud bo'lgan jahon bozorlariga chiqishi ham tovar va xizmatlar sifatining oshishi va tannarx pasayishining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari va raqobat kuchaysa ishchi resurslarining ma'lumoti va malakasi, ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish tizimi, ilmiy-tehnik ustuvorlik hamda sifatli infratuzilmaga talab oshadi. Faqtgina ishlab chiqarish omillari sifatini oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, faol axborot almashinuvi ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiy strategiyalarni o'z vaqtida tuzatib borish orqali mavjud ustuvorliklarni asrab qolish, ularni

rivojlantirish va pirovard natijada mamlakatning iqtisodiy o'sishiga erishish mumkin.

Globallashuv narx-navo va iste'mol tovarlari sifatining unifikatsiyasini tezlashtiradi, global raqobat esa ularning doimiy takomillashuvini talab qiladi. Iqtisodiy yopiqlik, proteksionizm, qolaversa jahon bozorlari global raqobatining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etmasligi resurslarning optimal taqsimlanishi va foydalanishiga to'sqinlik qilib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi.

Globallashuv jarayonlari inson salohiyatini oshirishda ham qulay sharoitlar yaratib bermoqda. U izlanish va tadqiqotlar, ta'lim va tajriba sohasida xalqaro malaka oshirish, qo'shma korxonalar va xorijda tajriba almashinishing jadallahuvi natijasida o'zini iqtisodiyotning muhim innovatsion omili sifatida namoyish etmoqda. Internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xo'jalik sub'yektlarining faoliyat doirasini kengaytirmoqda. Xo'jalik yurituvchilar uning yordamida nisbatan kam xarajatlar evaziga zarur axborotlarga ega bo'lmoqdalar. Shuningdek, boshqaruv jarayonida yangi sifat darajalariga erishish, xo'jalik yuritish salohiyatining oshishi, talab va taklif o'zgarishlariga xos qarorlarni o'z vaqtida qabul qilish imkoniyatga ega bo'lmoqdalar.

Tashqi savdo siyosati. Erkin savdo va proteksionizmning yaxlit holda samarasiz ekanligini shubhasizdir. Globallashuvning ayrib bo'lmas o'zgarishlari mamlakat tashqi savdosi shartlariga o'tkazadigan ijobiy ta'sirlarini maksimallashtirish va uning tahdidlarini minimallashtirishda iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi tashqi savdoda ham olib boriladigan islohotlar muhim ahamiyatga ega. Chunki valuta bozorini erkinlashtirish orqali eksport-import operatsiyalarini rag'batlantirish, erkin raqobat muhitida ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali tashqi savdoning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini oshirish, sanoat siyosatini olib borish orqali iqtisodiyotining strategik muhim eksport tovarlari jahon bozori konyukturasining o'zgarishlariga bog'liqlik darajasini kamaytirishga erishish mumkin.

Pol Roberts uchta savdo blokini taklif etdi. Bloklar mos ravishda Uchinchi, ikkinchi va Birinchi olam mamlakatlari uchun tashkil etilib, mamlakatlar yashash tarzining o'sishiga muvofiq holda bir blokdan ikkinchisiga o'taveradi. Bu kabi yondashuvning sababi - birinchidan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning savdodan oladigan salmoqli nafining kamayishi hamda pirovard natijada umumiy boyliklarning qisqarishidir. Ikkinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlar iste'molchilarining xarid qobiliyati pastligi natijasida savdoda salmoqli naf

ko'ra olmasligi muammosi mavjudligi tufayli zarur bo'lgan na iqtisodiy o'sish va na aholi farovonligining sezilarli darajada yaxshilanishi ro'y beradi.¹

Ikkinchchi variant – odil savdo nazariyasi. Uning mazmuni turli mamlakatlarda savdodan olinadigan nafning birmuncha tekis taqsimlanishi hamda ijtimoiy va ekologik standartlarning tenglashtirilishi maqsadida xalqaro tashkilotlar yordamida rivojlanayotgan mamlakatlar mahsulotlariga qiyosiy narxlar o'rnatishda. Bu nazariyani Laura Tyson qo'llab quvvatlaydi. Bu nazariyaning kamchiligi shundaki, bu kabi narx mexanizmiga aralashuv qimmatga tushib, uzoq kelajakda ko'zlangan maqsadga erishilmaydi va iqtisodiyot faoliyatini samaradorligi pasayadi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar vakolatini yaratish va oshirish taklifi mustaqil davlatlar suverenitetini barbod qiladi.

Resurslarga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish nazariyasi iqtisodiy rivojlanish maktablaridan biri bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ularning o'z xalqaro savdo nazariyasini ishlab chiqish jarayonidir. Farovonlik savdo nazariyasi deb nomlangan bu kabi qarashlar bir qator qoidalarga asoslanadi. Erkin savdoni joriy etishning empirik izlanishlari natijalari shuni tasdiqladiki, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish xarajatlari Yaqin kelajakda savdodan olinadigan nafdan aksariyat hollarda kam bo'ladi. Bu rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham to'g'ri hisoblanadi, chunki ular ishlab chiqargan tovarlarga nisbatan rivojlangan mamlakatlar tomonidan import cheklashlari tovar egalarining savdo shartlarini yomonlashtiradi. Boshqa tarafdan, xorij tovarlari uchun chegaralarning butkul yopiqligi monopolizmga, iste'molchilarining yuqori narxlarga duch kelishiga va nihoyat, mahalliy ishlab chiqaruvchilarining xorijiy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan raqobatga moyilligining yo'qolishiga olib keladi. Shu tufayli, bozorning optimallik shartlariga ko'ra aniqlanadigan bir qismi xorij ishlab chiqaruvchilari uchun ochiq bo'lishi kerak: savdodan olinadigan naf ushbu ishlab chiqarish va eksport darajasiga muvofiq tarzda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish xarajatlarining 120 %dan kam bo'lmasligi kerak. Empirik izlanishlar ichki bozorning mazkur optimal ochiqlik darajasini 25% deb belgilashmoqda (uning hajmini aniqlashda milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish hajmi va o'tgan yildagi eksport hajmi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi). Optimal ochiqlik bozoriga import qilinadigan tovarlarga nisbatan boshqa davlatlar tomonidan demping va eksportni subsidiyalanishini qoplaydigan boj orqali himoyalanishning o'rtacha darajasi belgilanadi (tovarming o'tgan yildagi ichki o'rtacha

¹ Г.Ленс, <http://www.contr-tv/discuss/353>

narxining taxminan 10%). Mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan yoki ishlab chiqarish kam samarali bo'lgan tovarlarga nisbatan ham xuddi shunday tarif siyosati qo'llaniladi.

Xulosa

Jahon iqtisodiyotida XX-XXI asrlar bo'sag'asida globallashuv tushunchasi tobora keng qo'llanilmoqda. Globallashuv jarayonini to'xtatib bo'lmaydi. "Globallashuv" tushunchasi ilk bor amerikalik olimlar tomonidan kiritilgan. T.Levitt "Bozorlarning globallashuvi" nomli maqolasida globallashuvni oldin tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada ko'p ko'rsatkichlarga ega bo'lgan istemol tovarlari standartlashishi uchun global bozorlar paydo bo'lishi bilan bog'liq yangi tijorat voqelegi deb atagan.

Globallashuv quyidagi jihatlarga ega:

- moliyaviy markazlashuvning kuchayishi. Uning yordamida kredit mablag'lari shakllantiriladi, kreditlar beriladi va foydalaniлади, shuningdek kapitalning ishlab chiqarish ustidan hukmronligi o'rnatiladi;
- axborotlar ahamiyatining oshishi;
- global oligopoliyaning to'xtovsiz kengayishi;
- transmilliy korporatsiyalar sonining ortishi;
- transmilliy iqtisodiy diplomatiyaning shakllanishi va milliy davlat hokimiyatining globallashuvi.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyotining globallashuvi jahon iqtisodiyotining o'zaro bog'liq turli soha va jarayonlarining kuchayib borishi, jahon xo'jaligida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va bilimlar bozorini asta-sekinlik bilan yagona bozorga aylanishini bildiradi.

Globallashuv jarayonlarining tezlashishiga bir necha omillar ta'sir etadi, bu omillarning asosiyлари quyidagilar hisoblanadi:

- yopiq tipdagи milliy iqtisodiyotdan ochiq iqtisodiyotga o'tish;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- davlat tomonidan tartibga solish usullarining takomillashuvi;
- transmilliy korporatsiyalarning paydo bo'lishi;
- baynalmilal iqtisodiy ayirboshlash mexanizmlarining vujudga kelishi;
- fan va texnikaning rivojlanishi.

Tayanch iboralar:

Jahon iqtisodiyoti, globallashuv, baynalmillallahuv, moliyaviy markazlashuv, axborotlar, global oligopoliya, transmilliy korporatsiyalar,

global bozor, ochiq iqtisodiyot, xalqaro mehnat taqsimoti, fan-texnika taraqqiyoti.

Nazorat uchun savollar:

1. Globallashuv tushunchasining mohiyatini tushuntiring.
2. Globallashuv jarayonining asosiy jihatlari nimadan iborat?
3. Globallashuv jarayonlarining tezlashishiga qanday omillar ta'sir etadi?
4. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy xususiyatlarini aytинг.
5. Globallashuv jarayoni qanday ijobjiy va salbiy oqibatlarga ega?
6. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarning rivojlanish tendensiyalarini tushuntiring.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
- T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

2. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2010. – 56 b.

3. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

4. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.

5. Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.- 581 с.

6. А.А.Исаджанов. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, - 185 б.

7. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.

8. Nazarova va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik – Т.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 224 b.

2-BOB. XALQARO SAVDONING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

2.1. Global iqtisodiyotning shakllanishida xalqaro savdoning o'rni

Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi, rivojlanish darajasi, madaniyat, tarixiy an'analardagi barcha farqlarga qaramay, shunday bosqichga o'tdiki, bu bosqichni "globallashuv" deb atamoqdalar.

Yangi tushuncha iqtisodiyot, siyosat va madaniyatga ham birdek taalluqlidir. Biroq aynan iqtisodiyot globallashuvi barcha globallashuv jarayonlarining negizini tashkil etadi va o'rnatilgan jahon tuzilmasiga tahdid soladi. XX asrda global iqtisodiyot kuchli dinamizm bilan rivojlandi. XX asrning ikkinchi yarmida savdoning o'sish sur'atlari jahon yalpi mahsulotining o'sish sur'atlariga nisbatan tezroq rivojlandi (2.1-jadval)

**2.1-jadval. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi
(yillik qo'shimcha o'sishlar, %)**

	Yalpi ichki mahsulot	Jahon tovarlar va xizmatlar savdosи	YAIMda tovarlar va xizmatlar eksportining ulushi
1983-1992	3,5	5,4	16,0
1997-2006	3,9	6,6	25,7
1999	3,7	5,8	22,9
2000	4,7	12,4	24,8
2002	2,8	3,4	24,4
2003	4,0	5,4	25,3
2004	5,1	10,3	27,3
2005*	4,3	7,0	28,7
2006*	4,3	7,4	29,7

* XVF bashorati

Manba: World Economic Outlook. IMF, September 2005, p. 205, 233.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan asrning so'nggi yillarda jahon eksporti yalpi mahsulotga nisbatan 1,7 marta tezroq ko'paydi. Bu alohida mamlakatlarning milliy xo'jaligi tobora ko'proq darajada tashqi bozorga

ishlayotganligini, eksport esa global mahsulotning chorak qismidan oshib ketganini ko'rsatadi.

Iqtisodiy globallashuv qator yangi sifat belgilariiga egaligi tufayli uni iqtisodiy hayot baynalmilallahuvining alohida bosqichiga ajratish mumkinki, bu bosqich o'tgan asrning boshi yoki o'talariga nisbatan farq qiladi. Xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'liqligi hozirgi vaqtida nafaqat kuchliroq namoyon bo'lmoqda, balki global darajaga chiqib, deyarli barcha mamlakatlarni qamrab oladi. Albatta, eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotlari o'zaro birikib ketadi, lekin boshqa mamlakatlar ham turli tezlik va jadallik bilan umumjahon jarayonlariga jalb etiladi. Kompyuter texnikasi va elektron telekommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, yuqori tezlikka va tejamkorlikka ega transportning paydo bo'lishi barcha qit'alar va davlatlarni bir-biriga Yaqinlashtirdi, xalqaro ayriboshlashning keskin o'sishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratdi. Mamlakatdan mamlakatga ko'chayotgan tovarlar va xizmatlar, kapital va ishchi kuchi oqimlari, global kompaniyalar va axborot tizimlari, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va korporatsiyalar faoliyati global iqtisodiyotni tashkil etadiki, unga barcha milliy xo'jaliklar u yoki bu darajada qo'shiladi. Global iqtisodiyotdagi har qanday uzilishlar xavf-xatarlarni olib keladi.

Iqtisodiy globallashuvning erishilgan darajasi ko'pgina bashoratlardan o'tib ketdi. Yuqorida keltirilgan jahon tovarlar va xizmatlar eksporti va jahon yalpi ichki mahsuloti o'rtaсидаги о'заро нисбат global o'zaro bog'liqlikning haqiqiy ko'lamlarini kamaytiradi. Chunki jahon YAIMning 60 % xizmatlarga to'g'ri keladi, ularning ko'p qismi esa (ta'lim, tibbiy xizmat ko'rsatish, davlat boshqaruvi, ulgurji va chakana savdo) xalqaro savdoning predmeti hisoblanmaydi. Bu savdo qilinmaydigan (nontradable) deb ataluvchi, ya'ni xalqaro savdoda ishtiok etmaydigan xizmatlardir. Jahon savdosida ishtiok etmaydigan xizmatlar chiqarib tashlangan jahon YAIMda tovarlar eksportining ulushi umumiyligi jahon YAIM hajmida tovarlar eksportining ulushiga nisbatan ancha ko'p (ayrim hisoblarga ko'ra, deyarli 50%).¹

Angus Meddisonning (AQSH) ushbu metodikadan foydalangan holda 1992 yil uchun olgan natijasi 31 % ga teng. 2.2-jadvalda xizmatlar hisobga olinmagan holda faqat tovarlar eksporti keltiriladi. Agar xizmatlar eksporti ham hisobga olinsa, 1992 yil uchun ushbu ko'rsatkich yana 20 % ga ko'payib, 37 %ni tashkil etgan bo'lardi. YUqorida keltirilgan ko'rsatkichlar milliy ishlab chiqarishning xalqaro savdodagi ishtioki

¹ Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации. Учебник. М. 2007. С. 15.

o'tgan asrning boshiga nisbatan juda yuqori darajaga yetganligini ko'rsatadi.

2.2-jadval. Jahon yalpi mahsuloti va jahon tovarlar eksporti (mlrd. doll., 1990 yil baholarida)

Ko'rsatkichlar	1820	1870	1913	1950	1992
YAIM	695	1128	2726	5372	27995
Xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan xizmatlarsiz YAIM	622	909	1933	3422	12094
YAIMda xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan xizmatlarning ulushi, %	10,5	19,4	29,1	32,3	56,8
Tovarlar eksporti	7,26	56,25	236,3	375,8	3786
YAIMda xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan xizmatlarsiz eksportning ulushi, %	1,2	6,2	12,2	11,0	31,3

Manba: Angus Maddison, Monitoring the World Economy, OECD, Paris, 1995, pp. 20, 39, 227, 239.

Mamlakatlar ichki ishlab chiqarishning jahon bozoriga yo'naltirilganlik darajasi bo'yicha keng farqlanadi. Ularning ko'pchiligidagi bu daraja globallashuv ta'siri ostida ko'paymoqda. 100 yil (1890-1990 yillar) ichida tovarlar eksporti va YAIMning o'zaro nisbati Germaniyada 15,9 % dan 24,0 % gacha; Fransiyada – 14,2 % dan 17,1 % gacha; Italiyada – 9,7 % dan 15,9 % gacha; Yaponiyada – 5,1 % dan 8,4 % gacha; AQSHda – 5,6 % dan 8,0 % gacha ko'paydi. Lekin, masalan Angliyada – Britaniya imperiyasining tarqalib ketishi sababli ushbu daraja – 27,3 % dan 20,6 % gacha kamaydi. Agar bu ko'rsatkichlar faqat tovar eksportiga tegishli bo'lsa, quyidagi ma'lumotlar 1995 va 2006 yillarda ayrim mamlakatlar YAIMda tovarlar va xizmatlar eksportining ulushini aks ettiradi (2.3-jadval)

2.3-jadval. Tovarlar va xizmatlar eksporti (YAIMga nisbatan %, milliy valutada hisoblangan)

Mamlakatlar	1995	2006
Belgiya	72,6	84
Buyuk Britaniya	28,2	25
Germaniya	...	31
Niderlandiya	53,0	65
Rossiya	...	34
AQSH	11,1	9
Fransiya	23,5	26
Xitoy	14,6	32
Yaponiya	...	12

Manba: International Financial Statistics, IMF, 2007.

Boshqa sharoitlar teng bo'lganda yirik mamlakatlar Belgiya, Niderlandiya kabi kichik mamlakatlarga nisbatan ko'proq ichki bozorga tayangan holda rivojlanishga qodir. Umuman olganda, hozirgi vaqtida qator mamlakatlar uchun jahon bozori milliy bozorga qo'shimcha sifatida emas, balki xalq xo'jaligi amal qilishining zaruriy shartiga aylandi. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda tashqi bozorning roli ichki bozorning roliga tenglashadi.

Bu baynalmilal o'zaro bog'liqlik va kooperatsiyaning yangi sifat darajasi bo'lib, zamonaviy davrning alohida hodisasi sifatida global iqtisodiyot to'g'risida gapirishga imkon beradi.

2.2. Global bozorlarning shakllanishi va ularning xususiyatlari

Hozirgi sharoitda globallashuv jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo o'sishining muhim rag'batlantiruvchi omiliga aylandi. U shaxsiy muloqot hamda inson shaxsining ijodiy salohiyati namoyon bo'lishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. U ob'yektiv xarakterga ega bo'lib, sayyorada inson hamda tabiiy resurslarning notejisiga taqsimlanishi bilan asoslanadiki, ulardan yanada unumli foydalanish uchun xalqaro kooperatsiyani chuqurlashtirish zaruriyatini belgilab beradi.

Globallashuvning iqtisodiyot liberallashuviga ta'siri davlatlarni o'zaro bog'liqligi va xalqaro tashkilotlarda ishtirokining ortib borishida namoyon bo'ldi. Aynan xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish davlatlarning davlat va nodavlat segmentlarini qamrab olgan institutsional tuzilmalarining shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy globallashuv jahon bozorlari va inson faoliyatining barcha sohalaridagi hududiy iqtisodiyotlarning tizimlashgan integratsiyasi bilan tavsiflanadi, buning natijasida barqaror iqtisodiy o'sish, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullari tatbiq etilishining tezlashishi yuzaga keladi. Globallashuv rivojlanishi hozirgi bosqichining o'ziga xos xususiyati shundaki, jahon xo'jaligi mamlakatlarining nafaqat o'zaro, balki jahon xo'jaligining yaxlit tarzdagi holati va o'sish sur'atlariga bog'liqligi ham tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi hukumati integratsion jarayonlar rivojlanishi va bozor o'zgarishlariga alohida ahamiyat berayotgan va "asosiy ustuvor yo'nalish - bozor islohotlarini chuqurlashtirish va keyingi iqtisodiy liberallahuv bo'lib qolayotgan" hozirgi zamonaviy sharoitlarda "hududiy va jahon bozorlaridagi talablar va raqobatning keskin shakllari" ortib boradi, ular, o'z navbatida, "navbatdagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish zaruriyatini ob'yektiv holda talab etuvchi"¹ omillarga aylanadi. Faqat barqaror iqtisodiy rivojlanish va to'liq quvvatdagi bozor infratuzilmasini shakllantirishgina bizning mamlakatimizga global jahon xo'jaligi tizimiga samarali integratsiyalashish imkonini beradi.

Iqtisodiy fanda "globallashuv" rivojlanish davrlari orqali belgilanuvchi iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rildi. Birinchi davr – XIX-XX asr oralig'i. Bu davrda o'zaro savdo va investitsiyalarning telefon, paroxod va konveyerlar tufayli global miqyosda kengayishi hisobiga insoniyat Yaqinlashish fazasiga kirdi. Globallashuvning ilk namoyondalari R.Kobden va D.Brayt ushbu masalalarni ilmiy jihatdan erkin savdo faol tarzda jahon iqtisodiy o'sishiga aylanishi to'g'risidagi tezisida ko'rsatib berdilar.

70-yillar oxiri globallashuvning informatika, transport va telekommunikatsiya inqilobiga asoslangan ikkinchi bosqichini boshlab berdi. Globallashuv ikkinchi bosqichining o'ziga xosligi transmilliy korporatsiyalar rolining benihoya o'sishi bilan izohlandi. 75 dan ortiq mamlakatlarda o'z vakolatxonalariga ega bo'lgan kompaniyalar hech qanday muammosiz milliy chegaralarni kesib o'ta oladilar va o'z hukmini rivojlangan davlatlar hukumatlariga o'tkaza oladilar. Zamonaviy dunyodagi TMKlarning yana bir xususiyati - tovarlarning asosiy qismi ushbu TMKlar xorijiy firmalari tomonidan ishlab chiqarilmoqda (mavjud qoidaga ko'ra, Osiyo mamlakatlarda). Ko'p mamlakatlarning globallashuvning ushbu bosqichidagi strategiyalari tovarlar, xizmatlar va

¹ I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O'zbekiston, 2005.

kapital ko'chishi yo'lidagi to'siqlarni to'liq olib tashlashdan iborat bo'lib qolmoqda.

"Iqtisodiy globallashuv" tushunchasi mazmunidan kelib chiqib, quyidagi bir necha darajaga ajratiladi: umumjahon, davlat, tarmoq va alohida kompaniya darajasi. Ularning har biri uchun o'z mezonlari mavjud. Umumjahon ma'nosida globallashuv ko'pincha turli mamlakatlar o'zaro iqtisodiy bog'liqligining o'sishi sifatida belgilanadi hamda tovarlar, xizmatlar, moliyaviy resurslar va texnologiyalarni xalqaro ayrboshlashning o'sishi bilan ifodalanadi.

Alohibda davlat darajasidagi globallashuv davlat iqtisodiyoti va jahon xo'jaligi munosabatlарining intensivligi sifatida tushuniladi. Alohibda mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga tortilish darjasи turlicha bo'lib quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi – mamlakat yalpi milliy mahsulotidagi eksport va import ulushi, xorijiy investitsiyalar hajmi, texnologiyalar almashinuvidan to'lovlar kelishi va ketishi.

Tarmoq globallashuvi asosiy ko'rsatkichlari tashqi bozorda sotilgan mahsulotning ushbu tarmoq mahsuloti umumiyligi hajmidagi ulushi, shuningdek unga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning ushbu tarmoqqa kiritilgan kapital qo'yilmalar umumiyligi hajmidagi ulushi hisoblanadi. Aniq bir kompaniyaning jahon xo'jaligi munosabatlariiga tortilganligi uning xorijdan olayotgan daromadlari hamda uning jahonning turli hududlaridagi shoxobchalari orqali halqaro kapital, tovar va texnologiyalar ayrboshlashdagi ishtiroki bilan belgilanadi.

Globallashuvning quyidagi belgilari ajratib ko'rsatiladi: axborot texnologiyalaridagi inqilob; iqtisodiy inqilob; liberal demokratiya o'rnatilishi; milliy lashtirish siyosati sifatida - "lokallashuv"; gorizontal munosabatlar; qutplashish (polarization).

Hozirgi vaqtida globallashuv jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining muhim tendensiyasi bo'lib, milliy xo'jalik sub'yektlari manfaatlarni davlat-milliy chegaralardan chiqishi, transmilliy iqtisodiy va moliyaviy tuzilmalar faoliyat sohalari yaratilishi va kengayishi; "xususiy", milliy iqtisodiy muammolarni yechish uchun jahon xo'jalik manfaatlari va jahon resurslari mobilizatsiyasini talab etuvchi, global, jahon darajasiga ko'tarilishini anglatadi.

Shuni aytish mumkinki, jahon iqtisodiyotining globallashuvi jahon hamjamiyati tomonidan iqtisodiy integratsiya va kapital, tovarlar, ishchi kuchining jahon bo'ylab ko'chishining o'sib borayotganligi; ilmiy-kommunikatsion inqilob turki bo'lgan texnologik integratsiya asosida erishilgan iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning kritik darajasini aks ettiradi.

Ko'p davlatlar tobora yaqqolroq tarzda jahon iqtisodiyotining ushbu fenomenini, uning ijobjiy va salbiy taraflarini iqtisodiy rivojlanishining milliy konsepsiyalarini ishlab chiqishda hisobga olmoqdalar.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi integratsiyaga nisbatan keng tushunchadir, chunki iqtisodiy globallashuv to'g'ridan-to'g'ri bir-biri bilan bog'lanmagan jahon xo'jaligi qismlarining o'zaro bog'liqligini ham talab etadi. U har qanday iqtisodiyot, har qanday bozordagi muammo jahon global muammolari maqomiga ega bo'lishi va nafaqat ko'ptomonlama, balki umumiy kuchlar hisobiga hal etilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Global bozorning shakllanishi, turli xil firmalar o'rtasidagi raqobatning kuchayganligi ularni kapitalni jamlash, yanada yangi ishlab chiqaruvchilarni o'z doirasiga jalb etish, birgalikda o'z o'rinalarini saqlab qolish uchun kuchlarni o'zaro birlashtirishga undaydi. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining yaratilishi ham AQSHga iqtisodiy qarshilik ko'rsatish, qurdratli Amerika sanoat-moliya korporatsiyalari bilan raqobat kurashida tirik qolish usulidir. Shunday qilib, jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligi ortib boradi.

2.3. Globallashuv sharoitida tashqi savdoni tartibga solish usullari

Jahon tajribasiga ko'ra, zamonaviy jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish davomli jarayon bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy strategiya ishlab chiqilishini, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, xo'jalik aloqalari shakl va usullarini tubdan qayta tuzishni talab etadi.

Globallashuvning hukumat faoliyatiga ta'siri juda murakkab bo'lib, o'z ichiga siyosatdagi har xil kuchlar muvozanatini va ta'sirini qamrab oladi. Birinchi qarashda, globallashuv ba'zi bir milliy monopoliyalarni - aloqa, TV, radioni buzadi. Xalqaro telefon xizmati va fakslar jo'natilishi, odatda, boshqa tovarlar va xizmatlarga qaraganda oddiy aholi uchun ancha arzon. Bugungi kunda Internet haqiqatan ham global tarmoq bo'lib, kommunikatsiyalar va axborot almashuvida katta imkoniyatlar yaratadi.

Bu o'zgarishlar davlat funksiyalarini faqat kamaytirib qolmasdan, balki aholining milliy tegishliligi hissasini pasaytiradi. Biroq ushbu o'zgarishlarning ahamiyatini oshirib yubormaslik kerak. Davlat modem, faks va shu kabilarni ishlab chiqarish va ishlashni nazorat qiladi. Davlat televizion stansiyalar, simsiz telefonlar uchun radiochastotalardan foydalanish uchun litsenziyalar berilishini ham nazorat qiladi. Davlat sirlarini, kompyuter tarmoqlari bilan ishlashning hususiy mulkchilik huquqini himoyalash uchun texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy

global kommunikatsiya tizimi davlatning kuchsizlanishiga olib keladi, deb hisoblash qo'pol xatodir.

Shunga o'xshash holatni davlat tomonidan iqtisodiyotning rivojlanishini tartibga solinishi nazarda tutilishini iqtisodiyotda ham ko'ramiz. Bu borada bir nechta muammo ko'rib chiqilmoqda. Birinchidan, global bozorlarning, ayniqsa bir kunlik aylanishi 1 trillion dollarni tashkil etuvchi valuta bozorining faoliyati. Bu faoliyat, masalan, ishsizlik, inflyatsiya darajasini tartibga solish bo'yicha davlat tomonidan o'tkazilayotgan mustaqil milliy siyosatni o'rnatishga putur yetkazadi. Ikkinchidan, qisqa muddatli va uzoq muddatli kapital, yuqori malakaga ega mehnat resurslari kabi ishlab chiqarishning yuqori safarbarligini ko'rsatuvchi omillar davlat tomonidan ishlab chiqarishni joylashtirish, daromadning taqsimlanishi, soliq stavkalarini o'rnatilishi va atrof muhitni muhofaza qilish va ish bilan band qilish sohalari ustidan nazoratni ancha kamaytiradi.

Shunday qilib, globallashuv davlatlarning iqtisodiy siyosat sohasidagi harakatlarini cheklaydi, lekin uni bekor qilmaydi.

Alovida olingan mamlakatlar uchun globallashuvdan keladigan foyda yoki yo'qotishlar integratsiya bilan emas, balki bu mamlakatlar ichki bozorining tuzilmasi xususiyatlari bilan ko'proq bog'liq. Globallashuv raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu sababli jahon bozoriga chiqish muvaffaqiyat kafolati hisoblanmaydi. Masalan, kemasozlik, aviatashish xizmatlari, kimyoiy qayta ishslash, po'lat ishlab chiqarish kabi sohalar xalqaro raqobat sharoitida o'z daromadlarini yo'qotib, tavakkal qilishga majbur bo'lmoqdalar. Globallashuv jahon bozorida to'g'ri strategiyani tanlay olganlarga eng ko'p foyda keltiradi va bu bilan xalqaro raqobatning salbiy ta'sirini kamaytiradi.

Globallashuv fenomenining mohiyati shundaki, u jahon bozorida tan olingan va tan olinmaganlarning foydalarini farqini kuchaytiradi. Bu hamma sohalarda (sport, san'at, fan, musiqa, bank ishi yoki korporativ sohalar) ham o'z aksini topadi.

Hozirgi sharoitda tashqi savdo siyosati davlatning iqtisodiy tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim vosita hisoblanadi va tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Globallashuv tamoyillarini hisobga olgan holda davlatning tashqi savdosи jahon xo'jaligi tizimi bilan bog'langan va muqarrar ravishda nafaqat milliy huquqiy me'yorlar, balki xalqaro huquqiy standartlar bilan ham tartibga solinadi.

Davlatning tashqi savdo siyosati hukumat olib borayotgan umumiqtisodiy yo'nalishning muhim tarkibiy qismi, eksport-import tovar oqimlarining hajmi, tovar tarkibi va jug'rofiy yo'nalishini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan budjet-soliq faoliyatining sohalaridan biri hisoblanadi.

XX asr mobaynida globallashuv jarayoni ta'sirida tashqi savdo siyosatini amalgalashuvda amalga oshirish tamoyillari va unga yondashuvlar, o'z navbatida, xo'jalik faoliyatining bu sohasini tartibga solish amaliyoti ham o'zgarib bordi. Birinchi jahon urushigacha (1914—1918 yy.) bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi deyarli rad etilgan. Iqtisodchilar va siyosatchilar orasida A. Smitning bozordagi «ko'rinnmas qo'l»ning muhim ahamiyatga egaligi haqidagi formulasiga asoslanuvchi neoklassik maktab tarafdarlarining qarashlari hukmron bo'ldi. Keyinchalik, 30-40 yillarda ishlab chiqarish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni ilgari surgan Dj. M. Keyns nazariyasi tarafdarlarining nuqtai nazarlari ustuvorlik qildi. Va, nihoyat, 70-80 yillarda M. Fridmen boshchiligidagi Chikago maktabining monetaristik tamoyillarini yoqlovchilarning mavqelari ko'tarildi. Ular davlat tomonidan iqtisodiyotga har tomonlama, tashqi savdo siyosatiga esa muomala sohasi orqali ta'sir ko'rsatish mexanizmlaridan foydalanishni ustuvor deb hisoblashadi.

Bugungi kunda davlatlar o'rtasida tovar ayriboshlash amaliyotida yuqorida sanab o'tilgan nazarli fikrlarning barcha yo'nalishlari sintezidan foydalanilayotganligi haqida gapirish mumkin. Shuning uchun ham mamlakat tashqi savdosi holatiga ta'sir ko'rsatish vositalari qatoriga u yoki bu hukumat ega bo'lgan turli-tuman makroiqtisodiy dastaklar kiradi.

Hozirgi zamon tashqi iqtisodiy siyosatida ikki asosiy tamoyil: bir tomonidan - davlatlarning ochiq turdag'i iqtisodiyotga, ya'ni tashqi savdoni erkinlashtirishga o'tish, ikkinchi tomondan - jahon bozoridan ajralganlik unsurlarini saqlab qolish, ya'ni proteksionistik chora-tadbirlarni amalgalashuvda oshirish tamoyillari mavjudligini qayd etib o'tish kerak.

Tashqi savdo siyosatining bir-biri bilan raqobat qiluvchi ikki yo'nalishini: erkin savdo siyosati va proteksionizmni ajratib ko'rsatish mumkin.

Erkin savdo siyosati sof holda deyarli mavjud bo'lmaydi, chunki unga ko'ra boshqa mamlakatlardan bilan tashqi savdo sohasida ayriboshlash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga davlatning aralashuvi talab qilinadi. Haqiqatda esa ko'rsatib o'tilgan jarayonlarga davlatning aralashuvi minimallashtiriladi.

Proteksionizm siyosati – bu boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish siyosatidir. Bu siyosatning maqsadi milliy kompaniyalarning milliy va xorijiy bozorlardagi faoliyatiga xorijiy raqobatchilarga nisbatan yaxshiroq shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bu ichki bozorni himoyalash va milliy kompaniyalarning xorijiy bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashish orqali amalga oshiriladi.

Proteksionizm, odatda, ichki va tashqi bozorlarda doimiy ravishda o'zgarib boradigan raqobat shart-sharoitlariga moslasha olmaydigan, faoliyatini qayta qura olmaydigan milliy ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini ifodalaydi. Ko'pchilik mamlakatlar tomonidan xalqaro savdoni cheklash bo'yicha har qanday cheklashlarni olib tashlash bo'yicha deklaratsiyalar e'lon qilinganiga qaramasdan, proteksionizm jahon hamjamiyatidagi barcha mamlakatlar milliy iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lgan va bo'lib qolmoqda.

Eksport-import operatsiyalarini tartibga solishning tarifli va tarifsiz usullari proteksionistik tashqi savdo siyosatining instrumentlari hisoblanadi. Tarifsiz usullar miqdoriy va yashirin usullarga bo'linadi. Savdo siyosatining ayrim instrumentlari asosan importni cheklash va eksportni qo'llab-quvvatlash zaruriyati tug'ilganda qo'llanadi (2.4-jadval).

2.4-jadval. Savdo siyosati instrumentlari

Usullar	Savdo siyosati instrumentlari	Ustun ravishda tartibga soladi
Tarifli	Bojxona bojlari	import
	Tarif kvotasi	import
Tarifsiz		
Miqdoriy	Kvotalash	import
	Litsenziyalash	import, eksport
YAshirin	«ko'ngilli eksport cheklashlari»	eksport
Moliyaviy	Subsidiyalar	eksport
	Kreditlash	eksport
	Demping	eksport

Manba: К.А.Семёнов. Международные экономические отношения: Учебник для вузов. – М., ЮНИТИ – ДАНА, 2003. С.189.

Shuni ham e'tiborga olish lozimki, alohida olingan mamlakatda tashqi savdoni tartibga solishning u yoki bu vositalarini tanlash

mamlakatning ichki iqtisodiy vaziyatiga va jahon bozoridagi mavqeiga, alohida vaziyatlarda esa - butun bir omillar majmuasiga bog'liq, masalan:

- raqobat kurashining keskinlashishi;
- valuta kurslarining nobarqarorligi;
- to'lov balanslarining kamomadlari;
- o'tish davri iqtisodiyotidagi va rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlarini kabilalar.

Tashqi savdoni tartibga solish vositalarining turlari doimiy ravishda kengayib bormoqda, bu xo'jalik hayotining baynalmilallahuvi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi sohalari, ya'ni axborot ayrboshlash yoki servis xizmatlar iqtisodiyoti kabilarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ularni tovar oqimlariga ta'sir ko'rsatish tabiatiga ko'ra bir-biridan jiddiy farq qiluvchi ikkita asosiy turga - iqtisodiy va ma'muriy turga ajratish mumkin.

Iqtisodiy (tarifli deb ham ataladigan) usullardan foydalanganda ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar, eng avvalo, narx mutanosibligi, tovar va resurslar eksporti hamda importining sifati va shartlariga amal qilishadi. Tashqi savdoni tartibga solishning ma'muriy (mos ravishda tarifsiz) usullaridan foydalanilganda bozor mexanizmiga davlat organlari tomonidan ta'sir o'tkaziladi, ularning qarorlari va xatti-harakatlari ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning xohishlarini belgilab beradi.

Tarifli usullar tovar narxiga bevosita ta'sir qiladi. Bu usullar davlatlarning tashqi savdo amaliyotida eng keng tarqalgan, chunki ular birdaniga uchta vazifani hal qilish imkonini beradi:

- 1) fiskal — budjet uchun qo'shimcha mablag'lar olish;
- 2) rag'batlaniruvchi — xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni rivojlantirish;
- 3) proteksionistik — milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

Tashqi savdoni tarifli tartibga solish usullari jumlasiga bojxona bojlar, bojlar, yig'imlar, shuningdek boshqa bilvosita soliqlar, masalan aksizlar kiradi.

Tarifsziz usullar - tovar ayrboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi. Ular ko'proq rivojlanayotgan va hukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlarga xosdir.

Tarifsiz ta'sir qilish vositalariga kvotalash, litsenziyalash, eksportni subsidiyalash, demping, kartel bitimlar va mamlakatlar o'rtasidagi tovar oqimlari yo'lida texnik to'siqlarni yaratish kabilar kiritiladi.

Jahondagi mamlakatlar va hududlar bo'yicha statistik axborotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan boshqarish tarifli va tarifsiz usullarning kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Tarifli usullarning mavqeい keyingi paytda pasayib bormoqda, bu esa Umumjahon savdo tashkiloti tomonidan a'zo-mamlakatlar oldiga qo'yilgan strategik vazifa, ya'mi ular o'rtasidagi o'zaro tovar ayriboshlashda tarifli cheklashlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish vazifasi bilan bog'liq. Tarifsiz cheklashlarning ahamiyati «tanlovli» proteksionistik savdo siyosatining kengayib borishi tufayli ortib bormoqda.

2.4. Xalqaro savdo dinamikasi va o'zgarishlarining xususiyatlari

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida xalqaro savdoning mavqeи XX asrda tobora oshib bordi. Buning asosida, birinchi navbatda, xalqaro savdoning hajmi 1870-yillardan boshlab mutazam ravishda o'sib borishi yotar edi (2.5-jadval). Agar 1870-1913 yillarda eksportning o'rtacha yillik o'sishi 3,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1950-2005 yillarda bu ko'rsatkich 6,2 foizni tashkil etdi, savdoni YAIMdagi ulushi esa ushbu davrda 4,6 foizdan 19,4 foizgacha oshdi.

2.5-jadval. Jahon eksporti va jahon YAIMning o'zgarishi, 1870-2005 yy. (mlrd AQSH doll., 1990 yildagi doimiy dollar narxlarida)

	1870	1913	1870-1913 yillardagi o'rtacha yillik o'sish, %	1950	1998	2005	1950-2005 yillardagi o'rtacha yillik o'sish, %
Eksport	50,3	212,4	3,4	296	5817	8043	6,2
YAIM	1102	2705	2,1	5336	33726	41456	3,8
Savdo/YAIM, %	4,6	7,9		5,5	17,2	19,4	

Manba: World Trade Report 2007. - P. 244.

XX asrning 50-yillaridan so'ng jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo tez sur'atlar bilan rivojiana boshladidi. Jahon eksporti 1948 yilda atigi 59 mlrd dollarga teng bo'lgan bo'lsa, 2005 yilga kelib u 10,159 trln dollarni tashkil qildi (2.6-jadval). Ushbu davr ichida mintaqalarning jahon

eksportidagi hissasi ham o'zgardi: Shimoliy Amerikaning hissasi 28,1 foizdan 14,5 foizgacha tushgan bo'sha, Yaqin Sharq va Osiyoning ulushi esa qariyb ikki barobar o'sdi. 1993-2005 yillar ichida MDH mamlakatlarining hissasi ham ikki barobardan ko'proq oshdi.

2.6-jadval. Mintaqa va ayrim mamlakatlar guruhlari bo'yicha jahon eksporti, 1948-2005 yy.

	1948	1953	1963	1973	1983	1993	2003	2005
Hajmi, mlrd AQSH dollarri								
Jahon	59	84	157	579	1838	3675	7369	10159
Hissasi, %								
Jahon	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shimoliy Amerika	28,1	24,8	19,9	17,3	16,8	18,0	15,8	14,5
Janubiy va Markaziy Amerika	11,3	9,7	6,4	4,3	4,4	3,0	3,0	3,5
Yevropa	35,1	39,4	47,8	50,9	43,5	45,4	46,0	43,0
MDH	-	-	-	-	-	1,5	2,6	3,3
Afrika	7,3	6,5	5,7	4,8	4,5	2,5	2,4	2,9
Yaqin Sharq	2,0	2,7	3,2	4,1	6,8	3,5	4,1	5,3
Osiyo	14,0	13,4	12,6	15,2	19,1	26,1	26,1	27,4
Ayrim mamlakatlar guruhlari:								
GATT/JST a'zolari	63,4	68,7	72,8	81,8	76,5	89,5	94,3	94,4
Yevropa Ittifoqi	-	-	27,5	38,6	30,4	36,1	42,4	39,4
Sobiq Sovet Ittifoqi	2,2	3,5	4,6	3,7	5,0	-	-	-
Rivojlanayotgan davlatlar	31,4	28,3	22,6	20,2	26,8	25,2	30,3	34,1
Rivojlangan davlatlar	66,4	68,2	72,9	76,3	68,2	73,3	67,1	32,6

Manba: World Trade Report 2007. - P. 199.

1950-2000 yillar orasidagi davrda xalqaro savdoda tovar aylanmasi 14-15 barobar o'sdi. Mutaxassislarning fikricha 1950-1970 yillarni xalqaro savdoning "oltin asri" deb aytish mumkin. Aynan ana shu davrda jahon eksporti yiliga o'rtacha 6-7%ga o'sdi. Ammo, 70-yillarda u 5,5% ga tushib, 80-yillarda yanada kamaygan edi. 80-yillarning oxirida va 90-yillarda jahon eksporti sezilarli ravishda jonlanganligini ko'rishimiz

mumkin (90-yillarning o'rtasida 8-9% ni tashkil etgan). Bu davrda xalqaro savdoning barqaror o'sishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- xalqaro mehnat taqsimotni va ishlab chiqarishning baynalmillallahuvining rivojlanishi;
- ilmiy-texnika inqilobi (ITI);
- jahon bozorida transmilliy korporatsiyalarning faoliyati;
- xalqaro savdoning Tariflar va savdo bosh bitimi (GATT) faoliyati orqali tartibga solinishi (erkinlashtirilishi);
- xalqaro savdoning erkinlashtirilishi, ko'plab davlatlarning importni son jihatdan cheklashni bekor qiluvchi va bojlarni keskin qisqartiruvchi rejimga o'tishlari, erkin savdo hududlarining tashkil topishi;
- savdo-iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi. Mintaqaviy to'siqlarning olib tashlanishi, umumiy bozorlar, erkin savdo hududlarining tashkil etilishi;
- sobiq mustamlaka davlatlarning mustaqillikka erishishlari. Ularning orasida tashqi bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyot modelini tanlagan "yangi industrial davlatlarning" ajralib chiqishi va h.k.

XX asrning 50-yillaridan so'ng jahon iqtisodiyotida tashqi savdo dinamikasining notejisligi namoyon bo'la boshladi. Bu esa o'z navbatida jahon bozoridagi davlatlar o'rtasidagi kuchlar nisbatiga ta'sir ko'rsatdi. Jahon iqtisodiyotida AQSHning hukmronligi pasaya boshladi. Masalan, 1950 yilda AQSHning ulushiga jahon eksportining 1/3 qismi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilga kelib faqat 1/8 qismi to'g'ri kelgan edi. O'z navbatida Germaniya eksporti Amerikaniga Yaqinlashib va hatto ayrim yillarda undan ham oshib ketdi. Germaniyadan tashqari boshqa G'arbiy Yevropa davlatlarining eksporti ham o'sdi. 90-yillarda G'arbiy Yevropa xalqaro savdoning asosiy markazlaridan biriga aylandi. Uning eksporti AQSHnikiga nisbatan qariyb 4 barobarga o'sdi.

XX asrning 80-yillarga kelib xalqaro savdo sohasida Yaponiya katta o'sishga erishdi. 1983 yilda u birinchi marta mashina va eksporti bo'yicha birinchi o'ringa chiqdi. Yaponiya jahonda yengil va yuk avtomillarini, kundalik elektrotexnika asbob-uskunalar va boshqalarni olib chiqish bo'yicha boshqa davatlardan ancha oldinlab ketdi. Yaponiya eksportining 1/3 qismi AQSHga to'g'ri keladi. AQSHning Yaponiya bilan bo'ladijan savdodagi defitsiti 90-yillarda 50-60 mlrd. doll.ni tashkil etdi.

80-yillarning oxiriga kelib Yaponiya raqobatbardoshlik omillari bo'yicha ilg'or davatlardan biri bo'lib qoldi. Bu davrda unga ning "Yangi industrial davlatlari" – Singapur, Gonkong, Tayvan qo'shildi. Ammo 90-

yillarning o'rtalariga kelib AQSH yana raqobatbardoshlik omillari bo'yicha oldingi o'rnlarga chiqib oldi. Undan keyin Singapur, Gonkong, Yaponiya bormoqda. Fransiya raqobatbardoshlik omillari bo'yicha-17, Xitoy-34, Turkiya-40, Rossiya-48 o'rinda bormoqda. Ro'yxatning eng oxirida esa Gretsiya, Meksika, Polsha, Vengriya va Venesuela turadi.

Oxirgi yillarda ham jahon savdosining o'sishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayon barcha mintaqalarga taalluqlidir (2.7-jadval). Eksport va importning eng tez o'sish sur'atlari Janubiy va Markaziy Amerika, MDH, Yaqin Sharq va Osiyoda kuzatilmoqda.

2.7-jadval. Jahon savdosining o'sish sur'atlari, 2004 - 2006 yy.

	Eksport hajmi (2006 y.), mlrd. AQSH doll.	Eksportning o'rtacha o'sish sur'atlari, %			Importning hajmi (2006 y.), mlrd. AQSH doll.	Importning o'rtacha o'sish sur'atlari, %		
		2004	2005	2006		2004	2005	2006
Jahon	11762	22	14	15	12080	22	13	14
Shimoliy Amerika	1675	14	12	13	2546	17	14	11
Janubiy va Markaziy Amerika	426	30	25	20	351	28	23	18
Yevropa	4957	20	9	13	5218	20	10	14
MDH	422	36	28	24	278	31	25	29
Afrika	361	31	30	21	290	28	20	16
Yaqin Sharq	644	33	35	19	373	31	19	14
Osiyo	3276	25	16	18	3023	27	17	16

Manba: World Trade Report 2007. - P. 11.

Rivojlanayotgan davlatlar hozircha rivojlangan davlatlar uchun asosan xomashyo yetkazib beruvchi bo'lib qolmoqda. Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlar jahon oziq-ovqat va xom-ashyo (neftdan tashqari) eksportidagi ulushini yildan-yilga oshib bormoqda. Rivojlanayotgan davatlarning tovarlar eksportidagi ulushi esa 40%dan (1960y.) 28%ga (2000 y.) qisqardi.

Rivojlanayotgan davlatlar o'z eksportlarini sanoat tovarlari hisobiga diversifikatsiya qilishga urinishlari sanoati rivojlangan davatlarning u yoki bu shakldagi qarshiligiga duch kelmoqda. Shu bilan birga ba'zi bir rivojlanayotgan davlatlar, ayniqsa, "yangi industrial davlatlar" o'z eksportlarining restrukturalashtirishda ancha muvaffaqiyatga erishib, unda tayyor mahsulotlar, sanoat mahsulotlarni, shu jumladan mashina va uskunalarining ulushini ko'paytirmoqda. Masalan, rivojlanayotgan

mamlakatlarning jahon sanoat eksportidagi ulushi 90-yillarda 16-17%ni tashkil etdi.

Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ravishda “yangi industrial davlatlar”, ayniqsa, Osiyoning to’rt “kichik ajdarhosи” (Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur) o’z eksportlarini tez su’ratlarda ko’paytirib bormoqda. Ularning jahon eksportidagi ulushi 90-yillarning o’rtalarida 10-11 %ni tashkil qilgan edi. Oxirgi o’n yilliklarda tez rivojlanayotgan XXRning 2-3 %ni, AQSHning jahon eksportidagi ulushi 12,3 %ni, G’arbiy Yevropaning eksportidagi ulushi 43 %ni, Yaponiyaning ulushi 9,5 %ni tashkil etgan edi.

Xalqaro tashkilotlarning (BMT, XVF) bergen ma’lumotlariga qaraganda 1981 yildan 2000 yilgacha bo’lgan davrda xalqaro savdo yiliga o’rta hisobda 5,2 %ga o’sgan, ammo 1990 yildan boshlab uning o’sishi bir tekis bo’lmay sekinlashish tendensiyasiga ham ega bo’lgan. Masalan, 1989 yilda u 8,2 %ni tashkil etgan bo’lsa, 1993 yilda 4 %ni tashkil qildi. Ayni bir paytda Osiyo-Tinch okean mintaqasining “Yangi industrial davlatlarining” tashqi savdosining o’sish sur’atlari 10-11% ni tashkil etgan.

1994 yilda xalqaro savdo hajmi 9,5%ga o’sdi. Bu esa JST ekspertlari fikricha 90-yillar boshidagi kamayish tendensiyasidan chiqishni bildirardi. 1995 yilda xalqaro savdo hajmining yana oshishi bu fikrning to’g’riligini tasdiqladi. Umuman olganda, keyingi 50 yil ichida xalqaro savdo ko’rsatkichi o’rtacha 6 foizga o’sgan.¹

90-yillarning o’rtalari va 2000-yillarning boshlarida jahon savdosining tez o’sishi asosan AQSH, Italiya, Kanada, Ispaniya importining keskin o’sishi bilan va shuningdek sanoati rivojlangan davlatlarning (Yaponiyadan tashqari) Uzoq Sharq mamlakatlari va Lotin Amerikasida kon’yukturalining yaxshilanishi bilan bog’liqidir.

Jahon iqtisodiyotida alohida davlatlarning dunyo savdosi taraqqiyotida ahamiyatini ko’rib chiqar ekanmiz, 1990-yillarda AQSH dunyodagi eng yirik eksport qiluvchi davlat bo’lgan. Bu davlatning tashqi savdo hajmi 1-1,5 trln. dollarni tashkil qilib, dunyo umumiyligi savdo hajmining 28-29% ni tashkil qilgan edi. AQSH ketidan Germaniya (802 mlrd dollar – 18,8%) Yaponiya (672 mlrd dollar – 15,8%) turgan. 90-yillarda dunyoning o’nta eng yirik savdo mamlakatlari – Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Gollandiya, Gonkong, Belgiya (Luksemburg bilan birgalikda) kiritish mumkin. Eksportning eng yuqori

¹ Handbook of International Trade and Statistics. UNCTAD. New York and Geneva. - P. 14; WTO Annual Report 1999, International Trade Statistics, WTO. 1999.-P.9.

o'sish sur'atlarini Xitoy, Singapur, Chili va Finlyandiyada kuzatishimiz mumkin. Markaziy va Sharqiy Yevropa, eksportning o'sish sur'atlari bo'yicha Osiyodan keyin ikkinchi o'rinni egallab turibdi (1998 y).

Jahon savdosining XX asrning birinchi yarmidagi (2-jahon urushiga qadar) va keyingi yillardagi strukturasini o'rganishda sezilarli o'zgarishlarni ko'rish mumkin. XX asrning birinchi yarmida jahon tovar aylanmasining 2/3 qismi oziq-ovqat, xomashyo va yoqilg'iga to'g'ri kelgan bo'lsa, 90-yillarning oxirida ularning ulushi 1/4 qismni tashkil etdi. Qayta ishslash sanoati mahsulotlari bilan savdo qilishning ulushi 1/3 dan 3/4 gacha oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Jahon savdosining eng dinamik va intensiv rivojlanayotgan sohasi ilmtalab tovarlar bilan savdodir. Jahon iqtisodiyotida ilmtalab mahsulotlar eksporti yiliga 500 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Yuqori texnologiyali mahsulotlarning sanoati rivojlangan davlatlar eksportidagi ulushi 40%ga Yaqin.

Mashina va uskunalar bilan savdoning roli sezilarli ravishda o'sdi. 1980 yildan 2000 yilgacha mashina va uskunalarning sanoati rivojlangan davlatlardan eksporti uch marta o'sdi. Eng tez sur'atlar bilan elektrotexnika va elektron uskunalar eksporti o'smoqda. Ularning ulushiga mashina-texnika mahsulotlari eksportining 25 %i to'g'ri keladi.

Xalqaro savdoning tez rivojlanayotgan sohalaridan biri kimyo mahsulotlari bilan savdodir.

Shuningdek, jahonda xalqaro xizmatlar savdosи ham keskin sur'atlarda o'sib, 2004 yilda 1990 yilga nisbatan uning eksporti 2,68 marta, importi esa 2,54 marta ortgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarga kelsak, Janubiy Osiyo, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqalarida bu turdagи savdo hajmi o'rtacha 5 martagacha oshgan. Shuningdek, xizmatlar savdosining tarkibi ham so'nggi 15 yil mobaynida tubdan o'zgarib, undagi sug'urta, moliya va boshqa xizmat turlarining ulushi ortgan.

So'nggi yillarda jahon eksportining hajmi o'sishi bilan birga uning tarkibi ham o'zgara boshladi. Bu birinchi navbatda jahon eksportida turli xizmatlarning (ayniqsa transport, turizm, bank-moliya, axborot-kommunikatsion xizmatlarning) ulushi oshishi bilan bog'liqidir (2.8-jadval).

2006 yilga kelib jahon savdosida xizmatlar eksporti 11 foizga o'sib, 2,7 trln. AQSH dollarini tashkil etdi (2.8-jadval). Oxirgi yillarda transport xizmatlari boshqa turdagи xizmatlarga qaraganda yuqori sur'atlar bilan o'sib bordi (2004 yilda – 25 foiz, 2005 yilda – 11 foiz, 2006 yilda – 9 foiz).

2.8-jadval. Jahon savdosida xizmatlar eksporti, 2000-2006 yy.

	Hajmi (2006 yil), mldr. AQSH doll.	O'rtacha o'sish sur'atlari, %			
		2000- 2006	2004	2005	2006
Xizmatlar, shu jumladan:	2710	10	20	11	11
Transport xizmatlari	626	10	25	12	9
Turizm	737	7	18	8	7

Manba: World Trade Report 2007. - P. 10.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi natijasida jahon xizmatlar eksportida zamonaviy axborot-texnologiya mahsulotlarining hajmi oshib bormoqda. 1996 yilda axborot-texnologiya mahsulotlarining jahon eksporti 697 mldr. dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2005 yilga kelib 144 mldr. AQSH dollarini tashkil etdi. 1996-2005 yillarda axborot-texnologiya mahsulotlari barcha turlarining (kompyuterlar, axborot-texnologiya instrumentlari va apparatlar, butlovchi qismlar va aksessuarlar, dasturiy mahsulotlar, yarim o'tkazgichlar va boshqalar) eksporti 1,5- 2,5 marotaba oshdi.

Axborot-texnologiya mahsulotlari eksporti va importi mintaqalar miqyosida farq qilib, bu borada ayniqsa, Osiyo mamlakatlari katta yutuqlarga erishgan. 2005 yilga kelib ularning axborot-texnologiya mahsulotlarini jahon eksportidagi ulushi 50 foizga oshib ketgan bo'lib, ushbu mahsulotlarning jahon importidagi hissasi esa 40 foizni tashkil etdi. Osiyo mamlakatlari ichida axborot-texnologiya mahsulotlari savdosи bo'yicha Xitoy eng tez sur'atlар bilan rivojlanayotgan davlat hisoblanadi. 1996-2000 yy. davomida uning axborot-texnologiya mahsulotlari eksporti o'rtacha 29 foizga o'sib bordi, 2000-2005 yy. esa bu ko'rsatkich 40 foizni tashkil qildi. 1996 yildan 2005 yilgacha bo'lgan davrda Xitoyning ushbu turdagи mahsulotlarning jahon eksportidagi ulushi 2,1 foizdan 14,8 foizgacha ortdi.¹ Yevropa mamlakatlari axborot-texnologiya mahsulotlarining eksporti va importi bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Shimoliy Amerikaning jahon savdosida axborot-texnologiya mahsulotlari eksporti va importi bo'yicha ulushi 1996-2005 yy. davomida kamayib ketdi va oqibatda bu mahsulot turi bo'yicha

¹ World Trade Report 2007. - P. 18. 98

mintaqa eng katta sof import qiluvchiga aylandi. Janubiy/Markaziy Amerika, Afrika, Yaqin Sharq va MDH mamlakatlari xanuzgacha ushbu mahsulot turlari bo'yicha jahon eksportida past o'rirlarni egallamoqdalar. Yuqorida qayd etilgan mamlakatlar ayni vaqtida axborot-texnologiya mahsulotlarining yirik importerlari bo'lib ham hisoblanadi.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida xalqaro savdodagi o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bir qator sabablarga ko'ra muhim hisoblanadi.

Birinchidan, milliy iqtisodiyot uchun xalqaro savdoning rivojlanishi iqtisodiyot globallashuvi ijobili yutuklaridan foydalilanilganlikni ko'rsatadi. Keyingi 30 yil ichida YAIMning, eksport va import ulushining o'sishi ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarda xalqaro savdoning o'rni o'sayotganligini ifodalamoqda. Sharqiyo Osiyo davlatlarida va Tinch okean hududlarida bu 24 foizdan 54 foizgacha, Lotin Amerika davlatlari va Karib xavzasi hududlarida 15 foizdan 25 foizgacha o'sgan.¹

Ikkinchidan, jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiyotning har xil guruhlarida o'zgarishlarga olib keldi: uchinchi guruhlarning (asosan informatsion soha bo'yicha) birinchi va ikkinchi guruhlardan ustun kelishi. Bu o'zgarishlar, oxir-okibat, xalqaro savdo tizimida o'zgarishlarga olib keldi. Natijada, xalqaro almashinuvga kirmagan ba'zi xizmatlar savdosining ahamiyati oshdi.²

Uchinchidan, xalqaro savdo jarayonining jahon iqtisodiyotiga nisbatan o'sishi asosan savdo tizimining xalqaro institutlar, birinchi navbatda Jahon savdo tashkiloti (JST) faoliyatida erkinlashtirish xo'jalik faoliyatning globallashuviga asos bo'lmoqda.

Globallashuv jarayoni 80-90 yillarda, avvalo, bir qator jarayonlarning rivojlanishi evaziga yaqqol ko'zga tashlandi. Ular qatoriga: xalqaro infratuzilmaning jadal rivojlanishi va global telekommunikatsiya tizimining shakllanishi bilan birga xalqaro savdoning yuqori sur'atlarda o'sishi kabi jarayonlarni kiritish mumkin.

Informatsion tizim – Internetning rivojlanishi nafaqat yangi kommunikatsion tizimga, balki moliviyi operatsiyalarni, marketingni, reklamani amalga oshirishda, mutaxassislar malakasini oshirishda hamda xalqaro savdoning tez sur'atlar bilan o'sishi, yangi shakllarini paydo bo'lishiga (elektron savdo) va uning tarkibi o'zgarishiga ham olib keldi.

Internetning tez sur'atlar bilan tarqalishi natijasida "E-economy" – elektron iqtisodiyot, "E-commerce" – elektron savdo, "E-company" –

¹ Entering the 21-st Century. World Development Report 1999-2000. The World Bank. Washington, 2000. - P. 52.

² World Economic and Social Survey. 1996. - P. 278-279.

elektron kompaniya tushunchalari jahon iqtisodiyotida katta o'r'in egallay boshladi. Misol uchun, "Business – to – business (V2V)" tizimidan foydalanish bir qator xarajatlarni tejash imkoniyatini yaratib beradi (2.9-jadval).

2.9-jadval. Tarmoqlar bo'yicha V2V tizimining foydalanishidan olinadigan xarajatlar tejami

Tarmoqlar	Xarajatlar tejami, %
Aerokosmik	11
Kimyo	10
Kommunikatsiya va aloqa	5-15
Kompyuter	11-20
Elektron jihozlar	29-39
Oziq-ovqat	3-5
Metallni qayta ishlash	22
OAV va reklama	10-15
Neft-gazni qayta ishlash	5-15

Manba: Пороховский А.А. Новая экономика: американский вызов. //США – Канада: экономика, политика, культура. 2001, №6 – С.10.

Xalqaro darajadagi o'zgarishlar O'zbekistonga ham ta'sir etmay kolmadi. So'nggi yillarda davlat tomonidan tashqi savdoda, xususan, eksportda kayta ishlash tarmog'i mahsulotlarining hissasini oshirish bo'yicha bir qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada tashqi savdo va to'lov balanslari ham sezilarli darajada mustahkamlandi.

Bugungi kunga qadar davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida eksportning umumiy hajmi 10,8 foiz, tashqi savdo balansining ijobiy saldosi esa 1,8 barobar oshdi va 4 milliard 200 million dollarni tashkil etdi. Mamlakatimizning oltin-valuta zahirasi ham shunga muvofiq ravishda ko'paydi.¹

2.5. Xalqaro savdoda rivojlangan mamlakatlarning tutgan o'rni

Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muvaffaqiyati asosan ushbu davlatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirilishi, ochiq iqtisodiyotning yaratilishi bilan bog'liqdir.

¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishish yakunlari va 2011 yilga mo'ljalangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

Jahoning barcha rivojlangan davlatlari boshqa davlatlar bilan, birinchi o'rinda o'zaro doimiy tashqi savdo aloqalarni olib borishadi. Shunday qilib, IHRT davlatlarining dunyo eksportidagi ulushi oxirgi o'n yil ichida qat'iy 70-75% darajasida turibdi. XXI asr boshida rivojlangan davlatlarning eksport kvotasi 27 %ni tashkil qilgan (rivojlanayotgan davlatlarda 12%, o'tish davri iqtisodiyoti davlatlarida esa 5,5% tashkil etgan, Rossiyadan tashqari). G'arbiy Yevropaning kichik rivojlangan davlatlarida (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg) eksport kvotasi 40-50% atrofida bo'lган. IHRT davlatlaridan 4016 mld. dollar miqdoridagi tovar va xizmatlar olib chiqilgan. 90-yillardagi tovar va xizmatlar eksportining o'rtacha yillik o'sish sur'ati rivojlangan davlatlar umumiy mahsulotining o'sish sur'atidan yuqori bo'lган.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarning eksport tarkibida ilmiy texnologik xarakterga ega bo'lган mahsulotlar birinchi o'rinda turadi, eksport sanoat tovarlari orasida esa asosiy o'rinda axborot texnologiyalari va elektronika sanoat mahsulotlari, elektr aloqa uskunalarini va elektron mikrosxemalar turadi. 90-yillar o'rtasida rivojlangan davlatlar ushbu mahsulotlarning 70 %ni jahon bozoriga chiqarishgan bo'lsa, 2003-2006 yillarda bu ulush 75 foizni tashkil etdi. Axborot texnologiyalari va elektronika sanoat mahsulotlarining asosiy eksport qiluvchilari bo'lib, eksport ulushi 40% ni tashkil qilgan AQSH va Yaponiya davlatlari, shuningdek eksport ulushi 28% tashkil qiluvchi G'arbiy Yevropa mamlakatlari hisoblangan.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarning eksport xizmatlari hozirgi kunda tez sur'atlar bilan o'sib rivojlanib bormoqda. Oxirgi o'n-o'n besh yillar ichida ushbu mamlakatlarda eksport xizmatlari tovar olib chiqilishiga nisbatan tezroq o'sdi va uning eksportdagি umumiy ulushi 1998 yilda 23 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2006 yilga kelib 30 % ga yetdi. Bu jarayonga 90-yillarning o'rtalarida internet va axborot uzatishning boshqa aloqa tizimlarini kuchli rivojlanishi turtki bo'ldi. Eksportning kasbiy xizmat ko'rsatish turi ham rivojlanib bormoqda. Ularning umumiy eksport xizmatidagi ulushi rivojlangan davlatlarda 1998-2005 yillarda 28% dan 44% gacha o'sgan edi. Xizmatlar eksportining 1/3 qismini turizm egallaydi. Yangi texnologiyalar o'z navbatida sog'liqni saqlash, ta'lif, ilm-fan va madaniyat sohasidagi xizmatlar eksportining imkoniyatlarini ham anchagini kengaytirgan edi.

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlar turli xildagi tovarlarning yirik importyorlari ham bo'lib hisoblanadi. 2000-2005 yillarda ushbu davlatlar ulushiga dunyo mahsulotlar importining o'rtacha

68-70% i, ishlab chiqarishda xom-ashyo mahsulotlarining 61-63% i, yoqilg'ining 60-63% i, mis va metallarni 62-65% i, ximikatlarni 63-64% i, mashina va transport vositalarini 65-66% va boshqa mahsulotlarni 67-68% i to'g'ri kelgan.

80-yillar bilan taqqoslaganda rivojlangan davlatlar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalari va boshqa predmetlari bilan ta'minlanishida importning roli ancha o'sgan edi. Shu bilan bir qatorda bu mamlakatlarning jahon importidagi (ruda, yoqilg'i va metallardagi) ulushi ancha qisqardi. Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining ochiqligiga qaramasdan ushbu davlatlarning hukumat rahbarlari o'zlarininig eksportyorlarini faol qo'llab-quvvatlashadi. Ya'ni, eksport kreditlarini davlat kafolatlaydi. Ular o'zlarining jahon bozoridagi mahsulotlarini yuqori raqobatbardoshligiga erishmaguncha asosan eng yuqori texnologiya sohalarini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksportini subsidiya qiladi. Bundan tashqari rivojlangan davlatlar faol demping choralarini asosan rivojlanayotgan davatlarga, shuningdek Rossiya va boshqa davatlarga nisbatan qo'llashadi.

AQSH – jahon xo'jaligidagi yetakchi davlat, hudud va aholi soni bo'yicha eng yirik mamlakatlardan biri. Dunyo hududining 7 % ga ega mamlakatda 300 mln. kishi (dunyo aholisining 4,6 %) yashaydi. AQSH o'z xo'jaligi ko'lamlari bo'yicha istalgan boshqa mamlakatdan oldinda turadi. 2005 yilda joriy valuta kurslari asosida hisoblangan jahon yalpi mahsulotining 27 % va dollarning xarid quvvati pariteti asosida hisoblangan jahon yalpi mahsulotining 20 % uning hissasiga to'g'ri keladi.¹

AQSH shuningdek xalqaro bozorlarda eng yuqori o'rirlarni egallaydi. Jahon jami tovarlar, xizmatlar va kapital eksportidagi ulushi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Shu bilan birga Amerika xo'jaligi eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotlarga kirmaydi. Boshqa mamlakatlarga qaraganda tovarlar eksportining milliy ishlab chiqarishdagi ulushi uncha yuqori emas. Eksport kvotasi YAIMning 11 % atrofida tebranadi.

Xo'jalik tarmoqlarining baynalmilallashuv darajasi keskin tebranadi. Qator tarmoqlar yuqori darajada eksportga yo'naltirilgan. AQSH qishloq xo'jalik mahsulotlarining taxminan $\frac{1}{4}$ qismini, uning ayrim turlari bo'yicha – yarmidan ortiq qismini eksport qiladi. AQSH sanoatida tashqi bozor bilan chambarchas bog'langan 7 ta qayta ishslash sanoati tarmoqlaridan iborat sektor hosil bo'lgan, ularning hissasiga jami sanoat mahsulotlari eksportining $\frac{3}{4}$ qismi to'g'ri keladi. Umumiy mashinasozlik

¹ Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.

mahsulotining 30 % ga yaqini, dvigatellar va turbinalar bo'yicha 20 % dan ortig'i, samolotlar bo'yicha 40 % dan ortig'i, kompyuterlar va elektronikaning 46 % eksport qilinadi. Umuman olganda, qayta ishslash sanoati mahsulotining 20 % eksport qilinadi.

Shu bilan birga qayta ishslash sanoatining qator tarmoqlari: bosmaxona, rezina-texnika, oziq-ovqat, to'qimachilik, mebelsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish xalqaro mehnat taqsimotida kam ishtirok etadi. Bu tarmoqlar asta-sekin xorijiy raqobatchilarga nafaqat ichki bozorlarning katta qismini, balki xalqaro bozorlarni ham topshirib qo'ydi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ichida soya o'simligi, makkajo'xori eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarga kiradi.

Tovarlar va xizmatlar importi mamlakat ishlab chiqarishida muhim o'rinni egallaydi. Uning hisobiga ichki talabning 14-15 %, shu jumladan qayta ishslash sanoati mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning 26 %, ayrim tovarlar bo'yicha esa undan ham yuqori qismi qondiriladi. Masalan, AQSH har yillik avtomobillar sotuv hajmining 30 % i import ulushiga to'g'ri keladi. So'nggi yillarda import ulushi dastgohlar va asbob-uskunalar sotuvlarining 50 % gacha, maishiy elektronika, kiyim-kechak, poyafzal va boshqa ayrim tovarlar sotuvlarida 60-80 % gacha o'sdi. Amerika energiya iste'molining importga o'rtacha qaramlik darajasi 59 %ni tashkil etadi. Neft importi ahamiyatining o'sishi AQSH oldiga uzluxsiz yetkazib berishlar va shunga bog'liq holda yetkazib berish hududlarini diversifikatsiyalash vazifasini qo'yadi.

AQSH tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi (1988-1990 yillardan tashqari). 2000-yillarda AQSHning jahon eksportidagi ulushi 1990-yillardagi 13-14 %ga qaraganda 10 %gacha pasaygan bo'lsa, jahon importidagi ulushi 16-18 % gacha ko'tarildi.

AQSH tashqi savdo aloqalarining xarakterli xususiyati – ularning kamomadga egaligi. 1971 yildan beri tashqi savdo kamomad bilan yakunlanadi, bu kamomad qator tarmoqlarda raqobat ustunligining zaiflashuvi natijasi va amerika iqtisodiyotining o'sib borayotgan baynalmilallahuvi ko'rsatkichi hisoblanadi. Savdo kamomadining 20-30 % XXR bilan savdoga to'g'ri keladi.

Yaponiya xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yetakchi o'rindidan birini egallaydi. Juhon eksportining 5,3 % i uning hissasiga to'g'ri keladi. Eksport kvotasi miqdoriga ko'ra u yarimochiq iqtisodiyotlar qatoriga

¹ Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.

kiritilishi mumkin, chunki YAIMning 12 % i eksport qilinadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha u AQSHga yaqin turadi, lekin Yel ko'rsatkichidan 1,5 marta orqada.¹ Ba'zi sanoat tarmoqlari (soatlash, magnitofonlar, kassa apparatlari, nusxa ko'chirish mashinalari ishlab chiqarish) deyarli butunlay eksport uchun ishlaydi. Mashinasozlik mahsulotining $\frac{1}{4}$ qismiga Yaqini tashqi bozorga yo'naltirilgan. 1990-yillardan boshlab tovarlar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari ko'paydi – 2000-2006 yillarda u 7,6 %ni (1988-1997 yillarda – 5,4 %) tashkil qildi. O'sish sur'atlari barcha rivojlangan mamlakatlardan ziyod bo'ldi. Eksport oshishiga mahsulot qiymatida mehnat ulushining kamayishi – 1997-2007 yillarda o'rtacha 1,8 % ko'maklashdi.

Eksport tarkibida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Avtomobillar (16,3 %) va maishiy elektrotexnikaning yuqori ulushga egaligi bilan birga kapital vositalar eksporti ko'payib bordi. Umumiy mashinasozlik mahsulotlari, ilmiy asbob-uskunalar ulushi jiddiy o'sdi. Ilmtalab mahsulot ulushi qayta ishslash sanoati eksportining 24 %igacha (1995 yilda 38 %) pasaydi. Yaponiya bu ko'rsatkich bo'yicha Janubiy Koreya, Irlandiya, AQSH va Britaniyadan orqada.

Alohida mahsulot turlari bo'yicha jahon eksporti hajmining katta qismi: kemalar bo'yicha – 25,6 %, yengil avtomobillar – 17,9, po'lat – 17,4, elektr mashinasozlik – 14,5, yarimo'tkazgichlar – 12 va boshqalar yapon kompaniyalari hissasiga to'g'ri keladi.

Import tarkibi sanoatning xalqaro ixtisoslashuvi, xo'jalikning baynalmillashuvi jarayonlarini aks ettiradi. Ko'pgina mineral va qishloq xo'jalik xomashyo tovarlari bo'yicha u dunyoning eng yirik xaridori hisoblanadi. Jahon neft, toshko'mir, paxta va jun importining 10 % Yaponiyaga to'g'ri keladi. Mashinasozlik mahsuloti importda asosiy o'rinni egallaydi, uning ulushi jiddiy ko'payib, 32 % ni tashkil etmoqda.

Yaponiya tashqi savdo aloqalarining geografik tarkibida AQSH va XXR muhim rol o'ynaydi. AQSH bozorida Yaponiya eksportining 25 % va importning 15, 4 % amalga oshiriladi. O'z navbatida u AQSHning Kanada, XXR va Meksikadan so'ng asosiy savdo sherigi hisoblanadi.

Yaponiya tashqi savdosida rivojlanayotgan mamlakatlar muhim o'rinni egallaydi: uning eksportining deyarli yarmi va importining 40 % dan ortig'i ularga to'g'ri keladi. Ayniqsa, XXR, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan savdo katta ahamiyatga ega.

¹ Ломакин В. К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 421.

Yevropa Ittifoqining tashqi savdoga qaramligi boshqa rivojlangan mamlakatlardan yuqori emas: jahon tovar aylanmasining 18 % va xizmatlar savdosining 18 %ini tashkil qiladi.¹ Yel tashqi savdosida chet el, asosan AQSH TMKLari katta rol o'ynaydi, ular ayrim tarmoqlarda tayyor mahsulotlar eksportining 30 % gacha ta'minlaydi. 2000-yillarda eksport 1990-yillardagi 6,7 %ga nisbatan o'rtacha sur'atlar – 3,5 % bilan rivojlandi (2.10-jadval).

2.10-jadval. Eksportning o'sish sur'atlari

	1988-1997	1998-2007
Yevrohudud	6,5	5,1
Rivojlangan mamlakatlар	7,1	5,2
Jahon	7,0	6,4

Manba: Ломакин В.К. Мировая экономика М.: 2007. С. 444.

Yevropa Ittifoqi mashinasozlik, kimyo sanoati mahsulotining yetakchi eksportchisidir. Ushbu tovarlar guruhi eksportining 20-23 % uning hissasiga to'g'ri keladi. Biroq, so'nggi yillarda qator ilg'or va istiqbolli tovarlar eksportida tutgan o'rningining pasayishi kuzatiladi. Uchinchi mamlakatlarga qayta ishslash sanoati mahsulotlari eksportida yuqori texnologiyali tovarlar ulushi 17 %ni, AQSH va Yaponiyada esa mos ravishda 31 va 24 %ni tashkil etadi.

Yel qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti bo'yicha AQSHdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi (jahon eksportining 13 %). Don mahsulotlari eksportidagi ulushi 8 %ni tashkil etadi. Eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarga sut mahsulotlari va tuxum, go'sht va go'sht mahsulotlari, sabzavotlar va mevalar, shakar kiradi.

Yel jahon importida ham katta o'ringa ega. U mashina va uskunalarining, qator qishloq xo'jalik mahsulotlarining yirik importeri hisoblanadi. Importda shuningdek mineral xomashyo va nometall yarimtayyor mahsulotlar muhim ahamiyatga ega. U iste'mol qilinadigan energetik xomashyoning 2/5 va boshqa xomashyo mahsulotlarining ¾ qismini import qiladi.

Yelning asosiy savdo sherigi AQSH – uning ulushi jami tovar aylanmaning 20 % dan ortiq. So'nggi o'n yillikda AQSH bilan savdo kuchaydi, Yaponiyaning ulushi ham ortib bormoqda.

¹ Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 443.

1990-yillar Yel tashqi savdosida tub burilish davri bo'ldi, chunki u ijobiy saldo bilan yakunlana boshladi, 2000-yillarning birinchi yarmida u YAIMning 0,1-0,2 % atrofida bo'ldi va asosan tovarlar va xizmatlar savdosi bilan ta'minlanadi.

2.6. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tashqi savdoning o'rni

Rivojlanayotgan mamlakatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) yalpi ichki mahsulotning miqdori bo'yicha dunyoda AQSHdan so'ng 2-o'rinda turadi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, Yaqin yillarda birinchi o'ringa chiqishi bashorat qilinmoqda.

XXR jahon xo'jaligida o'z nufuziga ega bo'lgan davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu davlat ayniqsa oxirgi 10 yilliklar ichida misli ko'rilmagan iqtisodiy natijalarga erishdi. 2006 yilda uning valuta zahirasi 850 mlrd. AQSH dollarni tashkil qildi. Mamlakat YAIMning hajmi esa 11 trln. yuanni (taxminan 1 trln. 400 mlrd. AQSH dollarri) tashkil qiladi. YAIMning yillik o'rtacha o'sishi 1995 yildan 2003 yillargacha o'rtacha yiliga 8,5 %ni, 2003 yilda esa 14 %ni tashkil etib, 1980-2005 yillarda YAIM hajmi deyarli 5 marotaba o'sdi.

Xitoyning umumiy tashqi savdosi 955,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilib, uning 495,4 mlrd. AQSH dollari eksportga, 460,2 mlrd. AQSH dollari esa importga to'g'ri keladi. Xitoy 1978 yilda tashqi savdo bo'yicha 32-o'rinni band qilgan bo'lsa, 2006 yilga kelib jahondagi eng yetakchi mamlakatlar qatoridan o'r'in oldi. Xitoyning eksport mahsulotlariga asosan yengil sanoat mahsulotlari, to'qimachilik, radiotexnika va elektronika, poyafzal mahsulotlari, oziq-ovqat va kimyo sanoati mahsulotlari kiradi. Import mahsulotlarini esa ayrim neft mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, avtomobillar, kompyuter va boshqa mahsulotlar tashkil qiladi.

Islohotlarni o'tkazishning 30 yillik davri mobaynida Xitoyda tashqi savdo hajmining yillik qo'shimcha o'sishi 18 % dan ortiq, ya'ni YAIM o'sishiga nisbatan 2 barobar ortiq bo'ldi. JSTga qo'shilgandan so'ng, eksportning o'rtacha yillik qo'shimcha o'sishi 27%ni tashkil qildi.

Hozirgi vaqtida Xitoy eksport bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni, valuta zahiralari bo'yicha – birinchi o'rinni egallaydi. Xitoy tashqi savdosining rivojlanishi 2.11-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

2.11-jadval. Xitoy tashqi savdosi, mlrd.doll.

	Tashqi savdo		Eksport		Import		Saldo	
	Hajmi, mlrd doll	O'tgan yilga nisbatan, %	Hajmi, mlrd doll	O'tgan yilga nisbatan, %	Hajmi, mlrd doll	O'tgan yilga nisbatan, %	Hajmi, mlrd doll	O'tgan yilga nisbatan, %
2005	1421,91	23,2	761,95	28,4	659,95	17,6	102,00	280,0
2006	1760,40	23,8	968,94	27,2	791,46	19,9	177,48	68,1
2007	2173,83	23,5	1218,01	25,7	955,82	20,8	162,20	47,7
2008	2561,63	17,8	1428,55	17,2	1133,09	18,5	295,46	82,1
2009	2210	-13,9	1200	-16,0	1010	-11,2	190	-23,7

Manba: IMF. World Economic Outlook

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida Xitoy, shuningdek Sharqiy Osiyo mamlakatlari eksporti rivojlangan mamlakatlar talabining pasayishiga tez munosabat bildirdi. Xususan, inqiroz boshlangan yilning o'zidayoq Xitoy eksportining o'sish sur'ati sekinlashdi - 2007 yildagi 25,7 %dan 2008 yilda 17,3 %gacha pasaydi. (2.12-jadval). 2009 yilda esa Xitoy eksportining qo'shimcha o'sishi biroz, ya'ni 14,8 foizgacha pasayishi, importi esa 19,1 foizga ko'payishi kutiladi.

2.12-jadval. Xitoy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida eksport dinamikasi, o'tgan yilga nisbatan %

	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
Xitoy	22,4	34,6	35,4	28,4	27,2	25,7	17,3
Yaponiya	2,5	13,3	20,4	6,0	8,0	9,9	10,0
Koreya Respublikasi	8,0	19,3	31,0	12,0	14,4	14,1	13,6
Gonkong (XXR)	5,4	11,8	15,9	11,6	9,4	8,8	5,3
Tayvan	7,3	11,3	21,4	8,4	13,1	10,2	...
Singapur	2,8	27,9	24,2	15,7	18,2	10,1	13,0
Malayziya	6,9	11,3	20,8	11,5	13,4	9,6	15,9
Indoneziya	3,1	8,4	12,6	22,9	19,0	14,0	23,1
Tailand	4,8	18,2	21,6	15,0	16,9	17,2	16,9
Filippin	9,5	2,9	9,8	3,8	14,9	6,4	-2,9
Vyetnam	11,2	20,6	31,4	22,5	15,1	16,1	16,3
Sharqiy Osiyo, Yaponiyasiz	9,7	19,4	25,5	17,2	18,3	16,3	18,0

Manba: Economic and Social Survey of Asia and Pacific-2009. N.Y., ESCAP, 2009. P. 174. World Economic Situation and Prospects-2009. N.Y., UN, 2009. P. 37.

Sharqiy Osiyo mamlakatlari eksporti o'zgarishini ko'radigan bo'lsak, 2008 yilning so'nggi choragida Singapur eksporti 14 %, Koreya

Reyapublikasi va Tailandning eksporti – 10 %, Tayvanda – 25 % qisqardi.¹ Umuman 2008 yilda ESKATO ma'lumotlariga ko'ra, Osiyo mamlakatlari o'sish tendensiyasini saqlab qoldi. Biroq, bashoratlarga ko'ra ular 2009 yilni pasaygan ko'rsatkichlar bilan yakunlaydilar: Sharqiy Osiyo (Yaponiyadan tashqari) bo'yicha eksport o'rtacha 6,5 %, import esa 7,5 % o'sadi.

2.14-jadval. Xitoy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari import dinamikasi, 2002-2008 yy., o'tgan yilga nisbatan %

	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
Xitoy	27,1	39,9	36,0	17,6	19,9	20,7	18,4
Yaponiya	-4,4	13,3	19,1	17,1	12,3	7,0	22,9
Koreya Respublikasi	7,8	17,6	25,5	16,4	18,4	15,3	22,0
Gonkong (XXR)	3,3	11,7	16,9	10,5	11,6	10,0	5,7
Tayvan	5,0	13,1	32,1	7,9	11,2	8,2	...
Singapur	0,4	17,1	27,4	15,3	19,1	10,2	21,5
Malayziya	8,2	4,4	26,4	9,2	14,7	12,0	9,5
Indoneziya	2,8	10,9	28,0	37,4	6,3	14,9	31,3
Tailand	4,6	17,4	25,7	25,9	9,0	8,7	27,6
Filippin	18,7	3,1	8,0	8,0	9,2	7,2	-3,9
Vyetnam	21,8	27,9	26,6	15,0	22,7	21,9	37,0
Sharqiy Osiyo, Yaponiyasiz	8,8	19,2	27,4	15,5	15,8	14,8	24,1

Manba: Economic and Social Survey of Asia and Pacific-2009. N.Y., ESCAP, 2009. P. 174. World Economic Situation and Prospects-2009. N.Y., UN, 2009. P. 150.

Inqirozning u yoki bu sektorga ta'siri ko'p darajada uning milliy xo'jalikdagi o'rniga bog'liq. Xitoya eng ko'p zarar ko'rgan tarmoqlarga quyidagilar kiradi: elektronika (3,1 %ga qisqarish), to'qimachilik, teri buyumlar va tayyor kiyim-kechak (2,7 %ga qisqarish), ASEAN mamlakatlari esa bu sohalarda mos ravishda 1,4 % va 3,1 % ga qisqarish ro'y bergan.

Xitoy va boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining o'sish manbai bo'lган eksport hozirda ular iqtisodiyotining zaiflik manbalaridan biriga aylandi. So'nggi 12 yil mobaynida tashqi savdoga qaramlikning o'sishi bilan mintaqalari eksportining geografiyasi ham o'zgarib bordi. Uning umumiyligi hajmida Hindiston, Xitoy va ASEAN mamlakatlari

¹ Потапов М. Мировой экономический кризис и Восточная Азия. // МЭ и МО. 2009, №12, с.19-25.

kabi shakllanayotgan bozorlarning ulushi ikki barobar – 1995 yildagi 11,5 %dan 2007 yilda 23,6 %gacha ko'paydi. yevroittifoq, Yaponiya va AQSHning ulushi esa 46 %dan 38 %gacha kamaydi. Mintaqaning o'z eksport ulushini va yuqorida ko'rsatilgan shakllanayotgan bozorlarga qaramligini ko'paytirgan boshqa mamlakatlarining bozorlarida ham o'xshash o'zgarishlar ro'y berdi. Mazkur tendensiya ko'pchilik ekspertlarning Osiyo rivojlangan mamlakatlar bozoriga qaramlikni kamaytirish yo'liga o'tganligi to'g'risidagi fikrlarni aytishiga asos bo'lmoqda.

Biroq, Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari savdo oqimlarini Xitoy va Hindistonga qayta yo'naltirayotganiga qaramay, ularning yalpi eksporti YAIMga nisbatan tezroq sur'atlar bilan o'smoqda. Bu ularning AQSH, Yel va Yaponiyaga eksport qaramligi saqlanib qolayotganligini anglatadi. Darhaqiqat, ularning YAIMda AQSHga eksportning ulushi 1995-2007 yillarda 7,9 %dan 8,4 %gacha o'sdi, mintaqaning jami eksport hajmida esa - 12,3 %dan 16,3 %gacha o'sdi. Umuman olganda, Osiyo rivojlanayotgan mamlakatlarining eksport kvotasi (YAIMda eksportning ulushi) deyarli 8,0 p.p.ga ko'paydi va 37,5 %ga yetdi.¹

Shuningdek hozirgi moliyaviy inqirozning oldindi inqirozga nisbatan murakkab va kompleks xarakterini ham hisobga olish zarur. Xitoy iqtisodiyoti 2001 yilda JSTga qo'shilganidan so'ng uning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi kuchaydi va mamlakat jahon bozori konyunkturasiga jiddiy munosabat bildiradi. Birinchi va ikkinchi to'lqin yangi industrial davlatlarga (YAD) kelsak, jahon moliyaviy inqirozi ularga yanada kuchli ta'sir o'tkazadi, chunki ular mintaqasi ichki savdosida, Xitoy orqali AQSH va Yaponiyaga ishlab chiqarish kooperatsiyasi doirasida oraliq mahsulotlarni yetkazib berishda keng ishtirok etadi.

SHunday qilib, AQSH va Yevropa bozorlaridagi iqtisodiy retsessiya ko'pgina Sharqiy Osiyo mamlakatlari qatori Xitoy eksportining pasayishiga olib keladi.

Umuman olganda, Osiyo mintaqasi inqiroz holatlariga avvalgi o'n yilga nisbatan yaxshiroq tayyor ekanligini ko'rsatmoqda. Chunki o'tgan davr mobaynida keng ko'lamli islohotlar o'tkazildi, savdo va to'lov balanslari yaxshilandi, xorijiy valuta zahiralari yaratildi.

¹ Мозиас П., Яковлева В. Внешнеторговая политика Китая после присоединения к ВТО. // МЭ и МО, 2009, №12, с. 64-68.

2.7. Xalqaro savdoni rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning roli

Xalqaro savdodagi sodir bo'layotgan jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz erkinlashtirish uning eng asosiy yo'naliishi ekanligini ta'kidlash lozimdir. Boj to'lovlarini sezilarli kamaytirildi, ko'pgina cheklashlar, kvotalar va boshqa to'siqlar bekor qilindi. Biroq, xalqaro savdoda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularning eng asosiysi – proteksionizm siyosatining ko'p sohalarda, jumladan iqtisodiy guruhlar va mamlakatlarning savdo-iqtisodiy bloklari miqyosida rivoj topishidir.

Savdo-iqtisodiy bloklarning paydo bo'lishidagi dastlabki qadam bu erkin savdo hududlarining (ESH) yaratilishidir. Jahan bankining ma'lumotlariga qaraganda 90-yillarning o'rtalarida dunyo savdosining 42-45% xuddi shunday hududlarda olib borilgan. Jahonda eng mashhur ESHlarga Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEAST), Yevropa Ittifoqi (YEI), Shimoliy Amerika erkin savdo zonası (NAFTA), Osiyo-Tinch okean iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ATES) va boshqalar kiradi.

Jahon xo'jaligida 9 ta eng yirik xalqaro hududiy savdo bloklarning tarkibi quyidagicha bo'lgan:

1. Yevropa Ittifoqi (YEI) – Avstriya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Irlandiya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Finlyandiya, Shvetsiya, Daniya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandlar, Gretsya. Yelga 2004 yil 1 mayda Polsha, Chexiya, estoniya, Litva, Latviya, Sloveniya, Slovakiya, Vengriya, Kipr, Malta, 2007 yilda Bolgariya va Ruminiya kabi davlatlar a'zo bo'lib qo'shildi.

2. Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (NAFTA) – AQSH, Kanada, Meksika.

3. Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEAST) – Islandiya, Norvegiya, Shveysariya, Lixtenshteyn.

4. Osiyo-Tinch okean iqtisodiy hamkorligi (ATES) – Avstraliya, Bruney, Malayziya, Singapur, Tailand, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya, Indoneziya, Fillipin, Tayvan, Gonkong, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Kanada, AQSH, Meksika, Chili, Rossiya, Peru, ekvador.

5. Janubiy Amerika Umumiy bozori (MERKOSUR) - Braziliya, Argentina, Paragvay, Urugvay.

6. Janubiy Afrika Taraqqiyot qo'mitasi (SADK) – Angola, Botswana, Lesoto, Malavi, Mozambik Mavrikii, Namibiya, JAR, Svazilend, Tanzaniya, Zimbabve.

7. G'arbiy Afrika iqtisodiy va valuta ittifoqi (YUEMOA) – Kot-d'Ivuar, Burkina-Faso, Nigeriya, Togo, Senegal, Benin, Mali.

8. Janubiy Osiyo hududiy hamkorlik assotsiatsiyasi (SAARK) – Hindiston, Pokiston, Shri-Lanka, Bangladesh, Maldiv orollari, Butan, Nepal.

9. And pakti davlatlari – Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya.

Bunday bloklarning tuzilishiga siyosiy, iqtisodiy va tarixiy xarakterga ega bo’lgan ob’yektiv jaryonlar sabab bo’lgan edi. Bir tomonidan bunday jarayonlarning kuchayishi xalqaro savdoni kuchaytirsa (iqtisodiy zona, blok va iqtisodiy hududlar miqyosida), boshqa tarafdan esa har qanday yopiq tuzilma uchun xos bo’lgan ba’zi bir to’siqlar yaratildi. Savdo-iqtisodiy guruhlarning o’zaro aloqalari natijasida global savdo bozori yo’lida vujudga kelishi mumkin bo’lgan ko’plab to’siq va qarama-qarshiliklar mavjud.

Xalqaro savdoni boshqarish, uning taraqqiyotiga bo’lgan to’siqlarni bartaraf qilish va erkinlashtirishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tashkilotlar orasida Tariflar va savdo bosh bitimi (GATT) asosiy o’ringa ega. 1947 yilda 23 mamlakat tarafidan GATT tashkilotini tuzilishi haqidagi kelishuv imzolandi va u 1948 yilda kuchga kirdi. 1995 yilning 31 dekabrida GATT o’z faoliyatini tugatdi va uning o’rniga Jahon savdo tashkiloti (JST) barpo qilindi.

GATT – bu ko’p tomonlama xalqaro kelishuv bo’lib, u a’zo mamlakatlarning o’zaro savdosiga aloqador ko’pgina tamoyillar va huquqiy me’yorlarni, shuningdek savdo va davlat boshqaruviga oid qoidalarni o’z ichiga oladi. Jahon iqtisodiyotida GATT eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan biri bo’lib, uning faoliyat doirasi dunyo savdosining 94-95 %ni qamrab olgan. GATTning huquqiy mexanizmi bir qator qonun-qoidalarga asoslangan:

- savdoda huquqiy buzilishni oldini olish uchun birinchidan, eksport, import va tranzit operatsiyalarni, ular bilan bog’liq bo’lgan boj va to’lovlar borasida eng qulay shart-sharoit yaratish, ikkinchidan, import va milliy tovarlar uchun ichki soliq va to’lovlar borasida, shuningdek ichki savdoni boshqaruvchi qonun-qoidalalar borasida teng huquqlilikni ta’minlaydigan milliy tartiblarni yaratish;

- eng qulay rejim (EQR), ya’ni kelishuvga kirishayotgan taraflar orasida ular tarafidan uchinchi davlatlarga berilayotgan (yoki berilijak) barcha imtiyoz va ustunliklardan foydalanish huquqini yaratish. Bu qoida tovarlarning olib kirilishi va olib chiqilishi, boj to’lovları, ishlab chiqarish, dengizchilik, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqiy holatiga tegishlidir;

- milliy bozorni himoya qilishda ko'proq tarifli vositalardan foydalanish, import va boshqa notarif cheklashlardan voz kechish;
- ko'p tomonlama muzokalar olib borish yo'li bilan boj tariflarini pasaytirish;
- rivojlanayotgan mamlakatlar bilan savdoda preferensial (imtiyoz berish) tizimni o'rnatish;
- savdo borasida paydo bo'lgan kelishmovchiliklarni muzokalar yo'li bilan hal qilish;
- bir-biriga savdo-siyosiy yon bosishda hamkorlik qilish.

GATTning faoliyati raundlarga birlashgan ko'p tomonlama muzokalar yo'li bilan olib borilgan. GATT o'z faoliyatini boshlaganidan beri 8 raund o'tkazilgan bo'lib, buning natijasida o'rtacha boj miqdori o'n barobar kamaygan. Ikkinci jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda 40 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2000-yillarning boshida ular taxminan 4 %ni tashkil qildi.

1996 yilning yanvarida GATTning o'rmini Jahon savdo tashkiloti (JST) egalladi. Uni 81 ta mamlakat ta'sis etdi. JSTni tashkil topishiga 7 yillik "Urugvay raundi" muzokalarini sabab bo'ldi.

JSTning GATTdan farqi nafaqat a'zo mamlakatlar sonida (1994 yil yakunida GATTda – 128ta, JSTda esa 2003 yilda – 154 ta), balki JST nizomida qo'llanishi ko'rsatilgan tijorat faoliyati va savdo siyosatini keng qamrab olganligida ko'rindi. GATT faqat tovarlar savdosi masalalari bilan shug'ullangan bo'lsa, JST xizmatlar savdosi hamda intellektual mulk huquqi savdosini ham qamrab oladi.

Savdoning eng yirik sohasi bo'lgan tovar va xizmatlar savdosini qamrab oluvchi bitimlar uch qismidan iborat. Ular umumiy rejaga asoslangan, lekin tafsilotlar bo'yicha farqlanadilar:

- Ular uchta keng ko'lamli asosdan boshlanadi: Savdo va tariflar bo'yicha bosh bitim (GATT), Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh bitim (GATS) va Intellektual mulk savdosi bo'yicha bosh bitim (TRIPS).

- So'ng ma'lum sohalar yoki masalalar bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha bitimlar va ilovalar keladi.

- Yakuniy qismda mamlakatlarning o'z bozorlariga ma'lum xorijiy mahsulotlarni yoki xizmatlarni kira olishini ta'minlovchi majburiyatlarining jadvali berilgan. GATTga nisbatan ular tovarlar tarifi bo'yicha chegaralangan majburiyatlar shaklini va ba'zi bir qishloq xo'jaligi maqsulotlariga nisbatan turli kombinatsiyadagi tariflar va kvotalar shaklini oladi. GATS doirasida majburiyatlar xorijiy xizmat ko'rsatuvchilarga bozorga qay darajada kira olishlariga ijozat berilishi

ko'rsatilgan va ba'zi mamlakatlar EQRning kamsitmaslik tamoyilini qo'llamaydigan xizmat turlari ro'yxati ham keltirilgan.

Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh bitim (GATS) xalqaro xizmatlar savdosini qamrab oluvchi ko'ptomonlama qoidalar paketidir. Bu soha bo'yicha muzokaralar Urugvay raundida bo'lib o'tdi. GATT kabi GATS ham uch qismdan iborat: umumiy tamoyillar va majburiyatlarni o'z ichiga olgan asosiy matn; ayrim sohalar bilan bog'liq ilova; ayrim mamlakatlarning o'z bozorlariga kira olishni ta'minlashlari borasidagi maxsus majburiyatları. Biroq u to'rtinchı qismga ham ega bo'lib, u mamlakatlar EQRning kamsitmaslik tamoyilini vaqtinchalik qo'llamaydigan sohalar ro'yxatidan iborat.

Intellektual mulk huquqlari savdosi bo'yicha JST bitimi – TRIPS bu huquqlarni butun jahon bo'ylab himoya qilish va ularni yagona xalqaro qoidalarga birlashtirishga urinish hisoblanadi. Bahslar tug'ilganda JSTning bahslarni hal qilish tizimidan foydalanish mumkin.

Bitim beshta keng masalani qamrab oladi:

- Savdo tizimining qaysi asosiy tamoyillarini intellektual mulkka nisbatan qo'llash kerak?
 - Qay yo'sinda intellektual mulk huquqlari himoyasini bir xilda ta'minlash kerak?
 - Qanday qilib mamlakatlar bu huquqlarni o'z hududlarida bir xilda amalga oshirishlari kerak?
 - Qanday qilib JST a'zolari o'rtasidagi intellektual mulk bo'yicha bahslarni hal qilish lozim?
 - Yangi tizimni joriy qilish davridagi alohida o'tish davri bo'yicha kelishuvlar.

Hozirgi vaqtida ushbu tashkilotga 150 dan ortiq mamlakat, shu jumladan MDH mamlakatlari – Qirg'iziston, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya va Moldova davlatlari a'zo bo'lib kirgan. O'zbekiston Respublikasi 1994 yildan beri JSTda kuzatuvchi sifatida ishtirok etib kelmoqda. Hozirgi kunda JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar jarayoni davom etmoqda.

2.8. Mintaqaviy savdo bloklari doirasida xalqaro savdoni erkinlashtirish jarayonlari

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida liberallahuv jarayonlari mutloq ko'pchilik davlatlar uchun savdo samaradorligini kengaytirish va oshirishning eng muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Xususan, XVF

baholashiga ko'ra, agar rivojlangan mamlakatlar savdo to'siqlarini minimal darajagacha pasaytirishsa, ular bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi savdo 14 %ga oshar edi. Barcha davlatlarda savdo va kapital harakatining to'liq erkinlashtirilishi rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi savdoning 40 %ga, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi savdoning 63 % ga, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi savdoning 94 %ga kengayishiga olib kelgan bo'lar edi.¹ Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, savdo to'siqlarining bekor qilinishi savdo ishtirokchilari daromadlarining yillik o'sishini 250-620 mlrd. dollarga yetkazishi mumkin, uning 30-50 %i rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Jahon banki hisoblariga ko'ra, savdoning to'liq erkinlashtirilishi shunday iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkinki, bu 2015 yilga kelib 300 mln. kishini kambag'allik holatidan olib chiqadi.²

Tahlilning ko'rsatishicha, savdoning erkinlashtirilishi eksporterlar va importerlar uchun hatto an'anaviy eng sezgir tarmoqlarda ham foydalidir. Kembridj universitetida o'tkazilgan tadqiqotlarda qishloq xo'jalik mahsulotlariga tariflar va subsidiyalarning bir daqiqalik bekor qilinishi rivojlangan mamlakatlar uchun YAIMning 0,43 %i (taxminan 100 mlrd.doll.) va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun YAIMning 0,51 %i (30 mlrd. dollardan ortiq) darajasida iqtisodiy samara keltirishi aniqlangan. Rivojlangan mamlakatlarda to'qimachilik va kiyim-kechak importi bo'yicha qo'llaniladigan turli tarif va notarif to'siqlar rivojlanayotgan mammlakatlardagi 27 mln. ish joyi bilan baholanadi. Demak bu to'siqlarning yo'qotilishi ularga katta foyda keltiradi. Ayni vaqtida AQSH xalqaro savdo komissiyasi hisob-kitoblari eng asosiy import to'siqlarining olib tashlanishi mamlakat farovonligini yiliga 14,4 mlrd. dollarga (milliy YAIMning 0,1 %i) oshirib, uning 13 mlrd. doll. to'qimachilik va kiyim-kechak savdosining erkinlashtirilishi hisobiga to'g'ri keladi. Eng yuqori savdo to'siqlarining bekor qilinishi natijasida 17,4 ming yangi ish o'rirlari tashkil etiladi.³

Ko'ptomonlama savdo liberallashtirishining jahon xo'jaligi tizimida resurslardan yanada to'g'ri va samarali foydalanish evaziga keltiradigan iqtisodiy samaralari bilan birga, ayrim mamlakatlar uchun, ayniqsa o'zgargan raqobat sharoitlariga moslashuvning ilk bosqichida vaqtinchalik zarar keltirishi mumkin. Har qanday vaziyatda savdo erkinlashtirishidan olinadigan samaralar ishtirokchi mamlakatlar uchun

¹ World Economic Outlook, IMF, September. 2002, P. 124.

² World Development Indicators. The World Bank, 2003, P. 13.

³ Annual Report, WTO, 2003, P. 11.

bir xil bo'lmaydi, chunki ba'zi davlatlar raqobatbardosh milliy ishlab chiqarishga va jahon bozorlarida mustahkam o'rirlarga egaligi sababli ko'proq foyda oladi.

So'nggi yillarda ko'pgina davlatlarning ixtisoslashuvi mintaqaviy integratsiyalashuv va o'zaro savdoning erkinlashtirilishi jarayonlarining kuchli va ba'zan hal qiluvchi ta'siri natijasida shakllandi. Mintaqaviy savdo kelishuvlari a'zo-mamlakatlarning bozoriga o'zaro imtiyozli kirish, JSTdagi kamsitishlarsiz kirishni ta'minlovchi a'zolikdan farqli ravishda, nafaqat boshqa mamlakatlardan mol yetkazib beruvchilar bilan teng raqobat sharoitlarini, balki eng asosiysi, jiddiy afzalliliklarga (bojlarni kamaytirilishi yoki bekor qilinishi, notarif va boshqa to'siqlarning cheklanishi yoki olib tashlanishi kabi) ega bo'lishini bildiradi. Bundan tashqari, eng ilg'or iqtisodiy birlashmalarda integratsion jarayonlar tovar ayirboshlash bilan cheklanmasdan, xizmatlar savdosи, kapital va fuqarolar harakatlanishini ham qamrab oladi. Bu esa qo'shimcha samara keltiradi. Umuman hozirgi kunda xalqaro savdoning yarmidan ortig'i imtiyozli asosda amalga oshirilmoqda.

Integratsion jarayonlar hozirgi vaqtida keng qamrovli, universal xarakter kasb etdi. JST kotibiysi ma'lumotlariga ko'ra, 2002 yil iyunda rasman e'lon qilingan 250 dan ortiq mintaqaviy savdo kelishuvlari (MSK), shu jumladan 170 ta amal qilayotgan MSK mavjud. Ularning miqdori 70-yillar o'rtalarida 50 ta, 1995 yilda – 125 ta edi. Yana taxminan 70 ta MSKlar JST sanksiyalarisiz amalda faoliyat yuritmoqda. 2005 yil yakuniga kelib bunday kelishuvlar soni 300 taga yetdi.¹ JSTning 152 ta a'zosidan faqat Yaponiya va Mongoliya hech bir mintaqaviy savdo kelishuvida ishtirok etmaydi. Barcha mintaqaviy savdo kelishuvlarining deyarli 90 % erkin savdo hududi (ESH), qolgan qismi yagona tashqi savdo siyosati o'tkazuvchi bojxona ittifoqi shaklida qayd etilgan.

XXI asr boshida jahonda quyidagi eng asosiy mintaqaviy savdo kelishuvlari va integratsion tashabbuslar namoyon bo'lmoqda:

- Kanada Chili va Kosta-Rika bilan ESH haqida shartnomalar tuzgan. Janubiy Amerika Umumiyo'z bozori (MERKOSUR), Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua, Singapur bilan muzokaralar olib bormoqda. Karib umumiyo'z bozori (KARIKOM, 15 mamlakat) bilan ESH tashkil qilish masalasi o'rjanilmoqda;

- AQSH Iordaniya bilan ESH haqida shartnomalar tuzgan, Chili, Koreya Respublikasi, Singapur va Turkiya bilan muzokaralar olib

¹ Annual Report, WTO, 2005, P. 26-27.

bormoqda. Avstraliya bilan kelishuvni imzolash imkoniyati o'rganilmoqda;

- Meksika Chili, Salvador, Gonduras, Gvatemala, YEAST va Isroiil bilan ESH haqida shartnomalar tuzgan. MERKOSUR, Ekvador, Peru, Urugvay, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi bilan ESH tuzish haqida muzokaralar olib bormoqda;

- Karib hamjamiyati va Karib umumiy bozori (KARIKOM) Dominik Respublikasi va Kuba bilan ESHni tashkil etish haqida shartnoma tuzgan;

- Markaziy Amerika umumiy bozori (MAUB, 5 mamlakat) Chili bilan ESH haqida, And hamjamiyati (5 mamlakat) – Braziliya bilan, MERKOSUR - Panama bilan ESH tashkil etish haqida muzokaralar olib bormoqda. 2000 yil avgustda Janubiy va Markaziy Amerikadagi bojxona ittifoqlari (MERKOSUR, And hamjamiyati, KARIKOM, MAUB) o'rtaida bloklararo kelishuvlarni imzolash tashabbusi bildirildi. 2005 yilda Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerikaning (Kubadan tashqari) barcha 34 mamlakatini birlashtiruvchi Panamerika ESHni tashkil etish vazifasi qo'yilgan, savdodagi notarif to'siqlar bo'yicha ishlar olib borilmoqda;

- Yevropa Ittifoqi (27 mamlakat), JAR, Chili va Meksika bilan ESH haqida shartnoma imzolagan. YEI-MERKOSUR, YEI-Fors ko'rfazi mamlakatlari hamkorlik kengashi doirasida bloklararo ESH haqida muzokaralar olib borilmoqda;

- Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasiga (ASEAN) a'zo-mamlakatlari 2005 yilda tariflar erkinlashtirilishini tugatish va ESH tuzish haqida qaror qabul qildilar;

- Koreya Respublikasi Chili, Meksika, Tailand, Yangi Zelandiya bilan ESHni tashkil etish haqida muzokaralar olib bormoqda. Singapur Yangi Zelandiya bilan ESH haqida shartnoma tuzgan, Avstraliya va YEAST mamlakatlari bilan muzokaralar olib bormoqda. Tailand Avstraliya, Xorvatiya, Chexiya bilan ESH tuzish imkoniyatlarini o'rganmoqda. Xitoy ASEAN bilan ESH haqida muzokaralar olib bormoqda;

- Afrika qit'asida 5 yetakchi iqtisodiy birlashma ESH va Bojxona ittifoqini shakllantirishni yakunlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. G'arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamjamiyatining (EKOVAS, 7 mamlakat) ko'pchilik a'zo-mamlakatlari 2001 yildan yagona tashqi tariflarni kiritdi va jismoniy shaxslarning harakatlanishini erkinlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirdi. 2004 yilda ESHni shakllantirishni nazarda tutuvchi Janubiy Afrika Rivojlanish

hamjamiyatini (SADK, 10 mamlakat) tashkil etish haqidagi shartnomalar tasdiqlandi. SADK-MERKOSUR bloklararo kelishuvini imzolash imkoniyati o'rganilmoqda. Sharqiylar Janubiy Afrika umumiy bozorining a'zo-mamlakatlari (20 ta davlat) 2000 yil oktyabrdan ESH rejimiga o'tdilar. Markaziy Afrika iqtisodiy va moliyaviy hamjamiyati (6 mamlakat) o'z maqsadi sifatida iqtisodiy ittifoqni tashkil qilishni e'lon qildi. G'arbiy Afrika Iqtisodiy va valuta ittifoqining 8 ta a'zo-mamlakatlari 2000 yildan bojxona ittifoqi rejimida faoliyat ko'sratmoqda. 2001 yilda Afrika mamlakatlari rahbarlari Afrika ittifoqini tashkil etish haqida e'lon qildilar. Uning oldiga qo'yilgan maqsad – 2028 yilda Afrika iqtisodiy va valuta ittifoqini tashkil etish;

- Fors ko'rfazi mamlakatlarining hamkorlik kengashi (6 mamlakat) 1999 yil noyabrda 2005 yilda yagona tashqi tariflarni o'rnatish haqida qaror qabul qildi. Arab mamlakatlari ligasi (14 mamlakat) 2007 yilda umumiy bozorni shakllantirish maqsadini o'z oldiga qo'ydi.

Zamonaviy integratsion jarayonlar uchun quyidagi asosiy belgilar va tendensiyalar xos:

- ikki tomonlama mintaqaviy savdo kelishuvlar sonining tez ko'payishi va geografik tarkibining kengayishi;
- ilg'or mintaqaviy savdo kelishuvlarining integratsiyaning yanada yuqori darajalari tomon rivojlanishi;
- mamlakatlarning bir vaqtning o'zida turli darajali integratsiya modellarida ishtirok etishi;
- mintaqaviy integratsion mamlakatlarni shakllantirish va ular atrofida keng doiradagi mamlakatlarning birlashishi;
- bloklararo mintaqaviy savdo kelishuvlarning paydo bo'lishi.

Bularning barchasi mintaqaviy savdo kelishuvlarining xalqaro mehnat taqsimotini rivojlantirishning iqtisodiy-huquqiy quroli sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

Oxirgi o'n yillikda uch marta ko'paygan MSKlarning tez o'sishi a'zo-mamlakatlarning nafaqat uchinchi mamlakatlar oldida o'z mahsulotlarining baho raqobatbardoshligini oshirish uchun afzalliklarga ega bo'lishga intilishi bilan, balki transmilliy ishlab chiqarishning kengayishi, TMK manfaatlarini va ularga xizmat qiluvchi savdo siyosatining globallashuvi bilan bevosita bog'liq.

Xulosa

XX asrda global iqtisodiyot kuchli dinamizm bilan rivojlandi. XX asrning ikkinchi yarmida savdoning o'sish sur'atlari jahon YAIMning o'sish sur'atlariga nisbatan tezroq rivojlandi.

Global bozorning shakllanishi, turli xil firmalar o'rtasidagi raqobatning kuchayganligi ularni kapitalni jamlash, yanada yangi ishlab chiqaruvchilarni o'z doirasiga jalb etish, birgalikda o'z o'rınlarini saqlab qolish uchun kuchlarni o'zaro birlashtirishga undaydi.

1950-2000 yillarda xalqaro savdoda tovar aylanmasi 14-15 barobar o'sdi. 1950-1970 yillarni xalqaro savdoning "oltin asri" deb aytish mumkin. Aynan ana shu davrda jahon eksporti yiliga o'rtacha 6-7 %ga o'sdi. Xalqaro savdoning barqaror o'sishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatdi:

- xalqaro mehnat taqsimotni va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvining rivojlanishi;

- ilmiy-texnika inqilobi (ITI);

- jahon bozorida transmilliy korporatsiyalarning faoliyati;

- xalqaro savdoning Tariflar va savdo bosh bitimi (GATT) faoliyati orqali tartibga solinishi (erkinlashtirilishi);

- xalqaro savdoning erkinlashtirilishi, ko'plab davlatlarning importni son jihatdan cheklashni bekor qiluvchi va bojlarni keskin qisqartiruvchi rejimga o'tishlari, erkin savdo hududlarining tashkil topishi;

- savdo-iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi. Mintaqaviy to'siqlarning olib tashlanishi, umumiy bozorlar, erkin savdo hududlarining tashkil etilishi;

- sobiq mustamlaka davlatlarning mustaqillikka erishishlari. Ular orasidan tashqi bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyot modelini tanlagan "yangi industrial davlatlarning" ajralib chiqishi va h.k.

Tayanch iboralar:

Global iqtisodiyot, xalqaro savdo, tovarlar va xizmatlar eksporti, tovar aylanmasi, xalqaro savdoning "oltin asri", GATT, JST, mintaqaviy savdo bloki, rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, liberallahuv, erkin savdo, proteksionizm.

Nazorat uchun savollar:

1. Global iqtisodiyotning shakllanishida xalqaro savdo qanday rol o'yndadi?

2. Global bozorlarning shakllanish xususiyatlarini tushuntiring.

3. Tashqi savdoni tartibga solishda qanday usullardan foydalaniladi?
4. XX asrda xalqaro savdo dinamikasi va o'zgarishlarining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
5. Xalqaro savdoda rivojlangan mamlakatlar qanday o'ringa ega?
6. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tashqi savdo qanday ahamiyatga ega?
7. Xalqaro savdoni rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning rolini tushuntiring.
8. Mintaqaviy savdo bloklari doirasida xalqaro savdoni erkinlashtirish jarayonlarining oqibatlarini tushuntiring.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O'zbekiston, 2005.
2. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.
3. А.А.Исаджанов. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, - 185 б.
4. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации. Учебник. М. 2007.
5. Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 671 с.
6. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.
7. Nazarova va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 224 b.
8. К.А.Семёнов. Международные экономические отношения: Учебник для вузов. – М., ЮНИТИ – ДАНА, 2003.

3-BOB. JAHON MOLIYA BOZORLARI

3.1. Global moliya bozorlarining shakllanishi

XX asrning so'nggi yillarida sobiq Ittifoqning parchalanishi, mamlakatlar o'rtaida iqtisodiy va siyosiy aloqalarning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishi, milliy xo'jalik aloqalarining integratsiyalashuvi bilan globallashuv jarayonlarining jadallahsuvi yuz berdi. Globallashuv natijasida jahon xo'jaligining tarkibiy qismiga aylanib borayotgan mamlakatlarning soni ortib bormoqda. Bu milliy darajadagi huquqiy, iqtisodiy hamda texnologik to'siqlarning yo'qolishiga, uning o'mniga xalqaro iqtisodiy xo'jalikning umumiy iqtisodiy qonuniyatlari va xalqaro xo'jalikning funksional aloqalarini tatbiq etilishiga olib kelmoqda.

Mamlakatlar hayotidagi globallashuv – iqtisodiy munosabatlardagi tovarlar, xizmatlar, kapital hamda fond bozorlaridagi savdo va siyosatga doir tartiblarning tobora erkinlashuvi orqali namoyon bo'lmoqda.

Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1950-yillardan boshlab AQSH korporatsiyalarining o'z xorijiy faoliyatlarini kengaytirishga intilishi. Jahon bozorida Yevropa va Yaponiya korporatsiyalari faoliyatining sezilarli o'sishi, xalqaro maydonda ular va AQSH korporatsiyalari o'rtaсидаги raqobatning kuchayishi;

- 1957 yilda Londonda Britaniya hukumatining funt-sterling ustidan nazorat o'rnatishticha javob tariqasida yevrodollar bozorining yuzaga kelishi;

- 1958 yilda dastlab "Umumiy bozor" deb atalgan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (EIH) – hozirgi Yevropa Ittifoqining (YEI) tashkil topishi;

- XX asrning 60-yillarida Yaponiya iqtisodiyotini tez sur'atlar bilan o'sishi, Uzoq Sharq biznes faoliyatida yangi imkoniyatlarning vujudga kelishi;

- 1971-1973 yillarda Brettonvuds tizimini qulashiga olib kelgan jahon moliya inqirozlari, valutaning belgilangan kursi tizimidan suzuvchi valuta kurslariga o'tish;

- 1971-1979 yillardagi birinchi va ikkinchi neft inqirozlarining jahon iqtisodiy tizimiga bosim o'tkazishi. Ushbu davrda neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkilotining (OPEK) neft narxini sezilarli darajada oshirishi;

- 1982 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq jahon qarzdorlik inqirozining boshlanishi;

- 80-yillarda Yaponianing xalqaro moliyaviy kuch va jahon kapitalining manbasi sifatida yetakchi mamlakatga aylanishi;

- 1987 yilda "Katta yettilik" mamlakatlari tomonidan Parijda Luvr bitimining imzolanishi. Ular o'z valuta kurslarining dollarga nisbatan tor tebranish doirasida sun'iy ravishda almashtirish orqali kuchsizlanib borayotgan dollarni qo'llab-quvvatlashni rejalashtirdilar. SHuningdek, ushbu mamlakatlar kelishilgan iqtisodiy siyosat yuritishni mo'ljalladilar;

- 1987 yilda YEIH yagona Yevropa aktini qabul qilish orqali 1992 yilda yaxlit Yevropa bozorini tashkil qilishni rejalashtirilishi. Bunda mazkur tashkilotning G'arbiy Yevropa moliyaviy va iqtisodiy holatiga sezilarli ta'sir etishi kutiladi;

- 1989-1992 yillarda Sharqiy Yevropa mamlakatlarining o'z siyosiy yo'nalishlarini o'zgartirishi. Ularning kommunistik dunyoqarashdan ko'p partiyaviylikka, markazdan rejalashtiriladigan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishi jahondagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy holatga chuqur ta'sir etdi;

- 1992 yildan keyin yaxlit Yevropa bozorining yuzaga kelishi, 1993 yil noyabr oyidan Shimoliy Amerika erkin savdo bitimining (NAFTA) kuchga kirishi, 1993 yilda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES) konferensiysi va boshqa jarayonlar o'tgan asrning 90-yillarida mintaqaviy rivojlanishni jadallashtirdi.

XXI asr bo'sag'asida jahon iqtisodiyotida to'rtta asosiy an'ana kuzatiladi.

Birinchidan, xomashyo eksportiga asoslangan hamda sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtafiga munosabatlardagi o'zgarishlar. Xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar va sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtafiga an'anaviy iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari modeli quyidagicha edi: xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar xomashyoni eksport qilib, olingen valuta tushumlaridan sanoat mahsulotlari importini moliyalashtirganlar.

XX asrning 70-yillarida "Rim klubii" nomi bilan mashxur G'arbiy Yevropa olimlari "dunyo miqyosida tez orada tabiiy resurslarning global taqchilligi yuzaga keladi" deb bashorat qilgan edilar. Ushbu mulohazalarga asoslanib, ko'pgina xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatlar xomashyo sotish evaziga valuta tushumini oshirish maqsadida kartellarga birlashdilar. Ammo sanoat texnologiyasi va qishloq xo'jalik sohasining keskin rivojlanishi xomashyoga bo'lgan talabning qisqarishiga ta'sir ko'rsatdi va natijada xomashyo bahosining pasayishi yuz berdi.

Ikkinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishdan, bilim va malakaga asoslangan ishlab chiqarishga o'tildi. Jahon iqtisodiy tuzilmasidagi ushbu o'zgarishlar natijasida bandlik tarkibida yuqori malaka talab qiluvchi mutaxassislarga ehtiyoj ortib, nisbatan past malakali mutaxassislarga talab pasayib bordi. Axborot almashuvining osonligi tadbirdorlik faoliyatini, kichik biznes va shaxsiy tashabbusni rag'batlantirdi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish bilimni va yuqori malakani talab qildi, shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirish uchun inson kapitaliga investitsiya qilishning ahamiyati ortdi.

Uchinchidan, jahon iqtisodiyotida xalqaro kapital harakatining sezilarli darajada ortishi. Ushbu o'zgarish xalqaro savdoga nisbatan xalqaro kapital harakatining tez sur'atda o'sishi bilan yuz berdi. Xalqaro moliya statistikasining ma'lumotlariga kura, jahon eksporti hajmi 1981 yildagi 2000 mlrd. AQSH dollaridan 1991 yilda 3447 mlrd. AQSH dollari darajasigacha, ya'ni 1,5 marta o'sgan. SHu vaqt mobaynida xalqaro obligatsiyalar emissiyasi 23 mlrd. dollardan 342 mlrd. AQSH dollarigacha, ya'ni deyarli 15 marta o'sdi. Bundan tashqari, uchta yetakchi xalqaro moliya bozorlarida ko'plab xorijiy valutalarning aylanmasi sezilarli darajada o'sdi. 1986 yildan 1992 yilgacha Londonda xorijiy valutaning kunlik o'rtacha aylanmasi 90 mlrd. dollardan 303 mlrd. AQSH dollarigacha ortdi. SHu davrda Nyu-Yorkdagi kunlik aylanma 50 mlrd. dollardan 192 mlrd. dollargacha, Tokioda 48 mlrd. dollardan 128 mlrd. AQSH dollarigacha ortgan.

Global iqtisodiyotning vujudga kelishini nafaqat tovarlar va xizmatlar eksportining ulkan ko'lamlari, balki kapitalni olib chiqish, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlar shaklidagi mulkchilik huquqlari savdosi namoyon etmoqda. Xalqaro fond va valuta bozorlaridagi aylanmalar savdo aylanmalaridan o'nlab, ba'zan yuzlab marta ortiqdir. 1997 yilda jahon aksiyalar savdosi aylanmasi 40 trln. dollar, mamlakatlar o'rtaida valutani xarid qilish va sotish hajmi 400 trln. dollar deb baholangan edi.

Davlatlar, xalqaro tashkilotlar, banklar, xususiy kompaniyalar tomonidan beriladigan xalqaro kreditlar ulkan hajmlarda amalga oshirilmoqda (3.1-jadval).

3.1-jadval. 2006 yilda xalqaro kredit resurslar hajmi (mlrd. doll.)

Ko'rsatkichlar	Dunyo	AQSH	Yevropa ittifoqi
1. Jahon YAIM	41255	11734	9616
2. Jahon valuta zahiralari (oltindan tashqari)	3866	175	281
3.Fond bozorlarining kapitallashuvi	37168	16324	9270
4.Qarz qog'ozlari (davlat va xususiy)	57843	22307	19261
5.Tijorat banklari aktivlari	57316	8497	27993
3,4,5 qatorlarning yig'indisi	152327	47127	56524

Manba: Global Financial Report, IMF, 2006.

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, 2006 yilda turli kredit resurslarining hajmi ulkan miqdorga – 152 trln. dollarga yetdi. Bu kapitalning hammasi ham xalqaro transaksiyalarda ishtirok etmaydi. Chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning 20 % xalqaro majburiyatlarni ifodalaydi. Bir mamlakatdar boshqa mamlakatlarga kapitallarning katta oqimi ularning iqtisodiy rivojlanishining o'zaro bog'liqligini paydo qildi.

To'rtinchidan, transmilliy korporatsiyalarning qo'shma korxonalarini tashkil etish uchun xalqaro investitsiyalari va hamkorlik bitimlarida diversifikatsiya darajasining ortishi. Bunda asosiy o'zgarish sifatida TMKlar va ularning turli mamlakatlardagi qo'shma korxonalar sonining o'sib borishini ko'rish mumkin.

TMKlar o'zlarining tashkiliy, ishlab chiqarish va marketing tizimlarini chet mamlakatlar hududlariga yoyib, shu yo'l bilan tovarlar, xizmatlar, kapital va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etib, ushbu mamlakatlar o'tasidagi o'zaro aloqalarga ta'sir etdi. Qo'shma korxonalar xalqaro biznes integratsiyasining keng tarqalgan shakliga aylandi.

Shuningdek jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e'tirof etish zarur. Jahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valuta fondi (XVF), Jahon banki (JB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) kabi xalqaro institutlar hamda yetakchi mamlakatlar rahbarlari va moliya vazirlarining har yili bo'lib o'tadigan uchrashuvlarining xalqaro munosabatlarni tartibga solishdag'i ahamiyati ortib bormoqda. Texnologiyalar bo'yicha, atrof-muhitni asrash, moliya institutlarining faoliyati, buxgalteriya hisobotlari, milliy statistika

(milliy hisoblar tizimi) va boshqalarga yagona andozalarni qo'llash kengaymoqda. Ushbu andozalar ta'lim va madaniy sohalarga ham yoyilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar orqali makroiqtisodiy siyosatning yagona mezonlari tatbiq etilmoqda. Valuta-kredit, soliq, tashqi iqtisodiy siyosat, bandlik sohasi bo'yicha qo'yiladigan talablarning birxillashuvi yuz bermoqda, xalqaro raqobat qoidalari ishlab chiqilmoqda.

Bu jarayonlar qanchalik jadal sur'atlarda amalga oshirilmasin, zamonaviy jahon iqtisodiyoti o'ta global holatda faoliyat yuritayotgani yo'q, balki u globallashuv jarayonlarining dastlabki bosqichlarini bo'shdan kechirmoqda.

O'tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarning jahon bozoriga integratsiyalashuvi uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Ba'zi milliy bozorlarning ochiq, ba'zilarining qattiq tartibga solinadigan hozirgi holati bilan globallashuvning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan liberallahuv o'zaro nomuvofiq ko'rinishni hosil qilmoqda.

Xalqaro tovarlar, xizmatlar va kapital almashinuvining erkinlashish an'anasi kengayayotgan bir paytda, har bir davlat eksport va importni tartibga solishning ma'lum usullarini saqlab qolmoqdalar. Ularning asosiy maqsadi tarkibiy qayta qurish va inqiroz davrining qiyinchiliklarini yengib o'tish, milliy xavfsizlikni ta'minlash – takror ishlab chiqarish uzlusizligini ta'minlovchi (energetika, transport, aloqa va x.k) va mamlakat mudofaa qobiliyati kabi strategik sohalarni moliyaviy ta'minlash, savdo sheriklardan munosib imtiyozlarni olish, shuningdek budjet tushumlarini oshirishdan iborat bo'lmoqda. Amaldagi bunday proteksionizm fiskal muammolarni hal etishdan ko'ra ko'proq tarkibiy siyosat o'tkazish vositasи hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda erkin savdo g'oyasi (liberallahuv) bilan proteksionizm o'rtasida nafaqat qarama-qarshilik yuzaga chiqmoqda, balki milliy xo'jalikni jahon xo'jaligiga qo'shilish samarasini maksimal ta'minlash maqsadida xo'jalikni tartibga solishning yuqoridagi ikki usulining optimal birikmasidan foydalanimoqda. Bunday birikmaning shakl va nisbatlari ma'lum vaqt dagi pragmatik manfaatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda globalashuv bilan birga integratsiya jarayonlarining yana bir shakli, ya'ni ma'lum geografik joylashuvga asoslangan hududiy integratsiya (hududiylashuv) yuz bermoqda.

O'sib boruvchi globallashuv, hududiy lashuv, iqtisodiyotning transmilliy lashuvi va integratsiya natijasida eski davlatlararo tartibga solish mexanizmi tubdan o'zgardi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ikkitomonlama munosabatlari chegarasidan chiqib, ko'ptomonlama tus olmoqda.

Ammo "milliy xo'jalik majmui", "mamlakatning milliy iqtisodiy manfaatlari" tushunchalari o'z ma'nosini saqlab qolmoqda. Milliy xo'jalik hamon ishlab chiqarish, almashuv, taqsimot va iste'mol, shuningdek iqtisodiy faoliyatning asosiy markazidir.

3.2. Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning xalqaro moliya munosabatlaridagi o'rni

Davlatlararo har tomonlama hamkorlikning bir ko'rinishi sifatida xalqaro tashkilotlar va fondlar yuzaga chiqmoqda. Ular siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalarda umumiy tusdagi maqsadlarga erishish uchun davlatlar, milliy institutlar, nodavlat assotsiatsiyalarini birlashtiradi. Xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish uchun o'z fondlarini tashkil etadilar.

Davlatlararo kelishuvlar asosida ishtirokchi davlatlarning yagona moliya va kredit siyosatlarini amalga oshirish uchun pul mablag'larining davlatlararo maqsadli fondlari tuziladi. Davlatlararo fondlar (tashkilotlar) daromadlarini shakllantirish usullari va moliyalashtirish tusiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi.

Birinchi turga moliya-kredit tashkilotlarining davlatlararo va xalqaro fondlari kiradi. Ular nizom kapitalida ishtirok etuvchilarga maqsadli kreditlar ajratadilar va maqsadli fondlarni tashkil etadilar. Bu tashkilotlar faoliyati davomida olgan daromadlaridan ulushiga ko'ra dividend to'laydilar hamda turli maqsadlar uchun zahira fondlarini shakllantiradilar. Mazkur tashkilotlar jumlasiga Xalqaro Investitsiya bankini (XIB), Xalqaro Iqtisodiy Hamkorlik bankini (XIHB), YETTB, XVFni kiritish mumkin.

Xalqaro banklar va fondlarning nizom kapitalining shakllanishida, olingan daromadlarni taqsimlab, turli fondlarni tashkil etishda moliya munosabatlari katta rol o'yнaydi.

Milliy va xalqaro moliya-kredit institutlarining mablag'lari, xalqaro ishtirokchi-tashkilotlar fondi, manfaatdor mamlakatlarning valuta fondlari va budget mablag'lari to'lanadigan badallarning manbasi hisoblanadi.

YEIida ham qator davlatlararo fondlar tashkil etilgan, jumladan, YEIining budgeti, Yevropa Taraqqiyot fondi, Yevropa Valuta Hamkorlik fondi va boshqalar.

Ikkinchi tur tashkilotlaring budgetlari ishtirokchilarning har yillik badallari evaziga tashkil etiladi. Bunday tashkilotlarga ma'lum sohalardagi milliy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi xalqaro va umumjahon institutlari kiradi. Ularga BMT, Xalqaro vaqt byurosi, Atom energetikasi bo'yicha xalqaro agentlik, Dengiz aloqasi bo'yicha xalqaro tashkilot, Ilmiy xizmatchilarining umumjahon federatsiyasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Uchinchi tur xalqaro tashkilotlarga vaqtinchalik tusga ega bo'lgan ilmiy dasturlar va kongresslarni kiritish mumkin. Ularni moliyalashtirish qatnashuvchi ishtirokchilar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, Xalqaro biologiya dasturi (1964-1974 yy.), Xalqaro geodinamik loyiha (1971-1980 yy.), Xalqaro osoyishta quyosh yili (1964-1965 yy.), 1957 yildan boshlab har ikki-uch yilda chaqiriladigan Xalqaro tog' kongressi va boshqalar. Ushbu tashkilotlar turli mamlakat olimlari bilan yaxlit ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

Turtinchi tur xalqaro tashkilotlar xalqaro ilmiy laboratoriylar, institutlar, ittifoqlar, yaxlit va sohalar assotsiatsiyalari, ma'lum ilmiy sohalar bo'yicha byurolardan iborat. Ular mamlakatlarni, milliy ilmiy tashkilotlarni, assotsiatsiyalarni, ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanayotgan alohida olimlarni birlashtiradi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu tashkilotlar yillik ulushli badallar, konferensiyalarda ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish badallari, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya mablag'lari, davriy ilmiy nashrlardan daromadlar hisobidan tashkil etiladigan budgetlar hisobidan moliyalashtiriladilar. Mazkur tashkilotlarga misol qilib milliy va qo'shma dasturlar bo'yicha ishlaydigan Kuchli magnit maydonlari va past xarorat bo'yicha xalqaro fond, Xalqaro matematik markaz va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Beshinchi tur xalqaro tashkilotlar faoliyatning ma'lum sohalariga ko'maklashish va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag'larni yig'ish bilan shug'ullanadilar. Masalan, Xalqaro Yovvoyi tabiat fondi davlat, jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslardan yovvoyi hayvonlar va tabiatni qo'riqlash uchun mablag'larni yig'uvchi nodavlat tashkilotdir. Ushbu tashkilot boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ma'lum tadbirlarni moliyalashtiradi. Fond o'zining nashriga ega bo'lib, uni sotishdan olinadigan daromadlar fond budgetining daromad manbalaridan biri hisoblanadi. "Olimpiya birdamligi" fondi rivojlanayotgan mamlakatlarning

milliy olimpiya qo'mitalariga moliyaviy yordam ko'rsatish uchun tuzilgan. Mazkur fond milliy olimpiya qo'mitalarining badallari, xususiy kompaniyalar, firmalar va xususiy shaxslarning xayriyalari, Xalqaro olimpiya qo'mitasining investitsion va nashriyotchilik faoliyati natijasida olingan daromadlari hisobidan shakllantiriladi. Fondga olimpiya o'yinlarini televizion yoritishdan olingan daromadlarning 1/3 kelib tushadi (olimpiya o'yinlarini televizion yoritishdan olingan daromadlar mos ravishda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, "Olimpiya bidadamligi" fondi va Olimpiya sport turlari bo'yicha xalqaro federatsiya o'ttasida taqsimlanadi). Fondning budjeti har yili tasdiqlanadi. Asosiy tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha hududlarga yo'naltiriladigan mablag'lар xarakatlarning 75-85 foizini tashkil etadi. Ushbu tadbirlarga: yig'inlar o'tkazish, xakamlar majlisini o'tkazish, sport buyumlarini sotib olish, milliy olimpiya qo'mitalariga moliyaviy yordamlar ko'rsatish va boshqalarni kiritish mumkin. Boshqa mablag'lар nashriyotchilik faoliyatiga va joriy xarakatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan fondlarni tarkibiy tuzilishi, maqsadi, vazifalarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida birinchi tur fondlar – moliya-kredit tashkilotlariga mansub XVF haqida ma'lumotlarni keltiramiz.

Xalqaro valuta fondining tashkil topishi va rivojlanishi. XVF BMTning maxsus tashkiloti bo'lib, uni tuzish to'g'risidagi kelishuv 1944 yilda Bretton-Vudsdag'i valuta-moliya masalalari bo'yicha bo'lib o'tgan BMT konferensiyasida imzolangan. 1945 yilning 27 dekabrida ushbu kelishuv kuchga kirgan. XVF amalda o'z faoliyatini 1946 yildan boshladi. Brettonvuds kelishuviga muvofiq XVFning vazifikasi unga a'zo bo'lgan mamlakatlarning oltin va AQSH dollarida ifodalangan valuta zahiralarini tartibga solish hamda a'zo mamlakatlarning valuta paritetlarining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Ushbu kelishuvga ko'ra a'zo-mamlakatlar o'z valutalarini belgilangan kurslar asosida xalqaro joriy operatsiyalar bo'yicha almashinuvlarini ta'minlashlari shart edi. Shuningdek mazkur mamlakatlar valuta operatsiyalarini chegaralash bo'yicha mayjud to'siqlarni bekor qilishlari kerak edi (amalda 181 mamlakatdan atigi 60 mamlakat ushbu talabni bajargan).

XVFning nizom fondi a'zo mamlakatlarga o'rnatiladigan kvotalar asosida to'lanadigan badallardan tashkil etiladi. Kvotalar har bir a'zo mamlakatning moliyaviy badal hajmini aniqlash; proporsional ravishda

XVF kreditlari hajmini aniqlash; ovozlar sonini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Kvotalar hajmi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va uning jahon iqtisodiyoti hamda xalqaro savdodagi roliga bog'liq bo'ladi. Kvota YAIM, import va eksport hajmi, oltin-valuta zahiralari hajmi ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi. Kvotalar hajmi har besh yilda qayta ko'rib chiqiladi.

Kvotalar hajmidan kelib chiqqan holda XVF boshqaruv organlarida ovozlar soni mamlakatlar o'rtasida taqsimlanadi. Har bir mamlakat 250 ta ovozga ega va har bir qo'shimcha 100000 SDR uchun 1 ta ovoz qo'shib beriladi. Hozirda boshqaruv organida ovozlarning eng ko'pi AQSHga tegishli – 17,7 foiz.

Bugungi kunda XVFning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- valuta siyosati sohasidagi xalqaro hamkorlikni kengaytirish;
- valuta siyosati sohasida balanslashgan rivojlanishda hamkorlik qilish;
- yuqori bandlik darajasi hamda real daromadlarni ta'minlash va rag'batlantirish, barcha a'zo-mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini asosini tashkil etuvchi, ishlab chiqarish potensialini rivojlantirish uchun jahon savdosining balanslashgan o'sishini barqarorlashtirish;
- valuta barqarorligini ta'minlash va a'zo-mamlakatlar o'rtasida valuta munosabatlarini soddalashtirish, shuningdek raqobat muhitini shakllantirish nuktai nazaridan kelib chiqqan sodda valuta devalvatsiyasini oldini olish;
- ko'p tarmoqli to'lov tizimlarini tashkil etishda ishtiroy etish, shuningdek valutani o'tkazish bilan bog'liq cheklavlarni bekor qilish;
- a'zo-mamlakatlar to'lov balanslari taqchilligini yo'qotish uchun mablag'lar berish.

Oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun XVF o'z funksiya va tamoyillarini ishlab chiqqan.

XVF tamoyillari:

- tartibga solishdan chetga chiqish maqsadida xalqaro valuta tizimi yoki valuta kursi manipulyatsiyasini taqilash;
- valuta inqirozlariga barxam berish maqsadida valuta bozorlarida intervensiyanı amalga oshirish majburiyati;

XVFning funksiyalari:

- kodeksda kelishilgan munosabatlarga amal qilish xalqaro valuta siyosati va davlatlararo to'lovlar aylanmasi sohalarida hamkorlik qilish;
- to'lov balansi taqchilligini yengib o'tish uchun moliyaviy yordam;

- maslahat va hamkorlik qilish.

O'z vazifalarini amalga oshirish maqsadida XVF o'z va jalb qilingan mablag'lar hisobidan xorijiy valutada kreditlar yoki a'zo-mamlakat to'lov balansini tenglashtirish maqsadida SDR taqdim etadi.

Moliyaviy operatsiyalar faqatgina a'zo-mamlakatning rasmiy organlari: xazinachilik, markaziy bank, valutani barqarorlashtiruvchi fondlar bilan birga amalga oshiriladi. XVF resurslarini olishni tartibga soluvchi qoidalar barcha a'zo-mamlakatlar uchun bir xil. Joriy operatsiyalar bo'yicha xorijiy valutaga ehtiyoj sezgan mamlakat, kreditning zarurligini isbotlashi shart. Bunday kreditlarning hajmlari quyidagi shartlar orqali tartibga solinadi: qarzdor mamlakatning milliy valutasi uning kvotasini yil davomida 25 foizidan va umumiy hisobda kvota hajmining 200 foizidan ortib ketmasligi kerak. Kreditlar bo'yicha foizlar har bir moliya yili uchun daromad va xarajatlarni baholash asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, XVF tarkibida alohida kredit turlari bo'yicha bir necha maxsus fondlar tashkil etilgan. Ushbu fondlardan aksariyat hollarda, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda savdo va to'lov tizimidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga kreditlar ajratiladi. Ushbu kreditlar odatda 4-10 yil muddatlarda qaytarilishi mo'ljallanadi.

Keyingi yillarda XVFning daromadi past bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek o'rta muddatli makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturlariga ajratiladigan kreditlar salmog'i ortmoqda.

3.3. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarda davlat moliya siyosati

Globallashuv jarayonlari jahon xo'jaligida ishtirok etuvchi har bir mamlakat iqtisodiyotiga ma'lum miqdorda ta'sir etadi. Bozorning turli ishtirokchilari o'z manfaatlari yo'lida harakat qilib, zanjirsimon jarayonni vujudga keltiradilar. Ularning faoliyat yuritish uslubi doimiy tarzda o'zgarib turishi sababli jahon xo'jaligi sohalarining bir-biriga bog'liqlik darajasi oshib bormoqda. Georg Fisherning ta'kidlashicha, jahon xo'jaligida global o'zgarishlar tarqalishining texnik mexanizmi mavjud. Bunga "Buyuk depressiya" misol bo'lib, inqiroz bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'pincha zanjirsimon shaklda tarqagan: bozorning pasayishi – kapitalning boy berilishi – talabning qisqarishi, ishlab chiqarishni qisqartirish – davlat tomonidan import qiluvchilarga nisbatan bojxona

to'siqlarining o'rnatilishi – xalqaro savdo kamayishi – savdo-sotiq bo'yicha hamkor mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishi – tovar sifatini bojxona to'siqlarini o'rnatilishini va xokazo.¹

Bundan tashqari, bozor ishtirokchilari ko'pchilik mamlakatlarda tarqalgan biznes yuritishning tamoyillarini qayta shakllantirmoqdalar. Ular go'yoki faoliyat maydonida o'zlarining tashkiliy va texnik to'rlarini yoyib tashlamoqdalar. Bu kabi korporativ to'rlar bilan birgalikda diasporaviy, diniy, mafiozli va megapolisli to'rlar ham shakllangan. Tovar va pul oqimi bilan hamohang bu kabi tarmoqlar transmilliyashuv va o'zarobog'liqlik darajasining yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Mahalliy hukumatlarning xalqaro miqyosida amalga oshiradigan vazifalari o'zgarmoqda. Nodavlat birlashmalarining xalqaro munosabatlarga shiddat bilan kirib kelishi davlatlar hukumatlarining xalqaro miqyosidagi monopolligiga to'sqinlik qilib, siyosiy xokimiyatni barcha masalalar – iqtisodiyotdan tortib diniy va madaniy masalalargacha jamiyat fikri bilan murosa qilishga majbur qilmoqda.²

Globallashuv sharoitida bu kabi jarayonlarning sodir bo'lishi shubhasiz, o'tish iqtisodiyotli mamlakatlarda tegishli iqtisodiy siyosatni olib borishini taqozo etadi. Bu vaqtida iqtisodiy siyosatning vazifasi nafaqat jahon ho'jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimallashtirish, balki ushbu vaziyatda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavfni ham minimallashtirishdan iboratdir.

Har bir davlatning yillar davomida shakllangan o'z tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanish xususiyatlari mavjud bo'lib, boshqa mamlakatlarning tajribalarini ko'r-ko'rona ko'chirib olish, yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladigan, iqtisodiy rivojlanishning hamma uchun umumiy retseptlarini qo'llash samarasiz bo'lishi va iqtisodiy vaziyatni izdan chiqarishi mumkin.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ham globallashuv jarayonida munosib siyosat yuritish ustida bosh qotirib, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshlik darajasini oshirishning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Globalashuv sharoitida amalga oshiriladigan vazifalarning bozor tamoyillariga qat'iy amal qilishi muhim ahamiyatga ega.

Xususiylashtirish. Globalashuv sharoitida xususiylashtirish va unga xos mulkchilikning milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishdagi o'rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z daromadini

¹ Г.Фишер. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. Автореферат докторской диссертации. – М.: 2000. С.12.

² И.Пугач. Журнал "Экономическое обозрение". Декабрь, 1998 г.

maksimallashtirishdan manfaatdor mulkdorlar sinfining shakllanishi iqtisodiyotda raqobat muhitini yaratish, tovarlar sifatini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda eng muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy muhitda xususiy mulkchilik iste'molchilar talabiga munosib javob beradi, raqobatdoshlik ustuvorliklariga faol ta'sir o'tkazadi, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurishga sababchi bo'ladi, iqtisodiy o'sish sur'atlariga hamohang faoliyat olib boradi hamda ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtiradi. Xususiy korxona rahbari har qanday sharoitda faoliyat bilan bog'liq mas'uliyatni to'la qonli ravishda o'z zimmasiga ola biladi. Korxonaning yuqori daromadli faoliyat yuritishidan birinchi o'rinda manfaatdor hisoblangan rahbar ichki imkoniyatlarni to'g'ri baholash, strategiyani aniq belgilash, kutilishi mumkin bo'lgan xavfni puxta anglab yetish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda ustuvor yo'nalishlar korxona salohiyatini to'liq anglab yetish imkoniyatidan xoli hisoblangan yuqori tashkilotlar tomonidan emas, balki bevosita mutasaddi rahbar tomonidan belgilanadi.

Resurslarning mutanosib ravishda taqsimlanishi, ishlab chiqarish vositalaridan eng samarali va tejamkor holda foydalaniishi mulkchilikka xos xususiyatlardandir.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga to'siq bo'lib hisoblangan muammolardan biri bu – moliyaviy tizimga ishonchszlik oqibatida fond bozorining to'la qonli ravishda shakllanmay qolishi, korxonalarни rentabellik darajasining pastligi va qimmatli qog'ozlar egalarida xaqiqiy mulkchilik hissingining yo'qligidir. Makrodarajadagi moliyaviy barqarorlik (budget tanqisligining qisqarishi, foiz stavkalari real qiymatining ijobiyligi o'zgarishi, inflyatsiya darajasining pasayishi), ishlab chiqarish likvidlik darajasining oshishi, sohalarda tarkibiy jihatdan qayta tashkillashtirish natijasida korxonalar moliyaviy ahvolining yaxshilanishi hamda investitsiyalar samaradorlik darajasining o'sishi ko'p jihatdan investitsion faollikning oshishi va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning eng muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakat xo'jaligining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv darajasini oshirish paytida ichki imkoniyatlarning cheklanganligi hamda tashqi qarzning idora etib bo'ladi. Darajadagi me'yorini ta'minlash sanoat siyosatini olib borishda mavjud resurslardan oqilona va samarali tarzda foydalaniishi taqozo etadi. Tashqi savdoni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy qiyinchilikka uchragan

barcha sohalar uchun subsidiyalar ajratish davlat budgeti uchun mushkul hisoblanadi. Shu sababli qaysi tarmoqlar raqobatda yutib chiqsa oladi, qaysi tarmoqlarga davlat tomonidan subsidiyalar ajratilishi kerak, va qaysi tarmoqlar ishchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan kifoyalanib qolish kerakligi chuqur tahlil qilinmog'i lozim. Bundan tashqari global raqobat va xalqaro mehmat taqsimoti sharoitiga iqtisodiyotning moslashuvi natijasida yuz beradigan tarkibiy o'zgarishlar mavjud tizimni qayta shakllantirishga turki bo'lishi hamda davlatning hal qiluvchi loyihalarga homiylik qilishini taqozo etishi mumkin. Umuman olganda, xususiy tadbirkorlikka davlat aralashuvini qisqartirish zarur. Davlat faol mulkdorlik hissidan voz kechib, samarali iqtisodiy siyosat ishlab chiqish va islohotlarning huquqiy asosini ta'minlab berishi kerak.

Monetar siyosat. Globallashuv sharoitida monetar siyosat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida muhim o'rinni egallaydi. To'g'ri monetar siyosat makroiqtisodiy barqarorlikni, bank tizimiga ishonch oshishini, moliya bozorlarining kengayishi va mustahkamlanishi, qulay investitsion muhit vujudga kelishi va mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini ta'minlaydi. Shubhasiz, bu jarayonlar iqtisodiyotni qayta qurish jarayonlarini tezlashtirib milliy xo'jalik tizimining raqobatbardoshlik darajasini oshiradi, natijada mamlakatning globallashuv jarayonlarida faol ishtiroy etish evaziga yutuqqa erishishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, globallashuv sharoitida barqaror pul bozorining shakllanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u markaziy bankning maqbul hamda har tomonlama ishonchli va samarali pul-kredit siyosatini olib borishni ta'minlaydi.¹ Banklar tomonidan belgilangan foiz stavkalari va olib borilayotgan valuta siyosatini ko'p tomonlama iqtisodiy rivojlanishini belgilab beradi. Masalan, foiz stavkasining haddan tashqari ko'tarilib ketishi bank daromadlarining kamayishi, shuning natijasida kredit operatsiyalari miqdorining qisqarishiga olib keladi. Valuta kursini boshqarish natijasida monetar siyosatda qattiq shartlarning vujudga kelishi ichki aktivlar narxlarining bir xil holatini ta'minlasa, shu vaqtning o'zida kelajakda valuta kursining pasayishida xavfli hisoblangan tashqi qarzning oshishiga sabab bo'ladi.

Moliyaviy sektorni isloh qilish. Rivojlangan va ma'lum muvozanatga ega moliyaviy tizim globallashuv sharoitida muhim ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan qayta qurilishi va

¹ Г.Фишер. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. Автореферат докторской диссертации. – М.: 2000.

milliy xo'jalik raqobatbardoshlik darajasining oshishida iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytiradi, jamg'arishning samarali tarzda investitsiyaga aylantirilishini ta'minlaydi.

Hukumat tomonidan hisob-kitob yuritish va uni boshqaruvining to'g'ri hamda huquqiy tizimini ta'minlashi samarali faoliyat yurituvchi moliyaviy tizimga asos soladi.

Moliyaviy tizimning erkinlashtirilishi natijasida uning ko'zlangan maqsadga erishishi bir necha shartlarga bog'liq. Bu kabi shartlar moliyaviy tizimni erkinlashtirunga qadar amalga oshiriladigan vazifalar bo'lib, ular sirasiga makroiqtisodiy va institutsional islohot olib borish hamda umumiy barqarorlikni ta'minlash kiradi.¹ Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida islohot olib bormasdan turib moliyaviy tizimni erkinlashtirib bo'lmaydi. Aks holda maqsadga muvofiq bo'lмаган kapital harakati, foiz stavkalarining oshib ketishi hamda moliyaviy korporatsiyalarning qisqa vaqt ichida tushkun ahvolga uchrashiga sabab bo'ladi.

Globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi ko'p jihatdan moliyaviy siyosatga bog'liq. Har qancha erkin moliyaviy siyosat bozor mexanizmlarini ishga solsa, global raqobat esa uning vazifasi nechog'liq murakkab ekanligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatda tashqi va ichki o'zgarishlarga mos valuta siyosatini yuritish ma'qul ko'rildi. Marshal-Lerner teoremasiga ko'ra eksport-import va tashqi qarzga xizmat ko'rsatishda valuta kursining munosib ravishda optimal tanlanishi mamlakat manfaatlаридан holi emas. Globallashuv sharoitida jahon xo'jaligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishga qodir mamlakat va mintaqalardagi vaziyatni doimiy tarzda o'rganib turish mamlakat moliyaviy tizimiga mas'ul rahbarlarning eng mashaqqatli vazifasidir. Moliyaviy tizimni erkinlashtirish jarayonlari to'lov qobiliyatiga ega bo'lмаган banklar va korxonalarda tarkibiy o'zgartirishlar olib borish, iqtisodiyotda huquqiy va raqobatdosh muhit yaratish hamda maqsadga muvofiq bo'lган boshqaruva nazorat tizimini joriy etish bilan birgalikda olib borilishi islohotlarning ko'zlangan maqsadlarga erishishini kafolatlaydi.

Turli xil valuta ayirboshlash kurslarining mavjudligi mamlakat monetar siyosatini olib borishda o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi, eksport va import siyosatiga salbiy ta'sir etadi va pirovard natijada kapitalning chetga chiqib ketishiga olib keladi. Turli xil valuta kurslari, shuningdek, iqtisodiy agentlarga «yolg'on» nishona berib, ishlab chiqarish resurslarining samarasiz ravishda taqsimlanishiga olib keladi. Masalan,

¹ «Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003 г.

xorijiy valutaning ratsionallashtirilishi uni erkinlashtirish natijasida noorentabel deb topiladigan import o'mini bosuvchi ishlab chiqarishning oshishiga turki bo'ladi. Valuta kursini unifikatsiyalashadirish eksport-import siyosatida muhim ahamiyatga ega, chunki milliy valutaning devalvatsiyasi eksport hajmini sun'iy ravishda oshiradi, shuningdek, import imkoniyatlarini cheklaydi. Aksincha, milliy valuta ayrboshlash kursining oshib ketishi eksport mahsulotlarining raqobatdoshlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etadi va eksport hajmining oshishiga olib keladi. O'z navbatida bu o'zgarishlar mamlakat tashqi savdo aylanmasida salbiy saldog'a olib keladi.

Fiskal siyosat. Globallashuv sharoitida yuqori soliq to'lovlari nafaqat milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasini pasaytiradi, daromadlarning yashirilishi va noqonuniy iqtisodiyotning shakllanishi, ishlab chiqarish va eksportning diversifikasiyalashuv jarayonini susaytiradi, balki kapital va malakali ishchi kuchining chetga chiqib ketishiga ham olib keladi. Ushbu muammolarning ijobiy hal qilinishi fiskal siyosat olib borishning qay darajada optimal ekanligiga ham bog'liq. Ma'lumki, soliq tizimi to'lov va imtiyozlar yordamida siyosat olib borish va shu yo'l bilan iqtisodiy taraqqiyotga rahnamolik qilish xususiyatiga ega.

Erkin raqobat muhiti va huquqiy asoslangan xo'jalik tizimini yaratish uchun soliqlar miqdori va imtiyozlar shunday belgilanishi kerakki, u sohalarga nisbatan mutanosib ravishda taqsimlansin. Buning uchun sohalar orasida solishtirma tahlil olib borilib, ularning qay birida soliq miqdorini oshirilishi evaziga boshqa sohalarga imtiyoz ajratilishi samarali ekanligi aniqlanadi.

Shu tarzda globalashuv jarayonlarining mamlakat iqtisodiyotiga o'tkazayotgan ta'siri kuchayib borayotgan bir paytda soliq tizimi fiskal siyosat vazifasini emas, balki rag'batlantiruvchi omil vazifasini o'tashi hamda to'lovlarning pasaytirilishi va soliqqa tortish tizimining soddalashtirilishi orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatdoshlik darajasini oshirishga xizmat qilishi talab etiladi.

Investitsiya siyosati. Globalashuv sharoitida faol investitsiya siyosati hamda qulay investitsion muhitni yaratish iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarish va eksportning diversifikasiyalash orqali milliy iqtisodiyotning jahon xomashyo bozorining beqaror kon'yunkturasiga bog'liqlik darajasini pasaytiruvchi va aholi daromadlarini oshishini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jamg'arish va investitsiyalarning me'yori milliy iqtisodiyotning uzoq kelajakdag'i raqobatdoshligini belgilovchi muhim omil bo'lib borayotganligi sababli uning o'rni va ahamiyatini aniqlash o'ta mushkuldir. Qolaversa, investitsiya siyosati iqtisodiyotning boshqa vositalari orasida eng murakkab bo'lib hisoblanadi. Chunki, investitsiya siyosatini olib borish iqtisodiy siyosat yuritishning boshqa vositalariga qaraganda to'la qonli ravishda mamlakat ixtiyorida mavjud resurslarga bog'liq. Ushbu resurslar bo'lmasa investitsiya ham bo'lmaydi.

O'tish iqtisodiyotili mamlakatlarda investitsiyalarga bo'lgan talab yuqori bo'lib, u iqtisodiy taraqqiyotning mezoni sifatida o'rganiladi. Ushbu sohadagi siyosat resurslarning mamlakat qiyosiy afzalliklariga ega yoki ustuvorlikka erishish mumkin bo'lgan sohalarga o'tib borishini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni olib borishga yo'naltirilishi zarur. Shuningdek, jamg'arishni rag'batlantiruvchi qulay investitsion muhitni yaratish hamda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Bu o'z navbatida iqtisodiyotning turli tarmoqlari – soliq-budget, pul-kredit va tashqi iqtisodiy sohalarda kompleks tadbirlar olib borishni taqozo etadi.

3.4. Rivojlanayotgan mamlakatlар iqtisodiyotida xalqaro moliya munosabatlarining o'rni

O'tgan 50 yillik muddat jahon iqtisodiyotida muhim globallashuv jarayonlari yuz bergenligi bilan ajralib turadi. Milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashib borishi xalqaro resurslar harakatining hajmlari va xarakteriga ta'sir qilish darajasiga chiqib bormoqda. Xalqaro savdoning yanada kengayishi imkoniyatlari, faqatgina xalqaro kelishuvlarni moliyalashtiruvchi bank sektori imkoniyatlari bilangina chegaralanib qolmoqda. Juhon moliya bozorlarining o'sishi, ular raqobatdoshligining oshishi va faoliyat doiralarining kengayishi daromad darjasasi past bo'lgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashishiga imkoniyat yaratadi. Jiddiy moliyaviy muammolar domiga tushib qolgan (investitsiyalar va asbob-uskunalar, xomashyo, ehtiyoj qismlar importi hajmining chegaralanganligi, shuningdek, ular tomonidan tuzilgan savdo shartnomalariga ishonchning pastligi) Uchinchi dunyo mamlakatlari kengayib borayotgan jahon moliya bozorlarida qatnashishni faollashtirgan holda rivojlanishning yangi imkoniyatlarini

ochishi va iqtisodiy muammolarni hal qilishda tanlov va qarorlar xilmassilligini oshirishi mumkin.

Lekin hozirgi davrda xanuzgacha Uchinchi dunyo mamlakatlari xalqaro bozorlar globallashuvidan yutadimi yoki yo'qmi aniq emas. Bir qator sabablar tufayli rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotida to'laqonli qatnashish imkoniyatlari xali mavjud emas. Milliy bozorlar tobora ochiqlashib borayotgan bir paytda jahon bozorlariga chiqish xali ham qiyin bo'lib qolmoqda. Masalan, Uchinchi dunyo mamlakatlari mahsulotlariga nisbatan proteksionizm oxirgi o'n yillikda sezilarli darajada kuchaydi, shuningdek, bu guruhdagi davlatlarning qarz olish foizlari sanoati rivojlangan davlatlarning xuddi shu ko'rsatkichidan besh baravar kattadir. Shunday qilib, xalqaro bozorlar globallashuvi jahon bozoriga chiqish imkoniyati bo'lgan davlatlar o'rtaсидagi savdo munosabatlaridagi transaksion xarajatlarni kamaytiradi va shu bilan birga globallashuv natijalaridan foydalana olmagan davlatlarning nisbiy yo'qotishlarini ko'paytiradi.

Hatto globallashuv jarayonlarida bevosita qatnashib kelayotgan rivojlanayotgan davlatlar uchun ham uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari umuman noaniqdir. Hozirgi davrda moliyaviy mablag'larni yer sharining istalgan nuqtasiga o'tkazish deyarli bir zumda amalga oshirilishi mumkin. Transmilliy korporatsiyalar gorizontal va vertikal ishlab chiqarish integratsiyasiga ega global fabrikalarni ko'plab davlatlarda tashkil qilmoqda. Boy davlatlarning kichik guruhi xalqaro tovarlar va xizmatlar oqimining tobora katta qismini amalga oshirmoqda.

Bu xildagi globallashuvning oqibatlari ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Bir tarafdan alohida davlatlar, ayniqsa, Uchinchi dunyo mamlakatlarining kuchi va ta'siri kamayib ketadi. Ayniqsa, Shimoliy Amerika, Osiyo-Tinch okeani hududi yoki Yevropadagi qaytadan shakllanayotgan hududiy savdo bloklari bilan qaysidir darajada bog'liq bo'Imagan rivojlanayotgan davlatlarni yanada qiyin davrlar kutmoqda. Boshqa tarafdan esa moliyaviy bozorlarning barqarorsizligi bilan bog'liq risklar oshib bormoqda, yuqori texnologiyalardan foydalanmaydigan ishlab chiqaruvchilar uchun jahon bozoriga chiqish qiyinlashib bormoqda.

XXI asr boshida rivojlanmay qolib ketgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini sezilarli darajada yaxshilash uchun samarali xalqaro tizim yaratilishi kerak. U moliya, atrof-muhit, xalqaro resurslar harakati va texnologiyalar transferti sohalaridagi global muammolarni ham hal qila olishi kerak. Zarur islohotlar sifatida ko'pincha quyidagilar ta'kidlanadi:

1. Bundan buyog'iga iqtisod qilishning qat'iy dasturlarini amalga oshirolmaydigan rivojlanayotgan davlatlarning qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha og'irlikni kamaytirish.

2. BMT tomonidan rivojlanayotgan davlatlarga yordam berish ko'rsatkichiga – donor-davlatlar YAMMning 0,7 %iga erishish uchun yordam hajmini ko'paytirish.

3. Rivojlanayotgan davlatlarga, ayniqsa, hududiy savdo bloklarini shakllantirayotganlarga nisbatan proteksionistik tadbirlarni bekor qilish orqali ularning jahon savdosidagi ulushini ko'paytirish.

4. XVF va Jahon bankini isloh qilish.

Oxirgi bandga nisbatan shuni aytish mumkinki, XVF ko'proq rivojlangan davlatlar va xalqaro banklarning moliyaviy nizolarini hal qilib beruvchi xalqaro politsiya vazifasini emas, balki rivojlanish instituti rolini bajarishi kerak. Bank rahbariyati moliyalashtirish shartlarini ishlab chiqishda "egiluvchanlik"ni amalga oshirishi, ya'ni qatiy shartlardan iloji boricha voz kechishi va katta qarzlar yuki ostida qolib ketgan davlatlardan standart barqarorlashtirish dasturlarning qat'iy shartlari bajarilishini talab qilgandan ko'ra, asosiy e'tiborini bu davlatlarning milliy iqtisodiyotlari o'sishini ta'minlash muammolariga qaratishi kerak. Uchinchi dunyo mamlakatlariga ovoz berishda katta kvota berilishi kerak, fond siyosatini ishlab chiquvchi bo'linmalarda faol ishtirok etish yo'llari ochilishi kerak, shuningdek, maxsus qarz huquqlariga ega bo'lismi uchun ko'proq imkoniyat berilishi kerak.

Jahon banki ham XVF singari 1980-yillarda iqtisodiyotni tarkibiy isloh qilish uchun kreditlar berishning noqulay (noegiluvchan) qat'iy dasturini ishlab chiqdi, oqibatda bu dastur qarz oluvchi qashshoq davlatlarga foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirdi. Dastlab, boy davlatlar jamg'armalarini yig'ish va shu mablag'lar hisobiga rivojlanayotgan davlatlarda xususiy investorlar qo'l urmaydigan loyihalarni (infrastruktura loyihalari, sog'liqni saqlash va ta'limnga xarajatlar) kreditlashni maqsad qilgan bank keyinchalik aslida Uchinchi dunyo mamlakatlaridan resurslarni tortib oladigan bo'lib qoldi (1990 yilda 500 mln.dollardan ko'proq).

Jahon bankining ikkita bo'limi qarzlar berish bilan shug'ullanadi. Eng yirik bo'lim – Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) hozirgi davrda jahon foiz stavkalariga bog'langan suzuvchi foiz stavkalarida kreditlar beradi. Bu XTTBning dastlabki faoliyat konsepsiyasidan aniq chetga chiqishdir: u dastlab rivojlanayotgan davlatlarni foiz stavkalari tebranishlaridan himoyalash va bu guruhdagi davlatlarga beriladigan

qarzlarni qisman o'z fondlari va qisman sanoati rivojlangan donor-davlatlarning yordami hisobiga subsidiyalashni maqsad qilgan edi. Ikkinchi bo'lim – Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) – aholi jon boshiga YAMM (1992 yilda) 700 dollardan kam bo'lgan davlatlarga imtiyorli kreditlar berish (foizsiz, 40-50 yilga) bilan shug'ullanadi. Ammo, XRAning Jahon banki umumiy kreditlash hajmidagi ulushi 20-25 %dan oshmaydi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan barqarorlashtirish dasturlarini o'n yil davomida keng targ'ib qilib kelgan XVF, va ayniqsa, Jahon banki yordam dasturlarini tuzishda qat'iylikka hojat yo'qligini tushunib yetgan holda yana o'z e'tiborini qashshoqlikka qarshi muammolarga qarata boshladи. 90-yillar davomida bu xalqaro tashkilotlar oldiga Shimoldan Janubga o'tkaziladigan resurslar hajmini oshirish, va moliyalash shartlarini yordamni qabul qiluvchi davlatlarning haqiqiy ehtiyojlariga moslashtirish masalalari qo'yilgan. YUqorida ko'rsatilgan tadbirlarning amalga oshirilishi Uchinchi dunyo mamlakatlarning global bozorlarga integratsiyalashishi va jahon savdosi kengayishidan manfaat ko'rishga sharoit yaratgan bo'lardi.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirilishining dolzarbligi hozirgi moliyaviy inqiroz davrida yanada ortmoqda. Jahon moliyaviy inqirozi tufayli rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning Yaqin istiqbollari noaniqligi, jahon savdosi hajmlari esa 1982 yildan beri ilk bor qisqarishining ro'y berishi kuzatiladi. Iqtisodiy pasayish xomashyo tovarlari narxlarining tushishiga olib keldi.

Jahon bankining bashoratlariga ko'ra, jahon savdosi hajmi 2009 yilda 2,1 %ga qisqaradi, bu esa rivojlanayotgan mamlakatlardan eksportning kamayishini ko'rsatadi. 2009 yilda kreditlashtirish sharoitlarining kuchayishi va yuqori noaniqlik natijasida sarmoyalarning qo'shimcha o'sishi sekinlashadi. Rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar hajmi 1,3 %ga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa – 2007 yildagi 13 % o'rniga 2009 yilda 3,5 % qo'shimcha o'sadi.¹

Iqtisodiy pasayish ko'pgina rivojlangan mamlakatlarni qamrab olishi tufayli, ularning ayrimlari savdo to'siqlarini qo'llaydi degan xavflar mavjud. Ko'ptomonlama savdo tizimi shubxasiz sinovlar davrini boshidan kechiradi. Chunki rivojlangan mamlakatlar mahalliy sanoatni dotatsiyalash va qo'llab-quvvatlashning boshqa shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqdalar.

¹ www.rosbalt.ru

Xalqaro savdo jahon iqtisodiyoti rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlardan biriligicha qoladi. 2007 yilda rivojlanayotgan mamlakatlar savdosi hajmi deyarli 8 %ga ko'paydi, ushbu mamlakatlarga sof xususiy kapital oqimi esa ilk bor rekord ko'rsatkichga – 1 trln.dollarga yetdi. Juhon iqtisodiyotining o'sishi atigi 1 %ni, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlari esa avvalgi 6,5 % o'rniiga 4,5 %ni tashkil etadi.

Savdo, hozirgi moliyaviy inqiroz va jahon iqtisodiyotining kutilayotgan pasayish muammolari BMT tomonidan Doxada (Qatar) 2008 yil 29 noyabrdan 2 dekabrgacha o'tkazilgan Moliyalashtirish va taraqqiyot masalalari bo'yicha Xalqaro konferensiyada ham muhokama etildi. Ushbu anjuman 2002 yilda Monterrey shahrida (Meksika) bo'lib o'tgan konferensiyaning o'ziga xos davomi bo'lib hisoblanadi. Unda taraqqiyotga ko'maklashish bo'yicha yangi vazifalar qo'yilgan edi. Amalda barcha mamlakatlar xalqaro savdo rivojlanishini va xalqaro moliyaviy oqimlar harakatini ta'minlashlari zarur, chunki bu jahon iqtisodiy pasayishi zararlarini kamaytiradi deb ta'kidlanadi. Bundan barcha mamlakatlar, shu jumladan rivojlanayotgan mamlakatlar ham samara oladi.

Xalqaro Moliya korporatsiyasi (XMK) amalga oshirayotgan Savdoni moliyalashtirishning Global dasturiga qo'shimcha ravishda Juhon banki hozirgi vaqtida savdoni qo'llab-quvvatlash sohasida xizmatlar ko'rsatish ko'lagini kengaytirmoqda, xususan, Savdoni rivojlantirishga ko'maklashish mexanizmini yaratmoqda. Bu mexanizm 30 mln. AQSH dollarlik budgetga ega bo'lib, Yaqin uch yilda past daromad darajasiga ega mamlakatlarga savdoga ko'maklashish va ularga ushbu sohada texnik yordam ko'rsatishda mamlakat salohiyatini o'stirish bo'yicha faoliyat sifatini oshirish imkonini beradi. U rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro savdoda ishtiroy etish bilan bog'liq xarajatlarini qisqartirishga, va shu yo'l orqali jahon savdosi afzalliklaridan to'laroq foydalanishga, shu jumladan importga nisbatan standartlarga rioya etishda yordam berishga qaratilgan, bu esa ularga o'z eksport mahsulotlarini jahon bozoriga muvaffaqiyatli olib chiqish imkonini beradi.

Jahon bankingning savdoni rivojlantirishga ajratiladigan imtiyozli va oddiy kredit resurslari hajmi 2003 moliya yilidagi 560 mln. AQSH dollaridan 2008 yilda deyarli 1,4 mlrd. AQSH dollargacha yetdi. Asosiy o'sish mintaqaviy integratsiyaga, eksportni rivojlantirishga, raqobatbardoshlikni oshirishga va savdoni kengaytirishga ko'maklashuvchi savdo infrastrukturasiini rivojlantirishga ajratiladigan mablag'lar ulushiga to'g'ri keladi. 2008 yilda kredit resurslari 35 mamlakatga zaemlar va o'nta ko'pmamlakatli zaemlar ko'rinishida berildi,

mablag’larning ko’p qismi Yevropa va Markaziy Osiyo, shuningdek Saxroi Kabirdan janubdagagi Afrika mamlakatlariga to’g’ri keladi.

3.5. Rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy tizimlar islohotlari

Kreditlarni olish imkoniyatiga faqat kichik guruhdagi yirik qarz oluvchilarning ega bo’lishi, shuningdek, yuqori inflyatsiya, o’sib borayotgan budget kamomadi va manfiy real foiz stavkalari 80-yillarga kelib kam rivojlangan davlatlarda “kreditning qisilishi” degan vaziyatning vujudga kelishiga sabab bo’ldi. 1981-82 yillar va 1987 yildagi jahon iqtisodiyotidagi tushkunlik holatlari ko’pgina rivojlanish banklari beradigan kreditlarning ishonchsizligini ko’rsatdi. Masalan, 80-yillar oxiriga kelib bu kreditlarning deyarli yarmida kamida 25 % mablag’lar o’z vaqtida qaytarilmasligi kuzatildi. Yana boshqa berilgan kreditlarning $\frac{1}{4}$ qismida esa qarzdorlik 50 %dan ham ortiq edi. Jamg’arma depozitlariga real foiz stavkalari manfiy bo’lib turgan, inflyatsiya tezlashishi kutilayotgan va almashinuv kurslari doimo yomonlashib borgan, kapital chet elga katta miqdordorda chiqib ketgan bunday sharoitlarda odamlarning jamg’arishga intilmasligi hech kimni ajablantirmaydi.

Bundan tashqari tijorat banklari kreditlashda ko’plab to’siqlarga va amalda bozor narxidan ancha past darajada o’rnatilgan kredit foizlari bo’yicha davlat tomonidan belgilangan maksimal limitlarga duch keldi. SHuning uchun ular tabiiy ravishda mavjud kredit mablag’larini me’yorlashtirishga majbur bo’ldi. Aslida bozor darajalaridan ancha past bo’lgan maksimal foiz stavkalarida ham qarz kapitaliga bo’lgan talab mavjud taklifdan ancha yuqori bo’ladi. Oshib borayotgan talab mavjud chegaralangan talabni me’yorlashtirishga olib keladi, ya’ni “moliyaviy ushlab turish (chegaralash)” degan vaziyat vujudga keladi. Chunki belgilangan kredit foiz stavkalari xaqaqiy darajadan past bo’lgan holatda jamg’armalar yetishmasligi oqibatida investitsiyalar ushlab turiladi (chegaralanadi). Ochiq poraxo’rlik yo’q bo’lgan vaziyatda ko’pgina tijorat banklari kreditlash bo’yicha umumiylar xarajatlarning bir qismi sifatida ma’muriy xarajatlarni minimallashtirish uchun mavjud mablag’larni kichik guruhdagi yirik qarz oluvchilar o’tasida taqsimlashni afzal ko’radi. Shunday qilib, hukumatning ssuda foizlarini nazorat qilishidan keladigan sof natija kichik investorlarga yanada kamroq kredit berilishi bo’ladi. Faqatgina yuqoriroq foizlar olish yo’li bilangina banklar qo’shimcha ma’muriy xarajatlarni qoplashi va kichik kreditlar berishdagi riskni minimallashtirish mumkin. Natijada, kichik fermerlar va tadbirkorlar

moliyaviy mablag'larni olish uchun real bozor kurslaridan yuqori darajada foizlarni to'lashga rozi bo'lgan holda tartibsiz pul bozoriga murojaat qilishga majbur bo'ladi.

Muammoning taklif qilinadigan yechimlaridan biri – moliyaviy sektorning erkinlashtirilishi va nominal foiz stavkalarining bozor darajalarigacha erkin o'sishiga yo'l qo'yib berishdir. Bu ijobjiy foiz stavkalarini shakllantirgan va kreditlarning faqat yirik qarz oluvchilarga berilishiga yo'l qo'yadigan me'yorlashtiriladigan kredit mablag'lari tizimiga chek qo'ygan bo'lardi. Yuqori foiz stavkalari esa o'z navbatida ichki jamg'armalar va investitsiyalar hajmini oshirardi va qarz oluvchilarning tartibsiz bozorlardan taribli bozorlarga o'tishiga sabab bo'lardi. Jalon banki foiz stavkalarining erkinlashtirilishi jamg'armalar va investitsiyalarning oshishiga olib kelgan Tailand, Turkiya va Keniya kabi bir qator davlatlar ma'lumotlaridan kelib chiqib yuqoridagi xulosalarga kelgan. Ammo, 70-yillarda Chilida o'tkazilgan moliyaviy islohotlar natijalari haqidagi ma'lumotlar bu jarayonning bir qancha kamchiliklarini ham ko'rsatdi. Xususan, ko'plab banklar yirik konglomeratlar tomonidan egallanib olinishi va ko'paygan moliyaviy resurslar xususiyashtirilayotgan davlat korxonalarini sotib olish yoki o'z kompaniyalarini kengaytirish uchun foydalaniishi mumkin. Bu firmalarning ko'pchiligi moliyaviy yo'qotishlarga duch kelgan paytda esa bu konglomeratlar bankrotlikdan qutulib qolish uchun qo'shimcha qarz olishga majbur bo'lishdi. Shuning uchun Chili moliyaviy tizimi 80-yillardagi qarzdorlik inqirozi paytida juda qaltis ahvolga tushib qoldi.

Shunday qilib, tartibili pul sektorining isloh qilinishi va erkinlashtirilishi rivojlanayotgan davlatlar moliyaviy tizimlari uchun muammolarning osongina yechimi hisoblanmaydi. Moliyaviy tizimlariga moliyaviy chegaralashlarning bir qancha turlari xos bo'lgan Janubiy Koreya va Tayvan (undan avvalroq Yaponiya)ning muvaffaqiyati hukumatning oqilona va me'yordagi aralashuvi sanoat rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Foiz stavkalari o'rtasidagi farqlarning yo'qotilishi jamg'armalarining oshishi va investitsiyalarning samarali joylashtirilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lsada, moliyaviy islohotlar doim kichik fermerlar va investorlarning zaruriy kredit mablag'larini olishini osonlashtiruvchi bevosita tadbirlar va mahalliy elita qo'lida katta hajmda moliyaviy resurslarning to'planib qolinishining oldini olish maqsadida bank va moliyaviy sektorning hukumat tomonidan jiddiy nazorat qilinishi bilan birga amalga oshirilishi kerak.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bo'yicha tadbirlarning katta qismi budgetni balanslashtirish maqsadida hukumat xaratjatlarini kamaytirishga qaratilgan. Lekin ijtimoiy rivojlanish loyihalarni moliyalashtirish og'irligi budgetning daromad qismi zimmasida bo'lishi kerak. Davlatning ichki va tashqi qarzları jamg'armalar yetishmasligini faqat qisman qoplashi mumkin. Va oxir-oqibat davlat o'z rivojlanish dasturlarini o'zining soliqlarini samarali va adolatli yig'ish imkoniyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqishi kerak. Yaxshi tashkil qilingan va mahalliy darajada boshqariladigan pul bozorlari yo'q bo'lган rivojlanayotgan davlatlarning ko'pchiligi iqtisodiyotni barqarorlashtirish va ichki resurslarning samarali ishlatilishini ta'minlash uchun birinchi navbatda soliq siyosati qurollariga tayanishga majbur.

Ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarda to'g'ri soliq - bu jismoniy va xuquqiy shaxslarning daromadi va mulkidan olinadigan soliq bo'lib, ular yalpi soliqdan keladigan tushumning 20-30 %ini va YAIMning 12-20 %ni tashkil etadi. Egri soliqlar moliyaviy tushumning asosiy manbai bo'lib, bo'larga eksport-import bojlari, aksizlar (xarid va sotuvlardan soliqlar, oborotdan soliq) kiradi. 3.2-jadvalda rivojlanayotgan davlatlarning daromad manbai va soliqlar tarkibi ko'rsatilgan.

3.2-jadval. Ayrim rivojlanayotgan davlatlarning soliqlari tarkibi va daromad manbalari (soliqlar umumiy hajmiga nisbatan %da)

Mamlakat	To'g'ri soliqlar			Egri soliqlar			Boshqalar*
	Jismoniy shaxslar va korporatsiyalardan	Mulk soliqlari	Jami to'g'ri soliqlar	Import va eksport bojlari	Mahalliy aksizlar	Jami egri soliqlar	
Efiopiya	24,9	2,1	27,0	42,0	28,5	70,0	3,0
Hindiston	15,3	1,3	16,6	17,7	62,9	80,4	3,0
Somali	8,6	2,1	10,7	45,4	26,9	72,3	17,0
Indoneziya	81,2	1,5	82,7	6,0	10,7	16,7	0,6
Kongo	63,8	0,1	63,9	17,0	10,0	27,0	9,1
Keniya	32,7	2,2	34,9	22,7	41,0	63,7	1,4
Pokistan	18,6	0,3	18,9	40,5	40,6	81,1	0
Janubiy Koreya	26,6	1,1	27,7	16,4	51,5	67,9	4,4
Shri-Lanka	13,9	0,5	14,4	52,9	29,6	82,5	3,1
Tailand	20,7	1,3	22,0	23,0	49,0	72,0	6,0
Misr	27,9	1,9	29,4	27,6	17,6	45,2	35,4
Filippin	22,7	4,2	26,9	24,8	46,4	71,2	1,9
Marokko	21,3	2,5	23,8	24,7	39,1	63,8	2,4

* Boşqa soliqlарга жон солиг'и, герб йиг'ими, миллий суб'урта солиг'и ва даромаддан солиқ киради ва улар жисмоний ва хуқуқий шахслардан олиннишига кўра фарqlанмайди.

Tunis	19,3	2,8	22,1	32,4	29,5	59,9	18,0
Paragvay	14,9	6,6	21,5	27,7	20,0	47,7	30,8
Ekvador	29,2	3,5	32,7	33,7	18,2	51,9	5,4
Braziliya	13,1	1,8	14,9	29,6	48,3	77,9	7,8
Gonduras	28,1	0,9	29,0	43,1	26,8	69,0	1,1
Gana	26,8	ma'lumotl ar yo'q	26,8	37,1	36,0	73,1	0,1
Gvatemala	12,6	1,0	13,6	23,4	32,2	55,6	29,8
Kosta-Rika	15,5	2,4	17,9	20,4	32,1	52,6	29,6
Chili	20,5	2,3	22,8	3,3	53,0	56,3	10,1

Manba: Vito Tanzi, "Quantitative characteristics of the tax systems of developing countries." David Newbery, Nicholas Stern. *The Theory of Taxation for Developing Countries* © 1987 by the World Bank. Oxford University Press, Inc.

Aytib o'tish joizki, ko'pgina Uchinchi dunyo mamlakatlarida soliq tizimi (to'g'ri va egr) progressiv emas. Meksikaga o'xshagan davlatlarda esa yuqori darajada regressiv hisoblanadi (kam daromadli guruhlar yuqori daromadli guruhlarga nisbatan o'z daromadlarining katta qismini soliq sifatida to'laydi).

3.6. O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya munosabatlardagi ishtiroki

Jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvda ilg'or mamlakatlarning boy tajribalariga tahliliy yondashish va ushbu tajribalarni milliy xususiyatlar bilan eng optimal tarzda uyg'unlashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng o'zining mustaqil tashqi iqtisodiy siyosatini olib borish imkoniyati yuzaga chiqdi. Respublikaning tashqi iqtisodiy siyosati xalqaro moliyaviy munosabatlarda mamlakat milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan holda amalgalashiriladi va u quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mafkuraviy qarashlardan qati nazar tashqi munosabatlarda oshkoraliq;
- teng huquqli va o'zaro manfaatlari hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- o'zining milliy-davlat manfaatlari ustuvorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;
- respublika biron-bir davlatning ta'sir doirasiga kirmasligi tamoyiliga to'la amal qilish;
- to'la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama, shuningdek ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va ularni

rivojlantirish;

- umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlariga rioya etish.

Tashqi iqtisodiy soha tarmoqlari majmuini vujudga keltirmsandan turib, moliya, bank-kredit tashkilotlari, bojxona xizmati ishini xalqaro me'yorlar va talablar darajasida yo'lga qo'ymasdan, xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni tasavvur etib bo'lmaydi.

Tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarda quyidagi yo'naliishlar ustuvor hisoblanadi:

birinchidan, respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakkantirish;

ikkinchidan, eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozoriga kirib borish uchun, avvalo qimmatbag'o xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarini rivojlantirish;

uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi sub'yektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatishda o'z mahsulotlarini chet ellarda sotishda ko'prok erkinlik berish, tovarlarni eksport va import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat o'tkazish;

to'rtinchidan, xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko'lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa sharoitlarni yaratish;

besinchidan, xalqaro moliyaviy munosabatlarning tarkibiy majmuini vujudga keltirish;

oltinchidan, xalqaro huquq va xalqaro moliyaviy munosabatlar sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish.

Integratsiya munosabatlari, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakkllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanadi. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqaga ko'lamida integratsiya jarayonlariga qatnashsada, ammo bir muhim qoidaga amal qiladi, ya'ni bir davlat bilan Yaqinlashish boshqa bir davlat bilan uzoqlashish hisobiga bo'lmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo'lgan demokratik davlat haqidagi hozirgi zamon tushunchalariga mos ravishda jahon hamjamiyatiga kirishishi mumkinligiga asoslanadi.

Mamlakat jahon hamjamiyati bilan hamkorlik o'matgan takdirdagina, ya'ni xalqaro mehnat taqsimotida o'zining munosib o'mini topganda, mintaqaga va butun dunyo xavfsizlik tizimlarini barpo etishda faol

ishtirok etgandagina uni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning yangi sifat bosqichga olib chiqish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi rivojlanish va taraqqiyot yo'liga qadam quyib, iqtisodiy hamkorlik sohasidagi ko'pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zolari safiga kirib bormoqda. Qisqa vaqt oralig'ida respublika XVF, Jahon banki, XMT, Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti (JSST), Osiyo va Tinch okeani ijtimoiy-iqtisodiy komissiyasi (OTIK), YETTB, Xalqaro Moliya korporatsiyasi (XMK), Hamdo'stlikning mintaqaviy iqtisodiy tashkiloti (HMIT) va shu kabi qator xalqaro moliyaviy tashkilotlarga qabul qilindi.

Jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida so'z borganda, BMT faoliyatida O'zbekistonning ishtiroki e'tiborga loyiqdir. Faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga qaratilgan diplomatiyadan to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan vositalarga ega.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning strategik maqsadi — davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar: YEI, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti (YEXXT), Shimoliy Atlantika bloki (NATO), Qo'shilmaslik Harakati va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

1996 yilning iyul oyida Florensiyada O'zbekiston bilan YEI Kengashi o'tasida sherikchilik va hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Imzolangan ushbu bitim O'zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan yana bir muhim hissa bo'lib, bu sherikchilik iqtisodiy, malaniy, ilmiy va siyosiy sohalarni qamrab oladi.

Jahon banki bilan birqalikda O'zbekistonda milliy valutani mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish va to'lov balansini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va korxonalar darajasidagi islohotlarni amalga oshirish uchun tiklanish qarzi berish to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi va amalga oshirildi.

Xulosa

Global iqtisodiyotning vujudga kelishini nafaqat tovarlar va xizmatlar eksportining ulkan ko'lamlari, balki kapitalni olib chiqish, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlar shaklidagi mulkchilik huquqlari savdosi namoyon etmoqda. Xalqaro fond va valuta bozorlaridagi aylanmalar savdo aylanmalaridan o'nlab, ba'zan yuzlab marta ortiqdir. 1997 yilda jahon aksiyalar savdosi aylanmasi 40

trln. dollar, mamlakatlar o'rtasida valutani xarid qilish va sotish hajmi 400 trln. dollar deb baholangan edi. 2006 yilda turli kredit resurslarining hajmi ulkan miqdorga – 152 trln.dollarga yetdi.

Bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga kapitallarning katta oqimi ularning iqtisodiy rivojlanishining o'zaro bog'liqligini paydo qiladi. TMKlar o'zlarining tashkiliy, ishlab chiqarish va marketing tizimlarini chet mamlakatlar hududlariga yoyib, shu yo'l bilan tovar, xizmat, kapital va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etib, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga ta'sir etdi. SHuningdek jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e'tirof etish zarur.

Xalqaro valuta fondi (XVF) – bu BMTning maxsus tashkiloti. U 1944 yilda Bretton-Vudsdag'i valuta-moliya masalalari bo'yicha bo'lib o'tgan BMT konferensiyasida tashkil topgan va o'z faoliyatini 1946 yildan boshladi. XVFning vazifasi unga a'zo bo'lgan mamlakatlarning oltin va AQSH dollarida ifodalangan valuta zahiralarini tartibga solish hamda a'zo mamlakatlarning valuta paritetlarining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Globallashuv jarayonlari o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarda tegishli iqtisodiy siyosatni olib borishini taqozo etadi. Bu vaqtida iqtisodiy siyosatning vazifasi nafaqat jahon ho'jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimallashtirish, balki ushbu vaziyatda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavfni ham minimallashtirishdan iboratdir.

Jahon moliya bozorlarining o'sishi, ular raqobatdoshligining oshishi va faoliyat doiralarining kengayishi daromad darajasi past bo'lgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashishiga imkoniyat yaratadi. Lekin bir qator sabablar tufayli rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotida to'laqonli qatnashish imkoniyatlari xali mavjud emas.

XXI asr boshida rivojlanmay qolib ketgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini sezilarli darajada yaxshilash uchun samarali xalqaro tizim yaratilishi kerak. Zarur islohotlar sifatida ko'pincha quyidagilar ta'kidlanadi:

- bundan buyog'iga iqtisod qilishning qat'iy dasturlarini amalga oshirolmaydigan rivojlanayotgan davlatlarning qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha og'irlikni kamaytirish;

- BMT tomonidan rivojlanayotgan davlatlarga yordam berish ko'rsatkichiga – donor-davlatlar YAMMning 0,7 %iga erishish uchun yordam hajmini ko'paytirish;

- rivojlanayotgan davlatlarga, ayniqsa, hududiy savdo bloklarini shakllantirayotganlarga nisbatan proteksionistik tadbirlarni bekor qilish orqali ularning jahon savdosidagi ulushini ko'paytirish;
- XVF va Jahon bankini isloh qilish.

Tayanch iboralar:

Kapital eksporti, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlari, xalqaro fond va valuta bozorlari, kredit resurslari, xalqaro tashkilotlar, Xalqaro valuta fondi (XVF), moliyaviy islohot.

Nazorat uchun savollar:

1. Global moliya bozorlarining shakllanish xususiyatlari nimadan iborat?
2. Xalqaro moliya munosabatlarini tartibga solishda xalqaro moliya tashkilotlari qanday o'ringa ega?
3. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarda davlat moliya siyosatini olib borish xususiyatlarini tushuntiring.
4. Xalqaro moliya munosabatlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning ishtirok etishi qanday xususiyatlarga ega?
5. Rivojlanayotgan mamlakatlarda nima uchun moliyaviy tizimlar islohotlarini o'tkazish zarur?
6. O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya munosabatlarda ishtirok etish tamoyillari nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
2. Жумаев Н.Х., Абдурахмонов О.К. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози: сабаблари ва уни бартараф этиш муаммолари. Т.: Академнашр, 2010, - 160 б.
3. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.
4. А.А.Исаджанов. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, - 185 б.
5. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник /Под ред. Л.Н. Красавиной. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 576 с.

6. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.

7. Nazarova va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik – Т.: O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2005. - 224 b.

8. Г.Фишер. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. - М.: 2000.

4-BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA MEHNAT BOZORI

4.1. Jahon ishchi kuchi bozorining mohiyati va nazariy asoslari

Aholining ommaviy migratsiyasi jahon hamjamiyatining XX asr ikkinchi yarmidagi hayotining eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylandi. Aholi migratsiyasi deganda ma'lum hududlarda insonlarning doimiy yashash joyini almashtirish yoki unga qaytish sharti bilan ko'chib o'tishi tushuniladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro (tashqi) migratsiyaning turli shakllari – mehnat, oilaviy, rekreatsion, turistik va boshqa turdag'i shakllari mavjud. Biz xalqaro mehnat migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi bozori muammolarini ko'rib chiqamiz. Xalqaro ishchi kuchi bozori milliy chegaralarni kesib o'tuvchi turli-tuman mehnat resurslari oqimini qamrab oladi. Xalqaro mehnat bozori ishchi kuchining milliy va mintaqaviy bozorlarini birlashtiradi. Xalqaro mehnat bozori mehnat migratsiyasi shaklida namoyon bo'ladi. Jahon bo'yicha 1960 yilda 3,2 mln., 2004 yilda esa 35 mln.dan ortiqroq mehnatkash migrant mavjud bo'lgan.

Jahon mehnat bozori deganda ishchi kuchini sotish, sotib olish va undan foydalanishi bilan bog'liq bo'lgan davlatlararo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlар majmui tushuniladi¹. Jahon mehnat bozorida ishchi kuchining qiymati baholanishi bilan birga uni yollash, ish haqining miqdori, mehnat sharoitlari, ta'lim olish va kasb mahoratini o'stirish imkoniyatlari, ish bilan bandilik kafolatlari va boshqa bir qator shartlar aniqlanadi. Jahon mehnat bozori jahon aholisining ish bilan bandlik darajasi, uning tarmoqlar, kasb-malaka, demografik, ishsizlikning ko'lami va o'zgarishi kabi asosiy jarayonlarni aks ettiradi.

Jahon mehnat bozori ham boshqa xil bozor tizimlaridek makroiqtisodiy usullarni qo'llash sohasi bo'lib, u bir-biriga bog'liq bo'lgan talab va taklifning ta'sirida o'zgaradi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismalaridan biri sifatida jahon mehnat bozorining shakllanishi uchun mehnat munosabatlarini xuquqiy jihatdan ta'minlash, bozor rag'batlari samarali ta'sir ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratuvchi tashkiliy tadbirlar tizimini vujudga keltirish lozim. Jahon mehnat bozoriga o'tishning eng muhim sharti ish beruvchi bilan xodim o'rtaсидаги munosabatlarda tenglik va erkinlik o'rnatishdir.

¹ Акопова Е.С., Воронкова О.Н. Мировая экономика и МЭО. Учебное пособие – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004., с. 201.

Jahon mehnat bozorining iqtisodiy talablariga javob beradigan me'yorda amal qilishi esa bir qator shartlarning mavjud bo'lismeni taqozo qiladi. Ularning asosiyлари ko'yidagilardir.

- talab va taklifning erkin amal qilishini kafolatlovchi xuquqiy asoslarining mavjudligi;
- bozor sub'yeqtalarining erkin harakat qilishi uchun zarur zamin – iqtisodiy makonning mavjudligi;
- jahon mehnat bozori infrastrukturasing mavjudligi;
- ish haqi miqdorining chegaralanmaganligi, uy-joy bozorining mavjudligi va boshqalar.

Jahon mehnat bozorida amalga oshadigan munosabatlар doirasida asosan mamlakatlarning ishchi kuchini sotuvchi va sotib oluvchilar ishtirok etadi va bu jarayonga bir tomonidan ishlash istagi bor bo'lganlar (bunga ish bilan band bo'lganlar ham, ishsizlar ham kiradi), ikkinchi tomondan – tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun xodimlarni yollovchilar kiradi. Jahon mehnat bozori faqtgina bo'sh ish joylarini yaratishga va ishsizlarga ish topib berishgagina xizmat qilmasdan, balki keng mazmundagi amaliy muammo bo'lgan yollanma mehnat sohasini o'rGANISHNI ham o'z ichiga oladi.

Ana shuning uchun ham jahon mehnat bozori va aholini ish bilan band etish siyosatining ob'yekti bo'lib mehnat munosabatlari va unda jalb etilgan xodimlar bilan bog'liq keng miqyosli soha xizmat qiladi. Bunga ish haqi muammolari, mehnat sharoitlari, bajarilayotgan ishning hajmi va intensivlik darajasi, korxonalarda ish bilan ta'minlashning barqarorligi, mehnat motivlari, jahon mehnat bozorining egiluvchanligini ta'minlash, ishchi kuchini mehnatga tayyorlash va qayta tayyorlash va boshqalar kiradi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga ta'sir qiladigan omil ish haqidir. Ammo ushbu mexanizmdagi har bir o'zgarish uning tarkibiga kiruvchi boshqa unsularning ham darhol o'zgarishiga olib keladi.

Chunonchi ishchi kuchi miqdorining ortib ketishi ish haqining kamayib ketishiga va o'z navbatida ish joylari miqdorining nisbiy kamayishiga olib keladi va hakozo. Umuman olganda bu to'g'ridagi asosiy ilmiy-uslubiy tasavvurlarni jahon iqtisodiyoti amaliyoti va nazariyasidan bilib olsak bo'ladi. Hozirgi paytda jahon mehnat bozorining amal qilinishi va nazariy tushunchasiga har xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni o'rGANISH mehnat bozori haqidagi dunyoqarashimizni yanada boyitadi.

Neoklassik yondashuv. G'arb iqtisodiy nazariyasida mehnat bozoriga turli ishlab chiqarish zahiralaridan biri sotiladigan bozor deb

qaraladi. Bunda zamonaviy mehnat bozori amal qilishiga nisbatan mavjud bo'lgan 4 ta asosiy konseptual yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin¹. Birinchi konsepsiya asosida klassik siyosiy iqtisodiy postulatlar yotadi. Bu konsepsiyanı asosan neoklassiklar (D.J.Perri, M.Fidstayn, R.Xoll) ilgari suradi. 80-yillarda esa uni iqtisodiy taklif qilish konsepsiyası tarafdarları A.Laffer va boshqalar ham qo'llab-quvvatlashdi. Ushbu konsepsiya tarafdarları mehnat bozori ham boshqa bozorlar kabi baho muvozanati asosida harakat qiladi, ya'ni asosiy bozor regulatoryori bo'lib baho (bu holda ishchi kuchi bahosi) xizmat qiladi deb hisoblashadi. Ularning fikriga ko'ra aynan ish haqi yordamida ishchi kuchi talabi va taklifi tartibga solinadi. Hamda ularning muvozanati ta'minlab turiladi. Ta'lim va malaka oshirishga (inson kapitaliga) qilingan investitsiyalar – mashina va uskunalarga qilingan investitsiyalar kabitidir. Baho muvozanati modeliga ko'ra individ toki bu qo'yilmalarga foyda me'yori pasaymagunga qadar: «Malakali investitsiyalar» kelaveradi. Neoklassik konsepsiya ko'ra ishchi kuchi bahosi talab va taklifga bog'liq holda ko'payib yoki kamayib bozor ehtiyojiga tez moslashadi. Mehnat bozorida muvozanat mavjud bo'lgan sharoitda esa ishsizlik bo'lishi mumkin emas.

Ish haqining talab va taklif tebranishlarga to'la mos ravishda o'zgarishi hamda, ayniqsa ishsizlikning mavjud emasligi borasida jiddiy tarzda gapirib bo'lmasligi tufayli bu konsepsiya tarafdarları ular nazariyasingin hayot bilan mos kelmasligiga bozorning qaysidir “Nomukammalliklari” sabab deyiladi.

Bularga kasb uyushmalarining ta'siri davlat tomonidan ish haqi minimal darajasining belgilab ko'yilishi yetarli axborot yo'qligi va hokazolar kiradi. Bundan tashqari ishsizlikning go'yoki erkin xarakteri to'g'risidagi tezis ham oldingi suriladi. Ammo, agar ishsizlik erkin xarakterga ega bo'lsa, nima uchun iqtisodiy sikllar fazalariga bog'liq holda o'zgarib (tebranib) turadi degan savolga javob berishmaydi.

Keynscha yondashuv. Keyns va monetarchilar mehnat bozori amal qilishini tushuntirib berishga boshqacha yondashadilar. Neoklassiklardin farqli ravishda ular mehnat bozoriga doimiy va fundamental muvozanat xos deb hisoblashadi.

Keynscha model (J.M.Keyns, keyinroq R.Rordon va boshqalar) ishchi kuchi bahosi (ish haqi) qat'iy belgilangan va amalda o'zgarmaydi (ayniqsa kamayish tomonga) degan qoidadan kelib chiqadi. Modelning bu unsuri tasdiqlanib o'tirilmasdan shak-shubhasiz dalil sifatida qabul qilinadi. Keynschilar fikricha, bozor iqtisodi sharoitida to'la bandlikni

¹ Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 301

kafolatlovchi hech qanday mexanizm mavjud emas. Mazkur nazariyaga ko'ra, bandlik darajasini oshirish va real ishsizlikni kamaytirish tashqi omillarga bog'liq emas. Aksincha, mehnat bozoriga faol ta'sir yetkazishni ichki omillar, jumladan investitsiyalar va omonat qo'yilmalar orqali amalga oshirish darkor. Shu bilan birga bozor sharoitida tovarlar va ishchi kuchi bahosi pasayish tavsifiga egadir. Shunday qilib, bu omillar (tashqi – qurg'oqchilik, iqtisodiy pasayish va ichki omillar) iqtisodiyotni yanada qiyin ahvolga solib qo'yadi. Shuning uchun ham keynschilar mehnat bozorini avtomatik tarzda tartibga solish mexanizmini inkor qiladilar. Bu konsepsiyaga ko'ra baho (ish haqi) bozor regulyatori emasligi (bo'lmasligi) tufayli u chetdan kiritilishi kerak. Bunday regulyator rolini davlat bajaradi. Davlat yalpi talabni kamaytirib yoki ko'paytirib mavjud muvozanatsizlikka barham berish mumkin. Shunday qilib bu modelga ko'ra, ishchi kuchiga talab mehnatga bo'lgan bozor baholarining tebranishlari bilan emas, balki yalpi talab bilan, boshqacha qilib aytganda ishlab chiqarish hajmi bilan tartibga solinadi.

Monetarcha model. Keynscha yondashuv tarafдорлари singari monetarchilar maktabi vakillari ham ishchi kuchiga bo'lgan baholarning qat'iy strukturasida ham bu baholarning bir xil yo'nalishdagi o'sib boruvchi harakati shart-sharoitlaridan kelib chiqadilar. Monetarchilar tomonidan ishsizlikning tabiiy darajasi mehnat bozorining strukturasiga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Uning o'sishi bozordagi baholarni tez moslasha oladigan qilib qo'yadi. Normal amal qilishiga to'sqinlik qiladi, undan muvozanatsizlikni bundan kelib chiqqan holda esa albatta ishsizlikni kuchaytiradi deb hisoblanadi. Bu maktab vakillari fikriga ko'ra, mehnat bozori nobarqarorligini kuchaytiruvchi bunday salbiy omillarga davlat tomonidan ish haqi minimal darajasining belgilab ko'yilishi kasaba uyushmalarining kuchli ta'siriga ega ekanligi; vakansiyalar mavjudligi haqidagi hamda rezerv ishchi kuchi haqidagi axborotlarning yo'qligi kiradi. Monetarchilar bozorni muvofiqlashtirish uchun pul kredit siyosati dastaklarini qo'llashni taklif qiladi. Bunda so'z markaziy bankning uchyon stavkasi tijorat banklarining markaziy bank schyotidagi majburiy rezervlari hajmi kabi dastaklar haqida boryapti.

Jahon aholisi yoshiga bog'liq ravishda ikki tipdag'i odamlarni o'z ichiga oladi: mehnatga layoqatlari - 15-60 yoshlilar, mehnatga layoqatsiz bolalar va qariyalar. Aholi umumiy hajmining taxminan 70 foizi birinchi tipga tegishli, biroq bu ulush turli hududlarda o'zgarib turadi. Masalan, Osiyo va Afrikada voyaga yetmaganlar, Yevropa va Shimoliy Amerikada qariyalar ulushi yuqoriroq.

O'z navbatida mehnatga layoqatli aholi ham ikkiga ajratiladi: iqtisodiy faol va faol bo'limganlar. Uy bekalari, talabalar (ta'til paytida), davlat qaramog'idagi fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'limganlar iqtisodiy faol bo'limganlar qatoriga kiradi. Bizni iqtisodiy faol aholi, ya'ni mehnatga layoqatli va unga intiluvchi odamlar qiziqtiradi. Fuqarolarning aynan shu toifasi mamlakat ichkarisida va xorijdan ish qidirish jarayonida faol ishtirok etadi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi uzoq tarixga ega bo'lsada, faqatgina XX asrga kelib ishlab chiqarish omillari harakatining yetakchi ko'rinishlaridan biriga, binobarin XIMning alohida sohasiga aylandi.

Buni quyidagi sabablar bilan bog'lash mumkin:

- xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi;
- ijtimoiy-demografik o'zgarishlar;
- fan-texnika va axborot sohasidagi inqilob;
- integratsiya jarayonlarining rivojlanishi;
- transmilliy korporatsiyalarning faoliyati.

Bu barcha omillar mehnatga layoqatli aholining harakatchanligining kuchayishiga sababchi bo'ldi, zero insonlar mamlakatlar va qit'alararo ko'chish uchun rivojlangan kommunikatsiya infratuzilmasidan foydalanishadi. Hozirgi kunga kelib shunday jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) vujudga keldiki, bu bozor asosini milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiatи va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtaсидagi jami migratsion aylanmasi tashkil etadi. XXI asrning boshiiga kelib mehnatkash-migrantlarning bir yildagi o'rtacha miqdori 35 mln. kishiga yetdi (1960-yilda 3,5 mln.).¹ JIKB faqatgina migrantlarni emas, balki turli darajadagi migratsiya xizmatlarini, shuningdek, xorijiy mehnatkashlarning huquqiy maqomi, ularning mehnatini himoyalash, ularga ijtimoiy kafolatlar berish va boshqa masalalar bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarni ham o'z ichiga oladi. Fuqarolarni o'z vatanidan tashqarida ish qidirishga majbur etuvchi omillar ichida eng asosiysi tur mush darajasini yaxshilash va o'z qobiliyatlaridan unumli foydalanishga intilishlari hisoblanadi. Ayni paytda ishsizlik, qishloq xo'jaligida aholining ko'payib ketishi kabi salbiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar ham yashash joyini vaqtincha yoki doimiy o'zgartirishga sababchi bo'ladi.

¹ Назарова Г.Г., Хайдаров Н.Х. Халқаро иктисодий муносабатлар. Ўқув кўлланма. Т.: ТДИУ, 2005. 91-6.

4.2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va uning asosiy ko'rinishlari

Migratsiya - lotincha so'z bo'lib, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish ma'nosini anglatadi. Ushbu so'z keng ma'noda insonlar, hayvonlar, kapitallar, kimyoviy elementlarni yer qobig'idagi ko'chishini anglatadi va hokazo.¹

Har bir chegaraga tegishli aholining ko'chishi emigratsion va immigratsion oqimlarning yig'indisidan tuziladi. Emigratsiya chet elga chiqish bo'lsa, immigratsiya chet eldan kelishni bildiradi. Ushbu ikki oqim o'rtasidagi farq sof migratsiya hajmini beradi, ularning yig'indisi esa – yalpi migratsiya hajmini beradi.

Biron bir xalqaro mintaqadan boshqasiga ko'chib o'tish har doim insonlarga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir. Qadimgi zamонлардан boshlab aholi migratsiyasi odamzod tarixida, yer sharida uning tarqalishida, xalqlarni paydo bo'lishida katta rol o'ynagan.

Migratsion jarayonlarni rivojlanishida odatda uchta yirik to'lqin alohida ahamiyat kasb etadi.²

Birinchisi, eski migratsiya nomini olgan, XIX asrning deyarli 2/3 qismini o'z ichiga oladi. Bu davr uchun sanoat ishchilarining ko'chishi xarakterlidir.

Ikkinchi to'lqin XIX asr oxiri – XX asrning boshida o'z ta'sirini ko'rsatdi. U yangi migratsiya degan nom olgan. Ushbu davrda bankrotga uchragan xristianlar migratsiyasi kuzatiladi.

Ishchi kuchi migratsiyasining uchinchi to'lqini Ikkinchi jahon urushidan so'ng boshlandi. Bu bosqichda qoloq mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga o'zaro qarama-qarshi ikkita migratsion guruhlarning ko'chib o'tishi xarakterlidir. Bir tomonidan kam o'rganilgan va malakasiz ishchilar oqimining ustunlik qilishi kuzatilsa, boshqa tomonidan, ilmiy kadr va mutaxassislarning ko'chib ketishlari kuzatiladi.

Migratsion oqimlarning asosini ishchilar, past darajada – xizmatchilar tashkil etadi. Lekin, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida yangi ko'rinish bo'lib ilmiy texnik kadrlarning ko'chishi hisoblanadi. Insonlar yaxshiroq sharoitni izlab, o'z kuchini qo'llash va hayot darajasi yuqori bo'lgan joylarni qidirib, AQSH va G'arbiy Yevropaga ko'chib o'tishmoqda.

Jahon hamjamiyati Yaqin kunlargacha xalqaro darajadagi migratsion jarayonlarning o'ziga xosliklari va oqibatlari, ko'lamlarini sezmay kelgan.

¹ Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 301

² Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учебник. М.: 2005, С.306.

Hozirda u keskin vaziyatlarni hal qilish va migrantsion oqimlarni jamoaviy tartibga solish bo'yicha ko'pgina mamlakatlar harakatlarini to'g'ri yo'lga solish ehtiyojiga duch keldi.

Oxirgi paytlarda noqonuniy immigratsiya kuchaydi. Xitoyliklar AQSH va Rossiya chegaralarini o'tib borishmoqda, jazoirliliklar Fransiyaga ko'chib o'tishmoqda va hokazo. Noqonuniy immigratsiya tadbirkorlarga eng arzon va huquqsiz ishchi kuchidan foydalanish va buning natijasida katta daromadga egalik qilish imkoniyatini yaratmoqda. Shuning uchun ham Amerika politsiyasi noqonuniy meksikalik immigrantlar oqimiga bas kela olmayapti.

Institutsional, me'yoriy-huquqiy va boshqarishning moliyaviy mexanizmlari global, mintaqaviy va milliy darajalarda yaratilgan bo'lib, aholining xalqaro migrantsiyasi va migrantsion oqimlarni me'yorga keltirish sohasidagi keskinlikni asta-sekin kamaytirishga yordam berdi. XX asrning oxirgi o'n yilligi - XXI asrning boshlari shu bilan xarakterlidirki, mehnat resurslarini import va eksport qiluvchi mamlakatlar o'z migrantsion siyosatiga qator o'zgarishlar kiritdi.

Bir qator mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tishi jamiyatimiz hayotidagi turli o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni tadqiq qilish yoshlar uchun ish joylarini yaratish, ayollarning ishsizlik darajasi, qonunbuzarlikning ko'payishi, oila va qarindoshchilik aloqalarining susayishi kabi muammolarni ko'rsatmoqda.

Mehnat migrantsiyasi jahon kapitalistik xo'jaligining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga keldi. Jahon iqtisodiy rivojlanishining global xarakteri, jahon xo'jaligi aylanmasiga mamlakatlarning o'zaro bog'liqligi va ularning notekis iqtisodiy rivojlanishi migrantsyaning iqtisodiy sabablarini keltirib chiqaradi, ularga quyidagilar kiradi:

- mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar va uning natijasida ish haqi, hayot, ijtimoiy ta'minlanganlik darajalaridagi mamlakatlararo farqlar;
- mehnat resurslari bilan alohida mamlakatlarning ta'minlanganlik darajalaridagi farqlar;
- milliy ishlab chiqarishning moddiy o'zaro bog'liqligini o'sishi;
- TMKlarning rivojlanishi;
- iqtisodiy sikl davrlari: o'sish davrida ishchi kuchiga talab ko'payadi, inqiroz davrida pasayadi;
- jahon xo'jaligida iqtisodiy integratsiya jarayonlari, ular o'zaro birlashuvchi mamlakatlar orasidagi xalqaro ishchi kuchi migrantsiyasini

rag'batlantiradi, tajriba shuni ko'rsatadiki, bu jarayonlar uchinchi mamlakatlar uchun ishchi kuchini jalb qiluvchi yalpi markazlarga aylanmoqda;

- insonlar tomonidan boshqa mamlakatlar keng iqtisodiy imkoniyatlarga ega ekanligini tan olinishi, transport vositalarining rivojlanishi va arzonlashishi, xalqaro axborot tizimining kengayishi.

Xalqaro migratsiya aylanmasi tarkibini tushunib yetish uchun mehnat migratsiyasining ko'rinishlarini belgilab chiqish zarur, ularni turli mezonlarga ko'ra sinflash mumkin. Jahon tajribasida ishchi kuchi migratsiyasining shakllari quyidagicha guruhlanadi¹:

1) yo'nalishlar bo'yicha:

- rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik mamlakatlaridan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;

• sanoati rivojlangan mamlakatlar doirasida;

• rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida;

• yuqori malakali ishchi kuchining sanoati rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga migratsiyasi;

• rivojlanayotgan mamlakatlardan sobiq sotsialistik mamlakatlarga migratsiya.

2) geografik yo'nalishiga ko'ra:

• tashqi va ichki.

3) davomiyligiga ko'ra:

• doimiy, qaytmas (odatda bunday xarakterga mintaqalararo migratsiya, shunindek qishloqdan shaharga bo'lgan migratsiyalar ega),

• vaqtinchalik, qoida bo'yicha, mintaqaga ichkarisida;

• mavsumiy, pul topish niyatidagi har yili borib kelishlar;

• mayatnikli, yashab turgan manzildan yiroqda joylashgan har kunlik borib kelishlarni nazarda tutadi.

4) qonuniyligi darajasiga ko'ra:

• qonuniy va noqonuniy. Noqonuniy migrantlar – bu mamlakatga ish qidirib kirib kelgan shaxslar yoki qonuniy ravishda mamlakatga kirib, noqonuniy ravishda ishga joylashadigan shaxslar hisoblanadi.

5) ijtimoiy tarkibiga ko'ra:

• malakasiz ishchilar,

• o'rta texnik va servis xodimlari,

• talabalar (ta'til paytida),

• mutaxassislar,

¹ Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учебник. М.: 2005, С. 308.

- fan, madaniyat va sport arboblari, tadbirkorlar;
- 6) tabiatiga ko'ra:
- bevosita va bilvosita (TMK doirasida firma ichida).
- 7) mehnat shartnomasi ko'rinishiga ko'ra
- shaxsiy va jamoaviy;
- 8) qabul qiluvchi mamlakatdagi huquqiy holatga ko'ra¹
- assimilyatsion (keyinchalik fuqarolik berilishi) va noassimilyatsion.

Butun aholi migrantsiyasi bilan birligida alohida uning guruhlari – ijtimoiy, etnik va boshqa guruhlarning migrantsiyasi ham farqlanadi. Masalan, ishchi kuchi migrantsiyasini joylashtirishdagi farqlar natijasida ishga layoqatlari aholining ko'chishi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) klassifikatsiyasi bo'yicha doimiy ishlab turuvchi migrantlar deb, bir yildan ortiq bo'limgan muddatga ish topish niyatida mamlakatga kirib kelgan shaxslar hisoblanadi.

BMT klassifikatsiyasiga asoslanib zamonaviy xalqaro migrantsiyasining beshta asosiy turini farqlash mumkin:²

1. Bir joydan ikkinchi joyga ko'chib kelganlar, doimiy tarzda yashashga ko'chib kelganlar.

2. Kontrakt (shartnoma) bo'yicha ishlaydiganlar, ushbu shartnomada qabul qiluvchi mamlakatda yashash muddati aniq belgilangan bo'ladi.

3. Professionallar yuqori darajadagi tayyorgarlik, tegishli ta'lim, amaliy ish tajribasiga ega bo'lganlar, shuningdek, jahon tizimidagi oliy ta'limga asoslanib ko'chib kelgan o'qituvchi va talabalar.

4. Noqonuniy migrantlar, ish faoliyati bilan shug'llanuvchi, turistik yoki muddati o'tib ketgan vizaga ega bo'limgan xorijliklar.

5. Qochoqlar – qandaydir xavf tug'ilganda o'z Vatanini tark etishga majbur bo'lganlar.

Ushbu beshta zamonaviy xalqaro migrantsiyasining asosiy turlari davrlar mobaynida tashkil etilib, hozirgi kunda dunyo miqyosida keng tarqalgan. Shu turdag'i migrantlar mamlakat iqtisodiyotiga ham salbiy, ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro statistika ma'lumotlariga ko'ra, migrantlarning asosiy qismini ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligida band bo'lgan kam malakali ishchilar tashkil etadi. Shunday bo'lsa-da, mutaxassislarining, ya'ni TMKlar tuzilmasida e'tiborli va yuqori haq to'lanadigan mansablarni

¹ Назарова Г.Г., Хайдаров Н.Х. Xalqaro iqtisodiy munosabatlard. Ўкув ўзларни. Т.: ТДИУ. 2005. 92-6.

² Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учебник. М.: 2005, С.309.

egallagan yuqori malakali ishchi kuchining migrantsion oqimi («aqlilarni ketib qolishi») o'sib bormoqda. Bundan tashqari yildan yilga Yevropa Ittifoqi kabi integratsion birlashmalarda ayollar va yoshlarning safarbarligi kuchaymoqda.

4.3. Xalqaro ishchi kuchi migrantsiyasining asosiy yo'nalishlari va migrantlarni o'ziga jalg qiluvchi markazlar

Geografik yo'nalishga ko'ra mintaqalararo va mintaqa ichidagi tashqi aholi migrantsiyasi farqlanadi. Mehnat migrantsiyasining oqimlarining aniq qaerga harakat qilganligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ishchi kuchining birinchi ommaviy mintaqalararo ko'chishi majburiy tarzda bo'lgan. Bu XVII–XIX asrlardagi qullar savdosining rivojlanishi bilan bog'liq edi. Shunday oqim natijasida Afrika aholisi 1650–1850 yillarda 22 foizga qisqardi.

Ishga yollangan mustaqil shaxslar ko'chishi to'g'risida so'z yuritilganda XIX–XX asrlarda Yevropaliklarning okean ortiga chiqib ketishi eng yirik migrantsion oqim deb hisoblanadi. XIX asrda qariyb 30 mln. kishi emigratsiya qilgan. XX asr boshidan Birinchi jahon urushigacha Yevropadan 19 mln. ga yaqin kishilar chiqib ketgan, 1914–1918-yillarda migrantsiya to'xtalgan, keyinchalik esa qaytadan tiklandi, va 1918–1939-yillarda 9 mln. kishi emigratsiya qildi. Ikkinci jahon urushi Yevropadan okean ortiga aholi migrantsiyasining to'xtalib turishiga sabab bo'ldi, urush tugagandan so'ng u tiklanib, so'ngra susaya boshladi.

Emigrantlar asosan AQSHga yo'l olib, u yerda kapitalizm jadal rivojlanar edi. Shu bilan birga Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentina va boshqa davlatlarga ham ko'chish mavjud bo'lgan. Ushbu mamlakatlar aholisini o'sishining asosiy omili immigratsiya bo'ldi. Irlandiya, Angliya, Fransiya, Germaniya kabi Yevropa mamlakatlaridan immigrantlar kirib kelgan.

Oxirgi o'n yilliklarda nafaqat mintaqalararo, balki mintaqa ichkarisida yangi jahon ishchi kuchi bozorlari paydo bo'ldi.

Mehnat migrantsiyasi deyarli barcha milliy iqtisodiyotlarga xos jarayondir. Biroq uning jadallik darajasi jahoning u yoki bu hududlarida sezilarli farq qiladi. Mehnatkash-migrantlarning eng jadal oqimi ishchi kuchini eksport/import qiluvchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasida va tabiiy demografik o'sish sur'atida jiddiy farq bo'lganda kuzatiladi. Migrantsiyaning asosiy to'rt yo'nalishlari ichida jami migrantsiya oqimining hajmi bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlardan

rivojlangan mamlakatlar tomon ishchi kuchlarining ko'chishi birinchi o'rinda turadi. Mutaxassislar quyidagi migratsiya oqimlarini alohida ko'rsatib o'tishadi: G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari o'rtasida, sobiq sotsialistik mamlakatlardan bozor iqtisodiyotili mamlakatlarga, rivojlanayotgan yoki o'tish davri iqtisodiyotili davlatlar o'rtasida (masalan, Janubiy Amerika chegarasida, Ukrainadan Rossiyaga).

Ishchi kuchi migratsiyasining yana bir yo'naliishi, ya'ni rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan yoki o'tish davri iqtisodiyotili davlatlarga migratsiya uchrasada, bu yo'naliishi tanlovchi migrantlar soni unchalik ko'pchilikni tashkil etmaydi va ular TMKlarning shoxobchalari va sho''ba korxonalarida band bo'lgan kadrlar, turli xayriya tashkilotlari va fondlarining a'zolari, shuningdek, sarguzasht izlovchilar hamda tavakkalchilardan iborat.

Migrantlarni o'ziga tortuvchi boshqa bir «ohangrabo» Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridir. Ularga xorijiy ishchi kuchi jami aylanmasining $\frac{1}{4}$ qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Yevropa Hamjamiyati mamlakatlarining o'zida migrantlar va ularning oila a'zolarining o'zi 13 mln. kishini tashkil etadi. Bu hududda Fransiya (mamlakat aholisining 8 foizi – 4 mln.ga Yaqin Shimoliy Afrikadan kelgan immigrantlar), Germaniya (7,5 foiz – 4630 ming) yetakchilik qilmoqda. Belgiyada – 1 mln.ga Yaqin ispanliklar va italiyaliklar, Shvetsiyada – 1 mln finnlar hisobga olingan. Bulardan tashqari Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Avstriya ham ishchi kuchi qabul qilishda oldingi o'rnlarda turadi.

Yevropa ekspertlarining bashorati bo'yicha, umumiyligi bozor yaratilishidan so'ng migratsion oqimlarda bir necha o'zgarishlar ro'y beradi. Past malakali ishchilarni ommaviy immigratsiyasining yomon tashkil etilishining o'rniga maqsadga yo'naltirilgan jamoaviy kelishuvlar paydo bo'ladi. migratsiyaning ko'p qismini past va o'rta malakali ishchilar tashkil etayotganiga qaramay, yuqori malakali ishchilar ustun turuvchi huquqqa ega bo'ladiilar.

Ishlovchi-migrantlarni jalb qiluvchi ikkinchi markaz 70-yillarda Yaqin Sharq mintaqasida paydo bo'ldi. Neft qazib oluvchi mamlakatlar Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Iordaniya, Yaman, shunindek, Gretsiya, Turkiya, Italiyadan ishlashga ko'pchilikni jalb qilgan. 90-yillar boshiga kelib u yerda 4,5 mln. xorijliklar ishlagan (mahalliy ishchilar shu davrda 2 mln. kishini tashkil etgan). Alovida mamlakatlar ishchi kuchining umumiyligi miqdorida immigrantlar ulushi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda, Birlashgan Arab Amirliklari u 97 % ni , Quvaytda – 86,5 %ni, Saudiya

Arabistonida – 40 %ni tashkil etgan, ya’ni butun ishchi kuchining ko’p qismini tashkil etgan.

Yevreylar (yaxudiyilar) Yaqin Sharqda migrantlarning ahamiyatli guruhini tashkil etadi. 1989-1994-yillarda MDH mamlakatlardan Isroilga 500 ming kishi ko’chib kelgan. Sobiq kommunistik mintaqadan yevreylarni qochib ketishining asosiy sabablariga etnik Vatanga qaytish, siyosiy noaniqlik va iqtisodiy qiyinchiliklardan qochish, qarindoshlar bilan birlashuv va diniy sabablar kiradi. Isroil barcha yahudiylarni o’zlarining tarixiy vatanlariga qaytarishga harakat qilmoqda. Yaxudiylarning «Jannatmakon yer»ga migratsiyasi umuman olganda siyosiy sabablar tufayli bo’lsada, uning iqtisodiy jihatlari ham mavjud, turmush darajasi past bo’lgan mamlakatlardan Isroilga kelayotgan migrantlar oqimining jadalligi ham bundan dalolat beradi.

Ishchi kuchini o’ziga tortuvchi markazlar ichida eng yirik va 300 yildan beri mavjud bo’lgan markaz Shimoliy Amerika (AQSH va Kanada) hisoblanadi. Amerikalik statistlarning ma’lumotlariga ko’ra, 90-yillarda davomida belgilangan kvota 675 ming kishi bo’lishiga qaramay yiliga 1 mln.dan ortiq migrantlar AQSHga kirib kelgan. Ushbu mamlakatning mehnat resurslari tarixdan ma’lumki immigrantlar hisobiga tashkil topgan. Hozirgi paytda ham mamlakat ishchi kuchining 5 %ga Yaqinini xorijliklar tashkil etadi. Urushdan keyingi immigratsiya ushbu mamlakatda bir necha bosqichlarga ega. Birinchisi kuchli Yevropa oqimini tashkil etib, G’arbiy Yevropa mamlakatlardan AQSHga 6,6 mln. kishi kirib kelgan. Ikkinchisi 1965 yilda boshlanib, bu paytda Osiyo va Lotin Amerikasidan kelganlarga qulay sharoit yaratuvchi qonun qabul qilingan. 1993 yildan uchinchi bosqich boshlanib, bu paytda Yevropa – Irlandiya, Polsha, shuningdek Argentinadan emigrantlarga talab ko’p bo’ldi.

To’rtinchi xalqaro mintaqasi Avstraliyada o’z ifodasini topdi. Ushbu mamlakatda 200 mingta xorijiy ishchilar faoliyat ko’rsatmoqda. Avstraliya o’z siyosatini, AQSH singari immigrantlarni o’zlashtirishga yo’naltirdi. Bundan tashqari, 1982 yildan boshlab Avstraliya mamlakatda biznesni rivojlanishiga ko’maklashuvchi migrantsion siyosatni olib bormoqda. Unga asosan, mamlakatga birinchi navbatda iqtisodiyotga investitsiya qiluvchi immigrantlar qabul qilinadi.¹ Avstraliya hukumati mamlakat hududining katta qismida aholi zichligi darajasining pastligi va uning tarkibida xitoy millati ulushining ko’payib borayotganidan xavotirda. SHuning uchun ham Kanberra tomonidan Avstraliya mamlakatiga - qit’aga oq irqga mansub

¹ Колосова Р.П., Артамонова М.В. и др. Глобализация экономики и занятость населения. Учебное пособие, М. 2000.

aholini, asosan fertil (turmush qurish va farzand ko'rishga qodir) yoshdagi ayollarning ko'chib o'tishini rag'batlantirish borasida chora-tadbirlar majmui e'lon qilingan.

Mehnat migratsiyasining beshinchi markazi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi – Bruney, Yaponiya, Gonkong, Malayziya, Singapur, Koreya, Tayvan, Pokiston bo'lib hisoblanadi. Masalan, Yaponiya ishchi kuchini kiritaboshlab, odatda, ular koreyslar edi, ammo oxirgi paytlarda qora ishni bajaruvchi eronliklar ham paydo bo'la boshladi. Shu bilan bir paytda Yaponiya mazkur mintaqaga mamlakatlariiga uning to'g'ri investitsiyalarini amalga oshiruvchi yuqori malakali ishchi kuchini chiqara boshladi. Ushbu migratsiya tranzit professional migratsiya degan nom olgan.

Lotin Amerikasida ishchi kuchini jalg qiluvchi oltinchi markaz tashkil bo'lgan, u yerda immigrantlarni asosan Argentina va Venesuela qabul qiladi. Migrantlarning umumiy soni 3 mln. kishini tashkil qilib, ko'pchilik qismi lotinamerikaliklardan tarkib topgan. Biroq Argentina, Boliviya, Braziliya, Venesuela, Chili va Paragvay Sharqdagi Yevropaliklarni jalg qilish bo'yicha maxsus dasturni subsidiya qilishdi, shular qatorida sobiq SSSRdan chiqib kelganlar ham mavjud. Ular neftchilar, injenerlar, ximiklar, fermerlarga katta ehtiyoj sezmoqda.

Bulardan tashqari Afrika markazi ham mavjud. Taxminiy baholarga ko'ra Afrikadagi mamlakatlارaro migratsiya 2 mln. kishini tashkil etadi. Asosan boyroq Afrika davlatlari qo'shni mamlakatlardan malakasiz ishchilarni qabul qilishadi. JAR sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlaridan mutaxassislarining oqimiga qiziqish bildiradi.

Asosiy migratsiya oqimining geografik yo'nalishlari bo'yicha jahon ishchi kuchi bozorining 4 ta yirik markazini asosiy deb aytish mumkin: Yaqin Sharq; G'arbiy Yevropa; AQSH va Kanada; Avstraliya.

MDH doirasida Rossiya yirik markaz bo'lsa-da, u ham eksportyor, ham importyor mamlakat sanaladi. Rossiyadan MDH dan tashqariga ishchi kuchi eksport qilinsa (yiliga 10 ming kishi), MDH mamlakatlaridan - asosan Ukraina, Belorusiya, Moldaviya, Qozog'istondan (yiliga 300-500 ming kishi) import qilinadi.

4.4. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining dinamikasi

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda dunyoda migrantlarning ulushi ko'rsatkichining bargarorligi kuzatiladi. 4.1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 1960-2010 yillarda ushbu ko'rsatkich juda oz miqdorda, ya'ni 2,7 %

dan 2,8 %gacha o'sdi. Taqqoslashni osonlashtirish uchun bu ma'lumotlarga sobiq SSSR va Chexoslovakiya kiritilmagan. Buning sababi bu davlatlarning negizida barpo bo'lgan yangi mustaqil davlatlar migrantlar sonining sun'iy o'sishiga olib keladi. Masalan, 1991 yilda Sovet Ittifoqi tarqalib ketgandan so'ng, 28 mln. kishi bir zumda xalqaro migrantlarga aylandi, chunki statistika bo'yicha migrant – bu o'zi tug'ilgan mamlakatdan tashqarida yashayotgan shaxsdir.

4.1-jadval. 1960-2010 yillarda xalqaro migrantlarning mintaqaviy taqsimlanishi

	1960			2010		
	Migrantlarning umumiysi, mln kishi	Umumjahon migrantlar sonidagi ulushi, %	Aholinin g ulushi, %	Migrantlarning umumiysi, mln kishi	Umumjaho n migrantlar sonidagi ulushi, %	Aholinin g ulushi, %
Dunyo (sobiq SSSR va CHexoslovakiyadan tashqari)	74,1		2,7	188,0		2,8
Mintaqalar bo'yicha						
Afrika	9,2	12,4	3,2	19,3	10,2	1,9
Shimoliy Amerika	13,6	18,4	6,7	50,0	26,6	14,2
Lotin Amerikasi va Karib xavzasi	6,2	8,3	2,8	7,5	4,0	1,3
Osiyo	28,5	38,4	1,7	55,6	29,6	1,4
FKADHK* mamlakatlari	0,2	0,3	4,6	15,1	8,0	38,6
Yevropa	14,5	19,6	3,5	49,6	26,4	9,7
Okeaniya	2,1	2,9	13,5	6,0	3,2	16,8


* FKADHK - Fors ko'rfazi arab davlatlarining hamkorlik kengashi

Manba: Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009. С.30.

1991 yildan so'ng SSSRda kishilarning ko'chib yurishi o'ziga xos sabablarga va xususiyatlarga ega. Bir tomondan, ro'yxatga qo'yish tartibining susayishi kishilarning harakatchanligini oshirdi. Boshqa tomondan, milliy chegaralarning mustahkamlanishi kishilarning ko'chishini kamaytirdi. Bundan tashqari 1991 yildan keyingi ko'chish kishilarning o'z kelib chiqish mamlakatiga qaytish xarakteriga ega. Haqiqiy ahvolni aniqlash uchun 1991 yilgacha va undan keyingi davrda aholini ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari tahlil qilingan. Bunda, SSSR respublikalarida chet elda tug'ilgan fuqarolar soni birozgina o'sgani, ya'ni 1959 yildagi 10 % dan 1989 yilda 10,6 % gacha o'sganini ko'rish mumkin. 1990 yildan so'ng turli mamlakatlarda turli tendensiyalar

kuzatiladi. Masalan, Rossiyada migrantlar soni aholining 7,8 % dan 9,3 % gacha o'sdi. Boshqa mamlakatlarda ularning absolyut miqdori kamayib bordi. Masalan, SSSR hududida 1990 yilda 30,3 mln kishi xorijda tug'ilgan bo'lsa, 2000 yilda ularning soni 27,4 mln kishini, 2005 yilda esa – 26,5 mln kishini tashkil qildi. Bu ko'pchilik aholining o'z vataniga qaytib ketishi bilan tushuntiriladi.

2005-2010 yillar mobaynida jahonda migrantlar soni 18,7 million kishiga o'sdi. Joriy o'n yillikda umuman dunyo bo'yicha xalqaro migrantlar sonining qo'shimcha o'sish sur'atlari 1990-yillarga nisbatan o'sdi. Agar 1990-1995 yillarda dunyo bo'yicha xalqaro migrantlar sonining o'rtacha yillik qo'shimcha o'sish sur'ati yiliga 1,3 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 1995-2000 yillarda – 1,5%, 2000-2005 va 2005-2010 yillarda – 1,8% ni tashkil etdi (4.1-rasm).




4.1-rasm. Xalqaro migrantlar sonining o'rtacha yillik qo'shimcha o'sish sur'ati, %*

Shu bilan birga, agar xalqaro migrantlar sonidan qochoqlar sonini ayirib tashlasa, ularning soni oldingi besh yilliklarda (1990-2005 yillar) yanada tez o'sdi, lekin 2005-2010 yillarda xalqaro migrantlarning ushbu

* Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009. С.32.

“tozalangan” guruhining o’rtacha yillik qo’shimcha o’sish sur’ati ochoqlarni hisobga olgan holatdagidan birmuncha kamroq (yiliga 1,7 %).



4.2-rasm. 2005-2010 yillarda dunyoning yirik mintaqalarida xalqaro migrantlar sonining o’rtacha yillik qo’shimcha o’sish sur’ati, %*

1900-2005 yillarda rivojlangan mamlakatlarda xalqaro migrantlar sonining qo’shimcha o’sish sur’atlari rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan sezilarli yuqori edi, biroq 2005-2010 yillarda o’zaro nisbat o’zgardi: rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro migrantlar sonining qo’shimcha o’sish sur’atlari (qochoqlarni hisobga olgan holda) rivojlangan mamlakatlarda xalqaro migrantlar sonining qo’shimcha o’sish sur’atlaridan (qochoqlarni hisobga olgan va ayirgan holda) yuqori bo’ldi va yiliga 2 %gacha ko’tarildi. Agar rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro migrantlarning umumiy sonidan qochoqlarni ayirib tashlasa, qo’shimcha o’sish sur’ati birmuncha pasayadi (1,6%), xolbuki ilgari aynan shu guruh tezroq o’sgan edi. 2005-2010 yillarda dunyoning yirik mintaqalarida xalqaro migrantlar sonining o’rtacha yillik qo’shimcha o’sish sur’ati

* Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009. С.33.

ayniqsa Janubiy Afrikada (7,3%) va Janubiy Yevropada (5,2%) yuqori bo'ldi. Sharqi Afrika va O'rta Osiyoda xalqaro migrantlar sonining qisqarishi kuzatiladi (4.2-rasm).

SSSRning 5 ta sobiq O'rta Osiyo respublikalaridan 4 tasida (Qozog'istondan tashqari) xalqaro migrantlar sonining qisqarishi ro'y berdi. Eng ko'p pasayish Qирг'изистонда – yiliga 5 %ni tashkil qilsa, qolganlarida taxminan yiliga 1,5 foizni tashkil etadi.¹

Har bir mamlakatda xalqaro migrantlar soni nafaqat immigratsiya va emigratsiyaning ma'lum balansi natijasida, balki ularning tabiiy kamayishi (o'lishi) hisobiga shakllanadi. Mutaxassislar 2005-2010 yillarda xalqaro migrantlar sonining umumiy qo'shimcha o'sishi 24,4 mln kishini, bu davrda o'lganlar soni 5,7 mln kishini tashkil qilishini hisoblab, natijada xalqaro migrantlar sonining 18,7 mln kishiga ko'payganligini e'tirof etadilar.

Ko'rib chiqilayotgan davrda rivojlangan mamlakatlarda sof xalqaro migratsiya 14,7 million kishini, rivojlanayotgan mamlakatlarda – deyarli 9,7 million kishini tashkil qiladi.

Yevropada bu ko'rsatkich – deyarli 8,1 million kishini, shu jumladan Janubiy Yevropada – 3,8 million kishini, Shimoliy va G'arbiy Yevropada – 1,5 million kishidan iborat miqdorni tashkil qildi. Shimoliy Amerikada – 5,8 million kishiga teng.

Osiyoga sof migratsiya 2005-2010 yillarda deyarli 6,8 million kishini, shu jumladan G'arbiy Osiyoga - 4,2 million kishi, Janubi-Sharqiy Osiyoga - 1,2 million va Janubiy Osiyoga – 0,8 million kishini tashkil qiladi.

Xalqaro migratsiya hisobiga 2005-2010 yillarda rivojlangan mamlakatlar aholisi o'rtacha yiliga 2,2% o'sdi, rivojlanayotgan mamlakatalar aholisi esa 0,5 %ga pasaydi.


Xalqaro migratsiya ko'p jihatdan jahon aholisi tizimida davom etayotgan demografik siljishlarga javob tariqasida rivojlanmoqda. Rivojlangan mamlakatlar aholining keksayishi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan mehnat qiluvchilarning boqimandalarga nisbatan yetishmasligi muammosini hal qilishga majbur, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ularning iqtisodiyoti uchun mehnatga layoqatli aholining ortiqchaligi bosimiga duch kelmoqda.

2005-2010 yillarda rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar bilan migratsion ayrboshlashning o'rtacha yillik saldosi

¹ United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division International Migration 2009. Wall Chart. – http://www.un.org/esa/population/publications/2009Migration_Chart/itmig_wallchart09.pdf

yiliga 2,7 million kishini yoki 2,2% ni tashkil qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisini migratsion qisqarishining jadalligi birmuncha pastroq – 0,5%, 49 ta eng past rivojlangan mamlakatlar guruhida migratsion qisqarish 315 ming kishini, yoki yiliga o'rtacha 0,4% tashkil qilgan.

Migratsion ayrboshlash natijasida absolyut ko'rsatkichlarning eng ko'p kamayishi Osiyoda, o'rtacha 1,1 million kishiga pasayish kuzatiladi. SHuningdek, migratsion ayrboshlash natijasida Lotin Amerikasi aholisi (804 ming kishiga) va Afrika aholisi (1,0 million kishiga) kamaydi. Shimoliy Amerika aholisi, aksincha, 2005-2010 yillarda migratsion qo'shimcha o'sish hisobiga yiliga o'rtacha 1,2 million kishiga, Yevropa – 1,3 million kishiga ko'paydi. Migratsion qo'shimcha o'sishning jadalligi Shimoliy Amerikada, migratsion kamayish esa – Lotin Amerikasida eng yuqori bo'ldi (4.3-rasm).




4.3-rasm. 2005-2010 yillarda dunyo mintaqalari bo'yicha migratsiyaning o'rtacha yillik saldosи, ming kishi va % *

Dunyoning yirik mintaqalari orasida aholining jadal migratsion o'sishini Janubiy Yevropada (yiliga o'rtacha 4,9%), undan keyingi o'rirlarda Shimoliy Amerikada (3,6%) va AQSHda (3,3%) mavjudligini

* Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009. С.35.

ta'kidlash lozim. Umuman Sharqiy Yevropa bo'yicha migrations qo'shimcha o'sish (aniqrog'i kamayish) nolga Yaqin bo'lди (4.4-rasm).



4.4-rasm. 2005-2010 yillarda dunyo mintaqalari bo'yicha migrationsiyaning o'rtacha yillik saldosи, ming kishi va %*

Ayni vaqtida, Afrika aholisining migrations kamayishi sharoitida, umuman Shimoliy Afrika aholisining migrations qo'shimcha o'sishi (yiliga o'rtacha 2,4%, ya'ni G'arbiy Yevropa ko'rsatkichidan yuqori va Shimoliy Yevropa ko'rsatkichidan biroz past darajada) kuzatiladi.

Avstraliya va Yangi Zelandiya aholisining jadal migrations qo'shimcha o'sishi (yiliga +4,4%) holatida, Okeaniyaning orol qismida, ayniqsa Polineziyada (yiliga minus 8,5%) aholining migrations kamayishini ko'rish mumkin.

2005-2010 yillarda yillar bo'yicha sof migrationsiyaning jadalligi baholari mavjud bo'lgan dunyoning 206 ta mamlakati va hududlaridan 10 tasida, shu jumladan Qatar, Singapur, G'arbiy Saxroi Kabir, Makao (KNR), BAA, Liberiya, Islandiya, Quvaytda u 10 %dan yuqori bo'lди. Sof migrationsiyaning jadalligi qo'shimcha o'sishi (yiliga +1,5%) holatida, Okeaniyaning orol qismida, ayniqsa Polineziyada (yiliga minus 8,5%) aholining migrations kamayishini ko'rish mumkin.

* Trends in international migrant stock: The 2008 Revision. CD-ROM Documentation. POP/DB/MIG/Stock/Rev/2008 – July 2009/

jadalligi Irlandiya, Lyuksemburg, Iordaniya, Burundi va Ispaniyada 8-9% atrofida namoyon bo'ldi. BMT mutaxassislarining baholashicha, 2005-2010 yillarda 86 ta mamlakatning aholisi migrantsion qo'shimcha o'sish hisobiga ko'paydi.

Shunday qilib, dunyoning ko'pchilik mamlakatlari va hududlarida aholi boshqa mamlakatlar va hududlar bilan migrantsion almashuv hisobiga ko'paydi. 10 % dan yuqori jadallikka ega migrantsion kamayish 11 ta mamlakatlar va hududlarda – Polineziya va Mikroneziya, Zimbabve, Gruziya va Gayananing ayrim mamlakatlarida kuzatiladi.

Rivojlangan mamlakatlarga ko'chib kelayotgan xalqaro migrantlarning ko'pchilik qismi rivojlanayotgan mamlakatlardan kelib chiquvchilardir. 2000-2007 yillarda AQSH va Kanadaga kelgan immigrantlar orasida 80% ni rivojlanayotgan mamlakatlardan kelib chiquvchilar tashkil qiladi. Avstraliya, Buyuk Britaniya va Ispaniyaga ko'chib kelganlar orasida ularning ulushi 50-60%ga teng. Lekin Germaniyaga kelganlar orasida ularning ulushi 1/3 qismdan ham kamchilik¹.

Pul o'tkazmalari. BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda jahonda 200 mln.dan ortiq kishi o'z vatanini tark etib, chet elda yashaydi. Demak, migrantlarning umumiyligi soni ayrim mamlakatlarning, masalan, Braziliyaning aholisidan (2008 yilda 192 mln kishi) ko'pdir.² Ularning pul o'tkazmalari ko'pincha nafaqat ularning oilalari uchun eng muhim qo'shimcha doimiy daromadlarning manbaiga, balki umuman mamlakat uchun ham valuta tushumlarining muhim manbaiga aylanadi.

So'nggi yillarda ilmiy jamoatchilik, xalqaro tashkilotlar va tadbirkorlik tuzilmalarining mamlakatlararo pul o'tkazmalarga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Bu mablag'lar ko'pchilik mamlakatlar, birinchi galda kambag'al mamlakatlar uchun tashqi moliyalashtirishning yirik barqaror manbai sifatida qaraladi.

Hozirgi moliyaviy inqiroz davrida jahon va mintaqaviy miqyosda bunday pul o'tkazmalarning roli, ko'lami va yo'nalishlarining qanday o'zgarayotganligi dolzarb masalaga aylangan. Bu ayniqsa rivojlanayotgan, shu jumladan Afrika mamlakatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Pul o'tkazmalari xalqaro migrantsianing bevosita va eng sezilarli samarasini namoyon etadi. Juhon banki ma'lumotlariga ko'ra, keyingi


¹ Costanza Giovannelli. Trends in international migrant stock: The 2008 Revision. - United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division, Migration Section, Eighth Coordination Meeting On International Migration. - New York, 16-17 November 2009.

http://www.un.org/esa/population/meetings/eighthcoord2009/UNDESA_PopDiv.pdf

² И.Абрамова. Денежные переводы мигрантов: роль в социально-экономическом развитии Африки. //МЭ и МО. 2009, №7.

yillarda ularning miqdori bir necha barobar o'sdi: 2007 yilda pul o'tkazmalarining umumiy hajmi butun jahon bo'yicha 380 mlrd. dollarni tashkil qildi, bu 1990 yilga (102 mlrd.doll.) nisbatan uch barobardan ortiq, 2006 yilga (296 mlrd. doll.) nisbatan esa 7 % ko'pdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarga rasmiy qayd etiladigan ma'lumotlarga ko'ra 246 mlrd dollar yuborilgan. Haqiqatda esa ular ancha ko'pdir. Umuman olganda rivojlanayotgan mamlakatlarga migrantlarning rasmiy va norasmiy transfertlari Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlariga taqdim etiladigan Taraqqiyot rasmiy yordam miqdoridan taxminan uch barobar ortiq hamda ularga yo'naltirilayotgan to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalarning deyarli 65 %ini tashkil qiladi.¹

Rivojlanayotgan mamlakatlarga transfertlarning ulushi tez o'smoqda, 1990 yilda u 55 % ga, 2000 yilda – 60%, 2007 yilda esa – 75 % ga yetdi.² BMT ekspertlarining baholariga ko'ra, 2007 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga migrantlarning pul o'tkazmalarini miqdori YAIMning 1,9%ni, rivojlangan mamlakatlarga pul o'tkazmalarining ulushi esa – YAIMning 0,4% ni tashkil qiladi.



4.5-rasm. Asosiy dunyo mintaqalari bo'yicha migrantlarning pul o'tkazmalarini, 2007 yil, joriy kurs bo'yicha mlrd. doll. va YAIMning foizi*


¹ Dilip Ratha. Leveraging Remittances for Development. Wash., 2007. P.8.

² <http://migration.ucdavis.edu>

* Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009. С.37.

Migrantlarning pul o'tkazmalari ko'rinishidagi mablag'larning eng ko'p hajmi Osiyoga (145 milliard AQSH dollari) va Yevropaga (125 to'g'ri keladi, ahamiyati bo'yicha esa Afrika oldinda turadi – ularning miqdori YAIMning 3,1% ga to'g'ri keladi (4.5-rasm).

Pul o'tkazmalarining asosiy qismi kam sonli mamlakatlarda jamlangan. 2007 yilda 30 ta yirik qabul qiluvchi davlatlarga ularning umumjahon hajmining 75% to'g'ri keladi, bunda ularning 12 tasi rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi (4.6-rasm). Pul o'tkazmalari global hajmining 1/3 qismi kamayib borish tartibida Hindistonga (39 milliard AQSH dollari), Xitoyga (33), Meksikaga (27), Filippinga (16) va Fransiyaga (14) to'g'ri keladi.



4.6-rasm. 2007 yilda pul o'tkazmalarining asosiy qismini qabul qiluvchi 30 ta mamlakat, joriy kurs bo'yicha mlrd. doll. va YAIMning foizi*

Pul o'tkazmalari faqat ikkita yirik qabul qiluvchi davlatlarda YAIMning yuqori foizini – Livanda (24%) va Iordaniyada (22%) tashkil qiladi. Shuningdek, 2007 yilda 1 milliard AQSH dollari va undan ko'p miqdorda pul o'tkazmalari qabul qilgan mamlakatlar orasida ularning

* Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009. С.38.

YAIMdagi ulushi 20 % dan ortiq bo'lgan mamlakatlarga Gonduras (22%), Moldaviya (34%), Tojikiston (45%), Lesoto (28%) kiradi. Pul o'tkazmalarining rivojlanayotgan mamlakatlarning turli mintaqalari bo'yicha taqsimlanishi 4.2-jadvalda ko'rsatilgan.

4.2-jadval. Migrantlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga rasmiy pul o'tkazmalarining asosiy oqimlari, mlrd. doll.

Mintaqa	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2002-2007 yy qo'shimcha o'sish, %
Sharqiy Osiyo va Osiyo-Tinch okean mintaqasi	29	35	39	47	53	58	97
Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo	14	17	21	29	35	39	175
Lotin Amerikasi va Karib xavzasи	28	35	41	49	57	60	115
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	15	20	23	24	27	28	86
Janubiy Osiyo	24	30	29	33	40	44	81
Saxroi Kabirning janubidagi Afrika	5	6	8	9	10	11	116
Barcha rivojlanayotgan mamlakatlar	116	144	161	191	221	240	107

Manba: <http://www.worldbank.org>

Olinadigan transfertlar hajmi bo'yicha Lotin Amerikasi va Karib xavzasи (2007 yilda jami o'tkazmalarning 25 %), so'ngra Sharqiy Osiyo va Osiyo-Tinch okean mintaqasi (24 %), shuningdek Janubiy Osiyo (18 %) davlatlari yetakchilik qiladi. SHu bilan birga ularning eng yuqori qo'shimcha o'sish sur'atlari Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida (so'ngggi 5 yil ichida 175 %), shuningdek Saxroi Kabirning janubidagi Afrika (116 %) va Lotin Amerikasi mamlakatlarida (115%) kuzatiladi.

Saxroi Kabirning janubidagi Afrika mamlakatlaridan migrantlarning rasmiy kanallar bo'yicha o'tkazilgan pul mablag'larining ulushi boshqa mamlakatlarga nisbatan past bo'lsada, o'sish tendensiyasiga ega (2002 yilda 4,3 % yoki 5 mlrd dollar, va 2007 yilda 4,6 % yoki 11 mlrd dollar).

Zamonaviy Afrika – eng yuqori harakatchan aholiga ega mintaqalardan biri bo'lib, bu an'anaviy xarakterga ega. Bu yerda mavjud

migratsiya modellari Afrika mustamlakalarining ozod etilishidan ancha ilgari shakllangan.

Butun dunyoda migratsiya jarayonlari eng avvalo iqtisodiy sabablarga ko'ra sodir bo'lib, ishchi kuchining bir mamlakat doirasida qishloq va shahar o'tasida, bitta submintaqaning turli mamlakatlari o'tasida, yoki nixoyat qit'adan tashqariga ko'chishida namoyon bo'ladi. Afrika qit'asidagi davlatlararo ishchi kuchi migratsiyasida odatda turli iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega mamlakatlar qatnashadi. har bir submintaqa qada bitta yoki bir nechta nisbatan kuchli iqtisodiyotga ega mamlakatlar mavjud bo'lib, ular qo'shni mamlakatlardan ishchi kuchini o'ziga jalb qiladi. Asosiy migratsiya oqimlari qirg'oqbo'yи yoki mineral xomashyoga boy mamlakatlarga yo'nalgan.

Ishchi kuchini eksport va import qiluvchi mamlakatlar orasida birinchilari ustunlik qiladi. Afrikada yirik ishchi kuchi yetkazib beruvchi mamlakatlarga Jazoir, Angola, Benin, Gana, Misr, Kamerun, Marokko, Senegal, Tunis kiradi. Bunda arab mamlakatlari asosan qit'adan tashqariga eksport qiladi. Afrikaliklarni tortuvchi asosiy markazlar – bu Yevropa Ittifoqi va AQSH hisoblanadi. Bu jarayonda Fransiyaga asosan Senegal, Mali, Jazoir, va Marokash fuqarolari, Italiyaga – Marokash, Tunis, Jazoir, efiopiya, Somali va Senegal fuqarolari, Ispaniyaga – Marokash, Gana, Nigeriya, Germaniyaga – Marokash, Tunis va Misr, Niderlandiyaga – Marokash va Kongo Demokratik Respublikasi fuqarolari ko'chib boradi. AQSHda ko'p miqdorda Nigeriya va Gana ishchilari ro'yxatga olingan.

2007 yilda emigrantlarning umumiyligi soni 32,808 mln. kishini yoki jami Afrika qit'asi aholisining 3,7 % ni tashkil qildi. Bunda 1 mln.dan kam aholiga ega mamlakatlarda migrantlarning o'rtacha ulushi 20 %ni, ya'ni mehnatga layoqatli aholining deyarli yarmisini tashkil qiladi.

4.5. Jahon moliyaviy inqirozining ishchi kuchi bozoriga ta'siri

Ma'lumki, hozirgi vaqtda jahonda ro'y berayotgan moliyaviy inqiroz va uning oqibatlari jahon iqtisodiy tizimining turli sohalariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Odadta retsessiya uzoq muddatli iqtisodiy tendensiyalarga kuchli ta'sir o'tkazmaydi. Biroq hozirgi inqiroz aholi daromadlari va bandligiga uzoq muddatli, balki xatto doimiy ta'sirga ega bo'ladi, va bu ta'sir rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turlicha namoyon bo'ladi.

Hozirda ko'plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining

kuchayishi retsessiya va iqtisodiy pasayishni, investitsion faollik ko'lami cheklanib borishini, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahoning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofotlar sodir bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda¹.

Xususan, 2008 yilda jahon miqyosida bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi 20% gacha pasayganligi kuzatilgan. 2009 yilda jahon yalpi ichki mahsulotining pasayishi, bevosita xorijiy investitsiyalar ko'lamining yanada pasayishini kuzatilishi hamda xalqaro savdo hajmi qariyb 15% ga pasayishi ehtimol qilinmoqda. Bu holat esa ishsizlik darajasining ortishi bilan bog'liq jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu o'z-o'zidan ijtimoiy transfertlarning ko'payishi hisobiga davlat xarajatlarining o'sishiga olib keladi.

Shunga ko'ra, hukumatlar darajasida inqirozdan chiqish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik masalalarini, talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish ko'lamenti kengaytirishga qaratilgan keskin choralarini ko'rish masalasini ko'ndalang qilib qo'yamoqda.

Moliyaviy inqiroz tezda mehnat bozoridagi inqirozga aylandi. IXRTda ishsizlik darajasi 2009 yilda 8,4 % ga yetadi deb taxmin qilinadi. AQSHda ishsizlik allaqachon bu darajadan oshib ketdi, 2009 yil may oyida 2007 yil dekabriga nisbatan 6 mln ish joyi yo'qotilgan, ishsizlarning umumiy soni esa 14,5 mln dan ortib ketdi. Ispaniyada 2009 yil aprelda ishsizlik darajasi 15 %ga migrantlar orasida esa 28 %ga yetdi². Inqirozdan eng ko'p jabr ko'rgan hududlarga migrantlarning ko'pchilik qismi yashaydigan mamlakatlar, ya'ni rivojlangan mamlakatlar kiradi. Inqirozning migrantlarga salbiy ta'siri nafaqat IXRT a'zo-mamlakatlarida, balki Fors ko'rfazi, Sharqiyo Osiyo va G'arbiy Afrikada ham kuzatiladi.

Mehnat bozoridagi inqiroz eng avvalo migrantlar uchun yomon ta'sir ko'rsatadi, chunki mamlakatlar inqirozli holatlarda birinchi navbatda xorijiy ishchilarni bo'shatadi. O'rtacha olganda migrantlar yoshroq bo'lib, pastroq malakaga va ish stajiga ega, odatda vaqtinchalik lavozimlarda ishlaydi va siklli rivojlanuvchi tarmoqlarga jamlangan. Bu esa pasayish paytida eng zaif hisoblangan guruhga xos tavsiflardir. O'tkazilgan tahlillardan ma'lum bo'ldiki, iqtisodiy pasayish davrida migrantlar nomigrantlarga nisbatan ko'proq ish yo'qotadi. 1998-2008 yillarda 14 ta Yevropa mamlakatining YAIM va ishsizlik bo'yicha choraklik ko'rsatkichlari asosida aniqlanishicha, retsessiyani boshdan kechirgan

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009.

² Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009. С.41.

mamlakatlarda migrantlar orasida ishsizlik darajasi boshqa guruhlarga nisbatan tezroq o'sadi. IXRT a'zo-mamlakatlarida migrantlar yuqori darajada sikli rivojlanuvchi tarmoqlarga – qayta ishlash sanoati, qurilish, moliya, ko'mas mulk, mexmonxona va restoran xo'jaligi kabi tarmoqlarda jamlangan. IXRTning deyarli barcha yuqori daromadga ega a'zo-mamlakatlarida migrantlarning 40 % shu tarmoqlarda mehnat qiladi va bu sohalarda ish joylarining eng ko'p qisqarishi kuzatiladi.

Ishchilarning ko'chishiga inqirozning naqadar kuchli ta'sir etishini aniqlashda bir qancha omillarni hisobga olish kerak. Ushbu omillarga vatanida va chet elda bevosita rivojlanish istiqbollari, migratsiya, chet elda yashash va qaytish tavakkalchiligin anglash va kuchayib boruvchi to'siqlar kiradi. Ishchilarni jalb qiluvchi ayrim asosiy mamlakatlar qaytish uchun qulay imkoniyatlar (bonuslar, chiptalar, ijtimoiy to'lovlar bo'yicha yirik mablag'lar) yaratib berdi va mamlakatga kirish va yashash bo'yicha to'isqlarni ko'paytirdi.

2008 yil mobaynida inqirozning kuchayishi natijasida rivojlangan mamlakatlarga migrantlar oqimining qisqarganini ko'rish mumkin. Birlashgan Qirollikda mamlakatda yashayotgan xorijliklardan milliy sug'urta kartochkalariga talabnomalar soni 25 % kamaydi. AQSH Aholini ro'yxatdan o'tkazish byurosi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar 2007 yil sentyabrdan 2008 yil avgustigacha meskikalik migrantlar oqimining 25 % kamayganini ko'rsatdi. Bu tendensiyalarning 2009 va 2010 yillarda ham davom etishi kutiladi. Biroq bunday teskari oqimlar paydo bo'lmasligi ham mumkin. 1970-yillarda Yevropa mamlakatlarining gastarbayterlar uchun dasturlar tajribasi ko'rsatishicha, teskari oqimlarning hajmi qabul qiluvchi mamlakatga qaytish istiqbollariga, mamlakatning ijtimoiy ta'minot tizimiga, oila a'zolarining ehtiyojlari va o'z vatanidagi shart-sharoitlarga bog'liq.

Hozircha inqirozning migratsiya modellariga ta'siri noaniq. Avvalgi retsessiyalarning ko'rsatkichlari inqiroz turli oqibatlarni keltirib chiqarishini ko'rsatadi. Avstraliya, Argentina, Braziliya, Kanada, Birlashgan Qirollik va AQSH kabi ayrim mamlakatlar o'rganilganda, 1850-1920 yillarda mamlakatda ish xaqining pasayishi immigratsiyaga cheklovlarning zaiflashishiga olib kelgan. Ayrim olimlarning ta'kidlashishicha, Yevropada uzoq muddatli iqtisodiy stagnatsiya, tarkibiy ishsizlik va malakasiz ishchi kuchiga pasaygan talab davrini boshlab bergen 1973 yildagi neft inqirozi migratsiya modellariga shunday ta'sir ko'rsatdiki, natijada nisbatan boyroq Yaqin Sharq Yangi ishchi kuchini jalb qiluvchi markazga aylandi. 1980-yillarda Meksikada import o'rnini

qoplash siyosatining tanazzulga uchrashi AQSHga ommaviy migratsiya oqimini keltirib chiqardi va bu holat 1986 yilda AQSHda immigratsion isloxoitning o'tkazilishi bilan bexosdan rag'batlantirildi. SHu bilan birga 1990-yillar oxirida ro'y bergan Janubi-Sharqi Osiyodagi moliyaviy inqirozning xalqaro migratsion oqimlarga uzoq muddatli ta'siri uncha kuzatilmaydi.

Hozirgi bosqichda ro'y berishi mumkin bo'lgan tuzilmaviy o'zgarishlar turi va ko'lamini aniq aytib berish qiyin. Ayrim olimlarning fikricha, rivojlangan mamlakatlarning muayyan tarmoqlarida inqirozning boshlanishi va faol rivojlanishi rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa, Osiyo mamlakatlarining o'rmini kuchaytirishi va xatto jahon iqtisodiyotining tubdan boshqacha tus olishiga olib kelishi mumkin.

Jahon moliyaviy inqirozining pul o'tkazmalar hajmiga ta'sirini tahlil qiladigan bo'lsak, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, inqiroz boshlanganda Yevropa mamlakatlaridan Afrikaga pul o'tkazmalar miqdori oshdi. Bunga sabab, ko'pchilik migrantlar mehnat qilayotgan mamlakatlardagi bank hisoblarini yopib, pul mablag'larini o'z yurtiga o'tkaza boshladilar va 2008 yilda bu ko'rsatkich rekord darajaga yetdi. Biroq keyingi davrda ularning miqdori ancha qisqarganligi tabiiydir.

Asosiy ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarda boshlangan va global tus olgan 2009 yildagi iqtisodiy inqiroz rivojlanayotgan mamlakatlarga pul o'tkazmalarining hajmini qisqarishiga olib keldi. O'tkazmalarga kuchli bog'langan mamlakatlarda, shu jumladan Bangladesh, Misr, Salvador va Filippinda pul oqimi jiddiy qisqardi.

Inqiroz turli mamlakatlar va turli mintaqalarda pul o'tkazmalar hajmiga har xil ta'sir ko'rsatdi. Bashoratlarga ko'ra, Sharqi Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlariga pul o'tkazmalari nisbiy va miqdoriy jihatdan eng ko'p qisqaradi. Bu Yevropa Ittifoqiga a'zolik va Rossiyadagi kuchli iqtisodiy ko'tarilish orqasidan kelgan kuchli teskari oqim bilan tushuntiriladi. Moldova va Tojikistonda YAIMda pul o'tkazmalarning ulushi dune bo'yicha eng yuqori (mos ravishda 45 va 38 foiz) bo'lib, ular 2009 yilda 10 % ga tushadi. Salvadorda YAIMning 18 % ni tashkil qiluvchi pul o'tkazmalarning jiddiy foizli qisqarishi ro'y beradi.

Saxroi Kabirdan janubdagagi Afrikaga pul o'tkazmalarning $\frac{3}{4}$ qismi inqirozdan kata zarar ko'rgan AQSH va Yevropadan kelib tushadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotiga hanuz ta'sirini ko'rsatmoqda. Buni dunyoning aksariyat mamlakatlarida ishsizlik darajasi ortib borayotganida ko'rish mumkin. Rossiya ham bu ko'rsatkich ancha baland.

Mamlakatning mustaqil kasaba uyushmalari federatsiyasi ma'lum qilishicha, ayni paytda Rossiyada 2,6 million kishi ishsizlar rasmiy ro'yxatiga olingan. Ro'yxatga olinmaganlari bilan qo'shib hisoblaganda esa ishsizlarning umumiy soni 2010 yil yanvar oyi oxirida 6,8 million kishini tashkil etgan.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning 24 fevralidan 3 martigacha bo'lган muddatda Rossiyada ishsizlik 0,1 foizga kamaygan bo'lsada, ammo yil davomida ishsizlik darajasining yana pasayishiga umid qilib bo'lmaydi. Ishsizlik darajasi yana ortib, birinchi galda fan va xalq ta'limi, sanoat, qurilish materiallari va ko'mir ishlab chiqarish sohasi xodimlarining ma'lum qismi o'z ishlaridan ayrilishlari mumkin.

Mustaqil kasaba uyushmalari federatsiyasi mamlakatdagi 8674 ta yirik va o'rtacha korxonalarda doimiy monitoring olib boradi. Joriy yilning yanvar-fevral oyalarida ushbu korxonalarining 56 foizida ish kuni qisqartirilgan, shu bilan birga xodimlar maoshlari ham. Fevral oxirida mazkur korxonalarining 40 foizida ish o'rinnarini qisqartirish rejaga kiritilgan. Demak, 2010-2011 yillarda Rossiyada umumiy ishsizlik 9 millionga yetishi mumkinligi to'g'risidagi bashoratlar asossiz emas.¹

4.6. Globallashuv sharoitida O'zbekistonning tashqi migratsiya jarayonlaridagi ishtiroki

Jahon iqtisodiyotining XXI asrdagi integratsiyalashuvi va liberallahushi jarayonida mehnat migratsiyasining ahamiyati muntazam oshib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, mamlakatni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga qaratilgan, sobitqadamlik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotda yangi sohalar va kasb-hunarlar paydo bo'lishiga, mehnat resurslari oqimlarining o'zgarishiga olib keladi.

O'zbekistonda ham tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlari kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2009 yilda ko'chib kelganlar soni 136821 kishini tashkil qilib, ko'chib ketganlar soni 188500 kishini tashkil qilgan, ya'ni ko'chib ketganlar soni 51679 kishiga ko'pdir. 2010 yilda respublika bo'yicha kelganlar soni 140,0 ming kishini, ketganlar soni 179,6 ming kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 39,6 ming

¹ //“Ўзбекистон овози”, 23.03.2010.

kishini tashkil qildi.¹ 2008 yilda tashqi migratsiya ko'lamlari 4,3-jadvalda ko'rsatilgan.

4.3-jadval. Markaziy Osiyo mamlakatlarida 2008 yildagi migratsiya jarayonlari²

Mamlakatlar	Aholi soni, mln kishi	Aholining tabiiy o'sishi, %	Migratsiya darajasi (har 1000 kishiga nisbatan)
O'zbekiston	27,5	1,7	-2
Qozog'iston	15,7	1,0	+1
Tojikiston	7,3	2,2	-2
Turkmaniston	5,0	1,7	-3
Qirg'iziston	5,2	1,8	-10

Manba: Demeskop Weekly

Demeskop Weekly ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondan chet ellarga mehnat qilishga yo'l olayotganlarning 80,0 % Rossiyada ish topishni afzal ko'radilar. O'zbekistondan Rossiyaga ishga ketganlar va ularning pul o'tkazmalari to'g'risidagi ma'lumotlar 4,4-jadvalda keltirilgan. Shu bilan birga, Qozog'istonga MDH mamlakatlaridan kelgan mehnatkash-migrantlarning 57,6 % ni ham O'zbekiston fuqarolari tashkil etadilar.

Rasmiy ma'lumotlarga muvofiq O'zbekistondan ketgan mehnat resurslarining 85 % MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi. Shu jumladan, ularning 58,3 % Rossiya, 25,6 % - Qozog'iston, 4,7 % - Janubiy Koreya, 1,3 % - Turkiyaga to'g'ri keladi. Mamlakat tashqi migrantlarining 0,6 % - Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, 0,4 % - Birlashgan Arab Amirliklari, 0,2 % - boshqa mamlakatlar, shu jumladan, AQSHga yo'l olgan.³

Tashqi mehnatkash-migrantlarning yarmidan ko'prog'i mavsumiy ishchilardir. Tashqi migrantlarning atigi 2-3 foiziga yaqini malakali va yuqori malakali mehnat faoliyati bilan banddir.

¹ www.stat.uz

² О влиянии мирового кризиса на миграцию (Рекомендации по вопросам политики Международной организации по миграции. Меморандум №1, 12.01.2009 г.) // Демескоп Weekly

³ Социально-демографические процессы в современном Узбекистане //Материалы Республиканской научно-практической конференции. – Т., 2009. – С. 126.

4.4-jadval. Rossiya xorijiy mehnatkash-migrantlar soni

Fuqarolik davlati	Rossiyada ishlayotganl ar soni, ming kishi	Rossiyada ishlashning o'rtacha muddati	Mehnatkas hlarning o'rtacha yillik soni, ming	Pul o'tkazmasining o'rtacha miqdori, dollar/oy	Transfert lar hajmi, mln. doll
Ozarbayjon	1000	11,4	947	133	1511
Armaniston	280	7,1	166	130	259
Gruziya	117	9	87	112	118
Qozog'iston	50	7,1	30	100	35
Qirg'iziston	300	7,1	177	100	213
Moldaviya	154	8,6	110	154	204
Tojikiston	504	7,1	298	51	182
O'zbekiston	390	7,1	231	52	144
Ukraina	1000	7,7	644	130	1004
Boshqalar, jami	1055	6,8	600	90	648
SHU jumladan					
Xitoydan	800	4,6	306	90	330
Shimoliy Koreyadan	55	10,6	48	90	52
Vetnamdan	100	10,6	88	90	95
Afg'onistondan	100	11,3	94	90	102
Jami	4850	8	3227		3670

Manba: И.Абрамова. Денежные переводы мигрантов: роль в социально-экономическом развитии Африки. //МЭ и МО. 2009, №7.

Tadqiqotchilar XX asr oxirlarigacha Markaziy Osiyo mamlakatlari tub aholisi uchun mehnat migratsiyasi xos bo'Imagan deb ko'rsatishadi.¹ Biroq, O'zbekistonda mehnat migratsiyasi doim, ham ichki (mamlakatning boshqa viloyatlariga chiqadigan ishchilar), ham tashqi (SSSRning boshqa respublikalariga borib ishlaydigan kishilar) migratsiya ko'rinishida mavjud bo'lib kelgan. Bunda oxirgisi ham tashkillashtirilgan shakllarda (Sovet Ittifoqidagi yangi qurilishlar, yer o'zlashtirishlar davrida mehnat "vaxtalari" va b.), ham tashkillashtirilmagan (asosan, meva-sabzavotchilik mahsulotlari bilan savdo) shakllarida amalga oshgan. Shuningdek cheklangan hajmda bo'lса ham xorijiy mehnat migratsiyasi mavjud bo'lgan. Chet elga borib ishlash jarayonining tashabbuskorи bo'lib ishchi emas, balki davlat nomidan ish ko'ruchchi boshqaruв organlari yoki ishlab chiqarish tuzilmalari hisoblanadi. O'zbekistonda shunday migratsiyada malakali geologlar, suv xo'jaligi mutaxassislari, shifokorlar, quruvchilar ishtirok etgan.

Mehnat migratsiyasining zamonaviy davri oldingilaridan o'z ko'lami, tavsifi va ishtirokchilar tarkibi bilan farq qiladi. Ayniqsa,

¹ Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сборник статей / Отв ред. Абдуллаев Е.В. – Т., 2008.

migratsion oqimlarning yo'nalishi jiddiy o'zgargan. Hozirgi vaqtida O'zbekistondan emigratsiyaning uchta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Markaziy Osiyoga (chevara oldi hududlardan Qozog'iston va Qирг'изистонга). Umumiy migrantlar sonining 50-65% - bu xosil terimiga yoki uy-joy qurilishiga kelgan mavsumiy ishchilardir, atigi 2-3% qonuniy ravishda hamda mehnatning malakali va yuqori malakali sohalarida ishlaydi.

2. MDHning Yevropa qismiga. Mehnatkashlar-migrantlarning asosiy oqimi Rossiya, nisbatan kam qismi Ukrainaga (bu asosan qrim tatarlari), Belorussiyaga jo'naydi.

3. Uzoq xorij mamlakatlari. Bu yerda AQSH, Yevropa, Arab mamlakatlarini, asosan BAA, Misr, Baxrayn, Quvayt, Saudiya Arabistonni; Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, asosan Janubiy Koreya, Tailand, Indoneziya, Malayziyani keltirish mumkin.

O'zbekistonga ishga kelganlar to'g'risida gapirganda, noqonuniy mehnat migratsiyasining bir nechta yo'nalishlari mavjud¹:

- Migrantlarning 60% Tojikistondan, 20% - Turkmaniston va Qирг'изистондан, O'zbekistonda ushbu mamlakatlar bilan viza rejimi amal qilishi ushbu yo'nalishlarni qiyinlashtirishiga qaramay, keladi;
- O'zbekistonga Afg'onistondan Tojikiston orqali keluvchilar soni umumiy oqimning 2-4% ni tashkil qiladi;
- Xitoydan - Qozog'iston, Qирг'изiston va Tojikiston orqali;
- Eron, Pokiston, Hindistondan - Turkmaniston orqali.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan respublikamiz fuqarolarining chet ellarda mehnat faoliyatini tashkil etishni tartibga solishga doir bir qator qarorlar qabul qilingan bo'lib, mazkur qarorlarda tashqi mehnat migratsiyasini davlat tomonidan boshqarish, respublikamiz fuqarolarining chet ellarda mehnat faoliyatini amalgalashish uchun chiqib ketishini tashkil etish tizimi va uning mexanizmlari belgilab berilgan.

Respublikamiz fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 505-sonli qarori bilan tartibga solinadi.

¹ catalog.fmb.ru/uzbekistan10.shtml

Hukumatning ushbu qarori bilan respublikamiz fuqarolarini chet ellarda ishga joylashishini ta'minlaydigan mehnat organlari infratuzilmasini tashkil etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyati tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizomga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarolari chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hukumatlararo, idoralararo shartnomalar va bitimlar asosida faqat Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi hamda Fuqarolarni chet ellarda ishga joylashtirish bo'yicha xo'jalik hisobidagi mintaqaviy byurolarning ko'magida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshirish huquqiga egaliklari belgilab qo'yilgan. Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy mamlakatlar o'tasida tashqi mehnat migratsiyasi sohasida hukumatlararo, idoralararo shartnomalar, bitimlar tuzilgan taqdirda ularning ijrosini ta'minlash Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tasarrufiy tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston va Rossiya o'tasida mehnat migratsiyasi sohasida Hukumatlararo bitim tuzilgan bo'lib, uning tuzilishi ikki mamlakat Hukumatlari o'tasida mehnat migratsiyasini tashkil etishning huquqiy poydevorini yaratish, mehnat migratsiyasi borasida ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish, qolaversa, mazkur davlatlar hududida qonuniy mehnat qilish istagida bo'lgan fuqarolar uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Ushbu Hukumatlararo bitim O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'tasida mehnat migratsiyasi jarayonini huquqiy tartibga solish, mehnat kuchlarining erkin harakati uchun qulay sharoitlar yaratish hamda mehnatkash-migrantlarning ijtimoiy huquqlarini himoyalashni nazarda tutadi.

Shuningdek, Koreya Respublikasi O'zbekistonning mehnat migratsiya sohasidagi asosiy sheriklaridan biri. 1995 yildan 2006 yilgacha O'zbekistondan Koreyaga 18 ming fuqaroni stajirovka tizimi bo'yicha ishslashga jo'natish tashkil etildi.

Koreya hukumatining qarorlariga ko'ra 2007 yil 1 yanvardan boshlab stajirovka tizimi bekor qilindi va Koreyaga xorijiy ishchilarini qabul qilishning yagona tizimi sifatida bandlikni hal etish tizimi bo'lib qoldi.

2006 yil 28-30 mart kunlari O'zbekiston Respublikasining Koreya Respublikasiga davlat tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi bilan Koreya Respublikasi

Mehnat vazirligi o'rtasida ishchilarni Koreyaga bandlikni hal etish tizimi jo'natish yuzasidan Memorandum imzolandi. Mazkur tizimga muvofiq o'tkazilgan testlarni muvaffaqiyatli topshirgan fuqarolarimiz Koreyada ishslash sharafiga muyassar bo'lmoqdalar. 2007-2008 yillarda 10 mingga Yaqin fuqaro Koreyada ishslash xuquqini qo'lga kiritdi.

Mehnat migratsiyasining oqilona holatini ta'minlash uchun jahon tajribasini ko'rib chiqib bizning mamlakatga har tomonlama mos keladiganlarini joriy qilish foydadan xoli bo'lmaydi. Jhon tajribasidan shular ma'lumki, ishchi kuchini eksport qiluvchi davlat o'z ishchi kuchlarining malakasi oshishiga, ishlab chiqarishning yangi texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanishiga va asosiysi mamlakatga valuta oqimi kirib kelishiga erishadi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasining oqilona holatini ta'minlash borasida ancha ishlar amalga oshirilgan. Kelgusida ham xuddi shunday ishlarni davom ettirish lozimligini ko'zda tutgan holda quyidagi takliflarni berish mumkin:

- chet mamlakatda ishlamoqchi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini chet el ishchilari bilan bemalol raqobatlasha oladigan qilib tayyorlaydigan kurslarni tashkil qilish (til o'rganish, maxsuslashtirilgan kurslar);

- mamlakat ishchilari ishlayotgan mamlakatdagi elchixonalarning xodimlarni doimiy ravishda nazorat qilib turishini kuchaytirish;

- chet elga chiqib ishlamoqchi bo'lganlarga turli imtiyozlar berish (masalan, ma'lum davr davomida chet elda ishlab valuta kirib kelishiga hissa qo'shgan bo'lsa, ayrim turdag'i moddiy boyliklarni olib kirishga to'sqinlik qilmaslik) kerak;

- jahon standartlariga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlashdir.

Yuqoridagi xulosa va tavsiyalarni amalda tadbiq etish respublikada mehnat migratsiyasi borasidagi mavjud muammolarni ilmiy asosda yechishga ko'mak beradi va mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili bo'lishiga xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Xulosa

XX asrda aholining ommaviy migratsiyasi jahon hamjamiyatining eng xarakterli tendensiyalaridan biriga aylandi. Jhon iqtisodiyotida xalqaro (tashqi) migratsiyaning turli shakllari – mehnat, oilaviy, rekreatsion, turistik va boshqa turdag'i shakllari mavjud bo'lib, xalqaro

mehnat migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi bozori muammolari jahon iqtisodiyoti rivojlanishida muhim o'ringa ega.

Xalqaro ishchi kuchi bozori milliy chegaralarni kesib o'tuvchi turlituman mehnat resurslari oqimini qamrab oladi. Jahon mehnat bozori jahon aholisining ish bilan bandlik darajasi, uning tarmoqlar, kasb-malaka, demografik, ishsizlikning ko'lami va o'zgarishi kabi asosiy jarayonlarni aks ettiradi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining vujudga kelishi jahonning iqtisodiy rivojlanishining global xarakteri, jahon xo'jaligi aylanmasiga mamlakatlarni o'zaro bog'liqligi va ularning iqtisodiy rivojlanishidagi notekislik bilan bog'liq.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda dunyoda ishchi kuchi migratsiyasi faol rivojlandi. Bu davrda migrantlarning ulushi ko'rsatkichi barqarorligi kuzatiladi. 2005-2010 yillar mobaynida jahonda migrantlar soni 18,7 million kishiga o'sdi.

Dunyoning yirik mintaqalari orasida aholining jadal migratsion o'sishini Janubiy Yevropada (yiliga o'rtacha 4,9%), Shimoliy Amerikada (3,6%) va AQSHda (3,3%) mavjudligini ta'kidlash lozim. Rivojlangan mamlakatlarga ko'chib kelayotgan xalqaro migrantlarning ko'pchilik qismi rivojlanayotgan mamlakatlardan kelib chiquvchilardir.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda jahonda 200 mln.dan ortiq kishi o'z vatanini tark etib, chet elda yashaydi. Ularning pul o'tkazmalari ko'pincha nafaqat ularning oilalari uchun eng muhim qo'shimcha doimiy daromadlarning manbaiga, balki umuman mamlakat uchun ham valuta tushumlarining muhim manbaiga aylanadi.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston ham tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarining faol ishtirokchisi hisoblanadi. Jumladan, O'zbekistondan chet ellarga mehnat qilishga yo'l olayotganlarning 80,0 % Rossiyada ish topishni afzal ko'radilar. Shu bilan birga, Qozog'istonga MDH mamlakatlaridan kelgan mehnatkash-migrantlarning 57,6 % ni ham O'zbekiston fuqarolari tashkil etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan respublikamiz fuqarolarining chet ellarda mehnat faoliyatini tashkil etishni tartibga solishga doir bir qator qarorlar qabul qilingan bo'lib, mazkur qarorlarda tashqi mehnat migratsiyasini davlat tomonidan boshqarish, respublikamiz fuqarolarining chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqib ketishini tashkil etish tizimi va uning mexanizmlari belgilab berilgan.

Tayanch iboralar:

Aholi migratsiyasi, xalqaro (tashqi) migratsiya, xalqaro mehnat migratsiyasi, xalqaro ishchi kuchi bozori, bandlik darajasi, kasb-malaka, demografiya, ishsizlik, pul o'tkazmalarini.

Nazorat uchun savollar:

1. Jahon ishchi kuchi bozori tushunchasining mohiyati va paydo bo'lish sabablarini tushuntiring.
2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining qanday asosiy ko'rinishlari mavjud?
3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining asosiy yo'nalishlari va migrantlarni o'ziga jalb qiluvchi markazlarni ayтиб bering.
4. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining riojlanish xususiyatlari nimadan iborat?
5. Jahon moliyaviy inqirozi ishchi kuchi bozoriga qanday ta'sir o'tkazdi?
6. Globallashuv sharoitida O'zbekistonning tashqi migratsiya jarayonlaridagi ishtirok etish xususiyatlari tushuntiring.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
2. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учебное пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.
3. Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009.
4. Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 671 с.
5. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.
6. Назарова Г.Г., Хайдаров Н.Х. Xалқаро иқтисодий муносабатлар. Ўкув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2005. – 273 б.
7. Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учебник. М.: 2005.
8. Акопова Е.С., Воронкова О.Н. Мировая экономика и международные экономические отношения. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004.
9. Колосова Р.П., Артамонова М.В. и др. Глобализация экономики и занятость населения. Учебное пособие. М.: 2000.

5-BOB. GLOBALLASHUV VA IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI

5.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati

Xalqaro iqtisodiy integratsiya milliy xo'jaliklar o'rtasida o'zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi va mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi bo'lib, ishlab chiqarish tuzilmalarining turli darajada va turli ko'rinishdagi o'zaro aloqadorligini ifoda etadi.

Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlar to'g'risida mutaxassislar orasida yagona qarashlar konsepsiysi mavjud emas. Bir guruh iqtisodchi olimlar integratsion jarayonlar mamlakatlardan o'rtasida yangi tovar oqimlarini shakllantirish orqali «resurslar cheklanganligi» muammosini bartaraf etish yo'li deb talqin etishsa (bu orqali mamlakatlarda nisbatan serxarajat tovarlar ishlab chiqarish yo'qotilib, texnologik ayriboshlashni kengaytirish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa o'z navbatida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga (ITTKI) xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi). Boshqa bir guruh olimlar integratsiyani talab etuvchi dastlabki turki sifatida noiqtisodiy omillarni ilgari suradi (masalan, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va h.k.lar). Uchinchi bir guruh iqtisodchilar esa integratsiya bu ishlab chiqarishni barqaror o'sishi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik kabi maqsadlarga osonroq va tezroq erishish imkoniyatini beradi deb hisoblashadi. Xullas, u yoki bu nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda shuni qayd etib o'tishimiz mumkinki, integratsiya - bu hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jaliklar komplekslarini o'zaro yaqinlashishi va bir-biriga kirib borishi jarayonidir.¹

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda integratsion jarayonlar ikkita asosiy ko'rinishda, ya'ni, birinchidan, mikro – transmilliy korporatsiyalarning tashkil etilishi orqali, ikkinchidan, makro – iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish siyosati orqali amalga oshiriladi.

Mikromiqyosdagi integratsion jarayonlar bir-biriga yaqin joylashgan mamlakatlarning xo'jalik yurituvchi sub'yektlarining kapitallarini o'zaro ta'sir doirasini orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, ular o'rtasida iqtisodiy bitimlar tizimining shakllanishi, kichik shaxobchalar, sho'ba korxonalar tashkil etilishi orqali yuz beradi.

¹ Назарова Г.Ф., Хайдаров Н.Х. Халқаро иқтисодий муносабатлар. Ўқув кўлланма. Т.: ТДИУ, 2005. 239-6.

Ma'lumki, firma va ishlab chiqarish korxonalar o'rtasida aloqalarning tez rivojlanishi, tovar almashuvida xizmat ko'rsatish, kapital va ishchi kuchlarining mamlakatlar o'rtasida erkin harakatini ta'minlashga, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, tashqi iqtisodiy va shuningdek mudofaa, moliya-valuta sohasidagi harakatlar yagona siyosatga kelishishga qaratilgan davlatlararo tartibga solish zaruriyatini tug'diradi. Buning oqibatida, yagona valuta, infratuzilma, moliyaviy fondlar, umumiyl davlatlararo boshqaruv organlariga ega bo'lgan iqtisodiy majmualar yaratilishi yuz beradi.

Jahon xo'jaligi rivojlanishining zamonaviy bosqichida turli shakllardagi integratsion jarayonlarni ko'rshimiz mumkin. Kundan kunga xo'jalik hayotda integratsion jarayonlar chuqurlashib, kengayib bormoqda. Buni biz integratsion jarayonlarni borishini xalqaro iqtisodiy munosabatlarda savdodan tortib, ilmiy-axborot, tovar ayirboshlashgacha bo'lgan turli ko'rinishlarini bir-biriga qo'shilib borishida ko'rshimiz mumkin.

Ma'lumki, iqtisodiy integratsion jarayonlar asosida bir qator ob'yektiv omillar yotadi, ularning ichida eng muhimlari quyidagilardan iboratdir:

- xo'jalik hayotining yanada baynalmilallahushi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashushi;
- umumjahon ahamiyatiga ega bo'lgan ilmiy-texnika inqilobi (ITI);
- milliy iqtisodiyotda «ochiqlik» darajasini kuchayishi.

Jahon iqtisodiyotida va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ushbu omillarning barchasi bir-birlari bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib boradi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ob'yektiv shakllaridan biri baynalmilallahuv mamlakatlar o'rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va takror ishlab chiqarishning milliy xo'jaliklar doirasidan chetga chiqish jarayonlarini aks ettiradi (eng avvalo, xalqaro mehnat taqsimoti asosida). Baynalmilallahuvning o'sishi va rivojlanishida, ayniqsa, transmilliy korporatsiyalarning ta'sir doirasi kattadir. YUNKTAD ma'lumotiga ko'ra, hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida 80 mingdan ortiq TMKlar va ularning 800 mingdan ortiq shoxobchalari va sho'ba korxonalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Dunyodagi 100dan ortiq eng yirik korporatsiyalarning 1/3 qismi AQSHga qarashlidir.¹

¹ Мировая экономика. Учебник /под. ред. Б.М. Смитсенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlar rivojlanishining ikkinchi omili – xalqaro mehnat taqsimoti tuzilmasidagi chuqrur o'zgarishlar hisoblanadi (bu asosan ITI ta'siri ostida yuz beradi). Xalqaro mehnat taqsimoti atamasi, bir tomonidan, mamlakatlarning ma'lum bir mahsulotlar ishlab chiqarishiga ixtisoslashuvini bildirsa, ikkinchi tomonidan ishlab chiqarish majburiyatlarining firma ichida va firmalararo taqsimlanishini ifodalaydi.

Umumjahon ahamiyatga ega bo'lgan ITIning hozirgi bosqichi baynalmillashuvni ham bozor, ham ishlab chiqarish sohasida sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqadi. ITI tashqi iqtisodiy aloqalarning zamonaviy ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi rolini oshishini ta'minlovchi muhim omildir. Xullas, ITI jahonning u yoki bu mamlakatlarda alohida bir ajralgan holda to'laqonli rivojlanib bora olmaydi.

Keyingi yillarda jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlariiga dunyo mamlakatlarning yanada chuqurroq kirib borishi natijasida milliy iqtisodiyotning «ochiqlik» darajasi yanada ortib bormoqda. Turli mamlakatlarga tegishli firmalarning kooperatsiyalashuvi natijasida ishlab chiqarish va investitsiya sohasida yirik xalqaro majmualar vujudga kelmoqda. Ochiq iqtisodiyotning shakllanishida davlatlarning eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rag'batlantirish sohasidagi olib borayotgan tashqi iqtisodiy strategiyasi katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bunda, odatda xorijdan kapitallar, texnologiyalar va malakalni kadrlarning kirib kelishiga imkoniyat beruvchi huquqiy asoslarni yaratilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

5.2. Integratsion birlashmalarning turkumlanishi

Integratsion birlashmalarning turkumlanishi asosan ishtirokchi mamlakatlar iqtisodiyotining makro va mikrodarajada o'zaro Yaqinlashish va bir-biriga naqadar chuqrur kirib borishligini baholashda namoyon bo'ladi. Bu mezonga integratsiyaning to'rt ko'rinishini (erkin savdo hududi, bojaxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoqlarni) ajratib ko'rsatish mumkin (5.1-jadval).

Erkin savdo hududlari (ESH) xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlarning boshlang'ich bosqichi sanaladi. Erkin savdo hududi zamonaviy talqinda preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojaxona va miqdoriy cheklanishlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi. ESH amalda ikki va undan ortiq davlatlarning o'zaro savdosida bojlar,

litsenziya va kvotalarni muzlatish va asta-sekin bekor qilish to'g'risidagi bitimlarning imzolanishi natijasida shakllanadi. Bunda YEI, NAFTA va MERKOSUR tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan savdo rejimini erkinlashtirish cheklangan tartibga ega, dastlab bojxona nomenklaturasidagi ba'zi pozitsiyalarni qamrab oladi.

5.1-jadval. Integratsion birlashmalarining ko'rinishlari

Ko'rinish nomi	Ittifoq ichida erkin savdo	Uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona savdo – bojxona siyosati	Ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishi	Qonunchilik, ijtimoiy va valuta sohalarda iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish
Erkin savdo hududi	X			
Bojxona ittifoqi	X	X		
Umumiy bozor	X	X	X	
Iqtisodiy ittifoq	X	X	X	X

Манба: Назарова Г.Ф., Хайдаров Н.Х. Xалқаро иктисодий муносабатлар. Ўкув кўлланма. Т.: ТДИУ, 2005. 247-6.

Erkin savdo hududlarining ijobiy jihatlariga kelsak, ishtirokchi mamlakatlarning savdo siyosatida barqarorlikning o'mnatilishini kiritish mumkin. ESHga a'zo – mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etish jarayonini tezlashishiga yordam beradi, ular xalqaro mehnat taqsimotidan samarali foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Erkin savdo hududlarining salbiy jihatlariga keladigan bo'lsak, ular ichki bozorda raqobatning kuchayishi bilan belgilanadi, chunki bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sir etishi va bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin.

Bundan tashqari ESHni yaratish millatlararo tartibga soluvchi organlarni tashkil etish holatlarida kuzatilmaydi, bu esa o'z navbatida qarorlar qabul qilishni sekinlashtiradi va shuningdek qabul qilingan qarorlarni bajarilishini nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Biroq, integratsiyaning boshlang'ich bosqichidagi qiyinchiliklar va muammolarga qaramasdan, erkin savdo hududlari jahon iqtisodiyotida keng tarqalishi ham mumkin.

Bojxona ittifoqi (BI) huquqiy nuqtai nazardan olganda ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida o'zaro va uchinchi bir mamlakatlarga nisbatan soddalashirilgan soliq siyosatining o'tkazilishini anglatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan olganda esa bojxona ittifoqini tashkil etish, bu yagona iqtisodiy makonni shakllantirish va bu makon doirasida esa har qanday bojxona chegaralarini bartaraf etishni anglatadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlatlararo tartibga solishning bu ko'rinishi BI qatnashchilari o'rtasida bojsiz savdonigina emas, balki uning tashqi chegaralarida muvofiqlashtirilgan tarif tizimini joriy qilishni ham nazarda tutadi. Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan farqi ham ana shundadir.

Bojxona ittifoqlarini yaratish va ularning shakllanishining konkret natijalari unga a'zo - mamlakatlarning ishlab chiqarish va iste'mol sohasida yuz beradigan tarkibiy o'zgarishlarda o'z aksini topadi: talab va taklif nisbiy ustunlik tabiatiga mos ravishda o'zgaradi. Boshqacha qilib aytganda, bojxona ittifoqi savdoning kengayishiga qarab aholining turmush farovonligini oshiradi, biroq, ayni bir paytda ishlab chiqaruvchilarning arzon mahsulotlaridan qimmatroq tovar ishlab chiqarishga moslashishlari natijasida esa, farovonlikni pasaytiradi.

Bojxona ittifoqini shakllanishi jarayonida ikkita yondashuv mavjudligini qayd etish kerak. Bu yondashuvlar, tovarlarga belgilangan umumiy tashqi tarif miqdorlari o'rnatilmasdan oldin ittifoq a'zosi bo'lган mamlakatlarda amalda bo'lган o'rtacha o'lchangan tarif miqdoriga solishtirish orqali aniqlanadi. Agar yangi tarif undan oldindi milliy tarifdan yuqori bo'lsa, bojxona ittifoqi ishtirokchisi bo'lган mamlakat nisbatan arzon tashqi ta'minlash manbalaridan ittifoq ichidagi resurslar foydasiga voz kechishiga to'g'ri keladi. Tavsiflangan holatda o'xshash vaziyat bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlar tomonidan yangi yoqilg'i resurslari, materiallar va boshqalarni ishlab chiqarishning boshlanishi bilan boy'liq ravishda kuzatilishi mumkin.

Agar o'rnatilgan tarif undan oldin o'rtacha o'lchangan tarifdan past bo'lsa, natijaviy baholarni hisobga olganda tashqi savdoning o'zgarish vektori uchinchi mamlakatlar tomon yo'naladi. Bunday harakatlar odatda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va bojxona ittifoqi ishtirokchilarining tashqi iqtisodiy faoliyatini jadallashtirish maqsadida olib boriladi.

Tashqi savdoni davlatlararo tartibga solishning keng tarqalgan ko'rinishi sifatida bojxona ittifoqi haqida gapirganda shuni esdan chiqarmaslik lozimki, uning faoliyatni uzoq vaqt mobaynida alohida

olingo mamlakatlarning jami tovarlar va xizmatlar nomenklaturasiga tarqalmasligi mumkin. Bojxona ittifoqlarining rivojlanish jarayoni, birgalikda tartibga solish sohasining asta-sekin kengayib borishidan guvohlik beradi. Ya'ni bosqichma-bosqich olib boriladigan jarayon oxir-oqibat millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar va institutlarni tashkil etish maqsadini kun tartibiga qo'yadi.

Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan asosiy farqi ittifoq chegaralarida muvofiqlashtirilgan savdo-bojxona rejimini joriy etish ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Integratsion jarayonlarning keyingi rivojlanishi integratsiyaning eng yetuk ko'rinishlaridan biri bo'lган umumiyo bozor, iqtisodiy ittifoqning shakllanishiga olib keladi.

Jahon iqtisodiyotida ko'plab iqtisodiy birlashmalarning vujudga kelishi va taraqqiyotidan ma'lumki, aynan umumiyo bozor va iqtisodiy ittifoq eng ko'p diqqatga sazovordir.

Janubiy Amerika, Afrika va Osiyodagi bir qator xalqaro tashkilotlar tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining yagona umumiyo bozor ko'rinishidagi guruhlarni tashkil etganligi to'g'risidagi o'zining shoshilinch e'lolarini tarqatgan bo'lsalar-da, hozirgi paytgacha integratsiyaning bu ko'rinishi amalda faqat G'arbiy Yevropada keng amal qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Umumiyo bozorlar qatoriga quyidagi xalqaro tashkilotlarni kiritish mumkin:

- Janubiy Amerika umumiyo bozori (MERKOSUR) – Argentina, Braziliya, Paragvay va Uruguay kabi davlatlarni birlashtirgan.

- Markaziy Amerika umumiyo bozori – Gvatemala, Gonduras, Kosta-Rika, Nikaragua va Salvador kabi davlatlarni birlashtirgan.

- Sharqiy va Janubiy Afrika umumiyo bozori (KOMESA), o'z tarkibiga Afrikaning 19 ta rivojlanayotgan davlatlarni birlashtirgan.

- Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) – Tinch va Xind okeani qirg'oqlarida joylashgan 10 ta rivojlanayotgan mamlakatlarni birlashtirgan.

Bojxona ittifoqini umumiyo bozorga aylantirish jarayoni nafaqat savdoni, balki iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarini ham qamrab oluvchi katta miqdordagi qonuniy me'yorlarni uyg'unlashtirish masalalarini ham hal etish bilan bog'liqidir. SHuning uchun ham ichki bojxona to'siqlari va boshqa cheklashlarni bartaraf etish orqali uchinchi dunyo mamlakatlari bilan savdoda umumiyo tamoyillarni ishlab chiqish zarurki, buning natijasida milliy chegaralar orqali tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining hech qanday to'siqlarsiz o'tishiga sharoit yaratiladi. Bundan tashqari umumiyo bozorni shakllantirish mobaynida ijtimoiy va hududiy

rivojlanish uchun zamonaviy fondlarni yaratishga zaruriyat tug'iladi. Umumiyligi bozorni xalqaro iqtisodiy ittifoqqa aylantirish jarayonida bu fondlarning ahamiyati juda katta bo'ladi. Bunda millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi tajribasidan ma'lumki, bunday tashkilotlarni tashkil etmasdan turib milliy qonunchilik me'yorini soddalashtirish va integratsion birlashma ishtirokchilarining umumiyligi qarorlarini bajarilishini nazorat qilish mumkin emas.

Umumiyligi bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirishning zamonaviy bosqichida Yevropaning ahamiyati kattadir. Chunki faqatgina ana shu tashkilot iqtisodiy integratsion jarayonlarning eng yuqori cho'qqisiga intilishini yaqqol namoyish etmoqda.

Ma'lumki Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning davlat rahbarlari XX-XXI asrlar bo'sag'asida o'z oldilariga qo'yan maqsadlarga erishishni rejalashtirgan edi. Hozircha yakuniy natijalar haqida gapirishga erta bo'lsa-da, iqtisodiy ittifoqqa xos bir qator xususiyatlar ko'zga tashlanib turibdi. Bu alomatlar quyidagilar hisoblanadi: umumiyligi qonunchilik me'yorlarini yaratish, soliq bazasini soddalashtirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohada yagona standartlarni joriy etish, muvofiqlashtirilgan pul siyosatini o'tkazish, yagona valutaga o'tish va boshqalar.

5.3. Globallashuv va integratsiya jarayonlarining umumiyligi iqtisodiy-texnologik asoslari

Xo'jalik hayotining baynalmillashuvi ko'p asrlardan beri rivojlanib keladi. Hozirgi kunda uning ikkita asosiy ko'rinishi – globallashuv va mintaqaviy integratsiyalashuv tendensiyalari ko'zga tashlanadi. Ular qanday o'zaro harakatlanadi.

Umuman olganda, globallashuv va mintaqaviy integratsiyalashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib turli mamlakatlarning tadbirkorlarini daromadlarini oshirish, iqtisodiy o'sishini tezlashtirish va aholi farovonligini oshirish uchun xalqaro savdodan, investitsiyalar ayrboshlashdan, ishlab chiqarish kooperatsiyasidan, ilmiy-texnik hamkorlikdan foydalanishga intilish hisoblanadi.

1776 yilda Adam Smit mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi uning boyligini ko'paytirishga yordam berishini, 1817 yilda esa David Rikardo buning uchun mamlakatga nisbiy ustunliklarga ega bo'lishning o'zi kifoya qilishini isbotlab bergen paytdan beri bu haqiqat amalda ko'p bor tasdiqlangan. Bu borada o'tgan asrning so'ngagi

40 yilligi bo'yicha ma'lumotlar: 1960-1973 yillar uchun 112 mamlakat, 1973-1985 uchun 117 mamlakat, 1985-2000 yillar 110 mamlakat bo'yicha ma'lumotlar 5.2-jadvalda keltirilgan. Bu davrlarda barcha mamlakatlarning o'rtacha ochiqlik darajasi (jahon savdosiga tortilganligi) oshdi. Lekin ochiqlik darajasi 1,2-1,5 marta yuqori bo'lgan mamlakatlarda jon boshiga daromadlarning yillik qo'shimcha o'sish sur'atlari sekin o'suvchi iqtisodiyotlarga nisbatan 3-3,8 marta yuqori.

5.2-jadval. Turli mamlakatlarning iqtisodiy ochiqligi* va iqtisodiy o'sishi, %

	1960-1973		1973-1985		1985-2000	
	tez o'suvchi	sekin o'suvchi	tez o'suvchi	sekin o'suvchi	tez o'suvchi	sekin o'suvchi
Ochiqlik	62,6	43,5	72,3	58,2	79,3	64,0
Bir kishiga YAIMning o'rtacha qo'shimcha o'sishi	4,6	1,2	2,9	-0,9	3,0	0

* Tashqi savdoning YAIMga nisbati

Manba: WTO. World Trade Report 2003.

Bu rag'batlar yuz yillar mobaynida turli mamlakatlar tadbirkorlari va hukumatlarini barqaror xalqaro xo'jalik munosabatlarini o'rnatishga qiziqtirib keladi. Lekin nima uchun iqtisodiy globallashuv va mintaqaviy integratsiyalashuv jarayonlari XVII asrlarda qit'alararo ko'lamda savdoni amalga oshirgan yirik Britaniya, Gollandiya, Fransiya va boshqa kompaniyalarning gullab-yashnagan davrida boshlanmay, faqatgina XX asrning ikkinchi yarmiga kelib boshlandi.

Chunki u davrda xalqaro mehnat taqsimoti o'zining keng ko'lamga egaligiga qaramay, uning sifat darajasi juda oddiy edi. U bir nechta rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqariladigan oddiy tayyor mahsulotlarni (matolar, kiyim-kechak, temir buyumlarni), qolgan mamlakatlarda yetishiriladigan yoki qazib olinadigan asosiy resurslar (oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va mineral xomashyo, yoqilg'i)ni ayirboshlashga asoslangan edi. O'z mohiyatiga ko'ra bu tarmoqlararo mehnat taqsimoti bo'lib, va u turli mamlakatlarda tovarlar ishlab chiqarishning tabiiy-iqlim yoki texnologik farqlanishlariga asoslanardi. Bunday mehnat taqsimotida sherik-mamlakatlar o'z ichki bozorlarining mustaqilligini saqlab qolganda, ya'ni ularning yanada yirik bozor makoniga birlashmagan holatida ko'p samara olishlari mumkin. O'zaro

ayirboshlash samarasini oshirish uchun mehnat va kapitalni mamlakat ichkarisida tarmoqlar o'rtasida optimal joylashtirish yoki ayrim ishlab chiqarishlarni arzon ishlab chiqarish omillari mavjud bo'lgan mamlakatlarga ko'chirish kifoya qiladi. Ishlab chiqarish omillarining bunday ko'chib yurishi doimiy ravishda ichki va tashqi sharoitlarning o'zgarishi ta'sirida davom etadi. Biroq bu omillarning xech biri mintaqaviy savdo bloklari yoki bojxona ittifoqlari tuzishga bo'lgan ehtiyojlarni tug'dirmaydi.

Lekin, mashinasozlikning rivojlanishi va sanoatlashtirishning butun dunyo bo'yicha tarqalib borishi bilan qayta ishlash sanoati buyumlari tashqi savdoga tobora ko'proq tortilib boradi. Bu tashqi savdoni jadallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega, chunki qayta ishlash sanoati qishloq xo'jaligi va qazib olish sanoatidan farqli ravishda ishlab chiqarishni istagancha mayda tarmoq va tarmoqchalarga diversifikatsiyalashtirish imkoniyatlarini beradi, bu ichki va tashqi bozorda bunday chuqur ixtisoslashgan tarmoqlar mahsulotini o'zaro ayirboshlash ehtiyojini vujudga keltiradi. Ishlab chiqarishning bunday ehtiyoji iste'molchilarining o'sib borayotgan daromadlari va didlari bilan yanada mustahkamlanadi. Natijada xalqaro savdoda avtomobillar, televizorlar va boshqalarning ayrim rusumlari boshqa rusumlariga ayirboshlanadi.

Shunday qilib, xalqaro tarmoqlararo mehnat taqsimoti bilan bir qatorda uning **tarmoq ichki taqsimoti** ham rivojlanadi, bunda mamlakatlar bir tovar guruhiга mansub turli sifatga yoki dizaynga ega mahsulotlarni ayirboshlaydilar. Aynan shu vaziyat qayta ishlash sanoati mahsuloti eksportining mineral xomashyo yoki agrar mahsulotlar eksportiga nisbatan tez o'sishini tushuntirib beradi. 1950-2006 yillarda agrar mahsulotlarning jahon eksporti (doimiy baholarda) 7,5 marta, mineral xomashyo – 10 marta, tayyor mahsulotlar bo'yicha esa 71 marta o'sdi.¹ Xalqaro tovar oqimlari qanchalik diversifikatsiyalangan bo'lsa, sherik-mamlakatlarning iqtisodiy aloqalari shunchalik mustahkamlashadi.

Shuningdek jahon bozorida barqaror talabga ega biror-bir noan'anaviy tovarga ixtisoslashish korxonaga ishlab chiqarish ko'lami asosida iqtisod qilish imkonini beradi. Bunday mahsulot eksportchilari o'z sotish bozorlarini kengaytirishdan, shu jumladan jahon iqtisodiy makonini umumiyl liberallashtirish yoki xech bo'limganda mintfqaviy erkin savdo zonalarini yaratish orqali kengaytirishdan manfaatdor.

¹ Шишков Ю. Регионализация и глобализация мировой экономики: альтернатива или взаимодополнение? //МЭ и МО, 2008, № 8, с.7.

Mashinali ishlab chiqarishning rivojlanib borishi bilan ishlab chiqarish jarayonining o'zini alohida operatsiyalarga ajratilishi va yagona texnologik siklning ushbu alohida bo'g'inlari o'rtasida ularning yarim tayyor mahsulotlarini ayrboshlash uchun sharoitlar paydo bo'ladi. Bu mehnat taqsimotining yanada yuqori sifat bosqichi bo'lib, **ishlab chiqarish jarayoni taqsimotini** anglatadi. XX asrning birinchi 30 yilligida shu asosda xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi rivojlandi. Bunda yagona texnologik va iqtisodiy ishlab chiqarish zanjirlarining alohida bo'g'inlari turli mamlakatlarda joylashgan, lekin ular yagona reja bo'yicha ishlaydilar. Ular orasida doimiy ravishda detallar, butlovchi qismlarni yetkazib berish amalga oshiriladi. Bu oqimlar transmilliy korporatsiyalarning ichki kanallari orqali yuz bersada, ularning ko'pchiligi xalqaro maqomga ega va mamlakatlar o'rtasida ayrboshlanadigan tovarlarning hajmini bir necha marta ko'paytirib, milliy xo'jaliklarning o'zaro bog'liqligini yanada kuchaytiradi.

Xalqaro mehnat taqsimotida bunday siljishlar baynalmilallahuv jarayonini ham ikkitomonlama asosda, ham ko'ptomonlama savdo-iqtisodiy bloklarda, shuningdek global ko'lamda ham jiddiy jadallashtiradi. Bu siljishlarning asosiy sababi jahon hamjamiyatining uzluksiz ravishda texnik-iqtisodiy rivojlanib borishiga asoslangan. Energiya manbalari, dvigatellar, ishchi mashinalar, transport vositalari, aloqa vositalari, moliyaviy resurslarni safarbar qilish usullari, mehnat resurslarini tayyorlash va qayta tayyorlash usullari sohasida doimiy to'planuvchi va birikib ketuvchi texnologik innovatsiyalar insoniyatni bir texnologik ukladdan boshqasiga o'tkazadi.

Bu tushunchaning zamонавиyl talqini ilmiy-texnik taraqqiyotning turli bosqichlarida shakllanuvchi energetika, dvigatellar, xomashyoni qayta ishlash usullari, ushbu xomashyoni olish, yuklarni va yo'lovchilarni tashish vositalari kabi sohalardagi o'zaro bog'liq texnologiyalarning butun tizimini anglatadi. O'z mohiyatiga ko'ra bunday tizim moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarining vertikal va gorizontal oqimlari bilan bog'langan texnologik o'xshash komponentlardan tashkil topgan va ichki o'z-o'zini qo'llab-quvvatlovchi va o'z-o'zidan rivojlanuvchi texnik-iqtisodiy tizimdan iborat. SHu sababli har bir texnologik uklad ishlab chiqarishning o'z tarmoq tuzilmasiga, o'ziga xos ishlab chiqarish, moliya, transport va maishiy infratuzilma turiga ega. Bundan tashqari har bir uklad o'z iste'mol modeliga, aholi turmush usuliga, kadrlarni kasbiy tayyorlash va iqtisodiy madaniyat darajasiga ega.

Ushbu tushunchaning turlicha va keng ta’riflanishiga qaramay, zamonaviy tadqiqotchilar beshta texnologik ukladni ajratib ko’rsatadilar:¹

- Birinchisi (1770-1830 yillar). Angliya, Belgiya, Fransiyada suv dvigateli asosida mexanizatsiyalashgan to’qimachilik sanoati, so’ngra cho’yan va temir quyish rivojlandi, daryo va dengizda, lekin an’anaviy yelkanli kemalarda yuk tashishlar jadallahashdi.

- Ikkinchisi (1830-1890 yillar). yetakchi G’arbiy Yevropa mamlakatlarda va AQSHda ko’mir bilan ishlaydigan bug’ dvigateli asosida mashinasozlik, qora metallurgiya, ko’mir qazish keng rivojlandi. Temir yo’l transporti rivojvana boshladi, yelkanli kemalar asta-sekin paroxodlar bilan almashtirildi. Biroq bug’ dvigatelini joriy qilish qishloq xo’jaligida amalga oshirilmadi va bu agrar sohaning sanoatdan umumiylorqada qolishining asosiy sababidir. Yirik fabrika ishlab chiqarishi keng yoyildi, bu qishloqdan shaharga aholi migratsiyasining keng rivojlanishini hamda urbanizatsiyani va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini keltirib chiqardi.

- Uchinchisi (1890-1940 yillar). O’sha mamlakatlarda 1820-yillardayooq ixtiro qilingan elektr dvigateli, 1885 yilda ixtiro qilingan ichki yonish dvigateli, 1892 yilda yaratilgan og’ir suyuq yoqilg’ida ishlaydigan dizelni joriy qilish ishlab chiqarish va turmushni elektrlashtirishga, avtomobil transporti, aviatsiyani rivojlantirishga, temir yo’l va suv transportida sifat o’zgarishlariga olib keldi. Elektroenergetika va elektrotexnika, shuningdek noorganik kimyoning turli yo’nalishlari faol rivojlandi. Energiya resurslari bozorida ko’mir o’rniga neft va neft mahsulotlarining ahamiyati kuchaydi. Po’lat asosiy konstruksion materialga aylandi. Ishlab chiqarishning elektrlashtirilishi fan yutuqlarining texnologik qo’llanilishiga imkoniyat yaratdi va texnik taraqqiyotni tezlashtirdi. Umumiy va maxsus ta’lim ommaviy tus oldi.

- To’rtinchisi (1940-1980 yillar). YEIH, Shvetsiya, AQSH, Kanada, Yaponiya, Avstraliyada ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtrish asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlarini birdek qamrab oldi. Ma’lum bosqichda uning miqdori yangi sifatga – avval kimyo, qog’oz, un elash, so’ngra mashinasozlik va asbobsozlik sanoatida avtomatlashtirilgan mashinalar tizimini shakllantirishga o’tdi. Natijada, ichki bozor chegaralaridan tashqariga chiquvchi, qayta ishlash sanoatining standartlashtirilgan mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish boshlandi. Ikkinci jahon urushi davrida aviatsiya va boshqa transport ko’rinishlarini

¹ Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития. М., 1993.

o'zgartirgan va kosmosni o'zlashtirish imkoniyatini bergan reaktiv dvigatellar ixtiro qilindi.

Iqtisodiyot deyarli butunlay neft, neft mahsulotlari va elektr tokiga o'tkazildi. Gidroenergetika va atom energetikasi rivojlana boshladi. Suyuq yoqilg'ini qayta ishlash netfkimyosini va organik kimyonini rivojlantirdi. Natijada 1970 yillarga kelib, uch millionga Yaqin sun'iy bo'yqlar, polimerlar, suyuq yoqilg'i va boshqa organik kimyo birikmalarining yangi turlari yaratildi. Plastmassalarni va yangi konstruksion materiallarni ishlab chiqarish riojlandi. Elektronika yutuqlari va yerning sun'iy yo'l doshlarini uchirish global telefon va radioaloqa tarmog'ini yaratish imkoniyatini berdi. Bu sharoitlarda uzoq muddatli iste'mol tovarlariga ommaviy talab bilan tavsiflanuvchi yangi iste'mol turi shakllandi.

- Beshinchisi (1980-yillardan boshlab). Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, shuningdek yangi sanoatlashgan mamlakatlarda mikroelektronika jadal rivojlanmoqda hamda ishlab chiqarishda va iste'molda yangi tub o'zgarishlarga olib kelmoqda. Texnik taraqqiyotning birinchi qatoriga elektron sanoat, kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar, optoelektronika chiqdi, Internet global axborot tizimi shakllandi. Qayta ishlash sanoatida egiluvchan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish boshlandi, bu ishlab chiqarish mahsulotlari turlarini ko'paytirish, uning modellarini tez o'zgartirish imkonini beradi. Robot texnikasi tobora ko'p joriy etilmoqda. Yangi konstruksion materiallar yaratilmoqda, mikrobiologiya va biotexnologiya, nozik kimyoviy texnologiyalar, nanotexnologiyalar rivojlanmoqda. Ishlab chiqarish sohasidagi bu o'zgarishlar va aholi daromadlarining o'sishi standart mahsulotlarni ommaviy iste'mol qilishdan iste'mol talabining shaxsiylashuviga o'tishni belgilab berdi. Bu turli xizmatlar sohalari rolining keskin o'sishiga olib keldi.

Texnologik ukladlarning almashish xronologiyasini mintaqaviy lashuv jarayonining bosqichlari bilan solishtirib, G'arbiy Yevropadagi mintaqaviy integratsiya bu yerda 1950-yillarda shakllangan to'rtinchi texnologik uklad asosida boshlanganligini ko'rish mumkin. Ushbu rivojlanish darajasiga erishmagan boshqa mintaqalarda integratsiyalashuv jarayonini takrorlash kutilgan natijalarga olib kelmadи. Bu sohada muvaffaqiyatga erishish imkonи keyinroq, lekin to'rtinchi texnik-iqtisodiy rivojlanish ukladi darajasiga erishgan mintaqalardagina paydo bo'ldi. Global lashuv haqida gapiradigan bo'lsak, bu ma'lum sabablarga ko'ra, yanada yuqori texnologik darajada, ya'ni rivojlangan mamlakatlar va yangi sanoatlashgan mamlakatlarning ko'pchiligidagi

beshinchi texnologik uklad ustunlik qila boshlagan davrda boshlandi. Bundan kelib chiqadiki, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya mazkur mintaqada xech bo'limganda to'rtinchi texnologik uklad shakllanganidan so'ng, globallashuv esa – dunyoning barcha yetakchi mintaqalarida beshinchi texnologik uklad ustunlik qila boshlaganda rivojlanadi.


YUNCTAD tasnifiga ko'ra quyidagi makromintaqalar ajratiladi:

- 1) Rivojlangan mamlakatlar - 33 ta Yevropa mamlakati, Shimoliy amerika, Yaponiya, Isroil, Avstraliya va Yangi Zelandiya;
- 2) Sharqiy Osiyo – 8 ta mamlakat, shu jumladan Janubiy Koreya, Tayvan;
- 3) Markaziy Amerika – 9 ta mamlakat, shu jumladan, Meksika;
- 4) Janubiy-Sharqiy Osiyo – 11 ta mamlakat, shu jumladan Indoneziya, Malayziya, Tailand, Filippin;
- 5) Janubiy Afrika – 5 ta mamlakat, shu jumladan Botswana, Svazilend, JAR;
- 6) Janubiy Amerika – qit'aning 12 ta mamlakati va Karib xavzasining 21 ta orol davlatlari;
- 7) Mustaqil davlatlar hamdo'stligi – 12 ta Sharqiy Yevropa, Kavkaz va O'rta Osiyo mamlakatlari;
- 8) Janubiy Osiyo – 9 ta mamlakat, shu jumladan Hindiston, Eron, Bangladesh, Pokiston;
- 9) Yaqin Sharq – 13 ta mamlakat, shu jumladan Turkiya, Iroq, Suriya;
- 10) Okeaniya – 28 ta mayda orol davlatlari;
- 11) Shimoliy va Sharqiy Afrika – 24 ta mamlakat, shu jumladan Sudan, Madagaskar, efiopiya;
- 12) O'rta va G'arbiy Afrika – 24 ta mamlakat, shu jumladan Angola, Nigeriya.

Yangi ukladlar shakllanadigan markazlar bo'lib, texnik-iqtisodiy jihatdan eng ilg'or mamlakatlar hisoblanadi. Ular atrofga texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy yangiliklar tarqatadi. Hozirgi vaqtida jahon hamjamiyatining yetakchi mamlakatlari beshinchi ukladga o'tib, oltinchi uklad ostonasida turgan bo'lsa, dunyo davlatlarining ko'pchiligi ikkinchi yoki uchinchini uklad darajasida turibdi.

Dunyoning turli makromintaqalarining moddiy ishlab chiqarishida qayta ishslash sanoatining ulushi buni yaqqol ko'rsatmoqda (5.1-rasm). Agar 2005 yilda sanoati rivojlangan mamlakatlarda moddiy ishlab chiqarishda qayta ishslash sanoatining ulushi o'rtacha 60 %ni tashkil qilgan bo'lsa, boshqa mintaqalarda 9 dan 72 %gacha tebranadi. Yangi

sanoatlashgan mamlakatlarning yetakchilari (Koreya Respublikasi, Tayvan, Gonkong) va Xitoy kiritilgan Sharqiy Osiyo makromintaqasida bu ko'rsatkich sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqori. Boshqa ko'pgina mintaqalarda, ayniqsa, Janubiy Osiyo, Okeaniya, O'rta va G'arbiy Afrikada qishloq xo'jaligi, yoki qazib olish sanoati, ayniqsa, Yaqin Sharq, MDH, O'rta va G'arbiy Afrika, Shimoliy va Sharqiy Afrikada katta rol o'yaydi.



5.1-rasm. Makromintaqalarning moddiy ishlab chiqarishida qayta ishlash sanoatining ulushi*

Natijada, Okeaniya, Shimoliy va Sharqiy Afrika, O'rta va G'arbiy Afrikada qayta ishlash sanoati boshlang'ich shakllanish bosqichida turibdi. Masalan, 2002 yilda Papua-Yangi Gvineyada (Okeaniya) bir kishiga o'rtacha 79 dollar (1995 yil xalqaro dollarida) milliy qayta ishlash sanoatining qo'shimcha qiymati to'g'ri keladi, bu ko'rsatkich Sudanda – 27,3, Madagaskarda – 15,2, Nigeriyada - 13, Efiopiyada – 7,2 dollarni tashkil etadi. AQSHda bu ko'rsatkich 2002 yilda 5568 dollarni, Germaniyada – 6679, Shveysariyada – 12191 dollarni tashkil etadi.¹ Uchta eng past rivojlangan makromintaqada ikkinchi yoki uchinchi texnologik ukladning belgilarini topish qiyn. Okeaniyaning eng yuqori rivojlangan

* Шишков Ю. Регионализация и глобализация мировой экономики: альтернатива или взаимодополнение? //Мировая экономика и международные отношения, 2008, № 8, с.9.

¹ UNIDO Industrial Development Report 2005. Vienna, 2005. P. 157-159.

mamlakatlaridan biri – Fidjida 2000 yilda qayta ishlash sanoati korxonalarining yarmisi oziq-ovqat va ichimliklar, 18 % - to'qimachilik mahsulotlari, 8,8 % - kimyoviy mahsulotlar va plastmassalar ishlab chiqarish, 3,6 % - metallni qayta ishlash va 1,7 % - oddiy mashinalar ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Sudanda 2001 yilda qayta ishlash sanoti qo'shimcha qiymatining 61 % oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 11,1 % - neftni qayta ishlashga, 1,6 % - metallni qayta ishlashga va yana 1,6 % - rezina va plastiklar ishlab chiqarishga to'g'ri kelar edi.¹

Bunday notekis jahon texnologik landshafti qanday qilib asta-sekin tekislanadi va mintaqaviy integratsiyaning hamda globallashuvning jahon iqtisodiy makoni bo'ylab tarqalishi uchun yaroqli holatga keladi?

Jahon texnik-iqtisodiy salohiyatining kuchli notekis taqsimlanishi sharoitlarida xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi, uning hududiy kengligi va sifat ko'rsatkichlari beshinchi ukladga erishgan mamlakatlar tomonidan qonuniy ravishda aniqlanadi. Chunki ular nafaqat ilmiy-texnik taraqqiyot cho'qqisini egallaydilar, balki XVF tasnifiga ko'ra jahoning 26 ta yetakchi mamlakatlari va 4 ta Osiyo yangi sanoatlashgan mamlakatlari hissasiga 2006 yilda global YAIMning 52 % va global tovarlar va xizmatlar eksportining 67,3 % to'g'ri keladi.² Ular hozirgi vaqtida globallashuvning harakatlantiruvchi kuchi va dizayneri hisoblanadilar (XVIII-XIX asrlarda sanoatlashishga bиринчи bo'lib o'tган Angliya va 2-3 ta mamlakat iqtisodiy moda asoschilari bo'lganidek).

Boshqa milliy xo'jaliklar jahon iqtisodiyotiga yuqorida ko'rsatilgan jahon beshinchi texnologik uklad markazi bilan olib borayotgan savdo, moliya, ilmiy-texnik, madaniy va boshqa aloqalari bilan qo'shiladilar. Yuqorida aytilgan 12 makromintaqalar eksporti va importining geografik tuzilmasi bundan dalolat beradi (5.3-jadval). Ular savdosining aksariyat qismi shu markazga yo'naltirilgan va g'arb adabiyotlarida "hub and spokes" (markaziy o'zak va tutash simlar) nomini olgan o'ziga xos modelni hosil qiladilar. To'g'ri investitsiyalar, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, ilmiy-texnik hamkorlik va boshqa sohalarda ham jahon xo'jalik aloqalari shu tartibda rivojlanmoqda.

Pastroq rivojlangan makromintaqalar ichida savdo va boshqa iqtisodiy aloqalar ob'yektiv sabablarga ko'ra zaifroq rivojlangan. Chunki sanoati rivojlangan mamlakatlar mehnatning o'zaro yanada chuqur va jadal taqsimotini o'rnatish imkoniyatiga ega. Ular o'rtasida

¹ UNIDO Industrial Statistical Database. Vienna. November 2007.

² IMF. World Economic Outlook. Wash., April 2007. P. 204.

ayirboshlanadigan ko'p turdag'i mahsulotlar va detallarning turlari yanada ko'paymoqda, bu ularning iqtisodiyotlarini bir-biriga bog'liqligini kuchaytiradi. Past rivojlangan mamlakatlar esa nisbatan cheklangan turdag'i tovarlarni, asosan past texnologiyali, yoki xatto yoqilg'i-xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradilar. Shuning uchun ular o'rtaida keng ko'lamli mehnat taqsimotining yuz berishi qiyin. Eksportchilar sifatida ular asosan rivojlangan mamlakatlarga o'zining arzon va kam turdag'i tovarlarini sotadilar, importchilar sifatida yana rivojlangan mamlakatlardan yuqori texnologiyali tovarlarni xarid qiladilar. Bozor qonunlari ularni asta-sekin o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikdan uzoqlashtirib, tobora ko'proq rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlik qilishga undaydi.

5.3-jadval. 2005 yilda dunyo makromintaqalari tashqi savdosining* geografik tuzilmasi, jamiga nisbatan % da

Makromintaqalar	Rivojlangan mamlakatlar bilan savdo		O'z makromintaqasidagi savdo		Qolgan mamlakatlar bilan savdo	
	eksport	import	eksport	import	eksport	import
Rivojlangan mamlakatlar	73,4	64,4	73,4	64,4	26,6	35,6
Sharqiy Osiyo	47,5	39,1	32,1	33,9	20,4	27,0
Markaziy Amerika	90,5	71,7	3,4	3,3	6,1	25,0
Janubi-Sharqiy Osiyo	43,8	39,0	24,9	24,6	31,3	36,4
Janubiy Afrika	65,4	53,4	3,7	9,3	30,8	37,3
Janubiy Amerika	50,2	47,3	19,9	28,5	32,5	24,2
MDH	50,7	46,6	18,0	32,8	40,5	20,3
Janubiy Osiyo	47,5	36,8	6,1	4,2	36,7	59,0
Yaqin Sharq	45,2	52,0	6,4	8,8	48,4	39,2
Okeaniya	46,2	64,5	2,5	1,3	51,3	34,2
Shimoliy va Sharqiy Afrika	72,3	53,4	5,2	5,4	22,5	41,2
O'rta va G'arbiy Afrika	60,5	45,9	6,7	11,0	32,8	43,1

* xizmatlar hisobga olinmagan

Manba: UNCTAD. GlobStat database 2007. Geneva, 2007. Table 2.2.

5.4. Mintaqaviy integratsiya va globallashuv jarayonlarining o'zaro harakat tendensiyalari

Mintaqaviy integratsiya va globallashuv jarayonlari bir xil iqtisodiy harakatlantiruvchi kuchlar va umumiy texnologik shart-sharoitlarga ega bo'lib, bir-biriga juda o'xshaydi. Bundan tashqari ular xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi kabi yagona jarayonning bo'g'lnlari hisoblanadi va o'zaro chambarchas bog'liqlikda harakat qiladi. SHu bilan birga farqli tomonlar ham mavjud. eng avvalo, hududiy ko'lam bo'yicha, shuningdek xususiy tadbirkorlik va siyosiy kuchlarning o'zaro nisbati bilan farqlanadi. Mintaqaviy savdo-iqtisodiy birlashmalarni tuzishda, uning amal qilishini hamda keng va chuqur rivojlanishini ta'minlashda siyosiy omil va hukumatlararo o'zaro aloqalar globallashuvning rivojlanishidagiga qaraganda ancha katta rol o'ynaydi. Globalashuv – asosan bozor omillari va tadbirkorlik tashabbuslarining ta'siri ostida rivojlanadi, lekin bu nda ham ikkitomonlama va ko'ptomonlama davlatlararo kelishuvlar va ular tomonidan o'rnatilgan harakat qoidalari mavjud bo'ladi. Siyosiy omil milliy davlat chegaralarida eng kuchli rol o'ynaydi, mintaqaviy bloklarda – kamroq, global darajada – yanada kam rol o'ynaydi. Bu jihatdan mintaqaviy integratsiya milliy xo'jalik va global iqtisodiy makon o'rtasida oraliq bo'g'inni tashkil etadi.

Mazkur oraliq bo'g'in davlatchilikni yo'qotuvchi globalashuv yo'lida to'siq bo'lib xizmat qilmaydimi degan savol tug'iladi, chunki davlatlarning mintaqaviy bloklarga birlashish sabablaridan biri – bu globalashuv bilan bog'liq xavf-xatarlarni birgalikda hal qilishga urinishdir.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, mintaqaviylashuv globalashuvga to'sqinlik qiladi. Dj. Bxagvati va uning tarafdarlari, mintaqaviy savdo kelishuvlari bloklar ichida imtiyozli rejimlarni yaratadi va shu tufayli uchinchi mamlakatlar eksportchilarining a'zo-mamlakatlar bozorlariga kirishiga xalaqit beradi deb ta'kidlaydilar. O'zining navbatdagi kitobini u "Savdo tizimidagi termitlar: imtiyozli savdo kelishuvlari ko'ptomonlama erkin savdoni qanday chekintiradi" deb nomladi.¹ Ayrimlar globalashuvning salbiy ta'sirlari, ularga javob sifatida mintaqaviylashuvni kuchaytirishi va oxir-oqibat globalashuvni surib tashlashi mumkin deb hisoblaydilar. Masalan, P.Kit va R.De Vilers o'n yil avval, globalashuv – bu tugallanmagan jarayon va shu sababli, agar jahon hamjamiyati undan

¹ Bhagwati J. Termites in the Trading Sistem: How Preferential Trade Agreements are Undermining Multilateral Free Trade. Oxford, 2007.

norozi bo'lsa va mintaqaviy integratsiyani lozim deb topsa, uni orqaga chekintirish mumkin deb ta'kidlaganlar.¹

Xo'sh, bu g'oya qanchalik asoslanganligini aniqlashga urinib ko'ramiz.

Nazariy darajada bu muammo, boshqa nuqtai nazardan bo'lsa ham, 1950-yildayoq fransuz iqtisodchisi M.Bie va uning amerikalik hamkasbi Dj.Vayner tomonidan o'rganilgan edi.² Ular tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan bojxona ittifoqi nazariyalari bunday ittifoqlarning ikkitomonli oqibatlarini yoritib beradi. Bir tomonidan, ittifoqlar ichida savdo to'siqlarini deyarli butunlay bekor qilish natijasida yagona boj hududlarini shakllantirish, uchinchi mamlakatlardan import qilishdan qisman voz kechish, a'zo-mamlakatlar o'rtasida savdo oqimlarini qayta taqsimlash blok ichki savdosini rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bu trade-creation (oqim hosil qiluvchi) samara deb ataladi.

Boshqa tomondan, GATT/JSTning uchinchi mamlakatlar bilan savdoda yagona import tarif stavkalarini oshirishni taqiqlaydigan XXIV moddasi talablariga rioya etilganda ham, bunday ittifoqlar ichida savdo to'siqlarini olib tashlash yagona boj hududi doirasida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun raqobat ustunligini yaratadi. Bu uchinchi mamlakatlardan bu yerga eksport qilinayotgan tovarlar raqobatbardoshligini pasaytiradi va ularni o'z eksportining bir qismini dunyoning boshqa mintaqalariga yo'naltirishga majbur qiladi. Bu trade-diversion (oqim qaytaruvchi) samara deb nomlanadi. Aynan shu omil iqtisodiy globallashuvni to'xtaltiruvchi omil deb qaraladi. Yuqoridaq fikrlar ba'zi chetlanishlar bilan birga erkin savdo zonalariga ham tegishli.

Biroq bunday sxema haqiqiy ahvolni faqat turg'un holat yoki qisqa vaqt uchun aks ettiradi. Turli tadqiqotchilarning ayrim aniq boj ittifoqlarining uchinchi mamlakatlar bilan savdosining jadalligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan urinishlari turli, ko'pincha bir-biriga zid natijalarni berdi. Masalan, A.Kruger 1999 yilda MERKOSUR oqim qaytaruvchi samara hosil qiladi degan xulosaga keldi. Ushbu fikrga 2003 yilda F.Di va Dj.Gali, 2006 yilda K.Karrer qo'shildilar.³ 2000 yilda A.I.Soloaga va

¹ Keet P., *De Villiers* R. South Africa and the Non Aligned Movement in an Area of Regionalization and Globalization. Pretoria, 1999.

² Byee M. Unions douanieres et donnees nationales. 1950. Viner J. The Customs Union Issue. N.Y. 1950.

³ Krueger A. Trade Creation and Trade Diversion under NAFTA. 1999. Dee F., Gali J. The Trade and Investment Effect of Preferential Trade Arrangements. 2003. Carrere C. Revisiting the Effects of Regional Trade Agreements on trade Flows with Proper Specification of the Gravity Model. 2006.

A.Viters, 2001 yilda K.Kernat, 2004 yilda S.Gosh va S.Yamarik aksincha, ushbu bojxona ittifoqining oqim hosil qiluvchi samarasini aniqladilar.¹

Bunday turli fikrlarni shu bilan tushuntirish mumkinki, bojxona ittifoqining ushbu samaralari uning amal qilishining turli bosqichlarida turlicha namoyon bo'ladi. Dastlabki davrlarda tashqaridan import sur'atlari blok ichida uning o'sish sur'atlariga nisbatan sekinlashadi. So'ngra u bilan tenglashadi, va keyin undan o'zib ketadi. Bunday dinamika, istalgan mamlakat yoki mamlakatlar guruhining ayrim istiqbolli sanoat yoki xizmatlar sohasi tarmoqlarini yaratish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada proteksionizm, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ob'yektiv zarurdir. Bu mahalliy iqtisodiyotning oyoqqa turishi, mustahkamlanishi va jahon xo'jalik aloqalariga ham eksportchi, ham importchi sifatida faol qo'shilishi uchun imkon beradi. Bundan tashqari, u yoki bu mintaqaviy birlashma ichida savdoni liberallashtirish, bir tomonidan milliy sotish bozorlarini ushbu mintaqaga ko'lamicaga kengaytiradi va a'zo-mamlakatlar kompaniyalariga ishlab chiqarish ko'lami miqyosidan iqtisod qilish samarasidan foydalanish imkonini beradi, va demak, o'z mahsuloti raqobatbardoshligini ham ichki, ham tashqi bozorlarda oshirish imkonini beradi. Boshqa tomonidan, mintaqa ichki savdosini liberallashtirish ushbu mamlakatlar firmalari o'tasidagi raqobatni kuchaytiradi va ularni texnologik va tashkiliy innovatsiyalarga rag'batlantiradi, bu o'z navbatida ularning jahon bozoridagi mavqelarini mustahkamlaydi. Natijada, avval oqim qaytaruvchi samara ustunlik qiladi.

Biroq mintaqaviy blok ichida savdoni liberallashtirish o'z bozoriga uchinchi mamlakatlar tovarlarining kirib kelishini qiyinlashtiradi, bu yerga bevosita va portfel investitsiyalar ko'rinishida xorijiy kapital oqimiga ko'maklashadi. Avvalgi tashqi eksportchiga o'z mahsulotini bu bozorda sotish murakkablashganda, u ishlab chiqarishning o'zini mintaqaga ichida tashkil etishga, va shu orqali mahalliy firmalar bilan bir xil raqobat ustunligidan foydalanishga intiladi. Natijada himoya qilinayotgan tarmoqlarning rivojlanishi va mustahkamlanishi yanada tezlashadi, tashqi dunyo bilan savdo esa ham eksport, ham import bo'yicha jadallahadi.

Amaliyotda bularning barchasi, mintaqaviy imtiyozli zonaning tashqi dunyo bilan savdo aloqalari dinamikasi egri chizig'i sinusoida ko'rinishida bo'ladi. Markaziy Amerika umumiy bozori (MAUB) misolida bu quyidagi

¹ Soloaga L., Winters A. Regionalism in the Nineties: What Effect on Trade. 2000. Cernat L. Assessing Regional Trade Arrangements: Are South-South RTAs More Trade Diverting. 2001. Gosh S., Yamarik S. Are Regional Trade Arrangements Trade Creating? An Application of Extreme Bounds Analisis. 2004.

kuchayishi retsessiya va iqtisodiy pasayishni, investitsion faollik ko'lami cheklanib borishini, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofotlar sodir bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda¹.

Xususan, 2008 yilda jahon miqyosida bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi 20% gacha pasayganligi kuzatilgan. 2009 yilda jahon yalpi ichki mahsulotining pasayishi, bevosita xorijiy investitsiyalar ko'laming yanada pasayishini kuzatilishi hamda xalqaro savdo hajmi qariyb 15% ga pasayishi ehtimol qilinmoqda. Bu holat esa ishsizlik darajasining ortishi bilan bog'liq jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu o'z-o'zidan ijtimoiy transfertlarning ko'payishi hisobiga davlat xarajatlarining o'sishiga olib keladi.

Shunga ko'ra, hukumatlar darajasida inqirozdan chiqish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik masalalarini, talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish ko'laminini kengaytirishga qaratilgan keskin choralarни ko'rish masalasini ko'ndalang qilib qo'yemoqda.

Moliyaviy inqiroz tezda mehnat bozoridagi inqirozga aylandi. IXRTda ishsizlik darajasi 2009 yilda 8,4 % ga yetadi deb taxmin qilinadi. AQSHda ishsizlik allaqachon bu darajadan oshib ketdi, 2009 yil may oyida 2007 yil dekabriga nisbatan 6 mln ish joyi yo'qotilgan, ishsizlarning umumiy soni esa 14,5 mln dan ortib ketdi. Ispaniyada 2009 yil aprelda ishsizlik darajasi 15 %ga migrantlar orasida esa 28 %ga yetdi². Inqirozdan eng ko'p jabr ko'rgan hududlarga migrantlarning ko'pchilik qismi yashaydigan mamlakatlar, ya'ni rivojlangan mamlakatlar kiradi. Inqirozning migrantlarga salbiy ta'siri nafaqat IXRT a'zo-mamlakatlarida, balki Fors ko'rfazi, Sharqiyo Osiyo va G'arbiy Afrikada ham kuzatiladi.

Mehnat bozoridagi inqiroz eng avvalo migrantlar uchun yomon ta'sir ko'rsatadi, chunki mamlakatlar inqirozli holatlarda birinchi navbatda xorijiy ishchilarni bo'shatadi. O'rtacha olganda migrantlar yoshroq bo'lib, pastroq malakaga va ish stajiga ega, odatda vaqtinchalik lavozimlarda ishlaydi va siklli rivojlanuvchi tarmoqlarga jamlangan. Bu esa pasayish paytida eng zaif hisoblangan guruhgaga xos tavsiflardir. O'tkazilgan tahlillardan ma'lum bo'ldiki, iqtisodiy pasayish davrida migrantlar nomigrantlarga nisbatan ko'proq ish yo'qotadi. 1998-2008 yillarda 14 ta Yevropa mamlakatining YAIM va ishsizlik bo'yicha choraklik ko'rsatkichlari asosida aniqlanishicha, retsessiyani boshdan kechirgan

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009.

² Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009. С.41.

qismida (YEI-15) tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat resurslarining erkin harakatlanishi yo'lida deyarli barcha to'siqlar olib tashlangan. Bu yerda milliy davlatlarni saqlab qolgan holda o'z mohiyatiga ko'ra yagona iqtisodiy makon shakllangan bo'lib, unda barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun bir xil ichki va tashqi harakat qoidalari va xatto yagona valuta – yevro joriy etilgan. Tarixda bunday dastlab mustaqil va ancha farovon mamlakatlarning ixtiyoriy ravishda, xech qanday zo'r lashlarsiz va bosimlarsiz o'z moddiy, moliya, intellektual va boshqaruv resurslarini birlashtirish misoli bo'limgan. Yevropa ittifoqi hozircha yagona bunchalik ilgarilab ketgan integratsion blok hisoblanadi. Past rivojlangan mintaqalarda siyosatchilarning xech qanday urinishlari ushbu jarayonlarni kuchaytirishga va rag'batlantirishga qodir emas.

Gap shundaki, bunday mintaqalar mamlakatlari bir-biriga ancha cheklangan turdag'i tovarlarni, asosan qishloq xo'jaligi yoki yoqilg'i-xomashyo mahsulotlarini taklif etishlari mumkin. Bundan tashqari ular texnologik jihatdan qoloqligi tufayli mana shu tovarlarni ham katta mehnat xarajatlari bilan ishlab chiqaradilar. Mehnat xaqi xarajatlari pirovard mahsulot qiymatining katta qismini tashkil qiladi. Bunday mamlakatlarning barchasida mehnat bir xil arzon bo'lib, ish xaqi darajasidagi farqlarning yo'qligi bir xil tovarlarning narx raqobatbardoshligidan foydalanish imkonini bermaydi. Demak, Rikardoning bitta tovar guruhida davlatlararo ayrboshlashning foydaliligini aniqlab beruvchi nisbiy ustunliklari bunday mintaqalarda yuqori emas. Bu ustunliklar rivojlangan mamlakatlar bilan savdodagina ko'zga tashlanadi, chunki u yerda mehnat ancha qimmat turadi. SHu sababli chekka makromintaqalarning assosiy eksport oqimlari rivojlangan mamlakatlarga yo'naltiriladi. Bunday mintaqalar o'rtsaida investitsiyalar va yuqori texnologiyali xizmatlarni ayrboshlash imkoniyatlari esa ancha past.

Shu sababli jahon iqtisodiy makonida milliy xo'jaliklarning yuqori o'zaro bog'lanishi mavjud bo'lgan mintaqalar bilan birga bunday bog'lanishlar past va zaif bo'lgan mintaqalar mavjud. O'zaro bog'liqlikni aniqlashning eng oddiy usuli – bu YUNKTADning yillik statistik to'plamlarida an'anaviy beriladigan mazkur birlashmaning a'zo-mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdoning ularning umumiy savdosidagi ulushi hisoblanadi. Lekin bu ko'rsatkich milliy xo'jaliklarning o'zaro birlashish darajasini taxminan ko'rsatadi. Uni aniqroq qilib, mamlakatning o'z iqtisodiy sheriklariga nisbatan iqtisodiy ochiqlik darjasini yordamida

ko'rib chiqish mumkin. Bu ochiqlik ikki jihatga: savdo-siyosiy va takror ishlab chiqarish jihatlariga ega.

Savdo-siyosiy ochiqlik davlat makroiqtisodiy siyosatining tashqi savdo, fiskal, valuta va boshqa yo'naliishlari bilan aniqlanadi. U mamlakatlararo aloqalarini davlat chegarasining ikki tomonidagi rezidentlar va norezidentlarning iqtisodiy o'zaro harakatlarini murakkablashtiruvchi sun'iy (hukumat joriy etgan) to'siqlardan ozod qilish darajasi bilan o'lchanadi. Bu ma'noda mamlakatning eng ma'qul ochiqligi – mamlakat ichida rezidentlar uchun berilgan bunday to'siqlardan xoli erkinlikdir. U yoki bu mamlakatning savdo-siyosiy ochiqligini aniqlash ancha murakkab, chunki rasmiy import to'siqlari (tarif stavkalari) turli notarif to'siqlar, dempingga qarshi choralar bilan almashtiriladi yoki kuchaytiriladi. Bundan tashqari, pasaytirilgan milliy valuta kursining proteksionistik samarasini ham hisobga olish kerak.

Takror ishlab chiqarish ochiqligi – bu milliy iqtisodiyotning jahon xo'jalik aloqalari tizimiga jalb etilganlik darajasi. U mamlakat eksporti va importi hajmining uning YAIM hajmiga nisbati bilan o'lchanadi. Eksport va import – bu istalgan mamlakat milliy iqtisodiyotini tashqi muhit bilan uyg'un bog'lab turuvchi ikkita juda muhim kanaldir, uning takror ishlab chiqarish siklining ikki tarkibiy qismidir. Milliy mahsulotni yaratish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayoni yaxshi amal qilishi uchun ula tashqi savdo aylanmasi orqali amalga oshirilishi kerak.

Ayrim g'arb tadqiqotchilari bu jihatni sun'iy ko'rinishga ega savdo-siyosiy ochiqlikdan farqli o'laroq, tabiiy ochiqlik deb ataydilar. Biroq takror ishlab chiqarish ochiqligi mustaqil, savdo-siyosiy ochiqlikka qarshi turuvchi omil sifatida qaralmaydi, chunki uning import kabi tarkibiy qismi ko'p jihatdan proteksionizm darajasiga, eksport qismi esa - tashqi bozorlarda milliy kompaniyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullariga bog'liqdir. SHunday qilib, takror ishlab chiqarish ochiqligi ma'lum ma'noda savdo siyosati bilan tuzatiladi, lekin umuman olganda u biror milliy xo'jalikning holatini aks ettiruvchi ob'yektiv sharoitlar bilan aniqlanadi. SHuning uchun ikki yoki bir nechta mamlakatlarning integratsiyalashuv darajasini baholashda ularning o'zaro savdo rejimlarini liberallashtirish emas, balki aynan takror ishlab chiqarish ochiqligi muhimroq.

Takror ishlab chiqarish ochiqlik darajasi mamlakatning texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning ichki bozorining hajmi va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Bu omillarning birinchisi yuqorida ko'rib o'tildi. Lekin bir xil texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasida

ham takror ishlab chiqarish ochiqligi mamlakat ichki bozorining hajmiga bog'liq. U qanchalik katta bo'lsa, bu yerda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning shunchalik ko'p qismi mamlakat ichida iste'mol qilinadi, tashqi sotish bozorlariga ehtiyoji va iste'mol va investitsion tovarlar va xizmatlar importiga qaramlik shunchalik kichik bo'ladi. Taxminan bir xil rivojlangan yetti mamlakatdan eng yirigi bo'lgan AQSHning iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlar eksporti va importiga kamroq bog'liq, Amerikaga qaraganda 62 marta kichik ichki bozorga ega Irlandiyada esa import bo'yicha takror ishlab chiqarish ochiqligi deyarli 70 %, eksport bo'yicha – 80 % ga teng (5.4-jadval). Juda kichik ichki bozorga ega Luksemburgda esa bu ikkala ko'rsatkich 100 % dan ancha ortib ketadi.¹ Bu qonuniyat rivojlanayotgan mamlakatlarda ham amal qiladi.

5.4-jadval. 2005 yilda ayrim rivojlangan mamlakatlarning takror ishlab chiqarish ochiqligi

Mamlakat	YAIM	Eksport	Import		
	mlrd.doll.	mlrd.doll.	YAIM %	mlrd.doll.	YAIM %
AQSH	12543	1275	10,2	1992	15,9
Yaponiya	4559	78	14,9	608	14,9
Germaniya	2795	1127	40,3	986	35,3
Kanada	1132	428	37,8	386	34,0
Niderlandiya	624	428	68,6	375	60,0
Irlandiya	202	161	79,7	137	67,9
Luksemburg	37	55	150,8	44	120,6

Manba: UNCTAD Handbook of Statistics 2006/07. Geneva, 2007.

Nihoyat, takror ishlab chiqarish ochiqligi mamlakatning tabiiy resurslar – energiya resurslari, sanoat uchun xomashyo va aholi uchun oziq-ovqat bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq. Bu jihatdan kamroq ta'minlangan mamlakat o'z ehtiyojlarni import hisobiga qondirishga majbur, bu esa savdo balansini muvozanatlashtirish uchun eksportni ko'paytirishni talab qiladi. Lekin ayni vaqtida tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik odadta dastlabki sanoatlashtirish bosqichlaridan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni shakllantirishga o'tishni susaytiradi va shu orqali mamlakatning jahon xo'jalik aloqalariga tortilishini orqaga suradi.

¹ Luksemburg ochiqligi g'alati tuyulishi mumkin. Lekin YAI M – bu moddiy ishlab chiqarishda va xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymatlar (xomashyo va boshqa oraliq mahsulotlar qiymatsiz) yig'indiisidir, eksport hajmi esa qo'shilgan qiymatdan tashqari xomashyo, boshqa oraliq mahsulotlar, tovari xorijga etkazib berish qiymatlarini, shuningdek qo'shimcha qiymat solig'ini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, mamlakat qanchalik yuqori texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, yalpi mahsulotning kichik hajmiga va tabiiy resurslar bilan kam ta'minlangan bo'lsa, uning takror ishlab chiqarish ochiqlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Biror integratsion guruhning a'zo-mamlakatlarining o'zaro takror ishlab chiqarish ochiqligining kattaligi ularning iqtisodiyotlari qanchalik bir-biriga singib ketganligini ko'rsatadi. Turli savdo-iqtisodiy bloklar doirasida bunday singib ketish darajasini taqqoslash uchun ularning har birida uning o'rtacha darajasini bilish zarur. Biroq uning o'rtacha darajasini topish kamida ikkita qiyinchilikka ega. Ulardan birinchisi shundaki, yirik, o'rta va mayda mamlakatlarning bir-biriga nisbatan turli darajada ochiqlikka ega. Masalan, 2005 yilda Meksikaning tovarlar eksporti bo'yicha AQSHga nisbatan ochiqligi 23,9 %, import bo'yicha – 15,5 % ni tashkil qiladi. AQSH esa Meksika haqiqatan ham o'zining Shimoliy qo'shnisi bilan integratsiyalashayotganini bildiradi, lekin shu bilan birga Shimoliy qo'shnisi unga deyarli bog'lanmaganligini ko'rsatadi. Shuning uchun guruhga katta va kichik mamlakatlar qo'shilgan bo'lsa, ularning bir-biriga nisbatan o'rtacha takror ishlab chiqarish ochiqligini hisoblash juda qiyin. O'rtacha tortilgan ochiqlik (ularning o'zaro savdosi hajmining umumiyligi YAIMga foizli nisbati) ham holatni noto'g'ri aks ettiradi. Agar guruhda past ochiqlikka ega katta mamlakatlar ustunlik qilsa, pasaytirilgan natija olinadi, va aksincha.

Ushbu statistik muammoni chetlab o'tish uchun har bir blok ichida katta va kichik mamlakatlarning noto'g'ri aks etuvchi ta'sirini yo'qotish kerak. Bunda eng oddiy usul – mazkur blokning barcha mamlakatlarning blok ichki ochiqligining o'rtacha tortilgan qiymatidan emas, balki o'rtacha arifmetik qiymatidan foydalanishdir. Eng ilgarilab ketgan YEI-15 integratsion blokida beshta yirik va o'nta o'rtacha va kichik mamlakatlar mavjud. 1993-2005 yillar mobaynida G'arbiy Yevropa integratsion majmuasining yadrosini tashkil qiluvchi 15 ta YEI mamlakatining blok ichki ochiqligi 22,5 %dan 41,5 % gacha tashkil qiladi (bunda xizmatlar savdosi hisobga olinmagan). Xizmatlar savdosini hisobga olganda ularning hozirgi kundagi ochiqligi 45 % atrofida, va keyingi davrda yanada ortishi kutiladi.

Ikkinci qiyinchilik turli mamlakatlar YAIM hajmini hisoblash bilan bog'liq. Xalqaro taqqoslashlar uchun uni joriy yoki doimiy AQSH dollarida ifodalashadi. Bunday ko'rsatkichlar haqiqiy ahvolni aks

¹ UNCTAD Handbook of Statistics 2006/07. Geneva, 2007. P.322. 392.

etirmaydi, chunki kamroq rivojlangan mamlakatlar valutalarining almashuv kurslari ularning haqiqiy xarid quvvatiga nisbatan pasaytirilgan, rivojlangan mamlakatlarning valuta kurslari esa ko'tarilgan bo'ladi. Natijada kamroq rivojlangan mamlakatlarning YAIM hajmi uning haqiqiy miqdoriga nisbatan pasaytirilgan, rivojlangan mamlakatlarda esa ko'tarilgan bo'ladi. 2004 yilda masalan, Xitoy YAIM yuanning xarid quvvati pariteti (HQP) bo'yicha hajmi uning AQSH dollariga almashuv kursi bo'yicha hajmidan 4,3 marta ortiq edi, Hindistonda bu nisbat 4,9 ni, Efiopiyada – 7, Chadda – 8,4 martani tashkil etadi. BMT va Jahon banki bu tafovutlarning oldini olish uchun yangi statistik valuta birligi – HQP bo'yicha hisoblangan xalqaro dollarlarni qo'llamoqdalar. HQPni aniqlashning mohiyati mazkur mamlakat uchun xarakterli tovarlar majmuasi qiymatini AQSHda xuddi shunday majmua qiymati bilan solishtirishdan iborat.

Bu usul kamchiliklardan butunlay xoli emas, lekin u YAIMlarning haqiqiy hajmlarining va u bilan bog'liq boshqa ko'rsatkichlarning o'zaro nisbati to'g'risida, ko'rsatkichlarni valuta almashuv kurslari asosida taqqoslashga qaraganda, aniqroq tasavvur beradi. Shu sababli keyingi o'rinda biz xalqaro dollarlarda hisoblangan mintaqaviy YAIMlar asosidagi ochiqlik ko'rsatkichlari to'g'rsida gapiramiz.

5.5-jadvalda 11 ta savdo-iqtisodiy bloklarda iqtisodiy integratsiyaning yutuqlarini baholashning uchta turi keltirilgan. Ushbu bloklarda ham rivojlangan, ham yangi sanoatlashgan, o'tish iqtisodiyotli, rivojlanayotgan va eng past rivojlangan mamlakatlar ishtirot etadi. Birinchi baho – a'zo-mamlakatlarning umumiy tovar eksporti hajmida blok ichki eksportning ulushi. Ikkinchisi – blok ichki eksporti va importining HQP bo'yicha hisoblangan YAIMga o'rtacha tortilgan foizli nisbati. Uchinchisi – mazkur blokning barcha mamlakatlari ko'rsatkichlarining tortilmagan o'rtacha qiymati.

Agar bu ko'rsatkichlarni 5.1-rasm ma'lumotlari bilan solishtirsak, u yoki blokning a'zo mamlakatlarining o'zaro ochiqlik darajasi ushbu bloklar mansub bo'lgan makromintaqalarda qayta ishslash sanoatining rivojlanish darajasiga deyarli to'liq mos keladi. Bu qjnuniyat faqat MDHga tegishli emas: 2005 yilda u moddiy ishlab chiqarishda qayta ishslash sanoatining ulushi bo'yicha Janubiy Afrika va Janubiy Amerika guruhlaridan orqada qolishiga qaramay, blok ichki ochiqlik darajasi bo'yicha oldinda edi. Bu MDH doirasida blok ichki ochiqlik darajasining o'sib borishi emas, balki pasayib borishi bilan tushuntiriladi. Sovet Ittifoqi barbod bo'lgandan so'ng bu ochiqlik yuqoriligi tushunarli holdir, lekin

a'zo-mamlakatlarning blokdan tashqari savdo sheriklariga qayta yo'nalishi bilan u pasayib boradi. 1995 yilda blok ichki ochiqlik tortilgan ko'rsatkich bo'yicha bu yerda 6,7 % ni, tortilmagan ko'rsatkich bo'yicha – 10,9 % ni tashkil qilgan bo'sha, 2005 yilga kelib mos ravishda 5,3 va 10,3 % gacha qisqardi. MDHning dezintegratsiya jarayoni xali blok ichki ochiqligi a'zo-mamlakatlarning texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos keluvchi nuqtagacha yetib kelmagan.

5.5-jadval. 2005 yilda savdo-iqtisodiy bloklarga a'zo-mamlakatlarning o'zaro ochiqligi, %

Guruh	Umumiy eksport va import hajmida blok ichki savdosining ulushi		Blok ichki ochiqligi (tortilgan ko'rsatkich)			Blok ichki ochiqligi (tortilmagan ko'rsatkich)		
	eksport	import	eksport bo'yicha	import bo'yicha	umuman	eksport bo'yicha	import bo'yicha	umuman
Evroittifoq-15	59,7	55,5	19,4	18,2	37,6	24,2	23,8	48,0
NAFTA	55,8	34,2	5,6	5,3	10,9	10,5	10,4	20,9
ASEAN	25,1	26,8	6,1	6,7	12,8	9,5	8,3	17,2
MDH	18,0	32,8	2,6	2,7	5,3	4,0	6,3	10,3
SAKU(2002y)	6,2	26,2	0,3	1,1	1,4	2,2	7,4	9,6
MFRKOSUR	13,0	20,2	1,0	1,1	2,1	2,3	4,0	6,3
EKOVAS	10,6	11,0	1,5	1,4	2,9	2,0	3,6	5,6
SAM(2003y)	0,8	0,7	0,1	0,1	0,2	1,6	3,0	4,6
MAUB	33,9	22,9	2,2	2,0	4,2	2,0	2,3	4,3
UMA	2,0	28,6	0,2	0,4	0,6	0,6	0,7	1,3
SEMAK	16,6	6,0	0,2	0,2	0,4	0,6	0,3	0,9

NAFTA – Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (3 mamlakat, 1994 yildan beri amal qiladi).

ASEAN – Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (10 mamlakat, 1997 y).

SAKU – Janubiy Afrika bojxona ittifoqi (5 mamlakat, 1989 y).

MFRKOSUR – Janubiy Konus umumiy bozori (4 mamlakat, 1991 y).

EKOVAS – G'arbiy Afrika davlatlarining iqtisodiy hamjamiyati (15 mamlakat, 1975).

SAM - Arab Mag'rib ittifoqi (5 mamlakat, 1989 y).

MAUB – Markaziy Amerika umumiy bozori (5 mamlakat, 1961 y).

UMA – Tinch okean orol davlatlari guruhı (4 mamlakat, 1988 y).

SEMAK - Markaziy Afrika iqtisodiy va valuta hamjamiyati (6 mamlakat, 1994 y).

Manba: UNCTAD Handbook of Statistics 2006/07.

Ko'rib chiqilgan turli bloklarning ko'pchiligi haqiqiy integratsiyadan uzoqda. Lekin ular qanchalik uzoqda? Bu savolga javob berish uchun blok ichki ochiqligining qaysi darajasida milliy xo'jaliklarning singib ketishini orqaga qaytarib bo'lmas jarayonga aylanishini aniqlash kerak. Boshqacha aytganda, qay darajadagi ochiqlik iqtisodiy integratsiyani o'z-o'zidan

takror ishlab chiqariladigan va rivojlanadigan jarayonga aylantirish uchun zarur va yetarli?

Yevroittifoq – muvaffaqiyatli mintaqaviy integratsiyaning so'zsiz namunasi ekan, uning tajribasida ushbu nuqtani aniqlashga urinib ko'rish mumkin. Rossiyalik iqtisodchi olim Yu.Shishkovning fikricha, bu daraja 27-30 % tortilgan yoki 35-39 % tortilmagan blok ichki ochiqlik darajasiga to'g'ri keladi.¹ Aynan shu darajada 80-yillarning ikkinchi yarmida bu yerda a'zo-mamlakatlar o'zaro savdosini oddiy liberallashtirishdan milliy makroiqtisodiy siyosatning turli yo'nalishlarini kelishish va yaqinlashtirishga qat'iy o'tish amalga oshirildiki, bu milliy iqtisodiyotlarning to'xtovsiz birikib ketishini ta'minlaydi. Hozirgi vaqtida bu darajaga eng yaqinlashgan integratsion guruh NAFTAdir, ASEAN – biroz orqada. MDHning uchinchi o'rni haqiqatga mos kelmaydi, chunki bu yerda blok ichki ochiqligi pasayib bormoqda. Boshqa guruhlar ob'yektiv sabablarga ko'ra bu darajadan xali juda uzoqda.

5.6. Iqtisodiy integratsiya va globallashuv jarayonlarining rivojlanish istiqbollari

Zamonaviy globallashayotgan dunyoda barcha mamlakatlar tez yoki sust darajada yanada yuqori texnologik ukladlar tomon, va demak, yanada murakkablashgan tarmoq ichki savdosi tuzilmasi, ishlab chiqarish jarayonining taqsimoti va ishlab chiqarish kooperatsiyasining turli-tuman shakllari tomon rivojlanib bormoqda. Tabiiyki, bu jarayonlarning barchasi milliy iqtisodiyotlar doirasi bilan cheklanmaydi va chegaralardan tashqariga chiqib ketadi. YUNKTAD mutaxassislari ta'kidlashicha, ishlab chiqarish ko'lami, unumdarlik va texnologik nou-xaularning ma'lum darajasidan o'tib ketgan firmalar tobora faolroq chet elda savdo qilishga intiladi. Eksport sotish bozorlarini kengaytiradi va ishlab chiqarish ko'lami miqyosidan iqtisod qilishdan to'laroq foydalanish imkonini beradi, shu bilan birga firmalarni yangi mahsulotlar va jarayonlar, shuningdek yangi raqobat xatarlari bilan sinaydi. Bunda o'xshash iqtisodiy tuzilmaga va texnologik salohiyatga ega mamlakatlar o'rtasidagi bu jarayon ma'lum rivojlanish darajasiga yetgandan so'ng tezlasha boshlaydi.²

Natijada milliy iqtisodiyotlarning takror ishlab chiqarish ochiqligi tezroq o'sadi. Amaliyat ko'rsatishicha, rivojlangan va rivojlanayotgan

¹ Шишков Ю. Регионализация и глобализация мировой экономики: альтернатива или взаимодополнение? // МЭ и МО, 2008, № 8, с.18.

² UNCTAD. Trade and Development Report. 2007. P. 41-42.

mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlarining ochiqligi energetik inqirozni boshdan kechirgandan so'ng, 80-yillarning o'rtalaridan boshlab oshmoqda. Bu tendensiya ayniqsa, hozirgi o'n yillikning boshidan kuchaydi. Bu yerda gap mintaqaviy integratsiya ishtirokchilarining blok ichki ochiqligi to'g'risida emas, balki milliy iqtisodiyotlarning umuman barcha tashqi sheriklarga nisbatan ochiqligi to'g'risida bormoqda. Blok ichki ochiqlik umumiying bir qismi sifatida doim ancha kichik bo'ladi.

Shunga qaramay, umumiy ochiqlikning o'sib borishi asosida mintaqaviylashuv jarayonlariga tobora ko'proq mamlakatlarni jalb qilish uchun sharoitlar yetiladi. Ularning o'ziga teng yoki yuqori texnologik ukladga erishgan boshqa mamlakatlar bilan o'zaro harakat qilish qobiliyati asta-sekin ortib boradi. Bunday jalb qilish asosan uch shaklda: mavjud ko'ptomonlama bloklarga yangi mamlakatlarning qo'shilishi, bunday bloklar bilan imtiyozli savdo munosabatlarini o'rnatish (erkin savdo zonalari, bojxona ittifoqlari shaklida), ikkitomonlama ittifoqlarni tashkil qilish ko'rinishida amalga oshadi.

Birinchi variantga yana yevroittifoqni yaqqol misol qilish mumkin. U oltita tashabbuskor mamlakatdan boshlangan edi, hozir 27 mamlakatni o'z ichiga oladi. YEIga qo'shilayotgan yangi ishtirokchilar bu yerda o'rnatilgan qat'iy qoidalarga amal qiladilar. Shuningdek, ASEAN va rivojlanayotgan makromintaqalarning boshqa ayrim bloklari ham kengaydi.

Biroq ko'pchilik hollarda yangi mamlakatlarning ko'ptomonlama integratsion bloklarga qo'shilishi ancha yumshoq shaklda amalga oshadi. Ko'ptomonlama al'yanslar o'z atrofiga mazkur blokka qo'shilish istagiga yoki qobiliyatiga ega bo'lмаган mamlakatlarni to'plovchi o'ziga xos o'zakni tashkil qiladi. yevroittifoq bilan erkin savdo zonasini to'g'risidagi kelishuvlarni turli vaqtarda Shveysariya, Islandiya, Norvegiya, JAR, Meksika, Xorvatiya, Chili va Albaniya imzolagan. 1996 yildan beri Turkiya YEI bilan bojxona ittifoqi tarkibida. 1995 yil noyabrida 2010 yilga kelib yevroittifoq va Janubiy O'rta yer dengizi mamlakatlari o'rtasida ikkitomonlama imtiyozli munosabatlar tizimini yaratishga qaror qilingan. Erkin savdo zonasini to'g'risidagi kelishuvlar Suriya, Falastin avtonomiysi, Tunis, Isroil, Marokko, Iordaniya, Livan, Misr va Jazoir bilan tuzilgan. Pirovard maqsad sifatida kelajakda Yevropa-O'rta yer dengizi erkin savdo zonasini tashkil qilish qaraladi.¹ Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi ham turli mamlakatlar bilan shunday imtiyozli kelishuvlarni tuzgan. So'nggi 15-20 yilda bunday alyanslarning soni tez

¹ WTO. World Trade Report. 2003. P. 74-75.

ko'paymoqda. Natijada jahon iqtisodiy hamjamiyatida JSTda alohida mamlakatlarning ishtirokidan ko'ra ko'proq erkinlikka ega "hub and spokes" (markaziy o'zak va tutash simlar) savdo klasterlari shakllanmoqda.

Bunday klasterning o'ziga xos modeli NAFTA atrofida shakllanmoqda. 1994 yil oxirida G'arbiy yarim sharning 34 mamlakatining panamerika sammitida (faqat Kuba ishtirok etmadid) 2005 yildan kechiktirmasdan ikkala Amerikaning "Alyaskadan boshlab Olovli yergacha" erkin savdo zonasini – Free Trade Area of Americas (FTAA) to'g'risidagi kelishuvni imzolashga kelishib olindi. NAFTAda Yeldagi kabi yagona tashqi savdo siyosati bo'yicha javob beruvchi millat ustki organlarning yo'qligi sababli alohida Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan kelishuvlar ikkitomonlama asosda blokning har bir mamlakati bilan imzolanadi. AQSH erkin savdo hududi (ESH) to'g'risida CHili bilan shartnoma imzolagan, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua va Salvador bilan muzokaralarni yakunlagan va Kosta-Rika bilan davom ettirmoqda. Shuningdek Boliviya, Kolumbiya, Panama, Peru bilan bu muzokaralarni boshlamoqchi. O'z navbatida Kanada Chili va Kosta-Rika bilan ESH to'g'risidagi shartnomalarni imzolagan, Dominik Respublikasi, And guruhi mamlakatlari va Karib xavzasini umumiy bozori a'zolari bilan muzokaralarni rejalahstirmoqda. Meksika bunday shartnomalarni Chili, Nikaragua, Salvador, Gonduras va Gvatemala bilan imzolagan.¹

Shunday qilib, mintaqaviy integratsion jarayonlar yirikroq yoki kichikroq bloklar doirasida amalga oshadigan dastlabki bosqich o'z o'rnni eski yoki yangi sanoatlashgan mamlakatlardan iborat mustahkam o'zakka va o'rtacha rivojlangan mamlakatlardan iborat chekka qismlarga ega yangi savdo-iqtisodiy tuzilmalarining shakllanishiga bo'shatib beradi. Bunday tuzilmalar chegarasida nafaqat yirik bozor hududini, yuqori innovatsion salohiyatni va qo'shni mamlakatlarga kiritishga tayyor ortiqcha kapitalni jamlagan kuchli o'zak tomonidan tabiiy jalb qiluvchi kuchlar harakat qiladi. Shuningdek, bu o'zak tomonidan istiqbolli nomzod-mamlakatlarga ularning mintaqaviy blokka qo'shilishga tayyorgarlik ko'rish bosqichida ham, ular qo'shilganidan so'ng kuchli raqobat sharoitlariga moslashishini tezlashtirish maqsadida ham katta moliyaviy va texnik yordam ko'rsatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yevroittiyoq o'n yillar mobaynida Sharqiy Yevropaning nomzod-mamlakatlariga yirik miqdorda yordam ko'rsatgan. Bu yordamlar YEIga yangi mamlakatlar qo'shilganidan so'ng

¹ WTO. World Trade Report. 2003. P. 75-76; WTO. Annual Report. 2004. P. 69; WTO. Regional Trade Agreements Gateway. October 2007.

ham amalga oshirilmoqda: 2004-2006 yillarda ular yana 40,2 mlrd. yevro miqdorida turli subsidiyalarni oldilar.¹ Bu ularning rivojlangan mamlakatlar hamjamiyatiga qo'shilish bilan bog'liq ko'pgina muammolarni hal etishni jiddiy osonlashtiradi.

Zamonaviy bosqichning yana bir muhim tendensiyasi – bu ko'ptomonlama savdo-iqtisodiy bloklardan voz kechish va ikkitomonlama kelishuvlar tomon yo'nalişdir, ular sheriklarga ko'proq harakatlanish erkinligini, alohida qiziqish uyg'otuvchi tovarlar va xizmatlar turlari bo'yicha imtiyozlar to'g'risida kelishib olish, va kelishuvlar mazmunining o'zini diversifikatsiyalashtirish imkonini beradi. 90-yillar o'rtalarigacha ular yagona hollarni tashkil etgan bo'lsa, 1995 yilda 13 ta ikkitomonlama kelishuvlar amal qilardi, so'ngra bu jarayon yanada rivojlanib, 2007 yilda ularning soni 68 taga yetdi. JST ma'lumotlariga ko'ra, bu tendensiya kuchayib boradi. 2006 yil oxirida amal qilayotgan savdo-iqtisodiy bloklar ichida ko'ptomonlama kelishuvlar atigi 20 %ni tashkil qilardi, muzokaralar bosqichida turgan yoki imzolanib, xali kuchga kirmagan kelishuvlar ichida ular bor-yo'g'i 6 %ga teng, loyihalashtirilayotganlar orasida esa bitta ham yo'q edi.² SHu bilan birga ikkitomonlama alyanslar nafaqat qo'shni mamlakatlar o'ttasida, balki bir-biridan uzoq joylashgan mamlakatlar o'ttasida ko'proq yuz beradi. Masalan, AQSH Avstraliya, Isroiil, Singapur, Iordaniya, BAA va Ummon bilan, Hindiston – Chili va Mavrikiy bilan, Singapur – Iordaniya, Peru, Chili bilan, Yaponiya – Meksika bilan shunday kelishuvlarga ega.

Shunday qilib, jahon iqtisodiy makoni ikkitomonlama va ko'ptomonlama savdo-iqtisodiy kelishuvlar tarmog'i bilan tobora keng qoplanmoqda. Bu shuni anglatadiki, JST boshchiligidagi liberallashtirilayotgan xalqaro savdo bilan birga mintaqaviy bozor makonlari tobora ko'proq paydo bo'lmoqda, ular proteksionistik to'siqlardan yanada xoli bo'lganligi sababli milliy iqtisodiyotlarning qo'shilishi uchun qulayroq imkoniyatlar yaratadi.

Milliy xo'jaliklar o'ttasida rasmiy imzolangan yoki norasmiy kelishuvlar shaklidagi savdo-iqtisodiy aloqalar sharoitida ikkita o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tendensiyalarning rivojlanishini kutish mumkin. Bir tomondan, "hub and spokes" klasterlarining va butun geoijtisodiy "galaktikalar"ning shakllanishi davom etadi. Ikkinchi tomondan, ushbu klasterlarning va "galaktikalar"ning o'zi ziddiyatlarni chetlab o'tish uchun bir-biri bilan o'zaro harakatlanish yo'llarini topishi kerak. Bunday o'zaro

¹ Европейский союз: факты и комментарии. М., Институт Европы РАН. Декабрь 2002 – февраль 2003. С. 23.

² Fiorentino R., Verdeja L., and Toqueboeuf Ch. The Changing Landscape of Regional Trade Agreements. 2006.

amat qilishga urinishlar boshlangan. Masalan, YeI va MERKOSUR, YeI va Ko'rfaz mamlakatlari hamkorlik kengashi (KMXK) o'tasida erkin savdo zonasasi to'g'risidagi shartnomalar imzolangan. YeI yana oltita mintaqaviy guruuhlar – EKOVAS, SEMAK, ISA, KARIKOM, SADK va UMA bloklari bilan bu borada muzokaralar olib bormoqda. YEFTA SAKU bilan shartnomaga ega va MERKOSUR hamda KMXK bilan muzokaralar olib bormoqda. MERKOSUR SAKU bilan erkin savdo zonasasi to'g'risida kelishib oldi va KMXK bilan muzokaralar olib bormoqda. Istiqbolda bunday bloklararo kelishuvlarning yanada ko'payishi kutiladi.¹

Bu tendensiyalarning ikkalasi hozirgi kunda tez shakllanayotgan mintaqaviy va mintaqalararo savdo-iqtisodiy bloklar tarmog'i vaqt o'tishi bilan butunjahon erkin savdo zonasiga aylanishi mumkin. JSTning barcha yoki deyarli barcha a'zolarini qamrab oluvchi bunday global tizim ko'p jihatdan ushbu hukumatlararo tashkilot o'rnni egallashi, yoki xech bo'limganda uning xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam beruvchi mexanizm rolini kamaytirishi mumkin.

Shu bilan birga bunday istiqbol iqtisodiy globallashuv va mintaqaviylashuv o'tasidagi mavxum ziddiyatni olib tashlaydi. Bu ularning nafaqat hududiy mos kelishi tufayli, balki xo'jalik hayoti baynalmilallahuvini rivojlantirish va chuqurlashtirishdagi rolining yaqinlashuvi tufayli ro'y beradi. To'rtinchi, keyin esa beshinchchi texnologik ukladning butun dunyo bo'yicha tarqalishi bilan milliy iqtisodiyotlarning ham global darajada, ham makro va mikromintaqalar darajasida o'zaro bog'liqligi kuchayib boradi va ularni ulkan integratsion aralashmaga aylantiradiki, bu yerda davlat chegaralarining ahamiyati kamayadi, va xatto yo'q bo'lib ketishi ham mumkin.

Albatta, bu faqat taxmin xolos. Balki, xo'jalik hayoti baynalmilallahuvining amalda rivojlanishi kutilmagan qiyinchiliklarga duch kelishi va o'z yo'nalishini o'zgartirishi mumkin. Lekin dunyo hamjamiyati odida milliy iqtisodiyotlarni o'zaro bog'liqligining kuchayishidan boshqa yo'l yo'q. Milliy xo'jaliklar va ularni himoyalovchi mustaqil davlatlar davri asta-sekin, lekin izchil o'tmishga aylanmoqda.

Xulosa

Xalqaro iqtisodiy integratsiya milliy xo'jaliklar o'tasida o'zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi va mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan

¹ KMXK o'z ichiga Baxrayn, Quvayt, BAA, Ummon va Saudiya Arabistonini oladi; ISA – bu Sharqiy va Janubiy Afrikanikan Botswana, Lesoto, Namibiya, Svazilend va JAR mamlakatlari.

birlashuvi bo'lib, ishlab chiqarish tuzilmalarining turli darajada va turli ko'rinishdagi o'zaro aloqadorligini ifoda etadi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda integratsion jarayonlar ikkita asosiy ko'rinishda, ya'ni, birinchidan, mikro — transmilliy korporatsiyalarning tashkil etilishi orqali, ikkinchidan, makro — iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish siyosati orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy integratsion jarayonlar asosida bir qator ob'yektiv omillar yotadi, ularning ichida eng muhimlari quyidagilardan iboratdir:

- xo'jalik hayotining yanada baynalmilallahuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umumjahon ahamiyatiga ega bo'lgan ilmiy-teknika inqilobi (ITI);
- milliy iqtisodiyotda «ochiqlik» darajasini kuchayishi.

Integratsion guruhlar tipologiyasi asosan ishtirokchi mamlakatlar iqtisodiyotining makro va mikrodarajada o'zaro yaqinlashish va bir-biriga naqadar chuqr kirib borishligini baholashda namoyon bo'ladi. Bu mezonga ko'ra integratsiyaning to'rt ko'rinishini (erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiyo bozor va iqtisodiy ittifoqlarni) ajratib ko'rsatish mumkin.

Hozirgi kunda xo'jalik hayotining baynalmillashuvining ikkita asosiy ko'rinishi — globallashuv va mintaqaviy integratsiyalashuv tendensiyalari ko'zga tashlanadi. Ularning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib turli mamlakatlarning tadbirkorlarini daromadlarini oshirish, iqtisodiy o'sishini tezlashtirish va aholi farovonligini oshirish uchun xalqaro savdodan, investitsiyalar ayirboshlashdan, ishlab chiqarish kooperatsiyasidan, ilmiy-teknik hamkorlikdan foydalanishga intilish hisoblanadi.

Mintaqaviy integratsiya va globallashuv jarayonlari bir xil iqtisodiy harakatlantiruvchi kuchlar va umumiyo texnologik shart-sharoitlarga ega bo'lib, bir-biriga juda o'xshaydi. Bundan tashqari ular xo'jalik hayotining baynalmilallahuvi kabi yagona jarayonning bo'g'inlari hisoblanadi va o'zaro chambarchas bog'liqlikda harakat qiladi. Shu bilan birga farqli tomonlar ham mayjud. Eng avvalo, hududiy ko'lam bo'yicha, shuningdek xususiy tadbirkorlik va siyosiy kuchlarning o'zaro nisbati bilan farqlanadi. Mintaqaviy savdo-iqtisodiy birlashmalarni tuzishda, uning amal qilishini hamda keng va chuqr rivojlanishini ta'minlashda siyosiy omil va hukumatlararo o'zaro aloqalar globallashuvning rivojlanishidagiga qaraganda ancha katta rol o'ynaydi. Globallashuv — asosan bozor omillari va tadbirkorlik tashabbuslarining ta'siri ostida rivojlanadi, lekin bunda ham ikkitomonlama va ko'ptomonlama davlatlararo kelishuvlar va ular

tomonidan o'rnatilgan harakat qoidalari mavjud bo'ladi. Siyosiy omil milliy davlat chegaralarida eng kuchli rol o'ynaydi, mintaqaviy bloklarda – kamroq, global darajada – yanada kam rol o'ynaydi. Bu jihatdan mintaqaviy integratsiya milliy xo'jalik va global iqtisodiy makon o'rtasida oraliq bo'g'inni tashkil etadi.

Tayanch iboralar:

Xo'jalik hayoti baynalmillallashuvi, xalqaro iqtisodiy integratsiya, ilmiy-texnika inqilobi (ITI); «ochiqlik» darajasi, erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiylar bozor, iqtisodiy ittifoq, texnologik shart-sharoitlar, davlatchilik, mintaqaviy blok, mintaqaviy lashuv, globallashuv, mintaqaviy savdo kelishuvlari, imtiyozli rejim.

Nazorat uchun savollar:

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyatini tushuntiring.
2. Integratsion guruhlarning qanday asosiy ko'rinishlari mavjud?
3. Globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining o'zaro bog'liqligini qanday tushuntirish mumkin?
4. Mintaqaviy integratsiya va globallashuv jarayonlarining o'zaro harakat tendensiyalarini tushuntiring.
5. Iqtisodiy integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarining rivojlanish istiqbollari qanday baholanadi?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
2. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учебное пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.
3. Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.- 581 с.
4. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - 196 б.
5. А.А.Исаджанов. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, - 185 б.
6. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.

7. Назарова Г.Г., Хайдаров Н.Х. Халқаро иқтисодий муносабатлар. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2005. - 273 б.
8. Nazarova va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik – T.: O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2005. - 224 b.

6-BOB. GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA TRANSMILLIY KORPORATSIYALARING TUTGAN O'RNI

6.1. Transmilliy korporatsiyalarining mohiyati

Xalqaro kompaniyalar milliy kapitalni boshqa davlatlarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida olib chiquvchi tashkilotlardir. Zamonaviy xalqaro kompaniyalarining ko'pchilik qismi transmilliy korporatsiyalarini, tashkiliy shakli bo'yicha esa konsernlarni ifoda etadi. Ular ilgarigi turli davlatlar kapitalining oddiy birlashuvi va ishtirokchilari o'z kapitallarining mulkdori bo'lib qolgan kartellar, sindikatlar, trestlardan ma'lum darajada farqlanadi. Ularga teskari holda XX asrning tipik konserni odatda turli tarmoqlar va hududlar bo'yicha diversifikatsiyalangan kapitalning yagona mulkdordir.

BMT metodologiyasi bo'yicha xalqaro korporatsiyalarga an'anaviy ravishda uzoq vaqt mobaynida yillik aylanmasi 100 mln. dollardan ortiq va kamida 6 ta davlatda filiali bo'lgan firmalar kiritilgan. Keyingi yillarda boshqa bir ko'rsatkich, ya'ni rezident-davlatdan tashqarida sotilgan mahsulotlar miqdori ham kiritildi. Bu ko'rsatkich bo'yicha jahonda SHveysariyaning "Nestle" firmasi (98%) ilg'orlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro kompaniyalar transmilliy, ya'ni bir millatli yoki ko'pmillatli bo'lishi mumkin. Transmilliy korporatsiyalar bosh kompaniya (odatda u kompaniya millatini aniqlaydi) va uning xorijiy filiallarini o'z ichiga oluvchi sub'yektlar tizimini ifodalaydi. Bosh kompaniya boshqa davlatlardagi xorijiy filiallarining aktivlarini nazorat qiladi va odatda ularning kapitalida o'z ulushiga ega bo'ladi.¹

Transmilliy korporatsiyalarining huquqiy rejimi tashkil topgan filiallar va sho''ba korxonalari orqali turli davlatlarda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. Bu korporatsiyalar nisbatan mustaqil bo'lgan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni sotish, ilmiy tadqiqot, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish xizmatlariga egadirlar. Umuman ular yagona ishlab chiqarish – sotish majmuuni tashkil etib, bu majmuuda hissadorlik kapitalga faqat ta'sischi davlat egalik qiladi. SHu bilan birga filial va sho''ba korxonalari aralash korxonalar bo'lishi va ularda milliy kapital ustunlik qilishi ham mumkin. Transmilliy korporatsiyalarining optimal boshqaruvi asosiy korporatsiya tomonidan xorijiy filiallarni uzlusiz boshqarib turish imkoniyatini yaratishi kerak. Lekin ayni paytda bu

¹ Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.

boshqaruv xorijiy filiallar menejerlariga mahalliy bozor xususiyatlari va mahalliy qonunchilikka mos ravishda iste'molchilar talablarini qondiruvchi qarorlar chiqarish imkoniyatini bermog'i lozim.

Asosiy korporatsiya TMK korxonalarini tizimining ma'muriy markazidir. Uning vazifalari qatoriga odatda boshqa korporatsiyalar bilan qo'shilishi, yangi filiallar sotib olish va samarasiz korxonalarini tugatish to'g'risidagi qarorlar qabul qilish; korporatsiya va filiallarning uzoq muddatli ishlab chiqarish, investitsiya va moliya siyosatini shakllantirish; xorijiy filiallarning moliyasi va ITTKI (NIOKR) nazorat qilish kiradi.

Xorijiy filiallarning asosiy tashkiliy shakllari quyidagicha:¹

- bo'lim (branch) – asosiy korporatsiya bu xorijiy filialga to'liq egalik qiladi yoki bu korxona TMK qo'shma korxonasing bir qismi hisoblanadi. Bo'limlar bir necha shakllarda bo'lishi mumkin: asosiy korporatsiyaning xorijdagi vakolatxonasi; hamkorlik, shu jumladan xorijiy sheriklar bilan; mulk shaklida (kemalar, samolyotlar, gaz yoki neft qazib oluvchi platformalar).
- sho'ba korxonasi (subsidiary) – xorijda joylashgan bunday korxonada asosiy korporatsiya aksiyalarining yarmidan ko'piga egalik qiladi. SHuning uchun ham asosiy korporatsiya hal qiluvchi ovozga hamda korxonaga rahbar tayinlash huquqiga ega.
- assotsiatsiyalashgan korporatsiya (associate) – bu korxona aksiyalarining 10% dan 50% gacha asosiy korporatsiyaga tegishli bo'ladi. Asosiy korporatsiya korxonani to'liq nazorat qilmasada, uni boshqarishda ishtirot etadi.

Ko'pmilliy korporatsiyalar (KMK) – ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotchilik asosida bir necha davlat milliy korporatsiyalarini birlashtiruvchi xalqaro korporatsiyadir. Bunga 1907 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan Angliya-Gollandiya "Royal-Datch SHell" konsermini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu korporatsiyaning hozirgi kundagi kapitali 60/40 nisbatda taqsimlangan. Ko'pmilliy korporatsiyalarga mashinasozlik, elektron injenerlikka ixtisoslashgan Yevropada mashhur bo'lgan Shveysariya – Shvetsiya ABB (Asean Brown Bovery) korporatsiyasini misol qilish mumkin.²

Ko'p millatli kompaniyalarda turli millatlar kapitallarining birlashuvi vujudga keladi. Birinchi ko'p millatli kompaniya "Yunilever" kimyo-tehnologiya konserni 1929 yili "Margarin Yunii" (Gollandiya) va "Lever

¹ Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пос. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.

² Назарова Г.Г. ва бошқалар. Халқаро иқтисодий муносабатлар. Дарслик. Т.: МЧЖ "RAM-S", 2007.

Brazerz” (Buyuk Britaniya) firmalarining birlashishi natijasida vujudga keldi. Shu davrdan boshlab u deyarli 60 ta davlatda 500dan ortiq xorijiy filiallari bo’lgan eng yirik xalqaro kompaniyalardan biri darajasigacha o’sib yetdi. “Unilever” kompaniyasi ikkita shtab-kvartiraga ega - biri Londonda, ikkinchisi - Rotterdamda joylashgan.

Transmilliy va ko’pmilliy korporatsiyalar qatoriga xalqaro korporatsiyalar ichida ajralib turuvchi global korporatsiyalarni (GK) ham qo’shish kerak. Ular 80-yillarda vujudga kelgan bo’lib, yildan-yilga kuchga kirib bormoqda. Global korporatsiyalar zamonaviy jahon moliya kapitalining butun qudratini namoyon etib, ko’proq kimyo, elektrotexnika, elektron, neft, avtomobil, axborot, bank va boshqa bir necha sohalar bo’yicha globallashib bormoqda.

Transmilliy korporatsiyalar paydo bo’lishining umumiy sabablaridan biri milliy - davlat chegaralaridan chiqib ketgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvi – yirik korporatsiyalar tomonidan xorijiy mamlakatlarda o’z bo’limlarini tashkil etilishi va milliy korporatsiyalarning transmilliy korporatsiyalarga aylanishi orqali ekspansiya xarakteri bo’lishligidadir. Kapital olib chiqish xalqaro korporatsiyalarning shakllanishi va rivojlanishining eng muhim omilidir. Transmilliy korporatsiyalarni vujudga kelishining aniq sabablari qatoriga haddan tashqari ko’p foyda olishga intilish omillarini ham ko’rsatish mumkin. O’tkir raqobat, bu kurashda tirik qolish zaruriyati ham xalqaro miqyosda ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyasi o’z navbatida TMK paydo bo’lishiga olib keldi.

Jahon xo’jaligida ro’y beruvchi iqtisodiy jarayonlarning ob’yektiy natijasi sifatida vujudga kelgan transmilliy korporatsiyalar qator o’ziga xos xususiyatlarga ega. TMK xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchisi bo’lib, uning rivojlanishiga o’z hissasini qo’shadi. Transmilliy korporatsiyalar kapitalining harakati, odatda, korporatsiya joylashgan davlatda bo’layotgan iqtisodiy va boshqa jarayonlardan mustaqil ravishda ro’y beradi. Transmilliy korporatsiyalar, odatda, yirik investitsiyalar va yuqori malakali personal talab qiluvchi yuqori texnologiyali, ilmiy inqilobiy sohalarga kirib bordi. Ushbu sohalarda transmilliy korporatsiyalar tomonidan monopoliya qilish tendensiyasi sezilmoqda. Xalqaro korporatsiyalarni vujudga kelishi va rivojlanishiga misol qilib, o’z qo’lida jahoning kundalik elektr jihozlari va sanoat uskunalarini 25 %ni ushlab turgan “Elektroluks” TMKn ko’rsatish mumkin. 1912 yilda ikki shved korporatsiyalarining birlashishi natijasida vujudga kelgan

“Elektroluks” korporatsiyasi 1920 yillardayooq Avstraliya va Yangi Zellandiya bozoriga chiqib, u yerlarda ham o’z ishlab chiqarishini tashkil qilgan edi. Ohirgi o’n yilliklarda “Elektroluks” transmilliy korporatsiyasi AQSHda uchinchi o’rinda turuvchi “Vestingauz”, “Gibson” va boshqa markalar ostida kundalik texnik asbob-uskunalar chiqaruvchi “Uayt Konsolideyted” korporatsiyasini, Italiya va butun Janubiy Yevropada eng yirik elektr tovarlari ishlab chiqaruvchi “Zanussi” firmasi va shuningdek, GFR asosiy elektr tovarlari mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi “AEG” firmasini sotib olgan edi. Bu uch firmani qo’shib olgandan so’ng “Elektroluks” 75 mamlakatda kundalik elektrotexnika asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko’rsatish sohalari bo'yicha rivojlangan tizimga ega bo'lib, bu sohada jahonning yetakchi korporatsiyalaridan biriga aylandi. 90-yillarning o’rtalarida bu transmilliy korporatsiyaning korxonalarida 110 mingdan ortiq kishi ishlab, uning yillik aylanmasi 1999 yilda 16 mlrd dollarni tashkil etgan edi. O’z ekspansiyasini kengaytirishda, transmilliy korporatsiyalar jahon bozorini o’zlashtirishning turli shakllaridan foydalanadilar. Bu shakllar ko’p jihatdan shartnomaga asoslanadi, hissadorlik kapitalida boshqa firmalarning qatnashishiga bog’liq emas. TMK iqtisodiyotining bunday shakllariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) litsenziya berish; 2) franchayzing; 3) boshqaruv shartnomalari; 4) texnik va marketing xizmatlarini ko’rsatish; 5) korxonalarni “kalit ostida” topshirish; 6) vaqt bo'yicha cheklangan qo'shma korxonalar tuzish shartnomalari va alohida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlardir.

Litsenzion kelishuvlar jahon mamlakatlarida juda ham keng tarqalgandir. 2000 yillarda TMKning litsenzion kelishuvlarining hajmi 1970 yillarga nisbatan qariyb 12 barobarga o’sgan edi. Litsenzion kelishuv yuridik shartnomaga bo'lib, unga ko'ra litsenziya beruvchi litsenziya oluvchiga ma'lum muddatga to'lov evaziga ma'lum huquqlarni beradi. Litsenziya berish transmilliy korporatsiyaning ichki firma shartnomalari bo'yicha ham, texnik – texnologik berishning tashqi kanallari bo'yicha ham amalga oshiriladi.¹

Franchayzing – uzoq muddatga mo'ljallangan litsenzion kelishuvdir. Bunda franchayzer mijoz – firmaga ma'lum huquqlar beradi. Bu huqular o’z ichiga ma'lum to’lovlар evaziga savdo markasi yoki firma nomidan foydalanish, shuningdek, texnik yordam ko’rsatish, ishchi kuchi malakasini oshirish, savdo va boshqarish bo'yicha xizmat ko’rsatish sohalarni oladi. 80-yillarning oxiridan boshlab boshqaruv va marketing

¹ Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. - М.: Магистр, 2009.

xizmatlarini ko'rsatish kabi transmilliy korporatsiyalar ekspansiyasi shakli jahon mamlakatlari tarqalmoqda. Boshqaruv xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomaga ko'ra, korxonani operativ nazorat qilish ma'lum tshlov evaziga boshqa korxonaga beriladi.

Texnik xizmat ko'rsatish haqidagi shartnomaga ko'ra transmilliy korporatsiyalar ushbu firma faoliyatining qandaydir mahsus tomoniga bog'liq bo'lgan texnik xizmatlarni amalgalashiradilar. Ko'pincha bunday shartnomalar mashina va uskunalarni remont qilish, "nou-xau"dan foydalanish bo'yicha maslaxatlar, avariyalarni tuzatish va sifatni nazorat qilish bilan bog'liq bo'ladi.

Keyingi yillarda zavodlarni "kalit ostida" topshirish haqidagi shartnomalar keng tarqalmoqda. Bunda transmilliy korporatsiya ma'lum ob'yektni rejalashtirib, uni qurish uchun zarur bo'lgan barcha (ish) faoliyatini amalgalashirish javobgarligini oladi.

6.2. Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning roli

Transmilliy korporatsiyalar zamonaviy jahon iqtisodiyotining eng dinamik sub'yektlaridan biri bo'lib, paydo bo'lish davridan beri jiddiy taraqqiy etdi. Ular "kolonial-xomashyo" TMKlardan boshlab global kompaniyalargacha rivojlanib bordi. TMKlarning evolyutsiyasi ularning son va sifat jihatidan o'sishi bilan birga rivojlanib bordi. 30-yillarda ularning soni 300 ta bo'lgan bo'lsa, XXI asr boshida 82 mingtaga yetdi¹.

80-yillarda yetakchi TMKlar global kompaniyalarga (to'rtinchchi avlod TMKlarga) aylandi. Global korporatsiyalar innovatsion dinamizm, ichki korporativ tuzilmaning muntazam takomillashtirib borilishi, yangi faoliyat sohalari va yo'nalishlarini faol izlash bilan xarakterlanadi. XXI asr boshlarida global korporatsiyalar orasida xalqaro ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ayrim mutaxassislar juda katta korporatsiyalarni (JKK) alohida ajrata boshladilar. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra ularning soni 800 tani tashkil etadi. Ushbu kompaniyalar o'z qo'lida zamonaviy moliyaviy-sanoat, texnologik, intellektual kapital qudratini jamlab olgan. JKK "jahon iqtisodiyotining pirovard tuzilmaviy kuchlarini va globallashuvning real omillarini" ifodalaydi.

Iqtisodiyot globallashuvining muhim tashkiliy elementi bo'lib TMKlarning turli shakklardagi qo'shilishlari va qo'shib olinishlari (M&A), ularning xalqaro kelishuvlari (ya'ni strategik alyanslari) namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon kompaniyalar o'rtaсидаги кучларнинг

¹ UNCTAD World Investment Report -2009.

taqsimlanishini o'zgartirib yubormoqda. Natijada ta'sir ko'rsatish hududlarini birgalikda bo'lib olish boshlanmoqda, birgalikda iqtisodiy nazorat sohasi kengaymoqda, kompaniyalar salohiyati birlashtirilmoqda.

TMKlar ishtirokida qo'shilishlar va qo'shib olinishlar shaklida kapitalning xalqaro birlashish (konsolidatsiyasi) jarayoni XX – XXI asrlar bo'sag'asida jahon iqtisodiyotining transmilliyashuvi va globallashuviga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omilga aylandi. XX asr boshidan beri ro'y bergan qo'shilishlar va qo'shib olishlarning besh "to'lqini"ga globallashib borayotgan iqtisodiyotning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi ularning oltinchi "to'lqini" qo'shildi. Oltinchi «to'lqin» XXI asrning ilk yillaridagi jahon iqtisodiyotining pasayishidan va AQSHda fond birjalari faoliyati inqirozidan so'ng 2003 yilda boshlangan deyish mumkin. 2007 yilda jahonda qo'shilishlar va qo'shib olishlarning hajmi rekord ko'rsatkichga - 4,74 trln. doll.ga yetib, 2000 yil darajasiga nisbatan 3,4 trln. doll.ga ko'paydi.¹ 2008 yilda boshlangan jahon moliviy-iqtisodiy inqirozi tufayli ularning soni jiddiy kamaydi.

Amalda korxonalarni sotish-sotib olishga ixtisoslashgan global bozor shakllandi va faol rivojlanmoqda (bunda korxonalarni sotib olish istagini bildirganlar uni sotuvchilarga qaraganda ko'proq). Hozirgi faollik asosan global bozor tendensiyalariga, arzon zaem vositalariga, xomashyo tovarlariga yuqori talabga va BRIK (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy) mamlakatlarda yirik korporatsiyalarning paydo bo'lishiga asoslanadi. Uning yana bir xususiyati bo'lib, to'g'ri investitsiyalar fondlarining jadal faoliyati hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida TMKlarning jahon iqtisodiyotiga ta'siri juda yuqori. XXI asrning boshiga kelib, 700 mingdan ortiq xorijiy filiallarini boshqarayotgan 80 mingdan ziyod kompaniyalar ro'yxatdan o'tgan. TMKning qo'l ostida xususiy ishlab chiqarish fondlarining taxminan 30 %, xalqaro savdoning 50 % mujassamlangan. Transmilliy korporatsiyalar tomonidan jahon bozorlaridagi deyarli butun xomashyo savdosи, shu jumladan bug'doy, kofe, jo'xori, o'rmon materiallari, tamaki, temir rudasi jahon savdosining 90 %, mis va boksitning 85 %и, choy va qalayning 80 %и, banan, tabiiy kauchuk va xom neftning 75 %и nazorat qilinadi. Ular hissasiga ilm-fan va texnika sohalarida patentlangan va tatbiq etilgan barcha yangiliklarning 80 %и to'g'ri keladi.

TMKning umumiy valuta zahirasi jahonning barcha markaziy banklarining birgalikdagi zahirasidan bir necha barobar ko'p. Xususiy

¹ Dealogic 2007; Financial Times 25.1.2007.

sektorda bo'lgan pul miqdorining 1-2 %ga siljishi istalgan ikkita milliy valutaning o'zaro paritetini o'zgartirishga qodir. Xalqaro kompaniyalar butun dunyoni yagona bozor deb qaraydi, ko'pgina mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi, xorijiy sarmoyalar lokomotivi bo'lib qatnashadi va milliy chegaralardan qat'iy nazar strategik qarorlar qabul qiladi.

Yirik TMKlar ko'pincha o'z faoliyatini ilmiy-texnik taraqqiyotini belgilovchi tez rivojlanayotgan sanoat tarmoqlariga qaratadi. Ular 90-yillarning oxirida kompaniyaning 100 ta yirik TMKlar ro'yxatiga kirgan kompaniyalar xorijiy aktivlarining 15 %dan yuqoriqrog'i to'g'ri keladigan elektronika sanoatiga juda faol qiziqmoqda. Bu ro'yxatlarda kimyo, qazib olish va avtomobil sanoati korporatsiyalari yuqori o'rirlarni egallaydi. TMKlar katta hajmdagi xalqaro iqtisodiy bitimlarni amalga oshira turib, ularda savdogarlar (tijoratchilar), to'g'ri va portfel sarmoyadorlar, samarali texnologiyalarni tarqatuvchilar, xalqaro mehnat migratsiyasining rag'batlantiruvchi sifatida ishtirok etadi.

6.1-jadval. Jahonning 100 ta eng yirik nomoliyaviy kompaniyalarning sohalar bo'yicha taqsimoti

Soha	Kompaniyalar soni		
	1990	2000	2010
Elektr va elektron mahsulotlari, kompyuterlarni ishlab chiqarish	14	18	20
Avtomobilsozlik	13	14	15
Neft sanoati, tog'-kon sanoati	13	14	12
Iste'mol mollari: oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari	9	12	10
Kimyo sanoati	12	11	7
Farmatsevtika sanoati	6	6	7
Aralash ishlab chiqarish	2	2	6
Savdo	7	5	4
Telekommunikatsiya sohasi	2	5	3
Metallurgiya	6	2	1
Qurilish	4	3	2
Boshqa sohalar	10	6	13

Manba: IMF. World Economic Outlook.

Transmilliy korporatsiyalarning asosiy qismi jahondagi uch iqtisodiy markaz: AQSH, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyaga tegishlidir. Milliy

iqtisodiyotlarni transmilliyashib borishining kuchayishi ko'p jihatdan transmilliy korporatsiyalarning faoliyatiga bog'liq.

O'z navbatida AQSHning 500 ta eng yirik transmilliy korporatsiyalari o'rta hisobda 11 sohada, eng kuchililar esa 30-50 sohadagi ixtisoslashgan korxonalariga egadirlar. Angliya transmilliy korporatsiyalarining 96 %'i, Germaniyada 78 %i, Fransiyada 84 %i, Italiyada 90 %i ko'p sohali ixtisoslashgan kompaniyalardir. Kuchli ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lgan transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqarishni, tovar bozorlarini, samarali rejalashtirishni, savdo siyosatini yurgizadilar. Rejalashtirish bosh kompaniya doirasida amalga oshiriladi va sho'ba korxonalariga tarqatiladi.

Transmilliy korporatsiyalar zamonaviy jahon xo'jaligining muhim ishtirokchilariga aylandi. Sanoati rivojlangan davlatlar uchun, aynan, TMKlarning xorijiy mamlakatlardagi faoliyati ularning tashqi iqtisodiy aloqalarini xarakterini belgilab beradi. Bu davlatlar eksportida milliy kompaniyalarning o'zlarini xorijdagi filiallariga tovar yetkazib berishlari va xizmat ko'rsatishlari sohalaridagi ulushi kattadir. 80-yillarning ikkinchi yarmida bunday firma ichidagi savdoning ulushiga AQSH eksportining 14-20%, Yaponiya eksportining 23-29% va Germaniya eksportining 24-28% to'g'ri kelgan edi. TMK jahondagi xususiy ishlab chiqarish kapitalining 1/3 qismini, xorijdagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning 90 % ni nazorat qiladi.¹

Xalqaro korporatsiyalarning 60 %'i ishlab chiqarish sohalarga to'g'ri kelayotgan bo'lsa, 37 %i xizmat ko'rsatish sohalariga va 3 %i esa qazib chiqarish va qishloq xo'jaligi sohalariga to'g'ri kelmoqda.

Amerikaning "Forchun" jurnali ma'lumotlariga qaraganda jahonning eng yirik 500 korporatsiyasi ichida 4 majmua elektronika, neftni qayta ishlash, kimyo va avtomobilsozlik asosiy rol o'yнaydi. Ulardagi savdo TMKlar faoliyatining 80 %ni tashkil etadi.

6.2-jadval. Juhonning eng yirik TMKlarini sohalar bo'yicha taqsimoti

yillar	Neft sohasi	Avtomobil sohasi	Elektro-texnika	Kimyo sohasi	Metall quyish sohasi
1960	12	3	6	4	4
1970	12	8	9	5	3
1990	20	11	7	5	3
2000	9	11	11	5	2
2006	10	9	10	5	2

Manba: IMF. World Economic Outlook.

¹ www.businesspress.ru

90-yillarning oxirida TMKlar orasida xorijiy aktivlarning qiymati bo'yicha birinchi o'rinda "Royyal Datch Shell" ingliz-golland konserni turar edi. Yirik TMKnning birinchi o'nligiga 5 ta Amerika kompaniyalari, 2 ta Yaponiya, 1 ta GFR, 1 ta Shveysariya kompaniyasi kirar edi. 1995 yilda dunyoning qudratli 100 ta TMKlari ro'yxatida ilk marotaba rivojlanayotgan mamlakatlardan chiquvchi "Deu Korporeyshn" (Janubiy Koreya) va "Petroleus de Venesuela"lar qayd etildi.

Yangi industrial davlatlarning (YAID) birinchi "to'lqini" orasida yirik Osiyo kompaniyalari, birinchi navbatda Gonkong (2008 yilda dunyoning 500 ta eng yirik TMKlari reytingida 10 ta), Janubiy Koreya (FT-500 reytingida 5 ta), Tayvan va Singapur (4 tadan) eng katta yutuqlarga erishdi. Lotin Amerikasi YAID orasida Braziliya – 11 TMK ajralib turadi. Biroq, YAIDlarga tegishli kompaniyalarining transmilliyashuvi jahon bozorlarida harbiy TMKlarning maqelarini jiddiy pasaytira olmadi. 2004 yilgacha xalqaro xorijiy aktivlarni xarid qilish bozorlarida rivojlangan mamlakatlar yetakchilik qildi. Faqatgina 2004 yildan boshlab, rivojlanayotgan mamlakatlarning kompaniyalari tomonidan rivojlangan mamlakatlar kompaniyalarining bozorlarini egallash jarayoni boshlandi. Ushbu jarayonda Xitoy, Hindiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarning kompaniyalari muhim rol o'ynamoqda. 2007 yilda ilk bor rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan rivojlangan mamlakatlardagi aktivlarni xarid qilish hajmi rivojlangan mamlakatlar kompaniyalarining rivojlanayotgan mamlakatlardagi aktivlarni xarid qilish hajmidan ortiqroq bo'ldi.

2008 yilda dunyoning 500 ta eng yirik TMKlari reytingida Xitoy va Gonkong kompaniyalarining soni FT-500 reytingida ikkinchi o'rinda turgan Buyuk Britaniya bilan tenglashdi. Faqat Xitoyga tegishli bo'lgan korporatsiyalar soni 25 tani tashkil qiladi.¹ 2008 yilda Xitoy FT-500 reytingining birinchi o'nligidagi o'z mavqeini yanada oshirib, 3 ta kompaniyaga yetkazdi (2006 yilda ushbu reytingga bitta ham xitoy kompaniyasi kiritilmagan edi). Xitoy va Gonkong kompaniyalarining umumiy kapitallashuv darajasi Buyuk Britaniyanikidan yuqori va birinchi o'rinda mahkam o'rnashib olgan AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. AQSH bu ro'yxatda ham kompaniyalar soni (169 ta), ham ularning umumiy kapitallashuv darajasi (9,6 trln. doll.) bo'yicha so'zsiz yetakchilik qiladi.

XX asr oxiridan boshlab hind korporatsiyalarining transmilliyashuvi jarayoni kuchaydi. Ular Osiyo va Afrika bozorlaridan so'ng 80-yillarda

¹ FT-500 – «Financial Times» томонидан эълон қилинадиган дунёнинг 500 та энг йирик TMKлари рейтинги.

Yevropa bozorlariga ham o'z yig'uv ishlab chiqarishlarini joylashtira boshladi. XX asr boshida hind kapitali 93 ta mamlakatdagi 1000 dan ortiq qo'shma korxonalarda ishtirot etar edi. Ularning asosiy qismi eng yirik savdo sheriklari bo'lgan AQSH, Buyuk Britaniya, BAA, Malayziya, Singapur, Nepal, Tailand, Bangladeshga to'g'ri keladi. Hind kapitali yuqori konsentratsiyalashuv bilan ajralib turadi. XXI asr boshida 7 ta eng yirik (Birla, Tata, Singxaniya, Shoxibog' va boshqalar) savdo-sanoat uylarining hissasiga Hindiston korporativ sektorini to'g'ri xorijiy investitsiyalarini 75 % to'g'ri keladi.

Janubiy Koreya, Xitoy va Hindiston kompaniyalarining transmilliyashuv modellari tashqi jihatdan o'xshashligiga qaramay ayrim farqlanishlarga ega. Masalan, hind kompaniyalarining transmilliyashuv jarayoni ko'p yillardan beri rivojlanib keladi. Ular transmilliyashuvning savdo modelini amalga oshirib, global bozorlarga o'tishdan oldin boshqa kamroq rivojlangan mamlakatlar bozorlarida uzoq muddatli faoliyat ko'rsata boshlagan. Janubiy Koreya va ayniqsa Xitoy kompaniyalarining transmilliyashuv jarayoni esa xalqaro bozorlarga jadal kirib borish xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Shunga qaramay, ushbu kompaniyalar transmilliyashuv jarayonining boshlang'ich bosqichlarida turibdi.

90-yillarda Rossiya kompaniyalarining transmilliyashuv jarayoni boshlanib, uning bosqichlari va xususiyatlari jihatidan biznesning baynalmillashuvi va transmilliyashuvining klassik modeliga to'liq mos kelmaydi. Ushbu jarayon Janubiy Koreya va Xitoy mamlakatlaridan farqli ravishda davlat ko'magisiz amalga oshirildi. Rossiya kompaniyalarining transmilliyashuv jarayonining dastlabki bosqichlari yoqilg'i-energetika majmuasining (YOEM) eksport tarmoqlarining faoliyati ustunlik qilishi bilan tavsiflanadi. Xorijiy ekspansiya natijasida Rossiya kompaniyalarining katta hajmdagi moliyaviy mablag'larining chet elga yo'naltirilishi mamlakat xususiy tashqi qarzdorligini oshirmoqda (2008 yilda 400-450 mlrd. doll.).

2006-2007 yillarda 25 ta yetakchi Rossiya kompaniyalari xorijdagi o'z aktivlarini ikki barobar ko'paytirdi. Global yetakchilikka intilayotgan kompaniyalarga UC Rusal, Severstal, Yevraz, Gazprom, LUKOyl va YOEMning boshqa kompaniyalarini kiritish mumkin. So'nggi yillarda Rossiya kompaniyalarining xalqaro reytinglardagi ishtiroti kuchayib bormoqda (Forbes va Financial Times reytinglarida mos ravishda 29 va 13 ta kompaniya kiritilgan). Ularning soni bo'yicha BRIK mamlakatlari orasida Xitoydan keyin turadi.

Rossiya kompaniyalarining transmilliyashuv jarayoni boshqa BRIK mamlakatlaridagi mazkur jarayonlardan ilmiy va texnik-texnologik bazaning, boshqaruvchi mutaxassislar tayyorgarligining nisbatan yuqori darajasi; 90-yillardagi keskin o'zgaruvchan sharoitlarga yuqori moslashuvchanlik darajasi; davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining past darajasi kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi.

2007–2008 yillarda Rossiya kompaniyalarining transmilliyashuv jarayoniga nisbatan davlat siyosatida ayrim siljishlar boshlandi.¹ Milliy korporatsiyalarning xalqaro faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllariga siyosiy-diplomatik, moliyaviy-iqtisodiy va marketing jihatdan yordam ko'rsatish usullarini, xorijda chet el investitsiyalari bo'yicha milliy agentliklarni tashkil qilish, xorijdagi investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash tamoyillari to'g'risidagi maxsus qonunning mavjudligini kiritish mumkin. Rossiya hukumati milliy biznesga asosan "yumshoq" yordam ko'rsatadi. Masalan, 1991–2005 yillarda Rossiya tomonidan 57 ta ikkitomonlama kapital qo'yilmalarni rag'batlanadirish va o'zaro himoyalash to'g'risidagi hukumatlararo kelishuvlar imzolanib, ulardan 36 tasi kuchga kirgan (taqqoslash uchun Xitoy 2006 yilda 116 ta shunday kelishuvga ega edi).

Hozirgi vaqtida rivojlangan mamlakatlarda yuqori samaradorlikka erishishda tobora ko'proq «yangi iqtisodiyot» omillari (brendlar, gudvillar, tarmoqli texnologiyalar, noan'anaviy marketing va hokazo) qo'llanilayotganligini hisobga olgan holda milliy biznesning xorijdagi faoliyatini qo'llab-quvvatlashning yangi zaruriy infratuzilmasini shakkantirish dolzarb hisoblanadi.

TMKlar milliy bozorlar orasida aloqalarni mustahkamlagan holda, umumiy boshqaruv ostida butun dunyo bo'yicha korxonalarini joylashtirib, sanoatni internatsionalallashtirish jarayonlarini vujudga keltiradi. Ular turli davlatlarda joylashgan korxonalarning texnologik davrini birlashtiradi, firma ichidagi mehnat taqsimotini amalgalashadi.

Transmilliy korporatsiyalar hozirgi kunda u yoki bu davlatlarning xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimidagi taqdirini aniqlovchi omilga aylanib bormoqda. TMKlar faol ishlab chiqarishi investitsion, savdo faoliyatları bilan ishlab chiqarish va mahsulotlarni taqsimlashning xalqaro tartibga soluvchisiga aylanib bormoqda. BMT ekspertlarining fikricha jahon mamlakatlar iqtisodiyotida integratsion rivojlanish uchun sharoit yaratmoqda.

¹ RF Prezidenti D.A. Medvedevning Krasnodardagi nutqi. Ведомости 18.09.2008.

Transmilliy korporatsiyalarning jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi faoliyatining yaxshi tomonlarini tahlil qilganda, ularning faoliyat ko'rsatayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi salbiy tomonlarni ham aytib o'tish lozim bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- TMK faoliyat ko'rsatayotgan davlatlarning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga halaqit berish;

- davlat qonunlarini buzilishi;

- monopol narxlarni o'rnatish, rivojlanayotgan davatlarning huquqini cheklovchi shartlarga majburlash va hokazolar.

Xullas, transmilliy korporatsiyalar xo'jaliklararo aloqalarning e'tiborli tomonlarini doimo o'rganib borishni, xalqaro nazoratni talab qiluvchi va shuningdek, doimiy ravishda rivojlanib boruvchi fenomendir.

6.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida TMKlar faoliyati

2008 yilda boshlangan va jahon hamjamiyatini jiddiy tashvishga solgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bugungi kunda ham dunyo iqtisodiyotiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Bugun dunyo iqtisodiyotidagi ahvolni tahlil qilar ekanmiz, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi hali-beri nihoyasiga yetgani yo'q, deb aytishga barcha asoslarimiz bor".¹

Ma'lumki, TMKlar to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) oqimida muhim rol o'yaydi. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) oqimlari sezilarli kamaydi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, TXIIarning global oqimlari 2003 yildan 2007 yilgacha uzlusiz o'sib bordi va 2007 yilda rekord darajani – 1979 mlrd dollarni tashkil qildi, 2008 yilda 14 % ga, ya'ni 1697 mlrd dollargacha, 2009 yilda esa 900-1200 mlrd dollargacha pasaydi. Shunga qaramay, 2010 yilda ularning asta-sekin tiklanishi va 2011 yilda qo'shimcha o'sishi kutiladi².

Tovar va xizmatlarga talabning pasayishi TMKlarni o'z investitsion dasturlarini qisqartirishga majbur qildi. Dastlab TXI rivojlangan mamlakatlarda 29 % pasaygan bo'lsa, ayni vaqtida rivojlanayotgan mamlakatlarda va Janubi-Sharqiylar Yevropa hamda MDHning o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarida mos ravishda 17 % va 26 % ko'payib bordi. Ularning global TXI oqimlaridagi ulushi mos ravishda 2007 yilda 27 % va

¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

² T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

² UNCTAD/ 2009. Research analysis financial sector.

5 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2008 yilda 37 % va 7 % gacha ko'paydi (6.3-jadval). Biroq, 2008 yil oxiri va 2009 yil boshlarida bu mamlakatlar ham inqirozning TXI oqimiga ta'siridan aziyat cheka boshladilar.

6.3-jadval. 1990-2008 yillarda global TXI kirib kelish hajmida uchta asosiy iqtisodiy tizimlarning ulushi (foizda)

	1990	1995	2000	2005	2006	2007	2008
Rivojlangan mamlakatlar	83	65,5	81	63	67	69	56
Rivojlanayotgan mamlakatlar	16,5	33	19	33,5	29	26	37
O'tish iqtisodiyotli mamlakatlar	0,5	1,5	0,5	3,5	4	5	7

Manba: World Investment Report 2008: Transnational Corporations and the Infrastructure Challenge. TNCs in infrastructure industries //New York and Geneva: United Nations, 2008.

Korporatsiyalar foydasining kamayishi va aksiyalar narxlarining keskin pasayish holati xalqaro qo'shilish va qo'shib olishlar jarayoniga (inglizcha mergers and acquisitions - M&As) ham ta'sir ko'rsatdi, bu esa TXIIlarning rivojlangan, shuningdek tobora ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlarga kirib borishining asosiy usullaridan biridir (6.4-jadval).

6.4-jadval. 1987-2009 yillarda 1 mlrd AQSH dollaridan ortiq baholangan xalqaro M&As

Yil	Bitimlar soni	Foizlardagi ulushi	Qiymati (mln doll)	Foizlardagi ulushi
1987	19	1,6	39	40,1
1990	48	1,4	84	41,7
1995	44	0,8	97	41,9
2000	207	2,1	999	74,0
2005	182	2,1	569	61,3
2006	215	2,4	711	63,6
2007	319	3,0	1197	70,4
2008	251	2,6	823	68,3
2009	40	1,2	171	67,2

Manba: World Investment Report 2008: Transnational Corporations and the Infrastructure Challenge. TNCs in infrastructure industries //New York and Geneva: United Nations, 2008.

To'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar nisbatan uzoq muddatli va ularning asosiy maqsadi – ishlab chiqarish xizmatlarini moliyalashtirish va kengaytirish hisoblanadi, shu sababli ular bosh kompaniya tomonidan sinchiklab o'rganiladi. Boshqa tomongan, kompaniya ichida qayta sarmoyalangan daromad va kreditlar oqimlari TMKnинг qisqa muddatli likvidlik yoki qulay soliqqa tortishga asoslangan qiziqishi bilan aniqlanadi.

2008-2009 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarga TXI kirib kelishi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda kamroq kamaydi, chunki ularning molivayiy tizimlari AQSH va Yevropaning bank tizimlari bilan unchalik kuchli bog'lanmagan edi. Bundan tashqari TXI oqimlari, kapitalning portfel sarmoyalar va bank ssudasi singari boshqa harakatlanish shakllariga nisbatan egiluvchanroq bo'ldi, chunki TXI uzoq muddatli tavsifga ega. XVF mutaxassislarining fikricha, 2009-2010 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarga TXI oqimlari qisqaradi, lekin umuman olganda yuqoriligidagi qolishi va taxminan 400 mlrd AQSH dollariga teng sof kirib kelish hajmlariga ega bo'lishi kutiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga portfel kapital va kreditlashning sof oqimlari aksincha, salbiy ko'rsatkichni namoyon qiladi (6.5-jadval).

6.5-jadval. 2000-2010 yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarga kapitalning sof oqimlari (mlrd doll)

	2000	2005	2006	2007	2008	2009
To'g'ri investitsiyalar	170	260	250	380	440	420
Sof portfel investitsiyalar	20	- 20	-110	50	-10	-90
Boshqa xususiy kapital qo'yilmalar	-110	15	90	200	95	-40
Taraqqiyotga rasmiy yordam	50	110	110	110	120	-

Manba: World Investment Report 2010: Transnational Corporations and the Infrastructure Challenge. TNCs in infrastructure industries //New York and Geneva: United Nations, 2010.

YUNKTAD tomonidan o'tkazilgan 2009-2011 yillar uchun Jahon Investitsion istiqbollar sharhi (WIPS) ko'rsatishicha, eng katta hajmdagi jahon TXI va aksiyalar jamlangan Shimoliy Amerika va Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida TMKlarning investitsion rejalarining qisqarishi kuzatiladi. 2009 yilda rivojlangan mamlakatlarga TXI oqimi 29 % ga, ya'ni 962 mlrd AQSH dollariga qisqardi. Bu asosan M&Aning xalqaro sotuvlar narxining besh yillik o'sishdan so'ng 39 %ga tushishi hisobiga ro'y berdi. Yevropada M&A bo'yicha xalqaro bitimlar 56 %, Yaponiyada - 43 % qisqardi.

2008 yilda AQSHdan, Yevropa mamlakatlaridan TXIning chiqib ketishi kamaygan bo'lsa, faqatgina yapon TMKLari 2009 yil boshida o'zlarining TXI chiqib ketishini ko'paytirishga erishdi. Ular global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz natijasida firmalar narxining pasayishidan o'z manfaatlari yo'lida foydalaniib, xorijiy xaridlari hajmini ko'paytirdi. Yapon kompaniyalarining xalqaro M&As qiymati 2010 yilda rekord darajaga, ya'ni 54 milliard AQSH dollariga yetdi va Yaponiyani eng ko'p TXI chiqib ketgan mamlakatlar guruhiga qaytardi.

6.4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida TMKLarning tutgan o'rni

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, transmilliy korporatsiyalar mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda yuksak ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun TMKLarning, shuningdek, chet el investorlarining rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga kirib kelishi ob'yektiv zarurat bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida TMKLar investorlarini jalb qilish iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish, korxonalarни zamонавија техника билан қатта жиҳозлаш hamda raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishda muhim omildir. Muhtaram Prezidentimiz ham o'z ma'ruzalarida chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lган muhim ustuvor yo'nalish ekanligini qayd etib o'tdilar.¹

Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirotini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish, korxonalarни zamонавија техника билан қатта жиҳозлаш hamda raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyat va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiyani, eksportbop tovarlarni o'zlashtirish, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. - T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarini iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

- to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

Mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar tufayli iqtisodiyotimizga chet el investitsiyalarini jalb qilish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. 6.6-jadvalda mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiyalarning yillar bo'yicha o'zgarish sur'ati keltirilgan.

6.6-jadval. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi

Yillar	Xorijiy investitsiyalar (million AQSH dollar)	To'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar (million AQSH dollar)
2001	823.9	96.5
2002	516.5	80.1
2003	602.1	166.7
2004	754.6	333.8
2005	746.6	545.5
2006	895.7	683.8
2007	1009,3	768,4
2008	1700	1258
2009	2856	2264
2010	3635,2	3107,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2010 yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 3,6 milliard AQSH dollaridan ko'proqni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich

2009 yildagidan qariyb 800 million AQSH dollariga ko'p ekanini kuzatish mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun o'z kapitalini qo'shishga tayyor bo'lган TMKlar investorlarini kirib kelishi shu davlatlarning investitsion muhitiga bog'liqdir. Investitsion muhit deb kapital qo'yilmani va uni samarali foydalanish imkoniyatini vujudga keltiruvchi umumiy siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillarni ta'minlab berilishiga aytildi.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududiga TMK investorlarini kirib kelishi uchun qulay investitsion muhit yaratilgan. Buni biz respublikani siyosiy tinchligida, barqaror iqtisodiy rivojlanishida, xorijiy investorlar uchun yaratilgan qator imtiyozlarda va boshqa holatlarida ko'rishimiz mumkin.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalar (savdo, vositachilik, xomashyo yetkazib beruvchilardan tashqari) ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab:

- daromad (foyda) solig'idan birinchi yilning 25 foizlik qismidan, ikkinchi yil 50 foizlik qismidan, uchinchi yil 100 foizlik ozod qilinadi, qishloq hududida esa birinchi yildan boshlab bunday soliqdan 100 foiz ozod qilinadi;

- mulk solig'idan 2 yilga ozod qilinadi;

- ishlab chiqargan mahsulotining 30 foizdan ortig'i eksportga chiqarilsa, 50 foiz daromad solig'idan (foyda solig'i), 15-30 foizi eksportga chiqarilsa, 30 foiz daromad (foyda) solig'idan ozod qilinadi;

- ishlab chiqarish bilan band bo'lsa, yer solig'idan 2 yilga ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida alohida sohalarga imtiyozlar berish ko'zda tutilgan. Unga ko'ra, neft va gaz konlarini ochish va qidirish ishlariiga xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan korxonalar ushbu ishlarni amalga oshirish davrida barcha soliqlardan, shuningdek, zarur uskunalarni import qilishda bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi.

Mazkur sohadagi korxona chet ellik hamkorlar bilan birgalikda ochilsa:

- neft va gaz qazib chiqarilgan kundan boshlab 7 yilga daromad (foyda) solig'idan;

- xorijiy hamkorlar ulushiga mansub kapitaldan olinadigan daromad va mulk solig'idan ozod qilinadi.

Yengil sanoat sohasida:

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar qo'shimcha qiymat solig'idan tashqari barcha soliqlardan ozod qilinadi;

- o'z ehtiyoji uchun ishlab chiqarish uskunalari, ehtiyot qismlarni import qilishda korxonalar bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarda yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan. Unga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda ozod qilinadi:¹

- 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha - 3 yil muddatga;

- 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha - 5 yil muddatga;

- 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga.

O'zbekiston Respublikasiga TMKlar investorlarini jalb qilishda quyidagi omillar ham muhim rol o'ynaydi:

- O'zbekiston hududining tabiiy resurslarga – neft, tabiiy gaz, qurilish materiallari, oltin, mis va boshqa qimmatbaho metallarga boyligi;

- Respublikada ishlab chiqarish va boshqaruva sohasidagi yangi texnologiyani tezda o'zlashtirib oluvchi malakali mutaxasis kadrlarning mavjudligi;

- O'zbekiston Respublikasi nisbatan arzon ishchi kuchiga ega ekanligi;

- O'zbekiston hududida ichki bozorlarning kengligi va ko'pligi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni

- Respublikada ishlab chiqarish korxonalarini xususiylashtirish jayaronlari jadal sur'atlar bilan olib borilayotganligi va ularda TMKlar investorlarining to'liq qatnashish imkoniyatining borligi va boshqalar.

Respublikada rivojlangan davlatlarning TMKlari tomonidan kiritilayotgan kapital mablag'lар tizimining o'sishi sanoat uchun zarur bo'lgan zamонавиу texnik uskunalarni, texnologiyalarni sotib olish imkoniyatini bermoqda.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda jahondagi yetakchi rivojlangan mamlakatlarning yuqori mavqega ega kompaniyalari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatishga, jahon standartlari darajasida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni maqsad qilib, sifat jihatidan mukammal yangi korxonalarining yaratilishiga asoslangan ilgari borish strategiyasi o'zining ijobjiy natijalarini bermoqda. Xususan, 1996 yilda Janubiy Koreyaning "DEU" korporatsiyasi bilan hamkorlikda "O'zDEUavto" qo'shma korxonasining tashkil etilishi natijasida O'zbekiston ishlab chiqarishning murakkab, eng ilg'or texnologiyalar talab qiladigan, yuksak darajadagi qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot turini o'zlashtirib, dunyodagi sanoqli avtomobilsoz davlatlar qatoridan o'rin oldi.

Bugungi kunda Asaka zavodi «Djeneral Motors» korporatsiyasining Koreya bo'limi bilan hamkorlikda boshqarilayotgan qo'shma korxonadir. Inqiroz davom etayotganiga qaramay, O'zbekiston avtomobilsozlik sanoatining yetakchisi bo'lgan GM Uzbekistan qo'shma korxonasi 2010 yilda avtomobillar ishlab chiqarish hajmini 2009 yilga nisbatan 6,2 % foizga oshirdi va 217 ming 733 dona avtomobil ishlab chiqardi (6.7-jadval).

6.7-jadval. 2010 yilda GM Uzbekistan kompaniyasida avtomobillar ishlab chiqarish hajmi

Avtomobillar rusumi	Ishlab chiqarish hajmi, dona	2009 yilga nisbatan o'zgarish, %da
Nexia	87100	96,1
Matiz	72999	105,6
Damas	20900	88,4
Lacetti	23917	123,3
Epica	3185	290
Captiva	1835	167
Spark	7797	-
Jami	217 733	106,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Mazkur korxona O'zbekiston eksportini rivojlantirishga ham muhim hissa qo'shmaqdida. Korxonada ishlab chiqarilgan avtomobilarning ko'p qismi Rossiya va boshqa MDH mamlakatlari eksport qilinadi. Hozirgi vaqtida Rossiya va MDH mamlakatlarda qo'shma korxonaning o'rtacha bozor ulushi 3,9 % ni tashkil qiladi. Korxonaning MDH mamlakatlaridagi dilerlik tarmog'i 253 ta dilerlik va 320 ta savdo-servis markazlaridan iborat. 2010 yilda Uz-Daewoo avtomobillar sotuvi Rossiyada 45 %, Ukrainada – 20 %, Belorusiya va Qozog'iston bozorlarida – bir necha barobar oshdi.¹

Yevropa biznes Assotsiatsiyasining avtoishlab chiqaruvchilar qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, GM Uzbekistan o'zbek-amerika qo'shma korxonasi 2010 yilda Rossiyada yengil va tijorat avtomobillarini sotish bo'yicha yetakchi o'nlikka kiradi. 2010 yilda Rossiyada 74419 ta avtomobil sotilgan, bu 2009 yilga nisbatan 45 foiz ko'p demakdir (6.8-jadval).

6.8-jadval. 2010 yilda Rossiyaga avtomobillar eksporti ko'rsatkichlari

	2010 y	2009 yilga nisbatan foizda	Sotuvlar bo'yicha egallagan o'rni
Nexia	43943	156	8
Matiz	30476	131	11
Jami, dona	74419	145	10

Manba: Yevropa biznes Assotsiatsiyasining avtoishlab chiqaruvchilar qo'mitasining ma'lumotlari asosida tuzilgan

O'zbekistan mashinalari ommaviyligi bo'yicha dunyodagi mashxur Opel, Peugeot, Renault, Toyota, Nissan, Kia, Suzuki, Hyundai, Skoda kabi ishlab chiqaruvchilarning qator yetakchi modellaridan o'zib ketdi. Bu "GM Uzbekistan" avtomobillarining yuqori obro'ga egaligi va ishonchlilikidan dalolat beradi.

Rossiya Iqtisodiy rivojlanish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2011 yilning birinchi choragida Rossiyaga avtomobillarning eng yirik eksportchilari orasida O'zbekiston uchinchi o'rinni egallaydi. 2010 yilda Rossiyaga asosiy avtomobil eksport qiluvchi mamlakatlarga Yaponiya (59,96 ming), Germaniya (19,56 ming), O'zbekiston (18,62 ming), Janubiy Koreya (18,47 ming) va Buyuk Britaniya (17,08 ming) kiradi.²

¹ <http://www.uzdaily.uz/PVKXM/articles-id-6685.htm>

² <http://uzavtosanoat.uz/content/view/183/1/lang.ru/>

Avtomobilsozlik sohasida boshqa chet el korporatsiyalari bilan ham hamkorlik kengayib bormoqda. 2011 yilda Samarqand viloyatida Germaniyaning «MAN Truck & Bus AG» kompaniyasi bilan hamkorlikda og'ir yukli tijorat texnikasini ishlab chiqarish bo'yicha yangi "JV MAN Auto-Uzbekistan" qo'shma korxonasing qurilishi boshlandi. Loyiha doirasida uzoq muddatli istiqbolda yiliga 20 ming birlikkacha ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi.¹

O'zbekiston avtomobilsozligida shuningdek, Yaponiyaning «Isuzu Motors» korporatsiyasi bilan hamkorlikda «Samavto» korxonasi tashkil etilgan bo'lib, u yiliga 3000 dan ortiq «Isuzu» rusumli avtobuslar va 500 dan ortiq og'ir yuk mashinalari ishlab chiqaradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida Yaponiya TMKlarining faoliyati alohida diqqatga sazovordir. 1993-1994 yillarda "Marubeni Korporeyshn", "Mitsubishi Korporeyshn", "Sumitomo Korporeyshn" kabi yetakchi kompaniyalarning vakolatxonalar ochildi. Ushbu kompaniyalar ishtirokida neft-gaz, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, qurilish texnikasini ishlab chiqarish, energetika va to'qimachilik sohalarini rivojlantirish va qator qo'shma korxonalarini yaratish, mamlakat ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, transport tizimini modernizatsiyalash loyihalari amalga oshirildi.

So'nggi yillarda xorijiy TMKlarning O'zbekiston neft-gaz sanoatiga qiziqishi kuchaymoqda. Eng yuqori faollikni Rossiya va Osiyo kompaniyalari ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda "Gazprom" va "Lukoyl" kabi Rossiya kompaniyalarining O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuasiga kiritgan sarmoyalari 3 mlrd. AQSH dollaridan ortadi. «Lukoyl» kompaniyasi 2004 yildan boshlab O'zbekistonning neft-gaz tarmog'iga 1,5 mlrd AQSH dollaridan ortiq investitsiya kiritdi. Yaqin 5-6 yil davomida kompaniyaning O'zbekistonga kiritgan investitsiyalari 5 mlrd. dollarni tashkil etadi.

O'z navbatida "Gazprom" kompaniyasi 2006 yil yanvarda "O'zbekneftegaz" MXK bilan Ustyurt mintaqasida 7 ta investitsion bloklarda va mamlakatning g'arbiy qismida geologik o'rGANISH ishlari o'tkazish bo'yicha ikkita shartnoma imzolagan. 2007-2011 yillarda kompaniya 610 mln. dollar mablag' sarflashni mo'ljallagan bo'lib, O'zbekiston gazini xarid qilishda yetakchi sherik hisoblanadi.

Hozigi vaqtida "O'zbekneftegaz" MXK, Lukoyl (Rossiya), CNPC (Xitoy), KNOC (Janubiy Koreya) va Petronas (Malayziya) kompaniyalari ishtirokida Orol dengizining O'zbekiston qismida neft va gaz konlarini

¹ <http://www.12.uz/ru/news/show/economy/5471/#>

geologiya-qidiruv va o'zlashtirish uchun Mahsulotni bo'lish shartnomasini tayyorlash bo'yicha tuzilgan xalqaro konsern ishi alohida diqqatga sazovor.

2009 yil 7 aprelda "O'zbekneftgaz" MXK bilan Malayziyaning "Petronas" va Janubiy Afrika Respublikasining "Sasol" kompaniyasi o'rtaida O'zbekiston Respublikasida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirishning asosiy tamoyillari to'g'risidagi bitim hamda o'zaro hamkorlikka oid anglashuv memorandumi imzolandi.¹ "Petronas" korporatsiyasi tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga jami 2 mlrd. AQSH dollar miqdorida sarmoya kiritilishi rejalashtirilgan.

2009 yil 11 mayda "O'zbekneftgaz" MXK va Koreya milliy neft korporatsiyasi (KNOC) o'rtaida "O'zbekiston Respublikasi Farg'ona mintaqasining Namangan-Targoch va CHust-Pop investitsion bloklarida geologiya-qidiruv ishlarini o'tkazish to'g'risida"gi kelishuv imzolandi. Kelishuvda koreys tomonidan besh yil mobaynida ikki bosqichda mazkur bloklarda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish ko'zda tutilib, ushbu muddat ichida 61 mln. AQSH dollariga yaqin sarmoyalarni o'zlashtirish mo'ljallangan.

SHunday qilib, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun TMKlarni va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mayjud mablag'lardan, vaqt va imkoniyatdan samarali foydalanishga, amaldagi shart-sharoitlardan kelib chiqib, boyliklarni samarali joylashtirish va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini yuksaltirish, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga rag'batlanadirish yo'li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Xulosa

Globallashuv jarayonlarining rivojlanishida TMKlarning ahamiyati juda katta. Xalqaro kompaniyalar – bu milliy kapitalni boshqa davlatlarga tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida olib chiquvchi tashkilotlardir. Zamonaviy xalqaro kompaniyalarning ko'pchilik qismi transmilliy korporatsiyalarni, tashkiliy shakli bo'yicha esa konsermlarni ifoda etadi. BMT metodologiyasi bo'yicha xalqaro korporatsiyalarga an'anaviy ravishda yillik aylanmasi 100 mln. dollardan ortiq va kamida 6 ta davlatda filiali bo'lgan firmalar kiritilgan. Keyingi yillarda rezident-davlatdan tashqarida sotilgan mahsulotlar miqdori ko'rsatkichi ham kiritildi.

¹ <http://www.gov.uz>

Zamonaviy xalqaro kompaniyalar transmilliy, ya’ni bir millatlari yoki ko’pmillatlari bo’lishi mumkin. Transmilliy korporatsiyalar bosh kompaniya (odatda u kompaniya millatini aniqlaydi) va uning xorijiy filiallarini o’z ichiga oluvchi sub’yektlar tizimini ifodalaydi. Bosh kompaniya boshqa davlatlarda xorijiy filiallarining aktivlarini nazorat qiladi va odatda ularning kapitalida o’z ulushiga ega bo’ladi.

2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi ko’plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni, shu jumladan yetakchi TMKlarni keng va chuqrur qamrab oldi. 2008-2010 yillarda jahon miqyosida bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi 20% gacha pasaydi.

Shunga qaramay, O’zbekistonda investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakatimizda 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko’p, ya’ni 9 milliard 700 million AQSH dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o’zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi.

Respublikamiz dunyoning yetakchi TMKlari xorijiy investitsiyalarini jalb qilish yo’li bilan avtomobilsozlik, samolyotsozlik, elektronika va radioelektronika, shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun asbob-uskunalar, qishloq xo’jaligi uchun kichik mexanizatsiya vositalari ishlab chiqarishni ta’minlovchi boshqa istiqbolli tarmoqlar, xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Tayanch iboralar:

Globallashuv, xalqaro kompaniya, transmilliy korporatsiya, ko’pmilliy korporatsiya (KMK), tadbirkorlik faoliyati, xorijiy filial, bosh kompaniya, bo’lim (branch), sho’ba korxonasi (subsidiary), assotsiatsiyalashgan korporatsiya (associate), litsenzion kelishuvlar, franchaying, xorijiy investitsiyalar, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, investitsion muhit.

Nazorat uchun savollar:

1. Transmilliy korporatsiyalar deganda nimani tushunasiz?
2. Ko’pmilliy korporatsiyalarga ta’rif bering.
3. Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalar qanday rol o’ynaydi?
4. Transmilliy korporatsiyalarning faoliyat sohalarini tushuntiring.

5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi TMKlar faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
6. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida TMKlar qanday ahamiyatga ega?
7. O'zbekiston iqtisodiyotiga TMKlarni jalb qilish uchun qanday imkoniyatlar mavjud?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'naliishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
- T.: O'zbekiston, 2011. - 48 b.
2. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
3. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учебное пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.
4. Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.- 581 с.
5. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - 196 б.
6. А.А.Исаджанов. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, - 185 б.
7. Назарова Г.Г. ва бошқалар. Халқаро иқтисодий муносабатлар. Дарслек. Т.: МЧЖ "RAM-S", 2007.
8. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.

7-BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBAL MUAMMOLARI VA ZIDDİYATLARI

7.1. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning paydo bo'lishi

Global muammolar o'zaro bog'liqlikning yaqqol ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida hozirgi davr sivilizatsiyamiz o'zining rivojlanish jarayonida hech qachon hozirgi kundagidek keskin muammolar girdobiga duch kelmagan. Jahon iqtisodiyotida bu muammolarni hal etmasdan turib, insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan rivojlanib harakat qila olmaydi. Jahon iqtisodiyotida u yoki bu muammoni global, ya'ni, umumjahon miqyosdagi muammolar ekanligini ko'rsatuvchi asosiy mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

- Uning olamshumul ahamiyat kasb etishi.
- Insonlar hayotining barcha sohalariga taalluqliligi.
- Muammoni hal etishda ko'pchilik davlatlarning birgalikda harakat qilishligi va h.k.lar.

Olimlar va jamoat arboblari orasida mamlakatlar yoki hududlar taraqqiyotidagi o'ziga xos masalalarning global muammolarga aylanishi hususida turli fikrlar va qarashlar konsepsiyasi mavjud. SHuni qayd etib o'tish joizki, bu jarayonga asosiy sabab jahon xo'jaligining XX asr industrial bozor iqtisodiyoti bosqichiga xos bo'lgan ekstensiv rivojlanishi bo'ldi. Ammo oxirgi o'n yilliklarda Yevropa, Amerika va Osiyoning rivojlangan mamlakatlari o'z iqtisodiyotlarini intensiv rivojlanish yo'liga o'tkazish uchun qanchalik harakatlar qilayotgan bo'lsalarda, ko'plab qoloq, rivojlanayotgan, shuningdek, bir qator o'tish davri iqtisodiyotli sobiq sotsialistik mamlakatlar uchun intensifikasiyalash jarayoni yechilmagan eng muhim muammoldardan biri bo'lib qolmoqda.

Global muammolar orasida ekologik, oziq-ovqat, demografik muammolar asosiy o'rinni egallaydi.

Ekologik muammo. Jahon iqtisodiyotida ekologik muammolar ko'p asrlik tarixga ega, biroq, XX asrning 70-90-yillariga kelib, takror ishlab chiqarish va insonlarning xo'jalik faoliyati orasidagi muvozanatning buzilishi oqibatida biosfera holatida keskin yomonlashish holatlari kuzatila boshlandi. Jahon iqtisodiyotida ko'plab keltirilgan ma'lumotlarda atrof-muhit degradatsiyasi ko'lamining kattalashib borayotganligi qayd etiladi. Keyingi 100 yil ichida sayyoramizdag'i o'rmonlarning uchdan ikki qismi yo'qolib ketdi, atmosferadagi karbonat angidrid miqdori 13 foizga ko'paydi, o'nlab turdag'i o'simlik va hayvonot dunyosi butunlay qirilib

ketdi, inson genofondining o’zi ham oldini olib bo’lmaydigan mutatsion o’zgarishlar xavfi ostiga tushib qoldi.

Ekologik xavf-xatarlarning kuchayishi jahon iqtisodiyotida ekologizatsiyalash jarayonini rivojlantirishga asos bo’ladi, zero tabiatni himoyalash omillari savdo, investitsiyalar, ishchi kuchi migratsiyasi kabilarga ta’sir etadi. Mutaxassislarining qayd etishicha, hozirgi kunda umumiy aylanmasi 150 mld. doll.ga teng bo’lgan tabiatni asrovchi tovarlar, xizmatlar va texnologiyalarning maxsus bozorlari vujudga kelmoqda.

Atrof-muhitni himoya qilish tadbirdlari eksport qilinadigan mahsulotlarning raqobatbardoshligiga ham ta’sir qiladi, zero iste’molchilar ekologik toza va xavfsiz mahsulotlarni afzal ko’rishadi. Ekologik muammolar ko’plab mamlakatlar rivojlanishining strategik dasturlarida markaziy o’rinlardan birini egallab, global va hududiy xalqaro integratsion tashkilotlarning kun tartibiga olib kirildi. Eng yirik xalqaro tashkilot – BMT 1972 yildan buyon maxsus Atrof-muhit bo'yicha dastur (YUNEP)ni amalga oshirib kelmoqda. 1992 yilda o’tkazilgan atrof-muhit bo'yicha BMT Anjumanining (Rio-de-Janeyro) o’tkazilishi katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu Anjuman qatnashchilari barqaror rivojlanish tamoyilini qabul qilishdi. Bu tamoyil o’z ichiga 27 ta tavsiyaviy harakterdagi prinsiplarni olib, ularning mohiyati ekologik xavfsizlikning universal mezonlarini qabul qilish, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, sanoat va harbiy sohadagi chiqindilardan rejali ravishda foydalanish, yangi avlodni atrof-muhitni asrab-avaylashga qarata tarbiyalashdan iboratdir. Rio-de-Janeyrodagi Anjuman «Yer Xartiyasi»ni tayyorlashni belgilab oldi. Bu xartiya XXI asrning ekologik muammosini hal etishning strategik dasturi bo’lib hisoblanadi.

Ma’lumki, bizning respublikamiz va shuningdek qo’shni davlatlar aholisi ham Orol dengizi suvining kamayib ketishi bilan bog’liq bo’lgan muammoni o’z boshidan kechirmoqda. Bu faqat bizning respublikamiz muammosigina bo’lib qolmasdan, balki global muammo ekanligini jahon hamjamiyati ham bugungi kunda tan olmoqda.

60-90 yillarda Orol dengizi akvatoriyasi 7 baravar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, uning minerallashuvni esa o’nlab baravar oshib, dengizni tirik organizmlarning yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada qariyb barcha hayvonot va nabotot olami tanazzulga uchradi va yo’qoldi. Bugun Orolbo’yida nafaqat ekologik, balki dunyo miqqosida og’ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo’lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo bo’ldi. Orol dengizining qurishi davom

etaryotgani va uning atrofida gumanitar falokat sodir bo'layotgani sababli Orolbo'yining tabiiy biologik fondini asrab-avaylash, Orol inqirozining atrof-muhitga, eng muhim, bu yerda istiqomat qilayotgan yuz minglab va millionlab odamlar hayotiga halokatli ta'sirini kamaytirish bugungi kundagi eng muhim vazifa hisoblanadi.¹

Orolbo'yini mintaqasidagi global muammolarni xalqaro maydonda hal etish chora-tadbirlarini izlab topish tashabbusi bilan respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov BMT minbaridan turib Orol dengizi fojiasining global oqibatlarini xalqaro maydondagi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan, shuningdek xalqaro jamg'armalarning moliyaviy tashkilotlarini yordami asosida hal etilishi maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. Bugungi kunga kelib ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlagan BMT, YUNESKO, UNEP, Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro valuta jamg'armasi, YETTB, OTB va boshqa xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar Orol dengizi muammosini hal etish loyihalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish ustida qizg'in amaliy ishlarni olib borishmoqda.

Oziq-ovqat muammozi. Globallashuv jarayoni keltirib chiqargan muammolardan biri oziq-ovqat inqirozidir. Ko'pgina yillardan beri ro'y bermagan oziq-ovqat inqiroziga endilikda barcha davlatlar aholisi yuz tutdi. Oziq-ovqat mahsulotlarning narxlari o'ta darajada oshishini anglatuvchi yangi termin — agflyatsiya (agrар inflyatsiya) — butun dunyo bo'ylab birdaniga o'ta muhim bo'lib qoldi.

Sayyoramiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan optimal ta'minlash rejimiga erishish muammozi XX asrning oxiriga kelib faqatgina o'ttizga yaqin rivojlangan mamlakatlar uchun o'z dolzarbligini yo'qtgan edi xolos, biroq, boshqa jahoning ko'pchilik davlatlari uchun bu muammo eng muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirda ro'y berayotgan oziq-ovqat inqirozi sababchisi bo'lib uchta kuchli global trendlar hisoblanadi.²

Birinchidan, oxirgi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni xarajatlari oshdi. Oxirgi uch yilda nefstning narxi bilan benzin va dizel yoqilg'isi narxlari o'sdi, transport tariflari oshdi, asosiy mineral o'g'itlarning narxlari qimmatlashdi.

Ikkinchidan, oziq-ovqatga bo'lgan talab hajmida va tarkibida global siljishlar ro'y berdi. 1960 yildan Hindiston, Misr, Nigeriya, Bangladeshda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitining Mingyllik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. 20.09.2010.

² www.expert.ru/printissues/expert/2008/16/k.to_nakomit_planetu/ 150

aholi soni taxminan uch barobar oshgan bo'lsa, ekin maydonlari esa o'zgarmay qoldi. Ushbu vaziyat deyarli butun dunyoda sodir bo'lmoqda. Shuningdek, oxirgi 15 yilda oziq-ovqat iste'mol qilish ratsionida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, Xitoy va Janubi-Sharqi Osiyo mamlakatlarida aholi go'shtni ko'proq iste'mol qila boshladi, bu esa ko'proq qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirib chiqarishni talab qiladi (qora molni 1 qilogrammga vaznini oshirish uchun 3 dan 15 qilogrammgacha yem sarflanadi).

Uchinchidan, bioyoqilg'i bozorini tez sur'atlar bilan rivojlanishi donning narxini oshishiga qo'shimcha sababchi bo'ldi. Rivojlangan davlatlarning o'simlik manbalariga asoslangan "ekologik toza" yoqilg'ini ishlab chiqarish dasturi doirasida bioyoqilg'i (etanol) uchun kerak bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlariga (makkajo'xori va boshqalar) talabni oshirib yubordi.

Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, jahonda oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish asta-sekin o'sib borayotgan bo'lsa-da, bu jarayon aholi sonining ko'payib borishiga nisbatan bir tekisda yuz berayotgani yo'q. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi ba'zi bir davlatlarda bu masala barqarorlashgan, ya'ni, bir odamga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsuloti miqdori o'zgargani yo'q. Garchi so'nggi 30-40 yillar ichida don mahsulotlari ikki marta ko'paygan bo'lsada, lekin bu vaqt davomida yer yuzidagi aholi soni ham 1,8 marta oshganligini ko'rishimiz mumkin. Xullas, oziq-ovqat muammoi vujudga kelgan eng jiddiy vaziyatlarni biz hozirgi kunda Saxroi Kabirning janubidagi Afrika davlatlari va Osiyoning janubiy hamda markaziy qismidagi ba'zi davlatlarda (Afg'oniston, Bangladesh, Iraq) va shuningdek, bir qator Karib havzasi (Gaiti) davlatlarida ko'rishimiz mumkin. Bu davlatlarda yillik oziq-ovqat xavfsizligi ikki oydan kam muddatga to'g'ri keladi.

Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tgan oziq-ovqat masalalari bo'yicha Butun jahon uchrashuvida (1996 yil noyabr oy) qayd qilinishicha, jahonda doimiy ravishda 800 millionga Yaqin kishi to'yib ovqatlanmaydi. Qishloq xo'jaligida hosilning yaxshi bo'lmasligi, tabiiy ofatlar, harbiy nizolarning bo'lib turishi va shuningdek oshkora ocharchilikning «avj olishi» bilan bog'liq holda ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlardagi shuningdek, o'tish davri iqtisodiyotli davlatlardagi aholining turmush farovonligi bilan bog'liq bo'lgan «yashirin» ochlik ko'rinishidagi holatlar yanada keng tarqalmoqda. Buni biz keyingi 15-20 yil ichida 54 davlatda oziq-ovqat bilan ta'minlashning mutloq pasayib borganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Jahon mamlakatlari iqtisodiyotida albatta oziq-ovqat muammosini hal etish borasida olib borilayotgan ba'zi bir ijobjiy misollarni ham keltirish mumkin. Masalan, Oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli mavjud zahiralar hisobiga kafolatlangan va shuningdek oziq-ovqat xavfsizligi rejimini yaratish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishgan davlatlar qatoriga Vietnam, Hindiston, Xitoy, Meksika, Filippinni kiritish mumkin. Ularning xo'jalik sohasidagi tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, qishloq xo'jaligida «yashil inqilob»ni, ya'ni, qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyani joriy qilish, o'simliklar va hayvonlar seleksiyasini rivojlantirish, unumdon tuproq tarkibini yaxshilash va qaytadan kultivatsiyalash kabi kompleks chora-tadbirlarni olib borilishi bu boradagi muhim ahamiyatga ega bo'lган ishlardir. Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar tarmoqni investitsiyalashni yiliga 3,5-4 foizga ko'paytirish esa muhim omil hisoblanadi.

Shuni qayd etishimiz mumkinki, jahon iqtisodiyotida ishlov beriladigan maydonlar birligiga to'g'ri keladigan don mahsulotlari hosildorligini ko'paytirish, chorva mollari boshiga to'g'ri keladigan sut va go'sht mahsulotlari miqdorini oshirish kabi bir qator muammoni yechish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xullas, jahon hamjamiyati oldida 2025 yilgacha ochlikni boshidan kechirayotgan odamlar sonini ikki martaga kamaytirish va Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti standartlaridan past darajada yegulik iste'mol qiluvchilar sonini sezilarli miqdorda qisqartirish kabi masalalar hozirgi kunda eng dolzarb muammo bo'lib turibdi.

Demografik muammo. Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida demografik muammolarning mayjudligiga birinchi bo'lib XVIII asrning oxirida ilk bor ingliz olimi T.R. Maltus o'z e'tiborini qaratgan edi. Bu muammoning mazmuni va mohiyati shundaki, oziq-ovqat mahsulotlari va insonlar hayoti uchun zarur bo'lган boshqa moddiy noz-ne'matlar ishlab chiqarishga nisbatan aholi sonining nazorat qilib bo'lmaydigan darajada oshib borishidan iboratdir. Mutaxassislarining bashorat qilishicha, 2020 yilga borib jahon aholisi soni 8 milliard kishiga yetib, uning 80 foizi Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Ko'z oldimizda yuz berayotgan bunday «demografik portlashlar» keyinchalik tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarishni va insonlarni xo'jalik faoliyatidagi muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida jahoning ko'plab mamlakatlarda ro'y berayotgan kambag'allikni yengish, ochlikni kamaytirish, sog'liqni saqlash

va ta'lif sohasidagi bir qator muammolarni yanada chuqurlashtirib yuborishi mumkin.

BMT va hududiy tashkilotlar demografik xavfga yetarlicha ahamiyat berib kelmoqda, ya'ni oilani rejalashtirish dasturlarini, aholi migratsiyasi va rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiya jarayonlarini moliyalashni amalga oshirmoqda. Yuqorida qayd etilgan barcha global muammolarni hal etish uchun jahon ekspertlari iqtisodiy tizimni qayta qurishni amalga oshirishni tavsiya etishmoqda. Buning uchun asosan uch yo'nalishda (sayyoramiz aholisi sonini barqarorlashtirish, energiya olishning muqobil manbalariga o'tish, utilizatsiyaga bo'y sunuvchi sanoat materiallaridan keng foydalanish) harakat qilish zarurligini ko'rsatishmoqda.

7.2. Global o'zaro bog'liqlik jarayonining ziddiyatlari

Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi, ularning rivojlanish darajasi, madaniyat, tarixiy an'analardagi barcha farqlarga qaramay, shunday bosqichga o'tdiki, bu bosqichni "globallashuv" deb atamoqdalar. Bu tushuncha hozirgi kunda juda ommaviylashib ketdi. Lekin globallashuv ko'pchilik mamlakatlar tomonidan ularning milliy manfaatlari va o'zligiga tahdid sifatida qabul qilinmoqda. O'zbekiston ham globallashuv natijasida ochilayotgan imkoniyatlar bilan bir qatorda jiddiy xavf-xatarlarga duch kelmoqda.

So'nggi yillarda turli davlatlarning iqtisodiy globallashuvga moslashuvida turli muammolar vujudga kelmoqda. Bu muammo rivojlanayotgan mamlakatlarning, shu jumladan o'tish iqtisodiyotli mamlakatlarning jahon xo'jaligi tizimiga to'liq integratsiyasida namoyon bo'lmoqda.

Globallashuv borgan sari o'z faoliyatini kengaytirayotgan va mustakil xarakterga ega bo'layotgan moliyaviy bozorlarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib bormoqda. Globallashuv farovonlik keltirish bilan birgalikda ko'p imkoniyatlardan maxrum ham etishi mumkin.

Globallashuv jarayonidan ancha uzoq bo'lgan yer kurrasining yarim aholisi, ya'ni 3 milliard kishi, kuniga 2 AQSH dollaridan kam pulga yashashga majbur. BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan ta'kidlaganidek, "Globallashuv butun insoniyatga foyda keltirishi mumkinligiga men ishonaman. Ammo ko'rinish turibdiki, ayni kunlarda millionlab odamlar, balki, insoniyatning ko'pchilik qismi bundan yuz


o'girmoqda. Ular hayotlarida globallashuv mevalarining ko'pligi tufayli emas, balki ozligi yoki butunlay yo'qligi tufayli kambag'aldirlar".

Hozirda tabiiy ravishda faqat bir mamlakat miyosida hal qilib bo'lmaydigan va samarali hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolar vujudga keldi. Mintaqaviy darajadagi texnogen va ekologik salbiy oqibatlarga Chernobil va Orol fojiasini ko'rsatish mumkin. Texnika va texnologiyaning rivojlanishi va shu jarayonga moslashmaganligi tufayli ishchilarning bo'shatilishi va ishsizlikning o'sishi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda keskin tus olmoqda. Kambag'allik, etnik to'qnashuvlar va boshqa lokal fojialar tufayli aholining ommaviy ravishda migratsiyasi ro'y bermoqda (Afg'oniston, Osiyo va Afrikaning alohida mamlakatlari).

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi natijasida jahon xo'jaligi sohalarining bog'liqligi darajasi o'zining yangi pog'onaga ko'tarilganligidan dalolat bermoqda. O'zaro bog'liqlik darajasining oshishi har tomonlama rivojlanishga sabab bo'lism bilan birligida bir qancha xavflarni ham vujudga keltirmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi ta'sir omillari iqtisodiy soha ichida yoki makrodarajadagi xavflar bilan xarakterlanadi.

Tashqi iqtisodiy omillar keltirib chiqarishi mumkin bo'lган xavflardan biri mamlakatning tashqi qarzlari paydo bo'lishi va uning kuchayishidir. Ma'lumki, tashqi qarzlarning salmog'i mamlakat YAIMning 1/2 qismidan ortishi xavfli hisoblanadi. Qarzni me'yordan ortishi esa, keljakda nafaqat mazkur qarzni qaytarishda qiyinchilik tug'diradi, balki investitsiya qilish va iqtisodiy o'sish imkoniyatlarining qiskarishi, valuta zahiralarining kamayib ketishi va to'lov balansi inqirozi kabi hodisalarga sababchi bo'ladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, AQSH davlat tashqi qarzi miqdorining o'sib borganligi va uni YAIMga nisbatan salmog'i o'sganligi 2008 yildagi moliyaviy inqirozni kuchayishining asosiy omillaridan biri bo'ldi (7.1-rasm). Rasmdan ko'rinib turibdiki, keyingi 4 yil mobaynida xususan, AQSH va ayrim MDH davlatlari (Qиргизистондан ташквари) tashqi qarzlarining YAIMga nisbatan salmog'i ortib borgan. Xususan, 2008 yilda AQSH tashqi qarzlarining YAIMga nisbatan salmog'i qariyb 90 %ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Rossiyada 37 % ni, Qozog'istonda 102 % ni, Ukrainada 64 % ni tashkil etgan. Qиргизистонда esa keyingi 3 yil mobaynida pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2008 yilda 81 % ni tashkil qilgan.

¹ БМТ Бош котиби К. Аннаннинг мурожаатидан, 1998 йил, 21 сентябрь, Нью-Йорк - SG/SM/6707



7.1-rasm. Jahondagi ayrim davlatlar tashqi qarzining YAIMga nisbatan dinamikasi, foizda *

Axborot texnologiyalari va global moliya bozorlarining taraqqiy etishi kapitalning qisqa muddatda yer sharining turli joylarida joylashgan bir iqtisodiyotdan ikkinchisiga o'tib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu kabi jarayonlar ham keskin iqtisodiy vaziyatga, qolaversa inqirozga ham olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, portfelli investitsiyalar va qisqa muddatli kreditlar yuqori mobillik darajasiga ega. Doimiy makroiqtisodiy barqarorlik sharoitida bu kabi qo'yilmalarning xorijdan ko'p miqdorda kirib kelishi o'ziga xos tavakkalchilik tug'diradi. Bunday vaziyatda makroiqtisodiy mutanosiblikning ichki siyosatga bog'liq bo'lмаган о'zgarishi turli salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi moliyaviy inqirozga olib keladi.

Shuningdek, globallashuvning xavflaridan biri bu real turmush darajasining pasayishidir. Globallashuv jarayonida boy va kambag'al davlatlar o'rtaсидаги farq tobora kuchaymoqda. Jahonning boy bo'lган 1/5 qismi va uning kambag'al bo'lган 1/5 qismi daromadlaridagi farq 1913-yillarda 11/1, 1960-yillarda 30/1 va 1997-yillarda 74/1 ga teng bo'lган.¹

Rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzining YAIMdagi ulushi 1997-yillarda Afrikaning Sahroi Kabirdan pastki qismida 108 foiz, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada — 46 foiz, Janubi-Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida — 33 foiz, Shimoliy va Janubiy Amerikada — 34 foizga teng bo'lган.

* Б.Ю.Ходиев ва б. “Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иктисодий никорози, Ўзбекистон шароитда уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари» номли асарини ўрганиш бўйича ўкув қўлланма”. – Т.: Иqtisodiёт, 2009.

¹ А.А.Исаджанов. Жаҳон иктисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, 152-б.

Globallashuvni salbiy jihatlarini bilishning ortishi so'nggi yillarda uning salbiy tomonlarini yo'qotish yoki yumshatish borasidagi turli xil takliflar bilan bog'liq bo'lib kelmoqda. Globallashuvning xavf-xatarlari oldini olish borasidagi jahon hamjamiyatining harakatlari quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- rivojlangan mamlakatlarda axborot-texnologiya inqilobiga asoslangan «yangi iqtisodiyot» haqidagi tezisning vujudga kelishi;

- 1999 y. Florensiyadagi Konferensiyada Amerika va Yevropaning rivojlangan mamlakatlari hukumat boshliqlari va vakillari tomonidan taklif etilgan «uchinchi yo'l» konsepsiysi va «inson kapitaliga investitsiyalar» asosida jamiyat, davlat va bozorlar o'rtaсидagi samarali balansini ko'rib chiqilishi;

- «to'g'ri boshqarish» («good governance»), «qonun ustuvorligi» («rule of law»), iqtisodiy isloxtolar, transparentlik, demokratik saylovlar, inson huquqlarini himoya qilish, ekologik standartlarni nazorat qilish va boshqa shu kabilarni amalga oshirishni rivojlanayotgan mamlakatlardan talab qilish hisobiga «katta sakkizlik», XVF, Jahon banki ularga moliyaviy va boshqa turdagи yordamlarni berish taklifi, ya'ni «rivojlanish» muammosi; globallashuvning salbiy taraflarini va uning insonlarga ta'sirini kamaytirish.

Globalashuvning bu muammolarini milliy va xalqaro institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ikki tomonlama, mintaqaviy va xalqaro darajada yechish orqali hal qilish mumkin.

Shuningdek jahoning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar saqlanib qolayotgani, davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida ta'kidlanganidek, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o'limi, epidemiyalar va insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy to'siqlar bo'lib qolmoqda.¹

Bu muammolarni hal etishda 2000 yilda bo'lib o'tgan BMTning Mingyillik Sammitida "Mingyillik Deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muhim tarixiy xujjat XXI asrga mo'ljallangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM) sifatida ma'lum bo'lgan sakkizta aniq maqsadga erishishga qaratilgan vazifalarni qo'ydi:

1-maqsad – O'ta qashshoqlikka va ochlikka barham berish;

¹ Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi mutqi. 20.09.2010.

2-maqсад – Umumiy boshlang'ich ta'limga erishish;

3-maqсад – Ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish va ayollarning huquq hamda imkoniyatlarni kengaytirish;

4-maqсад – Bolalar o'llimini qisqartirish;

5-maqсад – Onalar salomatligini yaxshilash;

6-maqсад – OIV/OITSga, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurash;

7-maqсад – ekologik barqarorlikni ta'minlash;

8-maqсад – Rivojlanish maqsadida global hamkorlikni shakllantirish;

MRM jahon hamjamiyatining 2015 yilgacha bo'lgan davr uchun global loyiha bo'lib, u jahondagi barcha mamlakatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Shunday qilib, yuqorida ko'sratilgan muammolarni barcha mamlakatlar va ularning guruhlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, turli xil jamiyatlar, siyosiy kuchlar va harakatlar ishtiroki orqali tahlil qilish va hal etish dolzARB masala bo'lib qolmoqda.

7.3. Global energetik muammo va uni hal etish yo'llari

Butun dunyo mamlakatlari uchun yuzaga keluvchi imkoniyatlarni kengaytirishda hamda turmush sifatini oshirishda energetik resurslar juda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtida jahon xo'jaligida energiya resurslariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Markaziy Osiyo va ayrim MDH mamlakatlarda katta hajmda yonilg'i-energiya zahiralari mayjudligi tufayli mintaqada energetik xavfsizlik muammosi unchalik sezilmaydi. Ayrim MDH davlatlari, neft qazib chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlar qatoridan joy olgan (7.1-jadval). 2006 yilda ushbu davlatlar jahon neft savdosining 14,2 foizini ta'minlab berishdi.

7.1-jadval. Ayrim MDH davlatlarida neftni qazib olish hajmi, mln. t

Mamlakat	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006
Rossiya	304,3	304,8	323,3	348,1	379,6	421,4	458,8	470,0	480,5
Qozog'iston	25,9	30,1	35,3	40,1	48,2	52,4	60,6	62,6	66,1
Ozarbayjon	11,4	13,9	14,1	15,0	15,4	15,5	15,6	22,4	32,5
Turkmaniston	6,4	7,1	7,2	8,0	9,0	10,0	9,6	9,5	8,1

Manba: Центральная Азия и Кавказ. 2007. № 6. с. 43.; BP Statistical Review of World Energy, June 2007.

Biroq samarali, ishonchli va ekologik jihatdan xavfsiz energiya ta'minoti butun insoniyat oldida turgan global vazifa va xalqaro iqtisodiy

xavfsizlikning asosiy muammosi hisoblanadi. Barcha jihatlarni qamrab olgan ushbu muammoni hal etish uchun bir qancha bиринчи darajali va о'заро aloqador muammolarni hisobga olish zarur, bular:¹

- neftning yuqori bo'lib borayotgan va о'згарувчан нарси;
- energetik resurslarga borgan sari о'sib boruvchi talab (hisoblarga ko'ra, u 2030 yilga borib 1,5 barobardan ko'pga о'sadi va ushbu talabning 80 foizi zahiralari cheklangan qazib olinuvchi yoqilg'i hisobiga ta'minlanadi);
- ko'pgina davlatlarda energiya importiga о'sib boruvchi bog'liqlik;
- energetika sohasining barcha tarmoqlarida yirik investitsiyalarga bo'lgan talab;
- atrof-muhitni himoyalash zaruriyati va iqlim о'zgarishidagi muammolarni hal qilish;
- hayotiy muhim energetik infratuzilmani tabiiy va boshqa tahdidlarga bardosh bera olmasligi.

Ushbu muammolarning global xarakterdaligini hamda energetika resurslarini ishlab chiqaruvchi, tranzit va iste'mol qiluvchi davlatlar о'rtasida о'zaro bog'liqliknı borgan sari oshib borishi sababli global energetik xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida barcha manfaatli tomonlar о'rtasida sherikchilik aloqalarini rivojlantirish zarur.

Mazkur maqsadlarga erishishning eng yaxshi yo'li — samarali, raqobatbardosh jahon energetik bozorlarini tashkil etishdir.

Global energetik muammolarni hal qilishda milliy hukumat va tegishli xalqaro tashkilotlar muhim о'rın egallaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashovchi 1,6 mlrd kishini elektrenergiyasiga va 2,4 mlrd kishini yoqilg'i resurlarga hozirda bundan maxrum bo'lган qatiy ta'minotini ta'minlamay turib, global energetik xavfsizlikka xam, BMTning Ming yillik rivojlanish maqsadlariga ham erishib bo'lmaydi. Xalqaro hamjamiyat uchta о'zaro aloqador muammoni — energetik xavfsizlik, iqtisodiy о'sish va ekoliya muammolarini samarali hal qilish imkoniyatiga ega.

Energetik kambag'allik hajmini kamaytirish bo'yicha qatiy choratadbirlar bilan birga issiqxonalardan chiquvchi gazlarning hajmini qisqartirish, atrof-muhit holatini global miqyosda yaxshilash, energetik xavfsizlikni mustahkamlash hamda atmosferaning ifloslanish darajasini qisqartirish bo'yicha umumiyl maqsadlarni amalga oshirish zarur. Bu borada rivojlanayotgan davlatlarni energiya resurslaridan foydalanishga

¹ А.А.Исаджанов. Жаҳон иктисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, 171-6.

bo'lgan imkoniyatini kengaytirish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish muhimdir.

Global energetik xavfsizlikni ta'minlashda barcha iste'molchi va ishlab chiqaruvchi davlatlarning umumiyl manfaatini hisobga olgan holda, "Sakkizlik guruhi"ga kiruvchi yetakchi davlatlar rahbarlarining 2006 yil 16 iyulda Sankt-Peterburgdag'i yig'ilishida global iqtisodiy o'sishning asosida quyidagilarni e'lon qildilar:¹

- energetik resurslarni transportirovksi va tranziti doirasidagi xizmatlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish, foydalanish va yetkazib berish uchun bozorlarning ochiqligi, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish;
- energetik xavfsizlik doirasida o'zaro bog'liqlik masalalarini barcha manfaatdor tomonlar orasida dialog va fikrlar almashinuvi va kelishuvlarni rivojlantirish;
- rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi kambag'al qatlamini energetik muammolarini hal qilishga ko'mak berish.

Global energetik xavfsizlikni mustahkamlash quyidagi asosiy yo'naliishlar bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- global energetik bozorlarni barqarorligini oshirish;
- energetik tarmoqlarida investitsiya muhitini yaxshilash;
- energetika samarasini ko'tarish va energiyani tejash;
- energiya turlarini diversifikatsiyalash;
- hayotiy muhim energetika infratuzilmasining xavfsizligini ta'minlash;
- energetik kambag'allik ko'lamin qisqartirish.

Global energetik bozorlarni barqarorligini oshirish. Global energetik tizimning samarali faoliyat olib borishi uchun erkin, raqobatbardosh va ochiq bozorlarning mavjudligi hayotiy muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qonunchilikni takomillashtirish, uni ahamiyat darajasini oshirish, soliqqa tortish va tartibga solishning samarali tizimini joriy etish va mustahkamlash, talab va taklif munosabatlariga nisbatan munosib siyosatni olib borish global energetik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Barcha davlatlar tomonidan neft banki ma'lumotlarini yaratish, neft bozori va boshqa energetik resurslarining holatlari haqida ma'lumot

¹ А.А.Исаджанов. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, 172-б.

beruvchi yagona statistik ma'lumotlar standartlarini yaratish va tarqatish katta ahamiyatga ega.

Energiya resurslari bilan ta'minlashda inqiroz holatlari ro'y berganda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar harakatlari o'rtasida o'zaro kelishuv, xalqaro energetik agentligi doirasida energetika sohasida favquloddagi vaziyatlarda to'g'ri yondashuvda xalqaro tajribani keng yoishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Energetika tarmoqlarida investitsiya muhitini yaxshilash. Ishlab chiqaruvchi, tranzit va iste'mol qiluvchi davlatlarda oldindan ko'ra oladigan nazorat tizimini joriy etish, investitsiya sohasida bozor tamoyillariga asoslangan qonunchilikni yaratish, energiya resurslariga bo'lgan talabning o'rta muddatli va uzoq muddatli bashoratini ishlab chiqish, soliqqa tortishning aniq va ketma-ketlik asosidagi tizimini yaratish hozirgi davrda dolzarb masala hisoblanadi.

Global ishlab chiqaruvchi energiya zanjirining barcha bo'g'inlarida investitsiyani xalqaro va milliy miqyosda jalb eta olishni ta'minlovchi quyidagi choralarни qabul qilish zarur:

- energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni joriy etish;
- ekologik talablarga javob beruvchi samarali texnologiya va usullarni joriy etish;
- energiyani qayta yaratiluvchi va muqobil (alternativ) manbalarini keng ko'lamda ishlatishni rag'batlantirish;
- neft va gaz qazib chiqarishning samarasini oshirish;
- neft-gazni qayta ishlash quvvatlarining samarasini oshirish;
- suyultirilgan tabiiy gazni (STG) global bozorini rivojlantirish;
- energiya mahsulotlarini transportda tashish va saqlash infratuzilmasini tashkil etish va modernizatsiyalash;
- energiyani uzatuvchi kuchlarning va tarmoqlarning xavfsizligini va samarasini oshirish.

Energetik xavfsizlik uchun energetik tarmoqlarda inson resurslarini rivojlantirish va malakali ishchilar bilan ta'minlash, shuningdek, uzoq muddatli energetik xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan energiyaning yangi va innovatsion manbalarini ishga solish ayniqsa muhimdir.

Energiya samarasini ko'tarish va energiyani tejash. Energiya resurslarni tejash uni ishlab chiqarishga teng deb hisoblash mumkin. Ko'pincha energiyani tejash uning o'suvchi talabini ta'minlab berishda, ekologik jihatdan javob beruvchi va rentabelli usul hisoblanadi.

Energiya samarasini oshirish va uni tejash global energetik xavfsizlikni mustahkamlaydi, infratuzilmaga bo'lgan yukni pasaytiradi va issiqxonalarining hajmini qisqartirish hisobiga atrof-muhitni yaxshilashni ta'minlaydi.

Barcha resurs sikliga tegishli bo'lgan integratsiyalashgan yondashuv asosida uni optimallashtirish bo'yicha tegishli choralarini "3 R tashabbusi" (Reduce – qisqartirish, Reuse – takroriy ishlash, Recycle – qayta ishlash) orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ushbu sohadagi ustuvor choralar qatoriga quyidagilar kiradi:

- uglevodorodlarni qayta ishlashdagi ekologik va samaralik darajasini oshirish;

- fakellardagi yo'lovchi gazlarini yonish darajasini minimallashtirish va ularni ishlashni kengaytirish;

- energetik infratuzilmani mukammallashtirish, shuningdek, transportirovka vaqtida neft va neft mahsulotlarini yo'qotishlarini, gaz ta'minlash tizimidan gazni chiqib ketishini minimallashtirish;

- jahon neft iste'molining 2/3 qismi transport tarmog'iga to'g'ri keladi, shuning uchun ham bu iste'mol sektoriga alohida e'tibor bermoq lozim.

Transport yanada ekologik va samarador bo'lishi uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

• transport tarmogida energiya samarasini oshirish uchun ilg'or tajribalarni o'zaro almashishni amalga oshirish;

• milliy imkoniyatlarni e'tiborga olgan holda samarali transport vositalaridan va ekologik toza dizel va gibrid dvigatellardan iste'molchilarni foydalanishga undovchi choralarini yaratish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish;

• yangi texnologiyalar asosida transport vositalari uchun energiya manbalarining boshqa turlarini foydalanishini rag'batlantirish, avtotransportlar uchun bioyoqilg'idan foydalanish, shuningdek, siqilgan va suyultirilgan tabiiy gazni keng ko'lamma ishlash;

• transport vositalarida zamonaviy texnologiyalar, materiallar va asbob-uskunalarni ishlashni keng ko'lamma joriy etish, bu bilan dvigatellarni foydali koefitsient harakatini va aerodinamik xarakteristikalarini yaxshilash;

• "vodorod iqtisodiyoti"ni tashkil etishga yordam berish maqsadida benzin/vodorod yoqilg'i hamda vodorod yoqilg'isi elementlaridan transport vositalarida foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish.

Energiya turlarini diversifikatsiyalash. Energiya turlarini diversifikatsiyasi global energetik xavfsizlik doirasida tavakkalchilikni pasaytirish imkoniyatini beradi. YAdro znergetikasining rivojlanishi, energiyaning qayta tiklanuvchi turlari bo'lgan quyosh, shamol, geotermal, gidroenergiya va biomassa turlaridan keng ko'lamda foydalanishga ruhsat etadi.

Muqobil energiya turlaridan foydalanish darajasini oshishiga qaramasdan, uglevodorodlar ushbu yuz yillikda ham energiya iste'molini umumiy tarkibida asosiy rolni o'ynaydi.

Shu sababli uglevodorodlarni samarali qazib chiqarishni ta'minlovchi innovatsion texnologiyalarni (shu jumladan, nanobiotexnologiyalarni) joriy etishni amalga oshirish, ularni ishlab chiqarish va foydalanishni ekologik ta'sirlarini kamaytirish katta ahamiyatga ega.

Hayotiy muhim energetik infratuzilmani xavfsizligini ta'minlash. Juhon energetik infratuzilmasining xavfsizligi o'zaro bog'liq va aloqadordir. Energetik infratuzilmani global xarakterini hisobga olib aytish mumkinki, hech qaysi davlat ushbu sohadagi xavfni o'zidan soqit qilish kuchiga ega emas.

Hayotiy muhim energetik infratuzilmani xavflari va tahdidlari bilan kurashda quyidagilarni e'tiborga olishi lozim:

- energetik infratuzilma ob'yektlaridagi eng jiddiy xavfli joylarini aniqlash va kategoriyalarga ajratish;

- terroristok aktlar bilan bog'liq tahdidlarni baholash;

- energetikaning barcha tarmoqlarida xavfsizlikni ta'minlash borasidagi jahon tajribasini umumlashtirib axborot ma'lumotlarini ishlab chiqish va targ'ibot qilish;

- infratuzilmani kritik muhim ob'yektlarini himoyalashni mukammallashtirish doirasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Energetik kambag'allik ko'lamini qisqartirish. 2000 yilda BMTning sammitida qabul qilingan Ming yillik maqsadlariga erishish tarkibida barcha mamlakatlarning energiya resurslari ta'minotiga bo'lgan imkoniyatini oshirish masalasi ham ko'rilgan.

Energetik kambag'allik muammosini yechmay turib, umuman olganda kambag'allik hajmini radikal holatda qisqartirishga, sog'liqni saqlashni rivojlantirishga, insonlarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga, sanitar holatlarni yaxshilashga, qishloq xo'jaligi samarasini oshirishga va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish samarasini oshirishga, rivojlanayotgan mamlakatlardagi korxonalarga investitsiyalarni jaib etish hisobiga yangi ishchi o'rinalarini yaratishga erishib bo'lmaydi.

Yonilg'i-energiya mahsulotlarini narxi oshishi hisobiga sodir bo'lgan makroiqtisodiy shoklarni rivojlanayotgan mamlakatlar yenga olishiga yordam berish va aholini kambag'al qatlaminu energiya ta'minotiga bo'lgan imkoniyatini yaxshilash bo'yicha tezkor chora-tadbirlarni qo'llash muhimdir.

Energetik jihatdan kambag'al rivojlanayotgan davlatlarni ishonchli, zamonaviy, to'xtovsiz energetik xizmatlarga bo'lgan ta'minotini yaxshilash uchun hamkorlikni amaldagi ikkitomonlama va ko'ptomonlama mexanizmini takomillashtirish katta ahamiyatga ega.

Energetika-mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning muhim qismidir. Energiya resurs bozorlari faqatgina lokal tarmoqda mavjud bo'lgan holatlari qadimda qoldi. Avval neft, keyinchalik gaz bozorlari mintaqaviy, so'ngra global holatda rivojlna boshlandi.

Neft va gaz faqatgina xalqaro savdoda muhim omil bo'lishidan tashqari, energiya resurslarini ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi davlatlar o'rtaida o'zaro iqtisodiy ta'sir etuvchi muhim omilga ham aylandi.

Jahon xo'jaligining neft-gaz kompleksi yevroatlantika va Osiyo Tinch okeani mintaqalarida o'sib borayotgan raqobat asosida rivojlanmoqda. SHuning uchun ham oxirgi yillarda har bir mintaqaviy tashkilotlarda energetika muammolari birinchi o'ringa chiqqa boshladi.

Ushbu masalalarni hal etishda Yevropa Ittifoqining energetika jamg'armasi alohida o'ringa ega bo'lib, u:

- energetik yetishmovchilikni yengib o'tishga qaratilgan loyihalarni qisman moliyalashtirishga qaratilgan grantlar ajratadi;

- mahalliy energiya manbalarini ishlatishda hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini energetik samarasini oshirish va tejash doirasida rivojlanayotgan davlatlarga ilg'or texnologiyalarni berishga yordam beradi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida kelishilgan energetik siyosatni xalqaro forumlarni tashkil etish orqali hamkorlikni amalga oshiradi. Shanxay hamkorlik tashkilotining qabul qilingan Xartiyasida (1-modda) energetika sohasida samarali mintaqaviy hamkorlikni rag'batlanirish asosiy vazifalaridan biri deb e'tirof etilgan. Bu borada Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning vazirliklari va idoralari energetika sohasida muvofiq ishchi guruhlar tomonidan tayyorlangan loyihalarni amalga oshirish ishlari boshlab yuborildi.

Neft-gaz konlarini aniqlash va neft-gaz transport yo'laklarini qurish sohalarida ushbu tashkilotda hamkorliklarni amalga oshirishga alohida

e'tibor berilmoqda, Shanxay hamkorlik tashkilotining energetik konsepsiyasida energiya xomashyosini (neft, tabiiy gaz) ishlab chiqaruvchi (Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston) va uni iste'mol qiluvchi mamlakatlar (Xitoy, Tojikiston, Qirg'iziston) e'tirof etilgan.

7.4. Moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiyotning ochiqligi rivojlanishni jadallashtirish maqsadida tashqi omillardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. U milliy xo'jalikda xorijda o'zlashtirib bo'lingan ilg'or texnologiyalardan, mashina va uskunalarining yangi avlodlaridan, ishlab chiqarishni va sotishni boshqarishning zamonaviy tajribasidan foydalanish ko'lamlarini kengaytirishga, chet eldan qo'shimcha moddiy va moliyaviy resurslarni jalb qilishga, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasiga qo'shilishga imkoniyat yaratadi.

Biroq iqtisodiyot "ochiqligi" nafaqat bozor islohotlarini jadallashtiradi, balki iqtisodiy rivojlanishda, ayniqsa rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotli mamlakatlar uchun ma'lum xavf-xatarlarni ham vujudga keltiradi. Milliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatchilar tomonidan siqib chiqarish, alohida tarmoqlarning jahon kon'yunkturasiga, sanoati rivojlangan mamlakatlarning savdo va sanoat siyosatiga bog'liqligining o'sish xavfi paydo bo'ladi.

XX va XXI asrlarda jahon iqtisodiy rivojlanishiga ikkita yangi holatlar ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, kon'yunktura o'zgarishlarini tartibga solishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosat tizimi asta-sekin shakllantirildi. Ikkinchidan, jahon iqtisodiy tuzilmasida moliyaviy (aksiyadorlik kapitali institutining, kapital, valuta, qimmatli qog'ozlar va ularning hosilalari bozorlari tizimlarining shakllanishida ifodalanuvchi) soha keskin o'sdi. Jahon iqtisodiyotining mazkur sohasining rivojlanishi natijasida moliyaviy operatsiyalar hajmi moddiy ne'matlar bilan iqtisodiy operatsiyalar hajmidan ancha ortib ketdi.

Bozor mexanizmining amal qilishida davriy takrorlanuvchi inqirozlar o'zining namoyon bo'lish shakllarini asta-sekin o'zgartirdi. Agar sanoatlashtirish davrida moliyaviy buzilishlar (banklarning kasodga uchrash shaklida) asosan keyingi sanoat pasayishlariga olib kelgan bo'lsa, sanoatlashtirishdan keyingi davrda bunday yaqqol ketma-ketlik o'z shaklini o'zgartira boshladi. Moliyaviy soha shunchalik yirik ko'lamga erishdiki, bu uni o'z qonuniyatları bo'yicha rivojlanuvchi nisbatan mustaqil iqtisodiy blokka aylantirdi. Xususan, moliyaviy sohani ustun

ravishda va ishlab chiqarish sohasini nisbatan kamroq qamrab oluvchi inqirozlar kelib chiqdi. Moliyaviy xo'jalikning bunday "mustaqilligi" moliyaviy buzilishlarning ham nisbiy "mustaqilligini" keltirib chiqardi. Bu esa jahon moliyaviy inqirozlarini ro'y berishiga olib keladi.

Moliya vositalarining chegara bilmasligi va valuta kurslaridagi o'zgarishlar ustidagi o'yinlar moliyaviy inqirozlarning vujudga kelish sabablaridir. XVF ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi yillarda jahonda 160 ta valuta va 50 dan ortiq bank inqirozlari, shu jumladan Meksika inqirozi (1994 y.), Osiyo inqirozi (1997-1998 y.), Braziliya va Rossiya inqirozlari (1998 y.) bo'lib o'tdi.

XX asrning 90-yillarida Osiyo mamlakatlariga kirib kelgan milliardlab sarmoyalar 1997 yildan hammaga yaxshi ma'lum bo'lgan jahon moliyaviy inqirozi davrida to'satdan o'z yo'nalishini o'zgartirib, millionlab odamlarni yana qashshoqlikka maxkum etib, barcha qit'alardagi mamlakatlarga ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun ham 1997-1998 yillardagi moliyaviy inqirozdan so'ng ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy globallashuvning ijobiy jihatlari bilan birgalikda salbiy tomonlariga ham jiddiy e'tibor berish boshlandi.

Lokal iqtisodiy inqirozlarning boshqa mintaqalarga tez tarqalishi 1997-1998 yillarda ro'y bergen, keyinchalik jahon moliyaviy inqirozi tufayli ro'y bergen Osiyo va Lotin Amerika moliyaviy inqiroziga sabab bo'ldi.

Inqiroz shuni ko'rsatdiki, bu mamlakatlarda qanchalik iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lmasin, ammo ularning moliyaviy tizimi barqarorlik bosqichiga yetmagan va mintaqadagi boshqa alohida mamlakatlarning moliyaviy bozorlaridagi salbiy jarayonlarga qarshi tura olmaydi.

Bu moliyaviy inqirozlar jahon kapital bozorlari kon'yunkturasini yomonlashishiga va jahon bozorida muhim mineral xomashyolarning narx kon'yunkturasining pasayib ketishiga olib keldi.

Zamonaviy moliyaviy inqirozlarning o'ziga xos xususiyati ularning bir vaqtda bir nechta mamlakatlarda paydo bo'lishi va mintaqa bo'ylab tez tarqalishidan iborat. Moliyaviy "epidemiya"ning xususiyati shundaki, ular hatto mamlakatlarning moliyaviy bozorlari iqtisodiy jihatdan o'zaro kam bog'langan vaziyatda ham tarqalish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu eng avvalo, moliya bozorlari shakllanayotgan mamlakatlarga tegishli. Bir mamlakatdagi inqiroz boshqa o'xshash makroiqtisodiy sharoitlarga ega mamlakatlarning valutalariga chayqovchilik hujumlari uchun turtki bo'lishi mumkin.

Endi hozirgi kunda ham davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga to'xtalsak. Prezidentimizning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar" nomli asarlarida jahon moliyaviy inqirozining mazmun-mohiyati, kelib chiqish sabablariiga batafsil to'xtalib o'tilgan.

«Bu inqiroz Amerika Qo'shma SHtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarining likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi»¹.

2007 yil yozida AQSHda yuqori qaltislikka ega subprime turidagi ipoteka kreditlari tizimida ro'y bergan ipoteka inqirozi moliyaviy bozorlarga o'tdi. yetakchi banklar balansida ipoteka kreditlarining hosilasi bo'lган ko'p miqdordagi murakkab qarz instrumentlari mavjudligi aniqlandi. Ushbu aktivlар nolikvid aktivlarga aylanib, ularning qiymatini aniqlash imkonи bo'lmadи. Ipoteka aktivlari bo'yicha keng ko'lamlı hisobdan chiqarishlar jahon moliya tizimida likvidlilik kamomadiga olib keldi, banklar bir-biriga qarz bermay qо'ydi. Inqiroz yangi bozorlarni qamrab ola boshladi: yuqori tavakkalchilikka ega ipotekadan oddiy, keyin esa, iste'mol kreditlariga, ko'chmas tijorat mulkiga va nihoyat, korporativ sektorga yoyildi.

Moliyaviy inqiroz AQSH ketidan boshqa mamlakatlarga ham ta'sir etishi kuzatiladi. 2008 yil oxirida Yaponiyada Nikkei yapon fond indeksi AQSH retsessiyasi xavfi ta'sirida 3,86 % yo'qotdi. Asosan AQSHga mahsulot eksport qiluvchi kompaniyalar va banklar aksiyalari eng ko'p zarar ko'rди. So'ngra Hindiston fond bozorida pasayish ro'y berdi: Mumbaydagi BSE asosiy birja indeksi 7,14 % ga, 1356,3 punktgacha, NSE Milliy birja indeksi esa – 8,6 % ga pasaydi. Hindistondan so'ng Xitoy fond bozorlarida aksiya narxlari tushib ketdi. Gonkongning Hang Seng indeksi 5,49 %, Shaxay fond birjasasi indeksi esa 5,14 %ga pasaydi. Janubiy Koreyada Seul birjasining yetakchi indeksi – KOSPI kun yakunlari bo'yicha 2,95 % ga pasaydi. Yevropada ham asosiy Yevropa indekslari o'rtacha 5-7 %ga pasaydi.

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009. 4-b.

7.2-jadval. Dunyoning asosiy fond indekslari dinamikasi

Fond indekslari	2007 yil	2008 yil	2009 yil	
			II chorak	III chorak
AQSH (S&P 500)	1468	903	919	1057
Evroitti foq (Eurostoxx 50)	4804	2590	2516	2873
Buyuk Britaniya (FTSE 100)	6457	4434	4249	5134
Germaniya (DAX)	8067	4810	4809	5675
Fransiya (CAC 40)	5614	3218	3140	3795
Yaponiya (Nikkei 225)	15308	8860	9958	10133
Braziliya (Bovespa)	63886	37550	51465	61518
Rossiya (RTS)	2291	632	987	1255
Hindiston (BSE-500)	8592	3597	5492	6553
Xitoy (Shanghai Composite)	5262	1821	2959	2779

Manba: Жумасев Н.Х., Абдурахмонов О.К. Жаҳон молиавий-иқтисодий инқирози: сабаблари ва уни бартараф этиш муаммолари. Т.: Академнашр, 2010, 49-6.

2008 yilda boshlangan jahon moliaviy inqirozining asosiy xususiyatlaridan biri – jahoning deyarli barcha mamlakatlarda moliaviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mutanosiblik va nisbatlarning keskin izdan chiqishi natijasidagi beqarorlik va chuqur tanglik holatlarining vujudga kelishi, ya’ni moliaviy-iqtisodiy inqirozga aylanishidir.

Mutaxassislar jahon iqtisodiyotini rivojlanish istiqbollarini turlicha belgiladilar. Ayrimlarning fikricha, 2009 yilning 2-3 choraklari oxiridayoq jahon iqtisodiyoti o’sishga yuz tutadi, lekin ular kamchilikni tashkil qiladi. Xalqaro valuta jamg’armasi rahbari Dominik Stross-Kan 15 dekabrda Ispaniyada bo’lib o’tgan press-konferensiyada bergen ma'lumotiga ko’ra, jahon iqtisodiyoti moliaviy inqirozdan 2009 yil oxiri - 2010 boshlarida chiqa boshlaydi.

Jahon banking “2009 – Global iqtisodiy istiqbollar” nomli ma’ruzasida jahon YAIM 2008 yilda 2,5 % ga, 2009 yilda esa 0,9 %ga o’sishi bashorat qilinadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o’sish sur’atlari pasayib, 2007 yildagi 7,9 % o’miga 2009 yilda 4,5 %ni tashkil etadi, daromad darajasi yuqori bo’lgan mamlakatlarda esa iqtisodiyot salbiy ko’rsatkichlarni namoyon etadi. Ma’ruzada jahon moliaviy inqirozi tufayli rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o’sishning Yaqin istiqbollari noaniqligi, jahon savdosi hajmlari esa 1982 yildan beri ilk bor qisqarishining ro’y berishi ta’kidlanadi. Jahon savdosi hajmi 2009 yilda 2,1 %ga qisqarib, rivojlanayotgan mamlakatlardan eksport kamayadi.

Xalqaro savdo jahon iqtisodiyoti rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlardan biriligidcha qoladi. 2007 yilda rivojlanayotgan mamlakatlar savdosi hajmi deyarli 8 %ga ko'paydi, ushbu mamlakatlarga sof xususiy kapital oqimi esa ilk bor rekord ko'satkichga – 1 trln. dollarga yetdi. Jahon iqtisodiyotining o'sishi atigi 1 %ni, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlari esa avvalgi 6,5 % o'rniga 4,5 %ni tashkil etadi deb bashorat qilinmoqda. JB hisoblariga ko'ra iqtisodiy o'sishning 1 %ga pasayishi kambag'al aholining 20 mln. kishiga ko'payishini bildiradi. Jahon savdosining kutilayotgan pasayishi rivojlanayotgan mamlakatlarni orqaga surib yuborish va so'nggi yillarda taraqqiyot sohasida erishilgan yutuqlarni yo'qotish xavfiga ega.

Iqtisodiy pasayish davrida rivojlangan mamlakatlarning ayrimlari savdo to'siqlarini qo'llash, xususan mahalliy sanoatni dotatsiyalash va qo'llab-quvvatlashning boshqa shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqda. SHU sababli Jahon banki bugungi kunda jahon hamjamiyatiga o'z kuchlarini birlashtirish va savdoni jonlantirishga chaqirmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlanishi bilan unga qarshi birgalikda kurashish maqsadida "Katta yigirmalik" deb nom olgan davlatlar guruhi tashkil etilgan edi. Ushbu guruh tarkibiga YAIM hajmi jahon YAIMning 90 foizini tashkil etuvchi 20 ta rivojlangan va rivojlanayotgan yirik davlatlar, jumladan, Argentina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Fransiya, JAR, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari kiradi.


"Katta yigirmalik" guruhi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi kurashish bo'yicha samaralii chora-tadbirlarni ishlab chiqish va bu boradagi muammolarni birgalikda hal etish maqsadida vaqti-vaqt bilan sammitlar o'tkazib turadi. Dastlabki sammit 2008 yilning noyabr oyida Vashington (AQSH)da, keyinchalik 2009 yil aprelda London (Buyuk Britaniya)da, 2010 yil noyabrda esa Seul (Janubiy Koreya)da o'tkazildi.

Xususan, Seul sammitida AQSH va Xitoyning valuta siyosati, Xalqaro hisob-kitoblar bankini nazorat qilish bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan jahon bank sohasi uchun yangi qoidalar, Xalqaro valuta fondini isloh qilish kabi masalalar ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, sammit tasdig'iga jahon iqtisodiyoti o'sishi va ijtimoiy taraqqiyotning "Seul konsensusi" deb nom olgan yangi konsepsiysi kiritildi. U "Vashington konsensusi" nomi bilan tanilgan taraqqiyotning oldingi mezonini almashtirishi lozim edi. "Vashington konsensusi" 1980

yillarning so'ngidan boshlab amal qilib, o'ziga o'ta liberal (erkin) bozor g'oyalarini singdirgan edi. Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelishi bilan ushbu g'oyalar inkor etila boshladi.

Seul sammiti nihoyasida YAkuniy deklaratsiya qabul qilinib, unda xususan, 2013 yilga borib rivojlangan mamlakatlarning budjet taqchilligini kamida 2 barobarga qisqartirish majburiyati belgilandi. "Katta yigirmalik" guruhining navbatdagi uchrashuvlari 2011 yilning noyabrida Fransiyada, 2012 yili esa Meksikada o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Jahon mamlakatlari tomonidan qabul qilingan barcha choratadbirlarga qaramay, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bugungi kunda ham dunyo iqtisodiyotiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Bugun dunyo iqtisodiyotidagi ahvolni tahlil qilar ekanmiz, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi hali-beri nihoyasiga yetgani yo'q, deb aytishga barcha asoslarimiz bor".¹ Haqiqatan ham, eng rivojlangan mamlakatlardagi YAIMning o'sish sur'atlari aksariyat hollarda inqirozdan oldindi darajaga yetmaganini ko'rish mumkin (7.2-rasm).




*Izoh: 2010 yilda tezkor holda oldindan olingan ma'lumotlar keltirilgan.

7.2-rasm. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda YAIMning o'sish sur'atlari (oldindi yilga nisbatan foizda)*

¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanтиrish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalişlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

* Узбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим ustuvor йўналишларда багишланган Узбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг маъжисидаги "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараккහтини юксалтириш, халқimiz farovonligini oshiришga xizmat kildi" мавzuсидаги маъруzasini ўрганиш бўйича ўкув кўлланма. – T.: 2011.

Rasmida ifodalangan 2010 yildagi tezkor olingan ma'lumotlarga ko'ra, YAIMning o'sish sur'ati AQSHda 1,5 foizni, Yaponiyada 1,7 foizni, Buyuk Britaniyada 0,9 foizni, Germaniyada 3,6 foizni tashkil etgan. Faqat Germaniya o'zining iqtisodiy o'sish sur'ati bo'yicha inqirozdan oldingi davr ko'rsatkichlariga yetgan. Biroq, umumiy holda jahon iqtisodiyotidagi o'sish sur'atlarini barqaror deb bo'lmaydi. Bu xulosaning to'g'riligini rivojlangan mamlakatlarda hamon ishsizlik yuqori darajasida saqlanib qolayotgani ham yana bir bor tasdiqlaydi (7.3-rasm).



*Izoh: 2010 yilda tezkor holda oldindan olingan ma'lumotlar keltirilgan.

7.3-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi *

Rasmdan ko'rindaniki, rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi keskin ravishda ortib bormoqda. Xususan, inqirozning dastlabki pallasidagi iqtisodiyotga keskin ta'siri pasayganiga qaramay, ishsizlik darajasi AQSH va Germaniyada 10,6 foizni, Buyuk Britaniyada 9,3 foizni, Yaponiyada 6,2 foizni tashkil etmoqda.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarning tajribasida jahon moliviyyi-iqtisodiy inqirozi ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlarning oldini olish va bartaraf etish choralarini orasida har qanday yo'l bilan bank-moliya tizimini saqlab qolishga urinish holatlari keng namoyon bo'ldi. Jumladan, AQSH birinchilardan bo'lib uzoq yillar davomida xususiy banklar sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan to'rtta yirik bankni milliyashtirdi, ya'ni ularni davlat

* Узбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор Ўналишларга багишланган Узбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг мажлисидаги "Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаронолигини оширишга хизмат килади" мавзусидаги маъруzasinи ўрганиш бўйича ўкув қўлланма. –Т.: 2011.

mablag'lari hisobidan sotib olish orqali bankrotlikdan saqlab qoldi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bank tizimining yuqori riskli aktivlarini davlat tomonidan kafolatlash orqali uzoq muddatli moliyalashtirish tadbirlari amalga oshirildi. Natijada, bank-moliya sohasida likvidlik darajasi pasaygan bir pallada davlatlar turli yo'llar bilan yirik hajmdagi mablag'larni ushbu sohaga yo'naltira boshladi.

Davlatlarning inqiroz davrida o'z iqtisodiyotiga, ayniqsa, moliya-bank sohasini saqlab qolish maqsadida aynan shu sohaga ulkan mablag'larni yo'naltirishi, o'z navbatida, bir qator davlatlarda, avvalo, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi davlat budjeti taqchilligi va davlat qarzlarini keltirib chiqardi, moliyaviy nomutanosiblikning yuzaga kelishiga sabab bo'lди.

Bugungi kunda bozorni pul resurslari bilan zo'r berib to'ldirish davom etayotgani fond va xomashyo bozorlarida sun'iy ravishda oshirib borilgan spekulyativ narxlarning yanada ko'tarilib ketishiga, ta'bir joiz bo'lsa, moliyaviy ko'piklarning battar avj olishiga, inflyatsiyaning jilovlab bo'lmas darajada o'sish xavfining kuchayishiga olib kelmoqda.¹

Inflatsiya bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy beqarorlikning ko'rinishlaridan biri bo'lib, hozirgi davrda barcha mamlakatlar uchun umumiyl bo'lgan holat hisoblanadi. Real qiymatga ega bo'lмаган qog'oz pullarning muomalaga kirib kelishi inflyatsiyaning asosiy sababi hisoblanadi. Chunki qog'oz pullarni jamg'arma sifatida muomaladan chiqarish kam samarali va ishonchsiz vosita bo'lib, ular pullar hajmi ortib ketgan sharoitida ham muomalada qoladi. Natijada muomalada ortiqcha qog'oz pullarning ko'payishi mavjud yalpi talabni yanada kuchaytirib, narxlarning o'sishini tezlashtiradi.

Inflatsiya darajasining real mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbatan tezroq sur'atlarda o'sishini MDHning bir qator mamlakatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin (7.4-rasm).

Real YAIMning 2010 yildagi o'sish sur'atlari hamda shu yilning yanvar-dekabr oyalaridagi inflyatsiya sur'atlari nisbati Rossiya, Ukraina va Qирг'изистонда salbiy ko'rinishga ega bo'lgan. Qozog'iston Respublikasida real mahsulot ishlab chiqarish o'sish sur'ati juda oz darajada (107,1/107,3) farq qilgan bo'lsa, mamlakatimizda bu ko'rsatkich ijobiy ko'rinishga ega

¹ J.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'jallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

bo'lgan, ya'ni infliyatsiyaning o'rtacha yillik o'sishi 106,1 foizdan iborat bo'lgani holda, real YAIMning o'sish darajasi 108,5 foizni tashkil etgan.



7.4-rasm. Ayrim MDH davlatlarining 2010 yilda YAIM va infliyatsiya ko'rsatkichlari (oldingi yilning shu davriga nisbatan foizda)*

Jahon iqtisodiyotidagi barqarorlik ko'p jihatdan turli mamlakatlarning tashqi savdo va boshqa iqtisodiy aloqalarda keng qo'llaniladigan erkin konvertatsiya qilinuvchi asosiy valutalarga nisbatan ishonchiga ham bog'liq. Jahon miqyosida konvertatsiya qilinadigan asosiy valutalarning beqarorligi jiddiy xavotir uyg'otmasdan qolmaydi. Bu, birinchi navbatda, rivojlanayotgan mamlakatlarning ushbu valutalarga bo'lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazmoqda.¹

Keyingi yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siri va oqibatlarini yumshatish, ayniqsa, moliya-bank sohasini uning xurujlaridan zudlik bilan himoya qilish, to'lov balansini yaxshilash, aholi o'rtasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ishonchsizlik va sarosimaning oldini olish hamda boshqa maqsadlar yo'lida pul muomalasi qonuniyatlariga xilof ravishda amalga oshirilgan xatti-harakatlar jahon miqyosida konvertatsiya qilinadigan asosiy valutalarning beqarorligini yanada kuchaytirmoqda. Bu esa, oltin-valuta zahirasining salmoqli qismini

* Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим ustuvor йўналишиларга багишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирilar Makhkamasining majlisidagi "Барча reja va dasturlarimiz Vatanimiz tarakkietini юксалтириш, xalkimiz farovonligini oshiришга xizmat kiladi" mavzusidagi маъруzasини ўрганиш бўйича ўкуv кўлланма. –Т.: 2011.

¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz tarraqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mammalatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – Т.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

dunyoning erkin konvertatsiya qilinadigan asosiy valutalari asosida shakllantirgan davlatlarda va umuman, o'z iqtisodiy faoliyatida ushbu valutalardan foydalanadigan har qanday mamlakatda tashvishli holatlarni keltirib chiqarmoqda. Xarid quvvati kuchli bo'lgan valutalarga nisbatan ishonchning pasayishi bevosita tashqi savdo aloqalarida beqarorlikni keltirib chiqarmoqda, pirovardida esa jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

7.5. Antiglobalizm fenomeni

Antiglobalizm – bu globallashuv jarayonlarning hozirgi kunda namoyon bo'layotgan ba'zi jihatlariga (transmilliy korporatsiyalarning gegemonligiga va turli xil xalqaro savdo tashkilotlariga, asosan Jahon savdo tashkilotiga e'tirozlar, shuningdek global tengsizlik, TMKlarning gegemonligi, bir qutbli dunyoning shakllanishi, atrof-muhitning ifloslanishi, milliy urf-odatlarning yo'qolib ketishi va x.k.lar) qarshi yo'naltirilgan siyosiy harakatdir.

«Antiglobalizm» atamasi 1998 yil iyunda Fransiyada paydo bo'ldi. Fransiyada bir nechta nashriyotlar, ijtimoiy assotsiatsiyalar va kasaba uyushmalari qo'shilib, "ATTAC" (Association for the Taxation of Financial Transactions for the Aid of Citizens) tashkilotiga asos solishdi va "Tobin solig'i"ni kiritishmoqchi bo'lishdi. Tobin solig'i 1972 yilda Djeyms Tobin tomonidan kiritilgan bo'lib, barcha moliyaviy operatsiyalardan 0,1 foizini qashshoqlikni yo'qotish va uchinchi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Bundan tashkari, ATTAC tashkiloti rivojlanayottan mamlakatlarning qarzlarini kechishni ham talab qildi. Keyinchalik antiglobalistlarning qatori kengaydi: marksistlar, patsifistlar, hayvonlar g'amxo'rлari, vegetarianlar, anarxistlar, "yashillar", izolyatsionistlar, kasaba uyushmalari, diniy kamchilikni tashkil qiluvchilar, yoshlar, ekologik, talabalar va urushga qarshi harakatlar, inson huquqi sohasidagi kurashchilar, iste'molchi huquqi himoyachilar, xomila abortiga qarshilar, ishsizlar qo'shildi.

2001 yilda Portu-Alegreda antiglobalistlarning birinchi xalqaro forumi bo'lib o'tdi. Xususan, bu yerda Fransyaning olti sotsialist vaziri va Belgiyaning bosh vaziri ham ishtirok etdi.

Keyinchalik Sietl, Praga, Genuya, Barselona, Davos va boshqa shaharlarda, shuningdek, globallashuvni ma'qullaydigan «Katta yettilik»

davlatlari, XVF, Jahon banki uchrashuvlari o'tadigan shaharlarda bunday chiqishlar odatiy hol bo'lib qoldi.

Antigloballashuv harakatning faolligi yildan-yilga oshib bormoqda (7.3-jadval).

7.3-jadval. Antigloballashuv noroziliklarning xronologiyasi

O'tkazilish joyi	Vaqti	Rasmiy xalqaro uchrashuvlarga mo'ljallab o'tkazilgan	Norozilik bildiruvchi qatnashchilarining soni, ming kishi
Sietl (AR)	1999, noyabr	Jahon savdo tashkiloti	100
Praga (Chexiya)	2000, sentyabr	Xalqaro valuta fondi, Jahon banki	10
Davos (Shveysariya)	2001, yanvar	Umumjahon iqtisodiy forumi	30
Gyoteborg (Shvetsiya)	2001, iyun	AQSH-Yevropa Ittifoqi sammiti	25
Portu-Alegri (Braziliya)	2001, yanvar	Umumjahon ijtimoiy forumi	20
Genuya (Italiya)	2001, iyul	“Sakkizlik” (G 8) sammiti	300
Barselona (Ispaniya)	2002, mart	Yevropa Ittifoqi sammiti	500
Florensiya (Italiya)	2002, noyabr	Yevropa ijtimoiy forumi	1000
Plato Larzak (Fransiya)	2003, avgust	Fransiya antiglobalistik harakatining 30-yilligi	300
Mumbai (Hindiston)	2004, yanvar	Umumjahon ijtimoiy forumi	100
Portu-Alegri (Braziliya)	2005, yanvar	Umumjahon ijtimoiy forumi	150

Manba: А.А.Исаджанов Жаҳон иктисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, 153-bet.

Antiglobalashuv noroziliklar ko'pincha rasmiy sammitlar va xalqaro uchrashuvlarga moslab o'tkazilib, paralell sammitlar deb ham atala boshlandi. 1988-2001 yillar davomida 70 ga yaqin parallel sammitlar o'tkazilgan.¹ Antiglobalistlar har kuni dunyoning turli burchaklarida har xil ijtimoiy forum, miting va turli xil namoyishlar o'tkazishadi.

2003 yilgacha dunyoda 2500 ta antiglobalistik tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan. Oxirgi yillarda ular tomonidan o'tkazilgan tadbirlar qatoriga quyidagilarni aytib o'tish mumkin. 1999 yil iyunda Kelnda antiglobalistlarning birinchi yirik namoyishi bo'lib o'tdi. 2000 yilda

¹ Денчев К. Феномен антиглобализма. - М.: Издательский дом ГУ-ВШЭ. 2005. -С. 41-42.

antiglobalistlarning informatsion tarmog'i IndyMedia tashkillashtirildi. 2001 yil yanvarda Braziliyaning Portu-Alegri shahrida antiglobalistlarning Umumjahon ijtimoiy forumi bo'lib utdi. Unda 122 davlatdan 20 ming vakil yig'ildi. 2001 y. Genuyadagi "Katta sakkizlik"ning uchrashuvini buzish uchun 300 ming antiglobalistlar yig'ilishi. Qarama-Qarshi kuchlar to'qnashishi natijasida bir vakil va bir politsiya xodimi qurbon bo'ldi, 300 dan ortiq kishi kattiq jarohat oldi. 2006 yil yanvarda Karakasda Umumjahon ijtimoiy forumi bo'lib o'tdi.

Oxirgi yillarda yuqorida aytib o'tilgan ATTAS tashkilotidan tashqari quyidagi antiglobalistik loyihalar ham tashkil topdi:

- «Global harakat». Katta megapolis va qishloq rayonlari ko'chalarida kat'iy noroziliklarni muntazam ravishda o'tkazishga qaratilgan harakat;

- «Blek Blok» (*«Black Bloc»*). Magazin va ofislarni talon-taroj qilishga va politsiya bilan to'qnashuvlarga ixtisoslashgan, anarxizm pozitsiyasida turadigan, kapitalizm, davlat va urushlarga qarshi harakat;

- «Uchinchi pozitsiya» (*«The Third Position»*). Tashkilot Londonda tashkil topdi. Mafkuraviy asosi – qarshilikning agressiv usullarini qo'llovchi eng chap va eng o'ng tomon dunyo qarashiga ega bo'lganlar guruhi;

- «Ya Basta». Italian tashkiloti, Chyapas harakatini qo'llab-quvvatlovchi va neoliberalizmga qarshi guruh;

- «Xaktivist». Xaker aktivistlarning uyushmasi bo'lib, ular asosan siyosiy masalalar bo'yicha harakat qilishadi;

- Radikal ekologlar (yetakchi Ralf Nayder va nazariyotchi Myurrey Bukchin). Ular total ekologik talofatlarni faqat bozor iqtisodiyotiga qarshi kurash orqali oldini olish mumkin degan g'oyani ilgari surishadi.

Antiglobalistlar globallashuvning asosan quyidagi salbiy oqibatlarini dalil sifatida keltirishadi:

- boy va kambag'al davlatlar daromadlari orasidagi farqning kattalashib ketayotganligi;

- yagona madaniyatning ustunligi, erkin ijodning kamayishi, standart fikrlashning ko'payishi;

- tabiatga nisbatan yirtqichlarcha munosabat, ekologik muammolarni "chetlab o'tish", iflos ishlab chiqarishlarni "uchinchil dunyo"ga ko'chirish;

- kapitalni oshirish maqsadida neoliberalizm g'oyalaring ravnaq topishi, rivojlanmagan mamlakatlarni xomashyo bazasiga aylantirish.

Ma'lumki, har qanday ijtimoiy-siyosiy harakatning samaradorligi uch omilga bog'liq: olg'a surilayotgan fikrlarning mashxurligi yoki

qanchalik zamondan orqada qolganiga; tashkiliy tuzilmasiga; moliyaviy manbasining barqarorligiga.

Odatda ommaviy axborot vositalarida birinchi ikkita omil ko'p talqin qilinsada, harakatning hayotini uchinchi omil aniqlaydi. Har qanday ijtimoiy-siyosiy harakat singari, antiglobalistik harakatning ham moliyaviy manbasi quyidagilar:

- majburiy yoki ixtiyoriy a'zolik badali;
- tarafdoshlarning qo'shgan hissalar;
- harakatga oid adabiyot va tovarlarni sotishdan tushgan mablag' (simvollar va agitatsion materiallar)
 - davlat va turli xil fondlarning grantlari;
 - madaniy va ta'limga oid tadbirlarni amalga oshirishdan tushgan mablag' (filmlarni namoyish qilish, adabiyotlarni sotish, festivallar, konferensiylar, treninglar, seminarlar va x. k.)

Antiglobalistlar ham odatda buyurtma asosida namoyish, norozilik, festival va boshqa tadbirlarni o'tkazishadi. Odatda bunday namoyishlar Jahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valuta fondi, Jahon Banki, Katta sakkizlik, NAFTA va Yevropa Ittifoqining yig'ilish sammitlariga qarshi uyuşhtiriladi. Antiglobalistlarni bezovta qiladigan yana bir masalalardan biri bu "yuqumli" moliyaviy inqirozlardir.

Antiglobalistlar asosan G'arbnинг katta kapitalistik guruhlariga va TMKlariga qarshi turmoqdalar. Ularning fikricha, liberalizm g'oyalari orqali TMKlar butun dunyoni boshqarishga intilishadi va shu bilan birga milliy qadriyatlarni toptashadi. Antiglobalistlar XVF va Jahon Banki tavsiya etgan siyosatni yurgizgan mamlakatlar ko'pincha achinarli holatlarga tushib qolayapti deb hisoblaydilar.

Xulosa

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy zamonaviy xususiyatlari iqtisodiy globallashuv va o'zaro bog'liqlikning kuchayishidir. Global muammolar o'zaro bog'liqlikning yaqqol ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida u yoki bu muammoni global, ya'ni, umumjahon miqyosdagи muammolar ekanligini ko'rsatuvchi asosiy mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

- uning olamshumul ahamiyat kasb etishi.
- insonlar hayotining barcha sohalariga taalluqliligi.
- muammoni hal etishda ko'pchilik davlatlarning birgalikda harakat qilishligi va h.k.lar.

XXI asr boshidagi global muammolar orasida ekologik, oziq-ovqat, demografik, iqtisodiy, energetik muammolar, moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar alohida ajralib turadi.

Globallashuvning bu muammolarini milliy va xalqaro institatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ikki tomonlama, mintaqaviy va xalqaro darajada yechish orqali hal qilish mumkin.

Shuningdek jahoning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar saqlanib qolayotgani, davlatlararo, millatlararo va dirlararo ziddiyatlar, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida ta'kidlanganidek, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o'limi, epidemiyalar va insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy to'siqlar bo'lib qolmoqda. Bu muammolarni hal etishda 2000 yilda bo'lib o'tgan BMTning Mingyillik Sammitida "Mingyillik Deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muhim tarixiy xujjat XXI 21 asrga mo'ljallangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM) sifatida ma'lum bo'lgan sakkizta aniq maqsadga erishishga qaratilgan vazifalarni qo'ydi. MRM jahon hamjamiyatining 2015 yilgacha bo'lgan davr uchun global loyiha bo'lib, u jahondagi barcha mamlakatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Tayanch iboralar:

Jahon iqtisodiyoti, iqtisodiy globallashuv, o'zaro bog'liqlik, global muammolar, ekologik muammo, oziq-ovqat muammosi, demografik muammo, iqtisodiy muammolar, energetik muammo, moliyaviy va iqtisodiy inqiroz, xalqaro institutlar, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi, Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM).

Nazorat uchun savollar:

1. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning paydo bo'lish sabablari nimadan iborat?
2. Global muammo deganda nimani tushunasiz?
3. Global o'zaro bog'liqlik nima va u qanday ziddiyatlarga ega?
4. Global ekologik, oziq-ovqat, demografik muammolarni tavsiflab bering.
5. Global energetik muammo va uni hal etish yo'llarini tushuntiring.
6. Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz jahon iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
7. Antiglobalashuvning asosiy belgilari va maqsadlari nimadan

iborat?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
- T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitining Mingyllik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2010 yil 21 sentyabr
3. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T.: 2011.
5. Жумаев Н.Х., Абдурахмонов О.Қ. Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози: сабаблари ва уни бартараф этиш муаммолари. Т.: Академнашр, 2010, - 160 б.
6. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учебное пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.
7. Б.Ю.Ходиев ва б. "ЎзР Президенти И.Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» номли асарини ўрганиш бўйича ўкув кўлланма". – Т.: Иктиносидёт, 2009.
8. А.А.Исаджанов. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, - 185 б.
9. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.
10. Денчев К. Феномен антиглобализма. - М.: Издательский дом ГУ-ВШЭ. 2005.

8-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK

8.1. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati

Jahon rivojlanishi zamонавији jarayonlarining muhim yo'nalishi bu jahon iqtisodiyoti globallashuvидир. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, fan, texnika va texnologiya harakatining tezlashishi asosida iqtisodiy globallashuv xavf va tahdidlarning o'sishiga ham olib kelmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz (2008 y.) natijasida ijtimoiy muammolar ko'payishini, ishsizlik darajasi oshishini, turmush darajasi pasayishini, jahon iqtisodiyoti salbiy jarayonlaridan milliy iqtisodiyot himoyalanganligini globallashuvning salbiy tomoni bilan bog'lanib kelinayapti. Shunday fikrda bo'lganlar iqtisodiy xavfsizlik muammolarini hal qilish dolzarb ekanligini ta'kidlaydilar.

90-yillarning boshidan iqtisodiy xavfsizlik muammosi alohida keskinlik va dolzarblikka ega bo'ldi. Bu zamонавији globallashuv sharoitida «iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasining nihoyatda murakkabligi va kengqirraliligi bilan bog'liqdir. An'anaviy yondashuvlar va usullar bu hodisani to'liq tavsiflab bermaydi, demak barqaror iqtisodiy munosabatlarni saqlashning amaliy usullarini va avvaldan aytib berish mumkin bo'lgan yo'llarini ham ko'rsatmaydi.

Globallashuv jarayoni jahon xo'jaligining barcha jabhalarini qamrab olayotgan bir sharoitda rivojlangan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotli ko'pgina mamlakatlarda demografik holat yomonlashmoqda, ya'ni nafaqa oluvchilar soni ishchilar soniga nisbatan ko'proq sur'atlar bilan oshmoqda, boshqa tarafdan malakali ishchilarning, ayniqsa yuqori texnologik sohalarda, yetishmasligi sezilmoqda. Jahon bozorlaridagi narxlarning, yetakchi mamlakatlarning jahon bozoridagi valuta kurslarining tebranishlari bilan bog'liq xavflar iqtisodiyoti xom ashyoga yo'naltirilgan rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga salbiy ta'sir etadi yoki inqirozga uchrashiga sabab bo'lishi mumkin. Dollar kursining pasayish tarafga tebranishi rivojlanuvchi mamlakatlar tovarlarining raqobatbardoshligini pasaytiradi, agar dollar kursi keskin oshsa ko'p mamlakatlar aholisi uchun import tovarlarini xarid qilish qiyinlashadi, ularning ichki ishlab chiqarishi raqobat yo'qligi tufayli susayadi. Ko'rinish turibdiki, iqtisodiy xavfsizlik ko'lami ham, darajasi ham xilma-xil. SHuning uchun ham ko'p mamlakatlarning oliy organlari darajasida

iqtisodiy xavfsizlikni bir xil tushunchasi yo'q. SHuningdek, iqtisodiy xavfsizlikning ustuvorlik va unga erishishni ta'minlash masalalari bo'yicha aniq konsepsiya va strategiya ham mavjud emas.

Iqtisodiy xavfsizlik g'oyalari va u bilan bog'liq bo'lган «iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasi mamlakatimizga respublikamiz mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng kirib kela boshladi.

Iqtisodiy xavfsizlik davlatning milliy xavfsizligini ta'minlovchi asosiy bo'g'inlardan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash yo'llari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlarning yig'indisidir. Konseptual ko'rinishda u davlat iqtisodiy potensialining holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillari tahliliga asoslanadi. Davlatning xavfsizligi kuchsiz va samarasiz iqtisodiyotda, ayniqsa ijtimoiy nizolarga to'la jamiyatda ta'minlanishi mumkin emas, chunki "iqtisodiy xavfsizlik" va "ijtimoiy xavfsizlik" o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Iqtisodiy xavfsizlik asosida rivojlanish va rivojlanish barqarorligini ta'minlovchi muhitga o'xshash muhitni tashkil etuvchilar yotadi. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Barqarorlik – bu, jamiyatning favqulodda holatlarda hamda o'z manfaatlarini qondirish qobiliyati, vaziyatni tiklash imkoniyatidir.

"Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi ilk bor resurslarni chegaralanganligi to'g'risidagi masalaning keskinlashishi bilan bog'liq holda paydo bo'ldi.

"Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Ularni umumlashtirgan holda, **iqtisodiy xavfsizlik** – bu davlat iqtisodiy tizimiga ta'sir qiluvchi va uning eng kam chiqim bilan, bosqichma-bosqich barqaror rivojlanishi, shu asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshirish uchun, milliy manfaatlar eng ko'p ifodalanishiga imkon beruvchi (ichki va tashqi) shart va omillar yig'indisi, shuningdek, davlatning turli xil xavflar va yo'qotishlarga qarshi turish qobiliyatidir deb ta'riflash mumkin¹. Demak, tashqi iqtisodiy aloqalar kengayib borayotgan sharoitda, iqtisodiy xavfsizlikka daxl qiluvchi, mamlakatning milliy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lган omillar va sharoitlar kiradi. Ular ikkiga – tashqi va ichki xavflarga bo'linadi.

O'zbekiston uchun tashqi xavflarga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasini xomashyo bazasi va past sifatli, raqobatbardosh bo'lмаган mahsulotlarni o'tkazish bozori sifatida saqlab

¹ Ишмухамедов А.Э. Иктисодий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2004, 10-6.

qolish;

- mamlakatni xorijiy bozorlarga chiqishiga, uni xalqaro moliya-iqtisodiy va savdo tartiblash mexanizmlarida ishtirokiga, yangi texnologiyalarga erishishiga to'sqinlik qilish;

- O'zbekistonni global jahon savdo tizimiga (JST) va Markaziy Osiyo mintaqasi doirasidagi iqtisodiy integratsiyasiga to'sqinlik qilish;

- tashqi transport, axborot va ilmiy-texnika kommunikatsiyalar tizimining rivojlanmaganligi va boshqalar.

Mamlakatning ichki xavflariga quyidagilar kiradi:

- totalitar tuzumdan qolgan iqtisodiyotdagi qayta ishlash sohasining chuqur rivojlanmaganligi, tarmoq va hududiy disproporsiyalar;

- er-suv va ba'zi bir turdagи muhim mineral xomashyo resurslarini cheklanganligi;

- iqtisodiyotga, ayniqsa ba'zi mintaqalarda, yuqori demografik bosim;

- iqtisodiyotning ko'p sohalaridagi ishlab chiqarishning yuqori chiqimiga va raqobatbardosh bo'limgan mahsulot chiqarishga olib keladigan past texnik darajasi;

- iqtisodiyot sohasida yangi huquqiy asosning shakllanishini va uni amalga oshirish mexanizmlarini yaratish ishlarining oxiriga yetkazilmaganligi;

- boshqaruvga yondashishning ma'muriy-boshqaruv tizimiga xos bo'lgan usullari va eskicha iqtisodiy fikr yuritish retsidiivlarini saqlanib qolishi, ba'zi boshqaruv bo'g'inlarida xo'jalik faoliyatining bozor tamoyillari va mexanizmlarini yetarli darajada tushunmaslik;

- iqtisodiyotning turli sektorlari va sohalarida bozor o'zgarishlarini darajasi va dinamikasi, shuningdek shahar va qishloq orasidagi farqlar;

- bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi;

- moliya, bank-kredit va valuta tizimlarida pul aylanishining beqarorlashish xavfi;

- iqtisodiy sohada jinoyatni tarqalishi, xo'jalik sub'yektlarini huquqiy himoya mexanizmini mukammal emasligi va boshqalar.

Masalan, O'zbekistonda asosiy energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojning o'sishi to'g'risidagi ma'lumotlar 8.1-jadvalda berilgan.

8.1-jadval. O'zbekistonda asosiy energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojning o'sishi

Energiya turi	Yillar				
	1990	1995	2000	2005	2010
Neft (mln t.n.e)	12,5	7	7,33	7,8-8	8,5-10
Ko'mir (mln t.n.e)	3,4	1,05	0,88	1,5-1,6	2-2,21
Gaz (mln t.n.e)	28,6	34,2	41,32	44,1-47,1	45-52
Elektroenergiya (mln kvt s.)	54,2	46,2	46,84	54,5-60,4	59,4-70,1
Issiqlik energiyasi (TDJ)	245765	236564	194266	226565-2522464	234879-280934

Manba: Ишмухamedov A.Э. Иктиесодий хавфсизлик. Ўкув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2004.

8.2. Iqtisodiy xavfsizlikning turlari

Iqtisodiy xavfsizlikni ikki turga ajratish mumkin: xalqaro va milliy. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik bu jahon hamjamiyatining har bir a'zo mamlakati o'z ijtimoiy va iqtisodiy strategiyasini mustaqil tanlash va amalga oshirishni ta'minlaydigan, tashqi va siyosiy bosim bermaydigan va o'zaro manfaatli hamkorlikka tayaniladigan xalqaro kelishuvlar yordamida amalga oshiriladigan tushunchadir.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikning huquqiy kafolatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:


- har bir davlatning, uning ijtimoiy va siyosiy tuzilishidan qati nazar tenglik tamoyilining tan olinishi;
- rivojlanish yo'lini erkin tanlashi;
- tabiiy resurslardan va iqtisodiy salohiyatdan foydalanishda davlat suverenitetini tan olish va iqtisodiy bahslarni kuch ishlatmasdan hal etish.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik - milliy manfaatlarni ichki va tashqi tahdidlardan, hamda mamlakat iqtisodiy salohiyatini yetarlicha himoyalashni ta'minlab bera oladigan iqtisodiy holatga aytildi.

Ko'pgina mamlakatlar o'z iqtisodiyotlarini erkinlashtirish orqali izchillik va asta-sekinlik bilan jahon bozoriga chiqish maqsadida olib borayotgan siyosatlarida iqtisodiy xavfsizlikning yangidan-yangi tahidlari bilan to'qnash kelmoqdalar.

Xo'jalik faoliyati sohalaridagi iqtisodiy xavfsizlik turlari 8.1-rasmda tasvirlangan.

IQTISODIY XAVFSIZLIK



8.1-rasm. Xo'jalik faoliyati sohalaridagi iqtisodiy xavfsizlik turlari

Mustaqil O'zbekiston yigirma yil mobaynida juda katta, asrlarga teng yo'lni bosib o'tdi va bugun yurtimizda olib borilayotgan islohotlar hech qachon ortga qaytmaydigan jarayonga aylandi. Bu, avvalo, istiqlolning, uni mustahkamlash, shuningdek xavfsizlik va tinchlik uchun olib borilayotgan tinimsiz kurashning natijasidir.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizlik borasidagi milliy ustuvorliklariga to'xtalishni lozim topdik. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy ustuvor yo'naliishlari milliy manfaatlar, real va potensial xavflarga bog'liq ravishda aniqlanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- 1) Bozor iqtisodiyotini shakllantirishga, real mulkdorlar sinfini shakllantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlarni ketma-ket o'tkazish.
- 2) Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojlanishini rag'batlantirish.
- 3) Mulkdorlarning huquqlari va xususiy mulknini himoyalash,

iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlashni amaliy-huquqiy mexanizmlarini shakllantirish.

4) Barqaror va dinamik iqtisodiy o'sish asosida insonlarni munosib hayot sharoitlarini tashkil etish.

5) Investitsion faoliyatini faollashtirish, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarning zamonaviy ishlab chiqarishini tashkil etish hisobiga mamlakatning iqtisodiy mustaqilligiga erishish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgartirishlarini amalga oshirish.

6) Makroiqtisodiy barqarorlik, moliya pul-kredit tizimlari barqarorligini ta'minlash, milliy valutani kuchaytirish.

7) Agrar sektorda tub islohotlarni amalga oshirish, qishloqda bozor mexanizmini rivojlantirish, dexqonlarda xo'jayinlik xissini uyg'otish.

8) Tabiiy, mineral xomashyo, iqtisodiy va ilmiy-tehnika salohiyati oqilona ishlatish, mamlakat hududlarini majmuiy rivojlantirish.

9) Iqtisodiyotni favqulodda holatlarda barqaror ishlashini ta'minlash.

10) Tashqi iqtisodiy integratsiyani faollashtirish, xorijiy kapitalni keng kiritish, eksport salohiyatini rivojlantirish, eksport va import tarkibini takomillashtirish va boshqalar.

8.2-jadval. Iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari

Umummilliy iqtisodiy darajada	Hududiy darajada
1. Turmush darajasi va sifati	1. Aholi daromadlari
2. Inflyatsiya	2. Chakana narxlar darajasi
3. Ishsizlik darajasi	3. Uy-joy bilan tam'inlanganlik
4. Iqtisodiy o'sish	4. Qochoq va emigrantlarning soni
5. Budjet kamomadi va davlat qarzi	5. Hududning YAIMdag'i ulushi
6. Tashqi qarz	6. Hududning to'lov balansi
7. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasi	7. Eksport-import
8. "Xufyona iqtisodiyot" faoliyati	
9. Mulk tarkibi	
10. Soliq tizimi	

Manba: Ишмухamedov А.Э. Иктисодий хавфсизлик. Ўкув кўлланма. Т.: ТДИУ, 2004.

Iqtisodiy xavfsizlikning tekshirish predmeti davlatning tashkil etilgan va muvofiqlashgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi sifatidagi iqtisodiy

tizimidir. Iqtisodiy xavfsizlik sohasida davlat faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat:

- kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy tizim va davlatni beqarorlashtiruvchi qisqa va uzoq muddatli omillar monitoringi va tavsifi;

- bu omillarning zararli ta'sirini yuqotadigan yoki yumshatadigan iqtisodiy siyosat va institutsional o'zgarishlarni iqtisodiy islohotlarning yagona dasturi chegarasida shakllantirish.

Iqtisodiy xavfsizlik inshootlari – bu xavfsizlik siyosatining asosiy mazmuni va strategik maqsadini tashkil etuvchi, real mavjud bo'lgan hodisa, jarayon va munosabatlardir. Iqtisodiy xavfsizlik inshootlariga shaxs, jamiyat, davlat ham kiradi. Iqtisodiy xavfsizlik muammolarini o'z inshootlari – mamlakatning iqtisodiy tizimi bo'lgani kabi, boshqa mumkin bo'lgan faoliyat sohalari bilan o'zaro ta'siri kesishishidagi inshootlar: xarbiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, axborot va x.k. inshootlari ham bor. Iqtisodiy xavfsizlikning muhim me'yori shaxs, guruh, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlariga rioya qilish, ularning xavfsizlik ta'minlanishiga o'zaro javobgarligidir.

8.3-jadval. Ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlar

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston uchun xavfsizlikning quyи chegarasi	Huquqiy holat		Xavfsizlik chegarasidan tushib ketishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari
		O'tish iqtisodiyotili mamlakatlarda	O'zbekistonda	
Aholining 10 % eng boy va 10 % eng kambag'al guruhlari daromadlari o'rtaidagi nisbat	10:1 dan ortiq emas	13-15:1	10,5:1	Jamiyatda ijtimoiy va mulkiy tabaqlanishning kuchayishi
Iqtisodiy faol aholiga nisbatan ishsizlik	10 % dan ortiq emas	7-10 %	5-7 %	Kambag'allik, ijmtioy himoyaga muhtoj aholi qatlmlarining o'sishi va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi
Umrning o'rtacha uzoqligi	60 yoshdan kam emas	65-69 yosh	70,6 yosh	Mamlakat mehnat salohiyatining kamayishi, millat salomatligining yomonlashuvi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Iqtisodiy xavfsizlik sub'yektlari bo'lib funksional va soha vazirlik va boshqarmalari, soliq va bojxona xizmatlari, banklar, birjalar, jamg'armalar va sug'urta kompaniyalari, mos qo'mitalar, shuningdek mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar, iste'molchilar jamiyatlari kiradi.

8.3. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi omillarning roli

Davlatlar tomonidan iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlashga bo'lgan harakat ko'plab murakkab muammolarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda, ularning biri iqtisodiy xavfsizlik muammosi bo'lib, ya'ni jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorlik qilishning muqobil shart-sharoitlarini aniqlab olish muammosidir. Asosan, o'zining yetarli energiya va xomashyo zahiralariga ega bo'limgan sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun iqtisodiyotning ochiqligi, ularning yanada taraqqiy etishida bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omil bo'lib hisoblanadi. Dunyodagi qolgan mamlakatlarning barchasi ham o'zaro savdo munosabatlarini o'rnatish va rivojlantirish maqsadida xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etmoqdalar, bu esa xalqaro mehnat taksimoti sub'yektlarining o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligining kuchayishiga va tashqi salbiy ta'sirlardan himoyalanish maqsadida ixtisoslashuv va kooperatsiyadan olinadigan foydalarni hisob-kitob qilish zaruratining paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Buning natijasida milliy iqtisodiyotning beqaror tavakkalchiligi paydo bo'ladiki, bunda dunyodagi barcha mamlakatlar o'zining "ochiqlik" darajasidan kelib chiqib, absolyut xavfsiz bo'lgan savdo (tijorat) munosabatlariga kirisha olmaydilar. Shuning uchun ham tashqi savdo rivojlanayotgan bir paytda, dunyoning qaysidir mamlakatlaridagina, o'zaro aloqadorlikdan kelib chiqib, nisbiy iqtisodiy xavfsizlik xukm surishi mumkin bo'ladi.

Jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida o'zaro aloqadorlik mohiyatan o'zida ma'lum bir aloqalarni namoyish etadigan iqtisodiy bog'liqliklarga olib kelishi mumkin, bunday sharoitda tashqi omillar u yoki bu holatlarning rivojlanishida salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Moslashuvchanlik deyilganda, davlatlarning tashqi omillar keltirib chiqaradigan zararli holatlarga nisbatan ta'sir qila olish qobiliyati tushuniladi, shu orqaligina, tashqi sabablarga yoki umuman barham berish, yoki uning oqibatlarini umuman tugatish, yoki mavjud imkoniyatlarning ortiqcha qismini boshqa bir mamlakatlarga qaratish lozim bo'ladi.

Moslashuvchanlikning mayjud bo'lishi, ma'lum bir chegaraviy cheklanishlarga ega bo'ladi. Moslashuvchanlik bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar orasida quyidagi larni ajratib ko'rsatish mumkin:

- savdo munosabatlarining diversifikatsiyasi;
- ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi va jadallashtirilishi;
- tejash va zaruriy zahiralarning yaratilishi;
- eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishning shakllanishi.

Aloqadorlik eng avvalo iqtisodiy moslashuvchanlikda o'z aksini topadi. Iqtisodiy moslashuvchanlik deyilganda, milliy iqtisodiyotning tashqi omillar salbiy ta'siriga, ya'ni ushbu holatlarning yomon oqibatlarini bartaraf etish maqsadida, ularga nisbatan ma'lum bir imkoniyatlar qo'llanilgunga qadar bo'lgan ta'sirchanligi tushuniladi. Iqtisodiy zaiflik aloqadorlikning ancha yuqori darajasi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy zaiflik deyilganda, xattoki ichki holatlар to'g'rilanib yoki yoppasiga o'zgartirilgandan keyin, moslashuvchanlik haddan tashqari ortiqcha bo'lgan sharoitda ham tashqi omillar ta'sirining muqarrarligi tushuniladi. Iqtisodiy zaiflik shunday vaziyatda yuzaga keladiki, bunda moslashuvchanlik ortiqchaligining bir qator tanqidiy nuqsonlariga yo'l qo'yilgan bo'ladi. Aynan iqtisodiy zaiflik to'liq bo'lmasada, iqtisodiy xavfsizlik muammosini vujudga keltiradi. Tahdid iqtisodiy xavfsizlikni izdan chiqarishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Tahdid - bu moddiy, mehnat, ilmiy-texnikaviy zahiralarga va marketing tizimiga bo'lgan imkoniyatlarning cheklanishidir. Tahdid ikki turga bo'linadi:

1. Maqsadli tahdid;
2. Iqtisodiy turmush sharoitiga bo'lgan tahdid.

Tahdidning ikkala turi ham davlatning oldindan mo'ljallangan faoliyatlaridan yoki jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. Tahdidning zaruriy dastaklari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiy blokada qilish;
- to'siqlar o'rnatish;
- zaifliklar tizimini yaratish;
- diskriminatsiya qilishning har xil usullarini qo'llash.

Ana shu tartibda, milliy iqtisodiyot xavfsizligini qandaydir holat sifatida baholash mumkin bo'ladi, bunda tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishiga tahdid soladigan tashqi omillarning ta'siridan himoyalangan

bo'ladi. Agar YAIM darajasi oldindan ko'zda tutilgan yoki to'satdan sodir bo'lgan tashqi yangiliklarga bevosita bog'liq bo'lmasa, u holda milliy iqtisodiyot barqaror bo'ladi. Agar YAIM darajasi tashqi omillarga ta'sirchan bo'lsa va mazkur tashqi omillar oqibatlarini zararsizlantirish mumkin bo'lmasa, u holda iqtisodiy xavfsizlik darajasi beqaror bo'ladi.

Umumiy xavfsizlik shuning uchun ham kafolatlar berilishini o'zida ifoda etadiki, shu paytga qadar jahon xo'jaligi doirasida har xil iqtisodiy bog'liqliklarning mavjudligidan, xech bir mamlakat na iqtisodiy, na siyosiy bo'lgan bироqlama yutuqlarni qo'lga kirlita olmaydi.

Iqtisodiy havfsizlikni ta'minlashni hisobga olmaslik mamlakat iqtisodiy rivojlanishida yomon oqibatlarga olib keladi. Bunga 2001 yilning 11 sentyabrdagi Nyu-York, Washingtonda uyuşdırılmış terroristik aktlar misol bo'la oladi. Terroristik akt natijalari AQSH va boshqa rivojlangan mamlakatlarda retsessiya sur'atlarini o'sishida namoyon bo'ladi. Xavfsizlik masalalarini iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligi ko'rinish turibdi. SHunday qilib, yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish sohasidagi muammolar – havo transporti, sug'urta sohasi, turizm tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning qisqartirishi bilan to'ldirilgan edi. Natijada ish joylarini yo'qotishi, kompaniyalar, aholi daromadini pasayishi, tovar va xizmatlarning jahon ichki bozorlarida narxini ko'tarilishi ro'y berdi.

Rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanish muammolari rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, AQSHdagi terroristik aktlar va unga javoban Amerika tomonidan harbiy harakatlar natijasida, jahonning boshqa mintaqalaridagi harbiy, terroristik harakatlar natijasida 10 mlnga yaqin aholining turmush darajasi pasaydi.

8.4. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahdidlar

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi keng talqin qilinishini inobatga olib, biz uni tashqi iqtisodiy omillar nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish, fan-texnika sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish yo'li bilangina ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda jahon iqtisodiy tizimidagi raqobatning kuchayishi, o'zaro hisob-kitob va transport aloqalarining murakkablashuvi,

kerakli tajribaning kamligi, yuqori malakali mutaxassis kadrlarning yetishmasligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifa xorijiy davlatlar bilan savdo, ilm-fan, texnika, ta'lim, investitsiya va shu singari sohalarda o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni ta'minlash orqali mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdan iboratdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning muhim yo'nalishi xalqaro savdo bo'lib, bunda mamlakat chegarasidan tashqarida amalga oshiriladigan tovar va xizmatlar almashuvi tushuniladi. Xalqaro savdoning vujudga kelishi mutlaq xarajatlardagi tafovutlar va qiyosiy xarajatlardagi tavofutlar bilan tavsiflanadi¹. SHunga ko'ra korxonalar (yoki mamlakatlар) tashqi savdoni amalga oshirayotganida, o'zлari ishlab chiqarmagan (yoki bu ular uchun chetdan sotib olish arzonga tushadigan) mahsulotlarni sotib oladilar hamda o'zлari foydalanmaydigan (yoki foydalanishdan ortib qoladigan) mahsulotlarni chet el mamlakatlari yoki korxonalariga sotadilar. Bu hol ularning ma'lum tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishini bildiradi. Oqibatda ular boshqalar ishlab chiqarmaydigan yoki ishlab chiqarish ular uchun qimmatga tushadigan tovarlarni tayyorlab, sotadilar. Bunday ixtisoslashuv savdoda ustunlikni vujudga keltirib, ularga foya keltiradi.

Mamlakat va xorijiy davlat o'rtaida ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshirilgan transoperatsiyalar statistikada to'lov balansida aks ettiriladi. To'lov balansi joriy moddalar, ya'ni savdo balansi, xizmatlar va o'tkaziladigan balanslar, shuningdek, kapital harakati balansini o'z ichiga oladi (8.4-jadval). Ayrim mamlakatlarning to'lov balanslari to'g'risidagi ma'lumotlar 8.5-jadvalda ko'rsatilgan.

8.4-jadval. To'lov balansining ko'rinishi

KREDIT	DEBIT
I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovarlar eksporti	2. Tovarlar importi
Tashqi savdo balansi goldig'i (tashqi savdo balansi)	
3. Xizmatlar eksporti (fraxt, turizm va boshqalar, omilli xizmatlardan tashqari)	4. Xizmatlar importi (tarkibiga ko'ra eksportdagи kabi)
4. Investitsiyalardan daromadlar, dividendlar, foizlar, xorijdagi rezidentlarning maoshlari, ya'ni omilli xizmatlardan daromadlar	6. Mamlakatdagи xorijiy investitsiyalar bo'yicha xarajatlar (kapital qo'yilmalari bo'yicha dividendlar, foizlar), mamlakatdani norezidentlar uchun to'lovlar, ya'ni omilli xizmatlar bo'yicha to'lovlar
7. Joriy ichki transfertlar (nafaqalar, sovg'alar, mamlakatga pul o'tkazmalari, mamlakatga xorijdan beg'araz yordamlar)	8. Joriy tashqi transfertlar (nafaqalar, sovg'alar, chet elga pul o'tkazmalari, xorijiy mamlakatlarga

¹ Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2008.

		beg'araz yordamlar)
Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i		
II. Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi		
9. Kapital transfertlar (mamlakatga berilgan qarzlardan voz kechilishi)	10. Kapital transfertlar (mamlakat bergan qarzlardan voz kechishi)	
11. Moliyaviy hisob (mamlakatga kirib kelgan bevosita investitsiyalar, portfel va boshqa investitsiyalar)	12. Moliyaviy hisob (mamlakatdan chiqib ketgan bevosita investitsiyalar, portfel va boshqa investitsiyalar)	
Kapital operatsiyalar qoldig'i		
13. Tushirib qoldirish va xatolar	14. Tushirib qoldirish va xatolar	
III. Rasmiy hisoblar bo'yicha balans qoldig'i		
Rasmiy zahiralar hisobi		
15. Valuta zahiralarining kamayishi (oltin, eV, XVFdagi zahira pozitsiya va xorijiy valuta)	16. Valuta zahiralarining ko'payishi (oltin, eV, XVFdagi zahira pozitsiya va xorijiy valuta)	
Umumiy balans		

Manba: Алимов А., Ҳамедов И. Ўзбекистон Республикасида ташки иктисодий фаолият асослари. Т., 2004. 409-б.

8.5-jadval. Ayrim mamlakatlarning to'lov balanslari, 1997 yil (mlrd doll)

Balans moddalari	Germaniya	Buyuk Britaniya	AQSH	Rossiya	O'zbekiston
A. Joriy hisob	-2,9	10,83	-140,54	24,647	-0,608
Eksport	510,71	281,31	681,65	75,666	3,695
Import	-439,90	-380	-876,37	-39,537	-3,767
Savdo balansi	70,81	-19,49	-194,72	36,129	-0,072
Xizmatlar	-41,92	20,33	88,78	-4,368	-0,366
Daromadlar	-1,43	18,25	6,19	-7,716	-0,199
Joriy transfertlar	-30,37	-8,26	-40,80	0,601	0,029
V. Kapital hisobi	-	1,32	0,35	-0,328	-0,127
S.Moliyaviy hisob	0,5	-25,49	269,03	-17,403	0,289
Chet elga bevosita investitsiyalar	-41,68	-63,50	-105,02	-1,9693	0
Mamlakatga bevosita investitsiyalar	11,66	37,00	106,04	3,309	0,605
Portfel investitsiyalari	0,78	-40,68	266,61	-0,945	0
Moliyaviy derivativlar	-8,82	-	-	-	-
Boshqa investitsiyalar	38,56	41,68	1,40	-15,849	-0,316
D. Tushirib qoldirish va xatolar	-1,35	9,45	-127,83	-6,916	-0,034
Umumiy balans	-3,75	-3,89	1,01	-1,778	-0,480
E. Zahiralalar	3,75	3,89	-1,01	1,778	0,480
Zahira aktivlari	3,75	3,89	-1,01	1,778	0,480
XVF kreditlaridan foydalanish	-	-	-	-	-
Favqulodda moliyalashtirish	-	-	-	-	-
Ayirboshlash kursi	1,7341	0,61084	1,0000		66,4

Manba: Алимов А., Ҳамедов И. Ўзбекистон Республикасида ташки иктисодий фаолият асослари. Т., 2004. 410-411 б.

Hozirgi jahon xo'jaligi globallashuvining muhim xususiyatlaridan biri mamlakatlarning ochiq iqtisodiyot tamoyillari bo'yicha rivojlanishidir. Umuman olganda, globallashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib turli mamlakatlarning tadbirkorlarini daromadlarini oshirish, iqtisodiy o'sishini tezlashtirish va aholi farovonligini oshirish uchun xalqaro savdodan, investitsiyalar ayirboshlashdan, ishlab chiqarish kooperatsiyasidan, ilmiy-texnik hamkorlikdan foydalanishga intilish hisoblanadi.

Ochiq iqtisodiyotga ega mamlakatlarda tashqi savdo faoliyati ancha erkinlashtirilgan. Ammo barcha mamlakatlarda ham hukumatlar ta'sirida cheklangan, tartibga solinadigan tashqi savdo amalga oshiriladi. Uning asosiy vositasi tarif to'sig'i deb ataladigan bojxona boji hisoblanadi. Shuningdek, notarif cheklashlar ham mavjud bo'lib, u import va eksport kvotalarini belgilashni hamda o'zini-o'zi cheklash usulini o'z ichiga oladi. O'zini-o'zi cheklash usuli eksport qiluvchi mamlakat hukumati o'zining eksportni amalga oshiruvchi korxonalaridan savdo bozoriga chiqariladigan tovarlarining ma'lum yillik hajmidan (qiymatidan) oshib ketmaslikni talab qilgan holda namoyon bo'ladi. Mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalanish limitini belgilash ham tashqi savdoni cheklashning o'ziga xos turi hisoblanadi.

Hukumat tomonidan amalga oshiriladigan tarifli va notarif cheklashlardan maqsad mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki bozorda sotilishini oshirish yo'li bilan to'lov va tashqi savdo balansining musbat samarasini olish, shuningdek, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatchilar tajovuzidan himoya qilishdan iborat.

Jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- eksportning optimal tarkibini shakllantirish. Uning tarkibida tayyor yuqori texnologik, ilmtalab mahsulotlar va yuqori sifatli xizmatlarning ulushini keskin oshirish chora-tadbirlarini ko'rish lozim;

- mamlakatning mavjud raqobat ustunligi imkoniyatlaridan foydalanib, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini eksport qilishning yangi, istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish; ularda muvaffaqiyat qozonish uchun xalqaro marketing strategiyalarini amalga oshirish; ishlab chiqarish kooperatsiyasini, injiniring, lizingni rivojlantirish;

- xorijiy davlatlar ularning savdo-iqtisodiy tashkilotlari, uyushma va ittifoqlari bilan o'zaro munosabatlarda qulay imtiyozli savdo rejimlariga erishish;

-mamlakat korxonalariga eksport va import qiluvchi sifatida xalqaro zamonaviy mashina, texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalar, axborot va kapital bozorlariga chiqishlari, transport kommunikatsiyalaridan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashish;

- kreditor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar hamda qarzdor davlatlar bilan bo'ladigan o'zaro valuta, moliyaviy muammolarni tartibga solish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda belgilangan huquqiy hujjatlar va me'yorlar asos bo'lib xizmat qiladi. Bu me'yorlar, o'z navbatida, tovar va xizmatlar, intellektual mehnat natijalari, shuningdek, jismoniy hamda huquqiy shaxslarning mamlakatlararo harakat yo'nalishlari, usullari, shartlarini belgilab beradi.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soladi. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mexanizmi iqtisodiy va huquqiy-ma'muriy usullarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy tartibga solish usullari bojaxona bojlari, yig'imlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlardan iborat.

Huquqiy-ma'muriy usullar o'z ichiga litsenziyalash, kvotalash, tovar sifatini sertifikatsiyalash, ayrim tovarlar eksporti va importiga davlat monopoliyasini o'rnatish, shuningdek, bojaxona chegaralari orqali tovarlar, kapitallar va xizmatlarning o'tib turishi bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-teknik chora-tadbirlarni oladi.

Mamlakatning eksport va importi bilan bog'liq milliy manfaatlari va xavfsizligini himoya qilish uchun samarali va moslashuvchan eksport nazorati tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Eksport nazorati asosida eksport shartnomalarining xalqaro majburiyatlarga, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi talablariga mosligi ta'minlanadi.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tovar va texnologiyalar eksporti litsenziyalashtiriladi. Ushbu nazorat asosida biron-bir strategik ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotni eksport qilish man qilinsa, undan mamlakat ichida foydalanish imkoniyatlari yaratilishi kerak.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda davlatning bojaxona organlari muhim o'r'in tutadi. Bojaxona organlari chetga ruhsatsiz, noqonuniy ravishda kapital, milliy va madaniy boyliklar, intellektual mahsulotlarning olib ketilishi, noqonuniy valuta operatsiyalari, qurolyarog', strategik material va narkotik moddalar kontrabandasining oldini olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi.

Davlat organlarining bojxona nazoratida xalqaro tajribada ko'p qo'llaniladigan quyidagi usullardan foydalaniladi:

- bojxona yig'implari miqdorini tartibga solish orqali mamlakatga kirib kelayotgan tovarlar tarkibiga ta'sir ko'rsatish. Bunda tovarlarning mamlakatning hayot faoliyati uchun qay darajada muhimligi e'tiborga olinadi. Aholi va mamlakat ehtiyojlari uchun muhim bo'lgan import mahsulotlariga boj to'lovlari kamaytiriladi yoki bekor qilinadi. Boshqa tovarlarga esa boj to'lovlari yuqori darajada belgilanadi;

- mamlakatning hisob va to'lov balansining holatini hisobga olgan holda tarif qoidalarini tartibga solish;

- milliy iqtisodiyotni jahon bozoridagi mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish xarajatlardagi farqlar hamda ichki va tashqi bozorlardagi narx qaychisi tufayli yuzaga keladigan salbiy omillar ta'siridan himoya qilish. Ichki va jahon bozorlari narxlarini muvofiqlashtirish uchun bojxona dastaklari va vositalaridan foydalaniladi.

Bojxona organlarining muhim vazifalaridan biri muhim strategik xom ashylarni, valutalarni noqonuniy tarzda chetga olib chiqib ketilishiga yoki eksport va barter operatsiyalari tufayli olingan valuta tushumlarining qaytmasligiga hamda kontrabandaga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Iqtisodiy kontrabandaga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega. Tashkiliy jinoiy guruhlar va ayrim tadbirkorlar tomonidan mamlakatga noqonuniy tarzda tovarlar olib kelinishi ichki bozorlardagi tovarlarning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki kontrabanda tovarlari bojxona to'lovlari, soliqlarni to'lamasdan olib kirilgani uchun ichki bozordagi milliy tovarlarga nisbatan arzon bo'ladi. Natijada ular milliy tovarlarning bozorini kasod qilib, tovar ishlab chiqaruvchilarining xonavayron bo'lismiga olib keladi. Kontrabandistlarning maqsadi qisqa muddatda tovarlarini sotib, foyda olishdan iborat. Iqtisodiy kontrabandaga qarshi kurashning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat:

- barcha transport vositalaridan foydalanib, bojxona nazoratidan yashirincha bojxona chegaralari orqali tovar, boyliklar va boshqa buyumlarni olib o'tishga bo'lgan urinishlarni aniqlash va ularning oldini olish;

- kontrabanda buyumlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni musodara qilishning texnologik sxemalarini ishlab chiqish. Buning uchun bojxona chegara postlarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, yuqori malakali bojxona xodimlarini tayyorlash va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash lozim bo'ladi. Shuningdek, kontrabanda bilan shug'ullanuvchi shaxslarning javobgarligini, ularni jazoga tortishning

qonuniy-me'yoriy asoslarini kuchaytirish kerak;

- tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'rtasida profilaktika ishlarini olib borish;

- davlat bojxona organlarining xavfsizlik va huquq-tartibot organlari hamda jamoatchilik bilan hamkorlikda faoliyat olib borishlarini ta'minlash;

- kontrabandaga qarshi kurash chora-tadbirlarini tartibga soluvchi, ularning qonuniyligini ta'minlovchi hujjatlarni ishlab chiqish.

8.5. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida iqtisodiy xavfsizlik

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy kapitalning kirib kelishi O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurishni, istiqbolli, zamonaviy tarmoqlarni vujudga keltirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga, ichki bozorni tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishga, tovarlarni eksport qilishning yangi bozorlarini, xo'jalik sub'yektlarini boshqarishni zamonaviy menejment asosida qayta tashkil etish va takomillashtirishga, yangi ishchi o'rinalarini yaratishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Mavjud qonunchilikka binoan xorijiy investorlar o'z investitsiyalarini respublika hududida quyidagi yo'llar bilan kiritish imkoniyatiga ega:

- davlat mulkini xususiylashtirish orqali yangidan tashkil etilayotgan korxonalar, banklar va boshqa tashkilotlarga o'z ulushini qo'yishi, ya'ni qo'shma korxona tashkil etish yoki butunlay korxonani sotib olish;

- mulkn, aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni xarid etish;

- mustaqil yoki milliy xo'jalik sub'yektlari ishtirokida xususiylashtirilayotgan davlat ob'yektlariga mulkiy huquqni sotib olish, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanish huquqini xarid qilish.

Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda quyidagi sohalarga ustuvorlik beriladi:

- zamonaviy texnologiya asosida iste'mol tovarlarini ishlab chiqish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash;

- uskunasozlik, asbob-uskunalar va radiotexnika, samolyotsozlik, avtomobilsozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish;

- xom ashyo va energoresurslarni tejamlı ishlatish imkoniyatini

beruvchi uskunalarini ishlab chiqarish;

- ehtiyyot qismlar va detallar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. Bu ishlar mahalliylashtirish dasturi asosida amalga oshiriladi;

- zamonaviy axborot va telekommunikatsiyalar tizimini barpo etish;

- xom ashyo, tabiiy resurslarni qazib chiqarish va ekologik jihatdan sof usullar bilan ularni qayta ishlab chiqarish;

- dori-darmon va zamonaviy tibbiy texnikani ishlab chiqarish.

Mamlakatimizda xorijiy investorlarga O'zbekiston Respublikasining chet el investitsiyasi to'g'risidagi qonunlari asosida kafolat va imtiyozlar yaratilgan. Xorijiy investorlar ba'zi soliqlardan ozod qilingan bo'lib, ular soliq va bojxona to'lovlari to'lashda qator imtiyozlarga ega.

8.6-jadval. O'zbekiston Respublikasi va ayrim davlatlar iqtisodiyotiga xorijiy kapitalni qo'yish sharoitlarining qiyosiy tavsifi

Davlatlar	Xorijiy investitsiya ishtirokida barpo etilgan korxona ustav fondida xorijiy investitsiya ishtirokining cheqarasi	Soliqdan butunlay yoki qisman ozod qilish muddati (yil)	Ish haftasining davomiyligi (soatda)
O'zbekiston	30 %dan kam bo'lmagan	2-7	48
Rossiya	Chegaralanmagan	2	47-49
Xitoy	25 %dan kam bo'lmagan	2-5	4
Singapur	Chegaralanmagan	5-10	48
Janubiy Koreya	50 %dan kam bo'lmagan	5	47-49
Malayziya	70 %dan kam bo'lmagan	2-5	50-60
Tailand	49 %dan kam bo'lmagan	3-8	45-50
Indoneziya	Chegaralanmagan	2-6	47-51

Xorijiy investitsiyalar kirib kelishi uchun kapital kirituvchi xorijiy investorning investitsiyalardan kutayotgan daromadi kapital evaziga olish mumkin bo'lgan foiz stavkasidan yuqoriroq darajada bo'lishi kerak. 8.6-jadvalda respublikamizda va ayrim chet davatlarda xorijiy kapitalni qo'yishning ayrim sharoitlari berilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, xorijiy investitsiya ishtirokida barpo etilgan korxona ustav fondida xorijiy investitsiya ulushi bo'yicha eng kam miqdor Xitoyda (25 %) bo'lsa, eng yuqori miqdor Malayziyada (70 %) kuzatiladi. Hatto ba'zi bir davatlarda (Indoneziya, Rossiya, Singapur) bunday eng kam miqdor belgilanmagan ham.

Shuni aytish joizki, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bir qatorda ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan tahdidlarning

oldini olish, iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini ham ishlab chiqish lozim bo'ladi. Chunki xorijiy investorlar tomonidan insofsiz xatti-harakatlar sodir etilishi mumkin. Bunday insofsizliklar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- chayqovchilik kelishuvlari. Davlat mulkini xususiy lashtirish jarayonida ishtirot etib, biron-bir korxonani qo'lga kiritadi. So'ngra uni yoki undagi noyob texnika, asbob-uskunalarni yuqori bahoda sotadi;

- qisqa muddatda yuqori foyda olish uchun kapital kiritadi. Foyda olgach, o'z faoliyatini to'xtatib qo'yadi;

- xorijdagi korxonalar uchun raqobatlasha oladigan milliy korxonani qo'lga kiritib, unda ishlab chiqarish jarayonlarini to'xtatib qo'yib, iloji boricha, ishlab chiqarishni xorija ko'chirishga harakat qiladi;

- korxonadagi ilmiy-texnikaviy va tajriba-konstrukturlik ishlarini to'xtatib qo'yadi, oxir-oqibatda xorijiy kompaniyaning o'zini mustaqil rivojlantira olmaydigan bir bo'limiga aylantirib qo'yadi;

- qo'lga kiritilgan mulkdan noiqtisodiy maqsadlarda foydalanish;

- strategik ahamiyatga molik sohalarga kirib, mamlakatning mudofaa qobiliyatini pasaytirishga urinish;

- strategik xom ashyo resurslarini arzon narxlarda chetga tashib ketish;

- tabiiy resurslarni qazib chiqarish va qayta ishlash hamda ekologik jihatdan xavfli ishlab chiqarishlarga sarmoya kiritib, iqtisodiy va ekologik talablarga rioxaliga etmaslikka urinadilar;

- hamkorlarning hududlariga rivojlangan mamlakatlarda foydalanish man etilgan texnologiyalarni, zararli ishlab chiqarish chiqindilarini olib kirishga harakat qiladilar;

- investitsion loyihalarning maqsadga muvofiqligi, investitsion muhitni o'rghanish bahonasida davlatning siyosiy va iqtisodiy sirlarini bilib olishga, ko'proq o'zlarining boshqa noxolis maqsadlari uchun axborotlar to'plashga harakat qiladilar. Bunda turli sohalarni isloh qilishga bag'ishlangan, davlat boshqaruvi organlari hamda ilmiy jamoatchilik ishtirokidagi ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil etishni moliyalashtirish usullaridan foydalaniladi.

Davlat xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish jarayonlarini tartibga solish orqali yuqorida keltirilgan noxush-salbiy xatti-harakatlarga qarshi o'z mexanizmini yaratdi.

O'zbekistonda bugungi kunda Davlat investitsiya siyosati o'ziga xos ikki yo'nalishga tayanadi:

1) soliq yukini yengillashtirish, mablag'larni ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratish;

2) mablag'larni davlat budgeti orqali to'plash va investitsiya dasturlarini amalga oshirish. Bu borada olib borilayotgan siyosatda davlat korxonalariga nisbatan amalda bo'lgan budgetdan moliyalashtirish tizimi muayyan darajada boqimandalikni keltirib chiqarishi inobatga olinmoqda va investitsiya faoliyatida ularga nodavlat sektori sub'yektlariga qaraganda imtiyozli sharoit yaratishi mumkinligi e'tiborga olinmoqda.

O'zbekistonda Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish uchun ma'sul bo'lgan davlat tashkiloti - bu Moliya vazirligidir. Aynan Moliya vazirligi boshqa davlat tashkilotlari, organlari, banklar va kompaniyalar bilan hamkorlikda Davlat investitsiya siyosatini amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi (8.7-jadval).

8.7-jadval. O'zbekistonda Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish tizimi

Boshqaruv darajasi	Boshqaruvchi organ	Boshqaruv ob'yekti va sub'yekti	Boshqarish maqsadi	Boshqarish mexanizmi
Qonunchilik sohasi	Oliy Majlis, Vazirlar Maxkamasi, Adliya Vazirligi	Iqtisodiyot – tadbirkorlik sub'yektlari va investitsion muhit yaratish	Qulay, samarali investitsion muhit yaratish	Qonunlar va me'yoriy hujjat-lar
Moliyaviy-iqtisodiy soha	Moliya vazirligi	Investitsion-injiniring xizmatlari bozori	Investitsion faoliyatni nazorat etish	Himoyaviy va jazo choralar
Funksional sohalari	Markaziy bank, TIAISV, DSQ, DBQ, O'zstandart, sug'urta tashkilotlari	Pul-kredit bozori, xorijiy va mahalliy investorlar, standartlash, sug'ortalash, soliq va bojxona qonunchiligi ijrosi	Investorlarning iqtisodiy munosabatlarini nazorat etish	Tartiblar, yo'riqnomalar, standartlar, qarorlar

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat investitsiya siyosati quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- iqtisodiy va siyosiy manfaatlardan kelib chiqib, ichki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlagan holda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirib borish;

- xorijiy kapitalning strategik ahamiyatga molik soha, tarmoq va korxonalar faoliyatiga bo'lgan ta'sirining oldini olish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning joylashtirilishini tartibga solish;

- samarali faoliyat yuritayotgan milliy kompaniya va korxonalarini

xorijiy investorlar va transmilliy kompaniyalar tomonidan butunlay sotib olinishiga yoki qo'shib olishlariga yo'l qo'ymaslik.

Mamlakatimizning xalqaro kapital bozorlaridagi raqobatbardoshligini mustahkamlash investitsion jarayonlar samaradorligi bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan quyidagi uchta asosiy omilga bog'liq bo'ladi:

- davlat boshqaruvining raqobatbardoshligini kuchaytirish. Buning uchun davlatchilik funksiyalarining optimal va boshqa mamlakatlardagiga nisbatan yanada samarali tashkil qilishga imkoniyat beruvchi tamoyillarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish kerak. SHuningdek, amaldagi va yangi qonunlarni xalqaro talablar asosida unifikatsiyalash, ularni maqsadli qo'llanishini ta'minlash, fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini himoya qilish hamda iqtisodiy erkinliklarni ta'minlash jarayonlarini takomillashtirish zarur;

- mahalliy biznes va tadbirkorlikning raqobatbardoshligini kuchaytirish kerak. Buning uchun moliyaviy sektorni isloh qilish, uning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish lozim bo'ladi;

- inson kapitalining, fuqarolarimizning ish bilan ta'minlanish va daromad olish imkoniyatlari, biznesdagi yuqori raqobat muhiti sharoitida faoliyat yurita olish qobiliyatları bilan belgilanadi.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishni jadallashtirish orqali mamlakatning jahon iqtisodiy tizimidagi raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

8.6. O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishida milliy xavfsizlikni ta'minlash

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, iqtisodiy xavfsizlik uchta bir-biriga bog'liq bo'lgan muammolarni yechishga qaratilgan:

♦ yuqori va barkaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash;

♦ jamiyat ehtiyoj-talablarini samarali ravishda qondirish;

♦ davlat, jamiyat va har bir shaxsning milliy va xalqaro doiradagi iqtisodiy manfaatlarini ichki va tashqi xavf va tahdidlardan himoyalash.

O'zbekiston Respublikasining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi millat darajasida jamiyatning mavjud xavflarning tabiatini qanchalik to'g'ri tushunishi, ularning manbalari va o'zaro bog'lanishini, jamiyatdagi barqarorlikni saqlash sharoitini o'z vaqtida aniqlashi va samarali ishlatishiga bog'liqdir.

Mustaqil O'zbekistonning hozirgi davrdagi rivojlanishi uchun jamiyat hayotining barcha faoliyat sohalarida ro'y berayotgan sifat o'zgarishlari xosdir. Ular Prezidentimiz tomonidan aytilgan principial, bizning Respublikamizga qo'llangan, o'zini yangilanish va taraqqiyot yo'liga asoslangan usullardan maqsadli ravishda kelib chiqadi. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, jamiyatning hamma sohalarida qonunning ustuvorligi, islohotlarni asosiyo yo'boshchi bo'lган davlat tomonidan ketma-ket va bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyillari – bularning hammasi yangi demokratik fuqarolik jamiyatini qurish asosida yotadi.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Sessiyasida e'lon qilingan iqtisodiyot sohasida murosasozlikka yo'nalganlik davlat hamda uning barcha institutlari oldiga yangi sifat jihatdan yuqoriq va murakkabroq, ko'p qirrali eng muhim vazifalardan birini – mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vazifasini qo'yadi.

Mustaqillikning boshidan iqtisodiy xavfsizlik muammosi alohida keskinlik va dolzarblikka ega bo'ldi. Bu yo'nalishda davlat hukumati va Prezidentimiz boshchiligidagi ko'p amaliy ishlarni amalga oshirildi. Prezident qoshida tashkil etilgan strategik va mintaqalararo tekshirish institutlari, milliy xavfsizlik xizmati, turli xil ilmiy markazlar iqtisodiy xavfsizlikni tekshirish, uni ta'minlash yo'llari bo'yicha sezilarli fundamental ilmiy-nazariy va amaliy ishlarni olib bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida milliy xavfsizlik va uning ajralmas qismi bo'lgan iqtisodiy xavfsizlik masalalari eng muhim masala sifatida ko'rib chiqildi. Unda xavfsizlikning bus-butunligi, uning uzluksiz holat ekanligiga alohida urg'u berildi.¹

O'zbekiston uchun uning milliy havfsizligi keng ma'noda nimani bildiradi, bu xavfsizlikni biz qanday tushunamiz?

Birinchidan, O'zbekiston xavfsizligi bu bo'linmasligi to'g'risidagi asosiyo prinsiplardan birini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdir. Xavfsizlik – bu uzluksiz holat, uning chegarasi yo'q.

Ikkinchidan, «sovuj urush» tamom bo'lganidan so'ng umumiyligi xavfsizlikka umumiy xavfni etnik, regional, lokal nizolar va davlatlar ichidagi jangovar separatizm olib keladi. Ayniqsa agar bunday qaramaqarshi turishlar, ularning o'z manfaatlari va ta'sir zonalarini saqlab qolish

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.

va himoyalash uchun yoki ularning foydasiga kuchlarning strategik balansini o'zgartirish uchun alohida olgan mamlakatlar qo'lida siyosiy ta'sirning baqquvat quroli bo'lib qolsa.

Uchinchidan, O'zbekiston o'zining geosiyosiy holatiga ko'ra jamoa xavfsizlik tizimi tartibga solinmagan regionda joylashgan, u ham xavf tug'dirish sababi bo'ladi.

To'rtinchidan, regional nizolar ko'pincha terrorizm, narkobiznes va qurol-yarog'ni noqonuniy savdosi, inson huquqini ommaviy buzilishiga o'xshash xavfli tahdidlar va chiqishlarning turg'un manbaiga aylanayapti. Bu hodisalar chegarani bilmaydi.

Beshinchidan, xalqaro munosabatlar amaliyotida har qaysi mustaqil mamlakatning, o'z milliy manfaatlаридан чиқсан holda, o'zining mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash maqsadida, u yoki bu xalqaro tuzumlar va jamoa xavfsizlik kelishuvlarida ishtirok etish darajasini aniqlash huquqi ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Oltinchidan, ekologik va yadro xavfsizligi muammolari alohida e'tiborni talab etadi.

O'zicha xavfsizlik xavfi yetarlicha universaldir va o'z ichiga siyosiy ekstremizm, shu jumladan diniy bo'yalgan, millatchilik va milliy o'zo'zini yakkalab qo'yish, etnik, millatlararo, mahalliy va klan asosida qarama-qarshiliklar, korrupsiya va jinoyat, ekologik muammolarni oladi. Boshqacha aytganda, sanab o'tilgan xavflar, turli regionlarda har xil intensivlik darajasida namoyon bo'lismiga qaramay, insoniyatni umumiy tashvishlanishini vujudga keltiradi.

Xavfsizlik – mintaqaning asosiy harakatga keltiruvchi omilidir. Insonlar dunyo va tinchlik mo'rt ekanligini esdan chiqarib, o'z holatlarini bo'shashtirib, taraqqiyotni harakatga keltiruvchi qiyinchiliklar oldida himoyasiz qolishadi. Ahil uyg'a har doim do'stlar kelishini esda tutib, jahon hamjamiyatiga samarali integratsiyalashish uchun sharoit yaratishda eng muhim prinsip - umumiy uyimizda xavfsizlik va tinchlikni kafolatlashga rioya qilishimiz kerak.

Jahon hamjamiyati hayotidan olgan misollardan ko'rindaniki, barqarorlik buzilgan hollarda mintaqani birinchi navbatda boshqa mamlakatlarning vakillari tashlab ketadi, va bunday mintaqalar yetakchi mamlakatlarning diqqatini jalb etmaydi. Chunki har qanday, ayniqsa mintaqaviy nizolarda, jahon miqyosidagi halokatta olib keladigan kuch yotadi.

Turli nizolar shu mintaqaga mamlakatlarini tanlashga, siyosiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy, demokratik-huquqiy rivojlanish istiqbollariga va

boshqalarga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli barcha xalqaro institutlar xarbiy-siyosiy va mintaqaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, tartibga solish va oldini olishga yo'naltirilgan.

Demak, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish uchun rivojlanishning tinch sharoitini yaratish kerak.

Nizolar paydo bo'lish sabablaridan biri diniy ekstremizm yoki fundamentalizmining paydo bo'lishidir. O'ziga terroristik aktlarga javobgarlikni olgan turli ekstremistik guruhlari bo'lgan mamlakatlar tajribasi jahon hamjamiyatini ularga bo'lgan sovuq va ehtiyyotkor munosabatidan dalolat beradi. Bu esa integratsiya jarayonini osonlashtirmaydi.

Shuningdek, ulug' davlat shovinizmi muammosi Yaqin xorijiy davlatlaridan qaysi biri hamkorlikka loyiqligini hal etish huquqini nohuquqiy egallab olishdan iborat. Shovinizm millatchilikning namoyon etilish shakllaridan biri sifatida millatlararo, davlatlararo konfrontatsiya, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini chegaralashga urinish, jamiyatning ma'lum qatlamlariga bosim ko'rsatish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish va x.k.ga olib keladi.

Mintaqa rivojlanishi barqarorligini asosiy tavsifi - siyosiy institutlar tizimi, xuquq chiqaruvchi asoslar, mamlakatning milliy iqtisodiy asoslarini mustahkamligi, qo'shma korxonalarining jamlanishi va x.k.

Mamlakatning siyosiy hayotidagi barqarorsizlik ko'pchilik xorijiy firmalarni o'z vakolatxonalarini berkitishga majbur etadi, bu, albatta, ishsizlik va ijtimoiy keskinlikni oshirib, aholi hayotini yengillashtirmaydi.

SHuning uchun bugungi kunda bиринчи navbatdagi masalalardan biri mintaqalarda barqarorlikni saqlab turishdir. «Xavfsizlik» tushunchasi juda keng va jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini o'z ichiga oladi: chegara xavfsizligi, mintaqa ichidagi tinchlik, ekstremistik guruhlarni yo'qligi, korrupsiya va jinoyatchilik ko'rsatkichlarini kamayishi va xokazo.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan va mintaqaning ayrim (Afg'oniston, Tojikiston, Qирг'изистон) o'zining rivojlanishi bo'yicha barqarorsiz bo'lgan mamlakatlar bilan qo'shnidir. Bu mintaqaning siyosiy-iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qo'shni davlatlar orqali juda ko'p qurol-aslaha, narkotik moddalar olib o'tilmoqda va ularning bir qismi respublikada qolib ketmoqda, eng muhimi ko'pchilik aholining fikr yuritishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday mintaqaviy muammolar bizning milliy xavfsizligimizga, uzoq muddatli davlat manfaatlari, fuqarolar, jamiyat va inson manfaatlari real tashqi xavf

tug'diradi. Bularning barchasi yuqorida aytilganidek, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining barqarorligiga ko'p narsalar ta'sir etishini va hozircha mo'rt bo'lgan demokratiya novdalarini himoyalashni talab qilishini tasdiqlaydi.

O'zbekistonni xalqaro munosabatlarining turli sub'yeqtлari bilan aloqasi qanchalik chuqur va keng bo'lsa, shuncha kam noaniqliklar, begonalashishlar, muammo va hal etilmagan masalalar, ular bilan munosabatlarida avvaldan aytib berila olmaydigan elementlar qoladi. Ana shuning o'zi xavfsizlikni va rivojlanishning barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartidir.

Yuqorida aytilganlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin: davlat va millatning xavfsizlik darajasi ularning integratsiya jarayonidagi ishtirokiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, O'zbekistonni jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlashda, xavfsizlik borasida bugungi kunda jahon tashkilotlari bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Jahon hamjamiyatiga integratsiyaning tashkiliy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalar (BMT, Yevropa ittifoqi, JST, YEXHT, NATO, MDH, SHHT va b.) bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. Respublika faqatgina xalqaro birlashmalar bilan hamkorlik qilib qolmay, xavfsizlikni ta'minlash uchun mintaqalar rivojlanishi erkinlashtirilishiga yo'naltirilgan doimiy islohotlar yo'lini tanlangan, bu esa iqtisodiy o'sishni kerakli sharoitini, eng muhim O'zbekistonni barcha hududlarini muvaffaqiyatli rivojlanishining garovi sifatida milliy xavfsizlikni ta'minlaydi.

Tashqi aloqalarni muvaffaqiyatli rivojlanishi bizda xavfsizlikni ta'minlash oqibatida O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi uchun kerak bo'lgan kafolatlarni ta'minlaganligimizdan dalolat beradi. Shuning o'zida respublikaga qo'shnilar tarafidan o'zaro qiziqish seziladi, bu esa O'zbekistonning barqaror rivojlanishini eng yaxshi kafolatidir. Bu mintaqada barqarorlikni ta'minlash yo'lida, kapital mablag' kiritish nuqtai nazaridan mintaqaning qulayligini oshishidan dalolat beradi.

Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga atrof-muhitning himoyasi kabi muhim savolni hal etish ham kiradi, chunki mintaqaga ekologik falokat holatida turibdi. O'zbekiston bu masalani hal etilishida faol qatnashmoqda.

Yangi mustaqil davlat sifatida O'zbekiston uchun tashqi siyosat prinsiplariga rioya etish hal qiluvchi ahamiyatga ega. G'arbiy davlatlar bilan hamkorlik bizga iqtisodiyot, madaniyat, ilm, siyosiy sohalarda o'z

bilimimizni chuqurlashtirishga real imkoniyat, prinsipial yangi hamkorlik bosqichini yaratadi, a'zo-mamlakatlar orasida o'zaro munosabatlarning huquqiy asoslarini tashkil etadi. O'zbekiston BMTning to'la huquqli a'zosi sifatida jahon siyosati va davlatlararo munosabatlarni dolzarb masalalari bo'yicha bir qancha muhim takliflarni olg'a surmoqda. Masalan, xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipining qat'iy tarafdori bo'lib, barqarorlikni saqlash va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash ishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov boshchiligidagi hukumat Respublika suverenitetini o'zaro hurmat qilishga, xalqaro munosabatlarda ishonch muhitini yuzaga keltirishga hamda davlatlararo munosabatlarni yanada mustahkamlashga ko'maklashishga harakat qilmoqda.

Shunday qilib, barqaror mintaqa – bu katta iqtisodiy va boshqa kelajaklar, eng muhimi mintaqa sivilizatsiyalarining to'qnashish joyi emas, balki ularning o'zaro bir-biriga kirish va bir-birini boyitishining kafolatidir.

Xulosa

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, fan-texnika va texnologiya harakatining tezlashishi bilan birga xavf va tahdidlarning o'sishiga ham olib kelmoqda. Bu iqtisodiy xavfsizlik muammolarining dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlik davlatning milliy xavfsizligini ta'minlovchi asosiy bo'g'inlardan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash yo'llari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlarning yig'indisidir. Iqtisodiy xavfsizlik – bu davlat iqtisodiy tizimiga ta'sir qiluvchi va uning eng kam chiqim bilan, bosqichma-bosqich barqaror rivojlanishi, shu asosida jamiyatning potensial imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshirish uchun, milliy manfaatlar eng ko'p ifodalanishiga imkon beruvchi (ichki va tashqi) shart va omillar yig'indisi, shuningdek, davlatning turli xil xavflar va yo'qotishlarga qarshi turish qobiliyatidir. Demak, tashqi iqtisodiy aloqalar kengayib borayotgan sharoitda, iqtisodiy xavfsizlikka daxl qiluvchi, mamlakatning milliy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan omillar va sharoitlar kiradi. Ular ikkiga – tashqi va ichki xavflarga bo'linadi.

Jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- eksportning optimal tarkibini shakllantirish. Uning tarkibida tayyor yuqori texnologik, ilmtalab mahsulotlar va yuqori sifatli xizmatlarning ulushini keskin oshirish;

- mamlakatning mavjud raqobat ustunligi imkoniyatlaridan foydalanib, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini eksport qilishning yangi, istiqbolli bozorlarini o'zlashtirish;

- jahon bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun xalqaro marketing strategiyalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini, injiniring, lizingni rivojlantirish;

- xorijiy davlatlar, ularning savdo-iqtisodiy tashkilotlari, uyushma va ittifoqlari bilan o'zaro munosabatlarda qulay imtiyozli savdo rejimlariga erishish;

- mamlakat korxonalariga eksport va import qiluvchi sifatida xalqaro zamонавиy mashina, texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalar, axborot va kapital bozorlariga chiqishlari, transport kommunikatsiyalaridan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratish;

- kreditor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar hamda qarzdor davlatlar bilan bo'ladigan o'zaro valuta, moliyaviy muammolarni tartibga solish.

Tayanch iboralar:

Milliy manfaatlar, xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy tahdidlar va ziddiyatlar, tashqi va ichki xavflar, xalqaro iqtisodiy xavfsizlik, milliy iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari, energetik xavfsizlik.

Nazorat uchun savollar:

1. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini yoritib bering.
2. Milliy iqtisodiy xavfsizlik deganda nimani tushunasiz?
3. Iqtisodiy xavfsizlikning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
4. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi omillar qanday rol o'yaydi?
5. Milliy iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari nimadan iborat?
6. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq xavfsizlikni ta'minlashda nimalarga e'tibor berish zarur?
7. O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishida milliy

xavfsizlikni ta'minlash qanday ahamiyatga ega?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2010 yil 21 sentyabr
3. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
4. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учебное пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.
5. А.А.Исаджанов. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, - 185 б.
6. Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2008.
7. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.
8. Ишмухamedов А.Э. Иқтисодий хавфсизлик. Ўкув кўлланма. Т.: ТДИУ, 2004.
9. Алимов А., Ҳамедов И. Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолият асослари. Т., 2004.

9-BOB. GLOBALLASHUV JARAYONIDA INNOVATSION RIVOJLANISH

9.1. Innovatsion faoliyatning asosiy tushunchalari

Zamonaviy iqtisodiy fanda innovatsiya tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Innovatsiya – bu fan yutuqlaridan va ilg'or tajribadan foydalanishga asoslangan texnika, texnologiya boshqaruv sohasida yangilik kiritish, va shuningdek bozorda tan olingan moddiylashgan eng yangi ilmiy g'oyadir. Bu tushunchaga yanada kengroq yondashish ham mumkin: bu g'oyalari, izlanishlar, ishlanmalar transformatsiyasi natijasi, ijtimoiy ishonchga kishilarning amaliy faoliyatida qo'llash orqali intiluvchi yangi yoki takomillashtirilgan ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy yechim. Menejmentda innovatsiyalar xaridorlar tomonidan yangi yoki yanada takomillashgan deb qabul qilinuvchi naflarni taklif etuvchi tovarlar yoki xizmatlarni yaratish va taqdim etish deb ta'riflanadi. Biroq, innovatsiyalarga tegishli asosiy xususiyatlar orasida quyidagi tavsiflarni ajratish mumkin:

- yangilik;
- bozor talabini qondirish;
- tijorat orqali sotish.

Yangilik nuqtai nazaridan innovatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- bozorda sotiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot;
- yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning va tijorat, moliyaviy va boshqa turdag'i faoliyatni yuritishning yangi shakllari;
- yangi boshqaruv jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning yangi yechimlari va x.k.

Bozor talabini qondirish nuqtai nazaridan innovatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1)evolyutsion, ular mavjud tovarlar, xizmatlar va boshqalarni takomillashtirishdan (modifikatsiyalash) iborat va bozorning tanish ehtiyojlariga javob sifatida yaratiladi; ular texnologiya jihatdan noyob hisoblanmaydi, lekin iste'molchilar talablarini qondirishda juda foydali va muvaffaqiyatli hisoblanadi. Evolyutsion innovatsiyalar mavjud tanish yechimni uning tavsiflarini yaxshilagan holda bozorga taklif qiladi;

2)revolyutsion, ular yangilik kiritishdan so'ng paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan. Bunday innovatsiya

nisbatan kam va kutilmaganda paydo bo'ladi. Amalda ular yangi bozorni yaratadi.

Kutilayotgan foydalar va zararlarning o'zaro nisbati – u yoki bu innovatsion g'oyani amalga oshirish mezonidir. Yangi ilmiy-texnik ishlanma, tatbiq etish natijasidan olinadigan foyda, ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish xarajatlarini iqtisod qilish, material sig'imini, energiya sig'imini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va boshqalar shaklida iqtisodiy samara keltirmasa, innovatsiya hisoblanmaydi.

Innovatsiyalar – innovatsion faoliyat natijasidir. Innovatsion jarayon – bu innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni, to'plangan bilimlar, texnologiyalar va boshqalarni takomillashtirishga qaratilgan faoliyat. Innovatsion faoliyat ilmiy-texnik faoliyatdan farq qiladi. Ilmiy-texnik faoliyat bilimlar iqtisodiyotini o'stirishga, innovatsion faoliyat esa uni tijoratlashtirishga, iste'molchiga yetkazishga yo'naltirilgan. Aynan xo'jalik sub'yeqtclarining doimiy innovatsion faoliyati rivojlangan mamlakatlar va ularning mintaqalari raqobatbardoshligini oshirish quroli hisoblanadi. Innovatsiyalarni tijoratlashtirish – mamlakat iqtisodiy o'sishining kuchli omili, chunki uning natijalari bo'lib, mehnat unumdorligini o'sishi, ishlab chiqarish va boshqaruva texnologiyalarini takomillashishi, transformatsiya xarajatlarini qisqarishi, barcha turdag'i resurslardan unumliroq foydalanish va boshqalar hisoblanadi.

Texnik qayta yuklashni birinchi bo'lib amalga oshiruvchi korxona innovatsion korxona deb nomlanadi. Bu kabi ishlarni keyinroq amalga oshiruvchi korxona takrorlovchi (imitator) korxona hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat taraqqiyoti bir tekis rivojlanuvchi jarayondir. Doim mazkur sohada asosiy qo'shimcha o'sishni ta'minlagan yetakchi tarmoqlar, tarmoqosti sohalar va korxonalar mavjud. Mamlakatda kompaniyalarning innovatsion faollik darajasi mahsulotlar, xizmatlar, texnologik jarayonlarning yangi yoki takomillashtirilgan turlarini ishlab chiqish va joriy qilish bilan shug'ullanuvchi korxonalarning umumiyligi korxonalar soniga nisbati sifatida aniqlanadi. Innovatsion infratuzilma fundamental va amaliy tadqiqotlarni, loyihibaviy, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlanmalarni, loyihalarni bevosita amalga oshiruvchi yoki ularga xizmat ko'rsatuvchi, shuningdek ilmiy-texnik faoliyatga moliyaviy, marketing, axborot-maslahat, huquqiy va boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi, o'z funksiyalari va mulkchilik shakllari bo'yicha turli ko'rinishdag'i institutsional tuzilmalar tarmog'ini ifodalaydi.

Rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashishi va tarqalishi milliy, mintaqaviy va tarmoq

darajasida innovatsion tizimlarning shakllanishiga va amal qilishiga ko'maklashdi. Innovatsion tizim tarkibiga quyidagilar kiradi:

- innovatsion jarayonning bevosita ishtirokchilar;
- innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi yoki uni qo'llab-quvvatlovchi institutlar;
- davlat boshqaruv organlari;
- innovatsion faoliyat olib borilayotgan muhit;
- ushbu jarayon ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar;
- axborot tarqatish, texnologiyalar transferti va innovatsiyalarni yoyish kanallari;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zaru bo'lган barcha resurslar yig'indisi sifatida innovatsion salohiyat.

Jahon amaliyoti iqtisodiy rivojlanishning ikkita modelini ishlab chiqdi: 1) xomashyo; 2) innovatsion.

Xomashyo modelini aks ettiruvchi iqtisodiyotda YAIM tarkibida birlamchi sektor va qazib olish sanoati ustunlik qiladi, tashqi iqtisodiy aloqalar xomashyo va kam qayta ishlov darajasiga ega tovarlar eksporti, yuqori texnologik mahsulot importi ustunligi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning murakkabroq shakllarining past darajada rivojlanganligi, xalqaro mehnat taqsimotida passiv rol, ishlab chiqarishning zaif texnologik jihozlanganligi, aholi turmush darajasining pastligi va iqtisodiy qoloqlik bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeli YAIMda yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi qayta ishslash sanoati tarmoqlarining, va yuqori texnologiyalar bilan bog'liq holda ko'rsatiladigan xizmatlar sohasining ustun bo'lishini nazarda tutadi. Mamlakatning xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi ilg'or xarakterga ega, korxonalar tashqi iqtisodiy aloqalarning turli shakllarida faol qatnashadi, intellektual kapital yetakchi rol o'ynaydi, kompaniyalar aktivlarida esa nomoddiy aktivlar yuqori ulushga ega. Mazkur modelni rivojlangan mamlakatlar amalga oshiradilar, o'tish iqtisodiyotli mamlakatlar va eng yaxshi rivojlanayotgan mamlakatlar esa innovatsion asosda iqtisodiy rivojlanishga intiladilar.

9.2. Globalashuv sharoitida innovatsion rivojlanishning ahamiyati

XXI asr boshlarida yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlar va hududlarda "yangi iqtisodiyot" degan tushuncha shakllanmoqda, uning asosida ikki o'zaro bog'liq jarayon – axborot inqilobi va globalashuv

yotadi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda “bilimlar iqtisodiy o’sish va korporativ foydaning dastlabki manbai bo’lgan jamiyat” yangi iqtisodiyot deb atalmoqda va uni postindustrial rivojlanish dominantasiga aylanadi deb hisoblaydilar.

Jahon xo’jaligi rivojlanishining zamonaviy bosqichida mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi o’mni ularning taraqqiyotning innovatsion jihatlarini yaratish va ishlab chiqarishga tatbiq etish, ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan amaliyotda foydalanish qobiliyati bilan aniqlanadi.

Muvaffaqiyatli innovatsion rivojlanishga ta’sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari (ITTKI)ga yuqori xarajatlar;
- innovatsion infratuzilmaning mavjudligi;
- tadqiqot markazlari va biznes o’tasidagi aloqa;
- davlatning rag’batlantiruvchi roli;
- ilg’or axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish;
- ijodiy turdagи yuqori malakali resurslarning mavjudligi.

Mamlakatda ilm-fanga xarajatlar darajasini baholashdagi asosiy ko’rsatkich - ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari (ITTKI)ga xarajatlarning YAIMga nisbatan foizlarda ifodalangan miqdoridir. 1.1-jadvalda 1996-2002 yillarda jahon mamlakatlari va ularning guruhlari uchun mazkur ko’rsatkichning miqdorlari keltirilgan. 1994-2001 yillarda dunyoda ITTKIning absolyut hajmining yillik qo’shimcha o’sish sur’ati 4,6 %ni tashkil qildi. 2002 yilda ITTKIga global xarajatlar atigi 1 % ga o’sdi, bu jahon iqtisodiyoti o’sish sur’atlarini umumiy pasayishi bilan bog’liq. ITTKIning YAIMga foizli nisbati YeI va Osiyo-Tinch okean mintaqasi mamlakatlarida ancha yuqori.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning innovatsion rivojlanishining o’ziga xos xususiyati ITTKIni moliyalashtirishda xususiy sektorning qanday o’rin egallashidan iborat. Shuni ta’kidlash kearkki, ITTKI hajmining qo’shimcha o’sish sur’ati sanoatga nisbatan xizmatlar sohasida yuqoriroq, yirik firmalar esa kichik firmalarga nisbatan birmuncha faolroq. Innovatsion faoliyat bilan shug’ullanayotgan kompaniyalar soni avvalgidek ishlab chiqarish sohasida ustunlik qiladi.

9.1-jadval. Jahon mamlakatlari va ularning guruhlarining ITTKIga xarajatlari, YAIMga nisbatan % da

№	Mamlakatlar	ITTKI xarajatlari, YAIMga nisbatan % da
1	Iordaniya	6,3
2	Shvetsiya	4,6
3	Finlyandiya	3,4
4	Yaponiya	3,1
5	Islandiya	3,0
6	Koreya Respublikasi	3,0
7	AQSH	2,8
8	Shveysariya	2,6
9	Germaniya	2,5
10	Fransiya	2,2
11	Daniya	2,1
12	Singapur	2,1
13	Belgiya	2,0

Manba: Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия – 2050: стратегия инновационного прорыва. М.: Экономика, 2004, с 170.

ITTKIga ajratmalarning absolyut miqdori bo'yicha AQSH yetakchi mamlakat hisoblanadi – 2000 yilda 264 mlrd. doll. (YAIMning 2,6 %). Ham moliyalashtirish manbalari, ham ITTKI natijalarini o'zlashtirish bo'yicha xususiy sektor yetakchilik qiladi – umumiy ITTKI hajmining 75 %, keyingi o'rinnlarda universitetlar – 11 %, davlat ilmiy muassasalari – 7 % va foyda ko'rmaydigan tashkilotlar – 2,5 % turadi. Moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari – bu axborot texnologiyalari, avtomobilsozlik va aerokosmik sanoat. Amerikaning Pfizer, Ford, General Motors, IBM korporatsiyalari – ilmiy xarajatlarning absolyut miqdori bo'yicha dunyo yetakchilari hisoblanadi.

Innovatsiyalar shuningdek Yevropa Ittifoqi korxonalarining xo'jalik faoliyatida ham muhim o'r'in egallaydi. YEI 2010 yilda eng raqobatbardosh va dinamik rivojlanayotgan bilimlar iqtisodiyotiga aylanishga intilmoqda. Ustuvor tarmoqlar bo'lib aerokosmik, farmatsevtika va elektronika sanoati, shuningdek kommunikatsiya asbob-uskunalarini ishlab chiqarish hisoblanadi. Biroq texnik taraqqiyot ustuvorliklari ITT ta'siri ostida qayta belgilanadi. Masalan, YEIning ilmiy-tadqiqot dasturlarida tirik organizmlar genetikasini o'rganish va inson

hayotini uzaytirish sohasidagi ishlar asta-sekin tobora ko'proq rol o'yamoqda.

Rivojlangan mamlakatlarga mansub bo'limgan mamlakatlar ichida ITTKIga ajratmalarning absolyut miqdori bo'yicha Xitoy yetakchilik qiladi. 2001 yilda Xitoy joriy xarid qobiliyati pariteti bo'yicha 59,8 mlrd.doll. miqdorida ITTKI amalga oshirdi va ushbu ko'satkich kattaligi bo'yicha dunyo mamlakatlari ichida uchinchi o'rinni egalladi. Xitoydan oldingi o'rirlarni AQSH (2001 yilda 282 mlrd. doll.) va Yaponiya (104 mlrd.doll.) egallaydi.

Tadbirkorlik sohasining ilmiy ishlanmalari va tadqiqotlarining amaliy natijasi patent hisoblanadi. Dunyoning yetakchi mamlakatlarida patentlashning tarmoq tuzilmasini tahlil qilish asosida Amerika ITTKI ustun ravishda kompyuter texnologiyalari va tibbiyot bilan, Yaponiya ITTKI – axborotni qayta ishlash tizimlari, Germaniya ITTKI – mexanik tizimlar, dvigatellar, tormozlar va organik kimyo bilan bog'liq deb tavsiyflash mumkin.

9.3. Globallashuv jarayonining innovatsion faoliyatga ta'siri

XXI asr boshidagi global muammolar orasida turli mamlakatlar va hududlarning texnologik rivojlanish darajasini Yaqinlashtirish, ular o'rtaisdagi tafovutni qisqartirish asosiy muammoga aylanmoqda, chunki ular iqtisodiy, demografik, ekologik, ijtimoiy-madaniy sohalardagi rivojlanish o'rtaisdagi farqlanishlarga olib kelmoqda.

Zamonaviy global texnologik dune ko'p ukladlidir. Bir mamlakatlar guruhida beshinchi texnologik uklad – ishlab chiqarishning industrial va postindustrial usuli o'rtaisdagi o'tkinchi uklad ustunlik qiladi, va 2001-2002 yillardagi inqirozdan so'ng postindustrial jamiyatga mos keluvchi hamda takror ishlab chiqarish samaradorligini, aholi turmush darajasi va sifatini ko'tarish uchun yangi imkoniyatlar beruvchi oltinchi ukladni o'zlashtirish bo'yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Mamlakatlarning boshqa katta guruhida uchinchi uklad bilan birga va beshinchi uklad elementlariga ega to'rtinchi ukladning ustunligi kuzatiladi. Ular raqobatbardoshlik jihatidan birinchi guruhdan orqada va rivojlanishning kech industrial bosqichida turibdi. O'zbekistonni ham ushbu guruhga kiritish mumkin. Uchinchi guruh mamlakatlarida erta industrial va industrialgacha bo'lgan texnologik ukladlar, mayda tovar, yarim feodal va natural-patriarxal iqtisodiy ukladlar ustunlik qilib, iqtisodiyotning agrar turini, past mehnat unumdorligi darajasini, ko'pchilik aholining

kambag'alligini asoslab beradi. Ushbu guruhlar o'rtasidagi farqlarni Jahon banki ma'lumotlari ham tasdiqlaydi.

Yuqori daromadli mamlakatlar (957 mln. kishi – sayyora aholisining 15,6 %iga ega 53 mamlakat) 2001 yilda aholi jon boshiga daromad o'rtacha jahon ko'rsatkichidan 5,2 marta (xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha 3,6 marta) ortiq bo'lgan; ularning YAIMda 70%ni xizmatlar va atigi 2 %ni qishloq xo'jaligi egallagan bo'lsa, eksport tarkibida – 82% tayyor mahsulotlardan va 18 %ni xomashyo tovarlaridan iborat bo'ldi.¹ Bu yuqori industrial mamlakatlar, ularda beshinchi texnologik uklad ustunlik qiladi va oltinchi ukladni shakllantirish uchun ishonchli negiz mavjud.

Qarama-qarshi qutbda past daromadli 66 mamlakat joylashgan bo'lib, ularda 2506 mln. kishi – dune aholisining 40,9 %i yashaydi. Bu yerda jon boshiga daromad darajasi o'rtacha dune ko'rsatkichidan joriy valuta kursi bo'yicha 11,9 marta, XQP bo'yicha 3,9 marta kam; rivojlangan mamlakatlardan orqada qolish mos ravishda 61,7 va 12,2 martani tashkil etadi. YAIMning asosiy qismini qishloq xo'jaligi egallaydi (24 % - o'rtacha jahon ko'rsatkichidan 6 marta ko'p), sanoat va xizmatlar sohasi ulushi o'rtcha jahon ko'rsatkichidan ancha past. Iqtisodiyotda erta industrial va industrialgacha bo'lgan ukladlar ustunlik qiladi. Eksportda xomashyo tovarlari 48 %ni tashkil etadi.

O'rtacha daromadlarga ega mamlakatlarda (umumiy aholisi 2667 mln kishiga yoki jahon aholisining 43,5 %ga teng 62 mamlakat) jon boshiga daromad o'rtacha jahon ko'rsatkichidan joriy kurs bo'yicha 2,8 marta va XQP bo'yicha 17% pastdir. Qishloq xo'jaligiga YAIMning 10 %i to'g'ri keladi (o'rtacha dunyo ko'rsatkichidan 2,5 marta ko'p), sanoat – 36 % (o'rtacha dunyo darajasidan 6 foiz marta ko'p) va xizmatlar – 54 %ga teng. Ular yuqori daromadlarga ega mamlakatlarga xos xizmatlar iqtisodiyotiga Yaqinlashmoqda. Ularning eksportida xomashyo tovarlar o'rtacha dunyo ko'rsatkichidan yuqori (22 % o'miga 39 %). Ushbu mamlakatlar guruhida to'rtinchchi texnologik uklad ustunlik qiladi.

Globallashuv tendensiyalari innovatsion maydonni ham qamrab olib, unga o'z ta'sirini o'tkazmoqda (bu o'z-o'zidan XX asr oxiri - XXI asr boshining bazis innovatsiyasi hisoblanadi). Agar industrial davrda bazisli innovatsiyalar bir yoki bir nechta mamlakatda paydo bo'llish, shakllanish fazalaridan o'tgan va keyin dunyo bo'yicha tarqalgan bo'lsa, hozirgi vaqtida ular avval boshidanoq o'zaro zich bog'langan mamlakatlarning olimlari, injenerlari, tadbirdorlari, TMK, davlat va davlatlararo tashkilotlarining integratsion hamkorligi predmetiga aylangan. Bu bazisli

¹ Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия – 2050: стратегия инновационного прорыва. М.: Экономика, 2004, с 337.

innovatsiyalarni o'zlashtirish va tarqatish, jamiyatning texnologik bazasining transformatsiyalashuvi muddatlarini jiddiy qisqartiradi, ko'lamlarini kengaytiradi, ishlab chiqarishning postindustrial usulining shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

Biroq bu jarayon birtekis va oson emas. Globallashuvning zamonaviy ustun bo'lgan neoliberal modeli innovatsiyalar globallashuvining bir tomonlama rivojlanishiga olib kelmoqda, uning mevalari yetakchi mamlakatlarga va TMKlarga tegmoqda, intellektual va innovatsion resurslar qoloq mamlakatlardan jalb etilib, ularning innovatsion transformatsiyalashuvini sekinlashtirmoqda.

Globallashuvning neoliberal modelidan gumanistik-noosferaviy modeliga o'tish global innovatsion maydonda tub o'zgarishlarni talab qiladi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, innovatsiyalarning ilk manbasi bo'lmish ilmiy salohiyat mamlakatlar bo'yicha bir tekis taqsimlanadi. Hozirgi vaqtida bu yerda o'sib boruvchi qutblashuv kuzatiladi. Jahon bankining ilmiy jurnallardagi maqolalar va rezidentlardan patentlarga buyurtmalarining taqsimlanishi haqidagi ma'lumotlari ham buni tasdiqlaydi. 1999 yilda yuqori daromadli mamlakatlarga maqolalarning 85,5 %, past daromadli mamlakatlarga esa 2,7 % (Rossiyada – 3 %) to'g'ri kelar edi. 2000 yilda mamlakatlarning birinchi guruhiга rezidentlardan patentlarga buyurtmalarining 92,4 %, past daromadli mamlakatlarga – 0,8 % to'g'ri keladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan tadqiqotlarga va ishlanmalarga ichki xarajatlar 2002 yilda AQSHda 991 dollarni, Yaponiyada – 816, Germaniyada – 666 dollar, Rossiyada – 98, Polshada – 67, Turkiyada – 40, Meksikada – 36 dollarni tashkil etdi, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda bir necha marta kamroq ko'rsatkichlar kuzatiladi. YUqori daromadli mamlakatlarda 2001 yilda litsenziyalar sotuvidan olingan daromadlar past daromadli mamlakatlarga nisbatan 2641 marta ko'proq. "Aqli kishilarning ketib qolishi" ushbu holatni yanada keskinlashtiradi: AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari deyarli bepul yuqori malakali olimlar va dasturchilarga ega bo'lmoxdaki, ularning har birini tayyorlash uchun yuz minglab va hatto millionlab dollar talab etilardi.

Bazisli innovatsiyalarni, yangi avlod texnikasini o'zlashtirish va tarqatish ilmiy xizmatlarsiz mumkin emas. Qoloq mamlakatlarda eng avvalo ushbu mamlakatlar uchun ustuvor yo'nalishlarda (innovatsion dasturlar asosida), shuningdek ijtimoiy sohalarda – tibbiyot, ta'lif, madaniyat, ekologiya sohalarida fanni rivojlantirish va mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha xalqaro kelishilgan choralar qabul qilish zarur. Ushbu

dasturlar YUNESKOning uslubiy rahbarligi ostida amalga oshirilishi kerak. Bunda moliyaviy yordamni hukumatlar bilan bir qatorda YUNESKO qoshida jahon moliyaviy jamoasi ajratmalari asosida tashkil etilishi foydali bo'lgan Global ijtimoiy-madaniy jamg'arma tomonidan ko'rsatilishi maqsadga muvofiq. Ushbu jamg'arma hisobiga fan va ta'lif sohasida global axborot dasturlari amalgalash mumkin.

Olimlar, injenerlar, dasturchilarining rivojlangan mamlakatlarga migratsiyasida ularni tayyorlashga xarajatlarni qoplash bo'yicha choralarini o'ylab ko'rish kerak (sportchilar migratsiyasidagi kabi). Hozirgi vaqtida AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari Rossiya va boshqa o'tish davridagi mamlakatlardan amalda dotatsiya oladilar va mutaxassislarini tayyorlashga ketgan xarajatlarni qoplasmaydilar.

Ayni vaqtida global innovatsion dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun xalqaro olimlar, konstruktorlar, mutaxassislar jamoasini faolroq tashkil etish zarur.

Ikkinchidan, jahon va ichki bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar va texnologiyalarni yaratuvchi innovatsiyalar asosi sifatida texnik ixtirolardan, intellektual mulkdan yanada kengroq birgalikda foydalanish bo'yicha choralar zarur. Hozirgi paytda patent huquqi ko'pincha daromadlarni TMKlar va boy mamlakatlar foydasiga qayta taqsimlash quroli bo'lib xizmat qilmoqda. 2000 yilda past daromadli mamlakatlarda norezidentlardan patentlarga buyurtmalar rezidentlarga nisbatan 288 marta ko'proq tushgan; litsenziyalar uchun to'lovlar 2001 yilda ularning tushumlaridan 10,5 marta ortiq bo'ldi va yuqori daromadli mamlakatlarga nisbatan 2641 marta kamroq bo'ldi. Yuqori daromadli mamlakatlar umumjahon royalti miqdori va litsenzion to'lovlarining 98,5 %ga egalik qilmoqda (9.2-jadval).

9.2-jadval. Yetakchi mamlakatlarning ixtirochilik salohiyati

	Patentlarga buyurtmalar, 2000				Royalti va litsenzion to'lovlar, 2001			
	Rezidentlar dan		Norezident lardan		Olingan		To'langan	
	ming	dunyo ga nisbat an %da	ming	dunyo ga nisbat an %da	mln. doll	dunyo ga nisbat an %da	mln. doll	dunyo ga nisbat an %da
Butun dunyo	908,1	100	9531,3	100	72356	100	73148	100
Yuqori								

daromadli mamlakatlar:	839,1	92,4	1441,6	47,7	71303	98,5	64037	92,4
AQSH	175,6	19,3	156,2	1,8	38660	53,4	16360	22,4
Yaponiya	388,9	42,8	97,3	1,1	10462	14,5	11099	15,2
Germaniya	78,8	8,7	183,8	2,2	3149	4,4	3243	7,2
Buyuk	33,7	3,7	199,6	2,3	7910	10,9	5909	3,7
Britaniya	21,5	2,4	138,7	1,6	2504	3,5	1879	2,6
Fransiya								
Past daromadli mamlakatlar	7,3	0,8	2042,4	24,5	27	0,04	284	0,4
Past va o'rtacha daromadli mamlakatlar:	69,1	7,6	4459,7	52,3	1053	1,5	9112	12,3
mamlakatlar:	23,7	2,6	65,8	0,8	60	0,08	343	0,5
Rossiya	25,6	2,8	96,7	1,1	110	0,15	1938	2,6
Xitoy	0,1	0,01	60,9	0,7	83	0,1	306	0,4
Hindiston								

Манба: Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия – 2050: стратегия инновационного прорыва. М.: Экономика, 2004, с 170.

Yuqori rivojlangan mamlakatlar Jahon savdo tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning faol qo'llab-quvvatlashi yordamida intellektual mulkni himoyalash bo'yicha faol kurash olib borayotgan bo'lsada, amalda esa deyarli bepul boshqa mamlakatlarda yaratilgan intellektual mulkning katta qismini o'zlashtirib olmoqda. SHu tarzda ixtirolargacha asoslangan va shu sababli yuqori raqobatbardoshligi bilan ajralib turuvchi innovatsiyalar tor doiradagi boy mamlakatlar guruhida to'planib, ularning boyligiga boylik qo'shmaqda. Ayni vaqtida ko'pchilik boshqa mamlakatlar o'z ixtirolari negizida raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatiga deyarli ega emas.

Uchinchidan, innovatsiyalarning global oqimi bevosita xorijiy investitsiyalar yordamida amalga oshirilmoqda. Ularning hajmi yildan-yilga ortib bormoqda: 2001 yilda 746,5 mlrd.dollarni tashkil etdi va 1990 yilga nisbatan 3,7 marta ortdi. Ularning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 12,6 %ni, YAIMning shu davrda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,7 %ni tashkil etdi. Biroq ushbu investitsiyalarning davlatlar o'rtasida taqsimlanishi globallashuvning neoliberal modeliga xos tendensiyani aks ettiradi: investitsiyalarning 77,1 % yuqori daromadli mamlakatlarga va atigi 1,2% past daromadli mamlakatlarga, Rossiyaga – 0,3 % to'g'ri keladi. Demak boy mamlakatlarda to'plangan sarmoyalalar kambag'al mamlakatlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalashga xizmat qiladi deb xulosa chiqarish qiyin. Birinchi guruh mamlakatlarida xorijiy sarmoyalalar YAIMning 2,3%

ini, ikkinchi guruh mamlakatlarida – 0,8 %ni tashkil etib, bu ularda asosiy kapitalni innovatsion jiddiy yangilashga umuman yetarli emas. Ayni vaqtida past daromadli mamlakatlarning ahvoli bevosita xorijiy investitsiyalardan 51 barobar ortiq 457,3 mlrd. dollarlik uzoq muddatli qarzi bilan yanada murakkablashadi.

Investitsiyalar va qarzlarning bunday nisbati bilan kambag’al mamlakatlar innovatsion modernizatsiyalashni va aholi turmush darajasini yaxshilashni amalga oshira olishi dargumon. Buning uchun yirik ko’lamli tashqi innovatsion investitsiyalar talab etiladiki, ular BMT rahnamoligida amalga oshiriladigan global innovatsion dasturlar – va ushbu maqsadda tashkil etilgan maxsus tashkilot – BMTning Rivojlanish Dasturi (PROON) asosida olib borilishi zarur.

Innovatsiyalarning globallashuvi ob’yektiv asoslangan va umuman ilg’or jarayondir. Lekin undan shunday foydalanish muhimki, taraqqiyot mevalari asosan faqat boy mamlakatlar va TMKlarga nasib etmasdan, balki insoniyat rivoji, boy va kambag’al mamlakatlar o’rtasidagi tafovutlarni qisqartirish uchun xizmat qilishi zarur.

Ixtirolarning barcha turlari alohida emas, ular klasterga chambarchas bog’langan, har bir yirik ixtiro yirik ixtiolar klasterida amalga oshiriladi, o’rtacha ixtiolar to’lqinini va kichik hamda mayda ixtiolar oqimini keltirib chiqaradi. Bu esa pirovardida turli darajadagi innovatsiyalar dinamikasida aks etadi.

9.4. Rivojlangan mamlakatlarning innovatsion strategiyasi

So’nggi o’n yilliklar bilimlarni yaratish va tarqatish hamda innovatsion faoliyatni faollashtirish jarayonlarini jadallahsuvi bilan bog’liq bo’lgan fan ta’sirining o’sishi bilan xarakterlanadi. Ushbu ta’sir mexanizmlari ko’p omillarga bog’liq va ancha murakkab xarakterga ega. Bunday sharoitlarda davlat fan-texnika siyosatining samaradorligi jiddiy darajada milliy taraqqiyot yo’nalishlari qanchalik to’g’ri tanlangani, texnologik ustuvorliklarni tanlash mexanizmlari qandayligi va ularni amalga oshirilishida qanday qurollardan foydalanilishi kabi omillarga bog’liq.

Rivojlangan mamlakatlarda tizimli asosda uzoq muddatli innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirish 1980-yillarning oxirida boshlangan. Bu vaqtida bilimlarni ishlab chiqarish va tijoratlashtirilishi bilan band tashkilotlar tizimini, shuningdek ilmiy tashkilotlar, universitetlar va sanoat korxonalarining o’zaro munosabatlarini ta’minlovchi huquqiy, moliyaviy,

ijtimoiy va boshqa institutlarni qamrab oluvchi “milliy innovatsion tizim” tushunchasi iqtisodiy amaliyatga kirib keldi. Milliy innovatsion tizimlarning samaradorligi bilimlarni ishlab chiqaruvchi va ularni innovatsion tovarlar va xizmatlar sifatida sotuvchi tashkilotlar o’rtasidagi o’zaro aloqalar tizimi, shuningdek yuqori darajada milliy texnologik ustuvorliklar tizimi bilan aniqlanadi. Ko’rsatilgan ustuvorliklarning tanlovi – murakkab masala bo’lib, uni hal etish usullari so’nggi o’n yilliklarda faol rivojlanib keldi.

Rivojlangan mamlakatlarda (Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya va boshqa ko’p mamlakatlarda) fan va texnologiyalarning rivojlanishini uzoq muddatli bashorat qilinishi uchun Forsayt metodologiyasi faol qo’llaniladi (inglizchadan tarjima qilinganda Foresight – oldindan ko’rish). Forsayt fan va texnologiyalar sohasida ustuvorliklarni aniqlashda eng samarali usul sifatida e’tibor qozondi. Bashoratlar natijasi yirik milliy va xalqaro tadqiqot dasturlarini shakllantirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi (yaqqol misol – YeIning 2002-2006 yillar uchun tadqiqotlar va ishlanmalar bo’yicha oltinchi Doiraviy dasturi, budgeti – 17 mlrd.evrodan ortiq). Forsayt bo’yicha ishlarga katta ma’muriy va moliyaviy resurslar jalb qilinadi. Masalan, ohirgi shved bashorati budgeti 3,6 mln. yevroni, turk bashorati – 2 mln. yevrodan ortiq.

Umuman olganda Forsayt metodologiyasiga zamonaviy yondashuvlar eng katta iqtisodiy va ijtimoiy samara keltiruvchi strategik tadqiqotlar va texnologiyalar sohalarini aniqlash maqsadida fan, texnologiyalar, iqtisodiyot va jamiyatning rivojlanish istiqbollarini uzoq muddatli (30 yilgacha) muntazam baholanishini tashkil etishga qaratilgan. Bunda asosiy e’tibor alohida bashorat materiallarini olishga qaratilmasdan, balki jamiyatda rivojlanishning strategik yo’nalishlari bo’yicha asosiy ishtirokchilar o’rtasida muntazam dialogni (ishchi guruhlar, seminarlar, anjumanlar) o’rnatish orqali kelishuvga erishishga yo’naltirilgan.

Turli mamlakatlarda olib borilgan so’nggi tadqiqotlar natijasida axborotlarning asosiy manbalari sifatida yetinchi yapon texnologik bashorati, Britaniya “Forsayt” dasturi, Germaniyaning “Delfi” va “Futur” dasturlari, AQSHning tanqidiy texnologiyalari dasturi, shved texnologik bashorati, “Fransuz sanoati uchun 100 asosiy texnologiyalar” dasturi, “Texnologik radar” dasturi (Niderlandiya) hamda yuqorida keltirilgan va shuningdek Italiya, Ispaniyada va qator xalqaro tashkilotlarda (IHRT, YUNIDO, YEI) olib borilgan boshqa izlanishlar xizmat qiladi.

Mutaxassislar tomonidan eng dolzARB deb e'tirof etilgan texnologik yo'nalishlar ichida quyidagilarni ajratish mumkin:

- axborot va kommunikatsiya texnologiyalari;
- sog'liqni saqlash va hayot haqidagi fanlar;
- atrof-muhit;
- energetika;
- ishlab chiqarish tizimlari;
- transport;
- materiallar.

Barcha ko'rsatilgan tadqiqotlarda texnologik rivojlanishning eng istiqbolli yo'nalishlari sifatida axborot va kommunikatsion texnologiyalar, biotexnologiyalar va hayot haqidagi fanlar, shuningdek materiallar va kimyoviy mahsulotlar ajratiladi.

9.5. Texnologik rivojlanishning asosiy istiqbolli yo'nalishlari

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari. So'nggi ikki o'n yillikda ilmiy-texnik taraqqiyotning yuqori sur'atlarini ko'p jihatdan axborot va kommunikatsion texnologiyalar (AKT) belgilab berdi. Ushbu yo'nalishning dolzarbli kelajakda ham yuqoriligicha saqlanib qoladi. Mikroelektronikada nanotexnologiyalar eng dolzARB yo'nalishga aylanmoqda. Bunda gap elektronlar, atomlar va molekulalarni harakatlantirish haqida boradi. Bu miniatyuralashtirish jarayonlarini davom ettirish imkonini beradi. Ushbu negizda integral sxemalarning zichligi va tezligi ortadi, energiya jihatidan tejamkor yuqori unumdorlikka ega katta integral sxemalar (KIS) paydo bo'ladi. Yuqori haroratlari o'ta o'tkazuvchanlikning amaliy qo'llanishi, kremliy va arseniy galliyiga nisbatan ancha samarali materiallardan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Neyron chiplaridan amaliy foydalanish boshlanadi.

Sanoatning an'anaviy tarmoqlarida ishlatalidigan texnologiyalarda KISlarning roli ortadi. Joylashuvidan qati nazar insonlar o'rtasida yuqori tezlikda va arzon axborot almashuvi imkoniyati vujudga keladi.

Optoelektronika muhim ahamiyat kasb etadi, umumiste'moldagi tarmoqlar bo'yicha ma'lumotlarni uzatish sekundiga bir necha terabit darajasiga yetadi.

AKT sohasida yangi texnologiyalar ancha arzon, tejamkor, kam chiqimli va energiya xarajatlari bo'ladi.

Biotexnologiyalardagi yangi yutuqlar asosida molekulyar va bioelektronika, shuningdek sensor elektronika faol rivojlanadi. YUqori

zichlikka ega (1 kvadrat dyuymga bir necha terabit) xotira uskunalarining yangi texnologiyalari, DNK funksiyalariga ega molekulyar darajadagi yuqori zichlikdagi xotira uskunalarini vujudga keladi. YAnji texnologiyalar joriy etilishi natijasida displeylar tavsiflari ancha yaxshilanadi, displeylarning yangi turlari (elektron qog'oz kabi) paydo bo'ladi.

Ishlab chiqarish xarakteridagi axborot va bilimlarni aks ettirish uchun yagona umumjahon til (zaruriy dastur ta'minotini o'z ichiga oluvchi) ishlab chiqiladi va amaliyatga tatbiq etiladi. Bu til va madaniy tafovutlardan qati nazar "inson-mashina" axborot tizimi orqali axborotni aniq uzatishga qodir interfeys-texnologiyani ishlab chiqishga olib keladi.

Personal kompyuterlar (PK) va ishchi stansiyalarining unumdonorligi keskin ortadi. Mobil uskunalar jiddiy ravishda kompyuterlar funksiyalarini o'z ichiga oladi, PKlarning uy sharoitida qo'llaniladigan boshqa uskunalar bilan integratsiyalashuvi sodir bo'ladi. Global tarmoqlarning ishonchhlilagini oshirish, foydalanuvchilarni tashqi ta'sirdan himoyalash, yirik dastur tizimlarini qisqa muddatda ishlab chiqishni ta'minlovchi vositalarni, kompyuter viruslarini aniqlash va bartaraf etish tizimlarini yaratish ustuvor yo'nalish bo'ladi.

Biotexnologiyalar, sog'lijni saqlash va hayot haqidagi fanlar. Uzoq muddatli istiqbolda tibbiyot fani, amaliy sog'lijni saqlash, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining yutuqlari ko'p jihatdan biotexnologiyalarining rivojlanishi bilan aniqlanadi.

Tibbiyot sohasida ustuvor yo'nalishlar sifatida neyron tarmoqlarini shakllanish mexanizmlarini yoritishni, ruhiy kasalliklarni davolashni, sun'iy ong sohasida amaliy ishlanmalar uchun miya funksiyalari to'g'risidagi bilimlarni qo'llashni o'z ichiga oluvchi tadqiqotlar miya tadqiqotlari bo'ladi.

Genetik o'zgartirilgan o'simliklarni yaratish va shu bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan muammolar ham, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlarini ishalb chiqarish uchun rekombinant DNKLardan foydalanish va bu bilan bog'liq ijtimoiy va ahloqiy muammolar diqqat-e'tibor markazida turadi.

Boshqa muhim yo'nalish erta rivojlanishning molekulyar mexanizmlari va embrionlar tabaqlanishi tahlili va shu asosda klinik yangiliklar, shu jumladan organlarni regeneratsiyalash (tiklash), biologik mos keluvchi to'qimalarni ishlab chiqarish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Inson genomini ochilishi immun tizimlar haqidagi yangi bilimlar asosida kasalliklarni davolashning yangi vositalarini vujudga kelishiga olib keladi. Transplantatsiya qilingan organlarning birikib ketmasligiga mas'ul

immunologik funksional molekulalarning aniqlanishi organlar transplantatsiyasini bezarar amalga oshirish imkonini yaratadi. Tashxis qo'yishning va irsiy dorilarga va irsiy terapiyaga asoslangan davolashning yangi usullari hozirgi vaqtida shifo topishi qiyin bo'lgan saraton, ateroskleroz, aql zaifligi, yuqumli kasalliklar kabi ko'p kasalliklardan samarali qutulishga yordam beradi.

Katta yoshdagilar uchun keksalik kasalliklarini oldini oluvchi tibbiy xizmat ko'rsatish tizimlari, parvarishlash uchun va hayotni ta'minlovchi uskunalar faol rivojlanadi. Sun'iy organlarni ishlab chiqarish va ularni tibbiyotda qo'llashda jiddiy yutuqlarga erishiladi.

Qishloq xo'jalik sohasida atrof-muhitning uyg'un rivaojlanishini ta'minlovchi sog'lom va bezarar oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat rivojlanadi. Eng muhim o'simliklar va hayvonlar genomini yuqori tezlikli tahlili texnologiyasi ishlab chiqiladi. Bu foydali genlarni aniqlash va shu asosda oziq-ovqat mahsulotlarini takomillashtirish imkonini beradi. yetishtiriladigan hayvon xujayralarini, shuningdek nsonlar hayotini uzaytiruvchi oziq-ovqat mahsulotlarini qo'llash bilan shifobaxsh moddalar va dorivorlarni samarali ishlab chiqarish uchun texnologiyalar yaratiladi.

Mikroorganizmlardan foydalangan holda donlarning tuproqdan fosforni o'zlashtirib olishini suyultirish va yengillashtirish texnologiyalari, shuningdek tuproqda mikroflorani nazorat qilish kabi biologik usullardan foydalangan holda yangi ekinlarning nobud bo'lishini oldini olish texnologiyalari keng qo'llaniladi. Xosilni saqlab qolishning biologik usullaridan (tabiyiy biologik dushmanlardan, feromonlardan va alleloxiyimikatlardan) ustun foydalanish hisobiga qishloq xo'jaligi ximikatlari keskin kamayadi.

Ob-havoni lokal monitoringi tizimlaridan va texnologik tizimlardan keng foydalanish xosilning sovuq havo, toshqinlar, qurg'oqchilik, shamol va boshqalardan nobud bo'lishini kamaytirish imkonini beradi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida ochiq maydonlarda dehqonchilik uchun materiallar va konteynerlar, shuningdek biologik yo'l bilan parchalanadigan materiallardan tayyorlangan baliq tutish uskunalari keng qo'llaniladi.

Endokrin tizim buzilishiga olib keluvchi ximikatlar zaharligini namoyon bo'lish va ularning nasl qoldirish funksiyalariga, hulq-atvorga, miya funksiyalariga, immunologik funksiyalarga ta'sir etish mexanizmlarini aniqlanishi inson va uy hayvonlari uchun xavfsizlik chegaralarini o'rnatish imkonini beradi.

Atrof-muhit. Atrof-muhit sohasida xavfli gaz chiqindilari kamayishini ta'minlovchi texnologiyalar, avtomobil tutunlarida azot gazini keskin (bir necha o'n marta) kamaytirish, yirik shaharlarda elektromobilarni joriy etish, yonuvchi chiqindilar miqdorini kamaytirish. Barcha turdag'i chiqindilarni jiddiy qisqarishini ta'minlovchi ommaviy sanoat texnologiyalarini yaratish, tuproqdagi mustahkam ifloslantiruvchi moddalarni zararsizlantirish bo'yicha texnologiyalar, suvni xavfli moddalardan tozalash va ularni bartaraf etish texnologiyalari, bioparchalanuvchi plastiklarning, atrof-muhit ifloslantiruvchilarini yo'qotuvchi (masalan neftni parchalovchi) bakteriyalarning tez ko'paytirish texnologiyalarining keng joriy etilishi, atrof-muhit ifloslanish omillariga allergiyaning paydo bo'lishi tadqiqotlari, atrof-muhitning global o'zgarish omillarini aniqlash bo'yicha izlanishlar va boshqalar faol rivojlanadi.

Yuqori aniqlikdagi masofaviy hisoblash, Jahon okeanidagi o'zgarishlarni, shu jumladan baliq zahiralarini bashorat qiluvchi texnologiyalar sohasidagi yutuqlar asosida qishloq xo'jalik, o'rmon va baliqchilik resurslari va atrof-muhit ahvolining o'zgarishini muntazam global monitoring tizimlari rivojlanadi. Atrof-muhitda yuqori mustahkamlarga ega kimyoviy moddalar xarakteri haqidagi bilimlar to'planishi hisobiga yangi kimyoviy moddalar kelajagini bashorat qiluvchi texnologiya ishlab chiqiladi. Ob-havoni oldindan (1-6 oy ilgari) bashorat qilishning dinamik usullarining yaratilishi kutilmoqda.

O'rmonlardan ularning funksiyalarini (biologik rang-baranglikni saqlash, atrof-muhitni tozalash va o'rmon landshafti va qulayligini saqlash) saqlab qolgan holda optimal foydalanish uchun texnologik qurilmalar va tizimlar o'zining amaliy qo'llanilishini topadi. Dioksinni parchalovchi bakteriyalarni va boshqa endokrin zararkunandalarini yutish orqali daryo suvlarini tozalashga qodir korxonalar ishlab chiqiladi.

Oziq-ovqat sanoatida chiqindisiz yoki ikkilamchi qayta ishlanadigan mahsulotlar, shu jumladan o'rash materiallari ishlataladi. Biologik ifloslanishga qarshi organik birikmalar o'rnini bosuvchi arzon preparatlar, shuningdek sanoat chiqindilarini qayta ishlash bilan band korxonalar va atrof-muhit o'rtasida to'siqlarni yaratish maqsadida tozalovchi funksiyalarga kompozit materiallar ishlab chiqiladi.

Bir yoki bir guruhi kompaniyalar asosida emas, balki umuman sanoat miqyosida foydalanilgan mahsulotlarni xavfsiz va samarali ikkilamchi qayta ishlanadigan tizimlar joriy etiladi. Biotexnologiyalar asosida oqava

suylarni tozalash tizimlarini qo'llash bilan qattiq va xavfli materiallarga ishllov berish uchun yuqori samarali jarayonlar keng foydalaniladi.

Energetika. Energetika sohasida asosiy ustuvorliklar energiyani ishlab chiqarish, o'zgartirish, samarali ishlatish, toplash, saqlash, qayta tiklash va taqsimlash yo'nalishlaridan iborat. Asosiy istiqbolli texnologiyalar orasida – mikroturbinalarni ishlab chiqarish, yangilanadigan energiya manbalari (fotoelementlar, shu jumladan katta maydonli yupqa plenkali yuqori o'zgarish koefitsientiga ega quyosh elementlari, oqimlardan, shamoldan foydalanish va boshqalar), yoqilg'i elementlari, yuqori o'tkazgichlar, kam energiya sarflovlchi yorug'lik manbalari, yuqori radioaktiv qattiq chiqindilarni xavfsiz yo'qotish, shu jumladan ularni yer osti utilizatsiyasi xavfsizligini baholash usulini yaratish; vodorod yonilg'isidaga transport vositalari, avtomobilarda yuqori energetik zinchlikka ega ikkilamchi batareyalarining, qayta oziqlantiriluvchi 500 Vt/l hajmli polimer batareyalarining qo'llanilishi, uylarda energiya ishlab chiqarish uchun qattiq polimer elektrolitik yoqilg'i elementlarining ishlatilishi, energetik samarali uylarni yaratish va boshqalar o'rinni olgan. 50%dan ko'p o'zgarishlar koefitsientiga ega ko'pqavatli quyosh elementlari va 20%dan ortiq o'zgarishlar koefitsientiga ega katta maydonli amorf silikon quyosh elementlari ishlab chiqiladi.

Ishlab chiqarish tizimlari. Sanoat ishlab chiqarish sohasidagi asosiy ustuvorliklar mehnat unumdorligini, ishlab chiqarish quvvatlari egiluvchanligini jiddiy oshiruvchi texnologiyalarini yaratish, energiya va resurslar tejamkorligi, chiqindisiz va kamchiqindili ishlab chiqarishlarni joriy etish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, zararli chiqindilarni kamaytirish va pirovardida raqobatbardoshlikni oshirishni ta'minlash bilan bog'liq. Ushbu vazifalar ko'p jihatdan yangi mahsulotni yaratish vaqtini jiddiy qisqartirish, ishlab chiqarish jarayonini, xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlashni samarali tashkil etish imkonini beruvchi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo'li bilan hal etiladi. AKTdan foydalanish biznesning yangi modellarini yaratish va korxonada to'plangan bilimlarni samarali qo'llash imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarish texnologiyalari sohasida eng istiqbolli yo'nalishlarga «chiqindisiz» jamiyatni, shu jumladan loyihalash, ishlab chiqarish, ekspluatatsiya, texnik xizmat ko'rsatish va chiqindilarni yo'qotish kabi ishlab chiqarish faoliyati ko'rinishlarini qo'llab-quvvatlovchi virtual ishlab chiqarish tizimlarini yaratish; noorganik energetik resurslardan (shamol, geotermal resurslar, quyosh energiyasi, issiqlik chiqindilari) foydalanish;

qayt ishslash sanoatida kombinatsiyalashgan tizimlardan (yoqilg'i elementlari va gazli mikroturbinalar) foydalanish; elektroenergiyaning katta hajmlarini saqlash hisobiga (yuqori o'tkazgichlar, kondensatorlar) ishlab chiqarish jarayonlarida energiya sarfini optimallashtirish; ishlatilgan materiallarning kamida 90 % ikkilamchi qayta ishlanadigan chiqindilarni loyihalash, ishlab chiqarish, to'plash va ikkilamchi qayta ishslash tizimlari; quyosh eneergiyasini va biologik tizimlarni qo'llash yordamida organik moddalarni parchalash yo'li bilan vodorodni ommaviy ishlab chiqarish kiradi.

Ishlab chiqarishda sanoat korxonasi, kompaniya va ishlab chiqarish quvvatlari uchun potensial tavakkalchilikni baholash texnologiyalari keng qo'llanilib, ular xodisalar zanjirini bashorat qiladi, keltirilgan zararlarni, shu jumladan atrof-muhitga ta'sirini baholaydi.

Amaliyatga yuqori anqlikka ega ishlab chiqarish texnologiyalari, shu jumladan material xususiyatlarini molekulyar va atom darajasida materiallar ishlab chiqarishni boshqarish texnologiyalari yordamida o'zgartirishga qodir jarayonlar, nur texnologiyalarida (ionlar, elektronlar va lazerlar) taraqqiyot natijasida yuqori anqlikdagi ishlov berish texnologiyalari (mexanik ishlov, tahlil, sinovlar va joyidagi monitoring), nazorat texnologiyalari va sensor texnologiyalar; o'ta kichi portativ qurilmalar ishlab chiqarishga qodir optoelektronika, mikroelektronika va mikromashinalar, yarim o'tkazgichli mikroprotessorli va o'lchov texnologiyalarini birlashtiruvchi bir necha mikronlar darajasidagi montaj texnologiyalari kirib keladi.

Tajribali ishlab chiqarish jarayonisiz uch o'lchovli sonli modelli tasvirlar prototiplarini ishlab chiqaruvchi va sonli ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchi zavodlarga uzatuvchi lokal ishlab chiqarish tizimlari (shu jumladan uzoq joylashgan hududlarda) keng qo'llaniladi. Ajratilgan tavsiflarni nazorat qilish uchun ishlab chiqarish texnologiyalari joyida kimyoviy reaksiyalar va ishlab chiqarish jarayonlarda boshqarishning yuqori murakkab va aniq tizimlari yordamida teskari aloqa monitoringini o'tkazish evaziga keyingi sinovlarni ortiqcha qilib qo'yadi.

Sonli texnologiyalardagi taraqqiyot va sanoat robotlarini takomillashtirilishi qayta ishslash sanoati xodimlarining mehnatidan foydalanish imkoniyatlarida va shakllarida tub o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, xusan, keksa va nogiron to'siqsiz ishlay olishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish tizimlari keng ishlatiladi.

Transport. Transport sohasida kelajakda eng istiqbolli yo'nalishlar aviatsiya va yer ustti transporti aerodinamikasi, aviatsion elektronika va

transportni boshqarish vositalari, energiya ta'minoti, shu jumladan aviatcion turbinalar va kosmik energiya tizimlaridan iborat. Dvigatellar, shu jumladan elektromobil lar uchun yangi texnologiyalar yaratiladi. Turli transport kturlarining integratsiyalashuv tizimlari katta ahamiyatga ega bo'ladi, yuqori tezlikli temir yo'l transport turlari, inson va transportning o'zaro ta'sir tizimlari rivojlanadi.

Aniq texnologik ishlalmalar sifatida har bir yo'nalish uchun tashishlarning kerakli hajmini ta'minlovchi va energiya tejamkorligi va atrof-muhitga ta'siri jihatidan optimal oqim hajmiga erishish uchun kerakli tuzatishlarni kirituvchi shahar yo'l harakatini boshqarish tizimlari keng ishlataladi; keksa va nogiron yo'lovchilarga yengil va xavfsiz harakatlanish imkonini beruvchi jamoat transport vositalarini ishlab chiqiladi. To'qnashuvlarni bartaraf etuvchi tizimlarni qo'llash yo'l-harakati xodisalarini keskin kamaytirishga olib keladi. Chiqindilarni ikkilamchi qayta ishlash texnologiyalari sohasidagi taraqqiyot evaziga eski avtomobillarni utilizatsiyalash muammolari hal etiladi.

Kosmik texnologiyalardan foydalanish jiddiy ko'payadi. Yo'ldoshlarda global atrof-muhit uzlusiz monitoringini olib boruvchi va olingan ma'lumotlarni dunyoning istalgan chekkasida bevosita ishlata olish uchun shu yerning o'zidayoq qayta ishlovchi tizimlar ishlab chiqiladi. Raketa boshqaruvida kosmik transportirovka qiymati bir necha o'n marta pasayadi.

Materiallar. Yangi materiallarni va kimyo viy mahsulotlarni ishlab chiqish va qo'llash kelajakdagi eng muhim texnologik yo'nalishlardan biridir. Yangi materiallarni qo'llash doirasi haqiqatda juda keng va cheksiz.

Yangi materiallar tibbiyotda, shu jumladan o'sma xujayralar kabi nishonlarga aniq yetib borishga qodir organizm ichida signallarga qarab harakatlanuvchi dori dozalarini qo'llashda va boshqalarda keng foydalaniлади.

Yangi materiallarni ishlab chiqishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri nanomateriallar va nanotexnologiyalar sohasi hisoblanadi. Ushbu sohada 1 terabit va undan ortiq hajmli xotira chiplari, o'z-o'zini tashkil etishga asoslangan nano-ko'lamli tuzilma va tavsiflarni ta'minlovchi xotira materiallari; bir elektronidan iborat xotira elementlari; alohida molekula/atomning o'zgarish funksiyasini ishlatuvchi qurilmalar; atom darajasida qattiq qoplamlar va o'zaro ta'sirlar xususiyatlari va tuzilmalarini nazorat qiluvchi texnologiyalar; 1 nmga yaqin aniqlikda

o'lcham va shaklni nazorat qilishga qodir onlayn qayta ishlash tizimli texnologiyalar yaratiladi.

Yangi materiallarni qo'llashning boshqa yo'nalishlari orasida an'anaviy kimyoviy neftkimyo jarayonlar o'rniga tiklanadigan resurslardan foydalanish uchun polimer sintez jarayonlarining qo'llanilishi; ikkilamchi qayta ishlangan xomashyo ulushini jami mahsulotning 30 %gacha ko'paytirish imkonini beruvchi umumiy iste'moldagi plastik uchun ikkilamchi qayta ishlash tizimlari; sanoat gidrat metanni qazib olish texnologiyalari; metandan bevosita vodorod olish uchun pastharoratli katalitik jarayonlar va boshqalar mavjud.

Shunday qilib, texnologik rivojlanishning sifatli bashorati nafaqat alohida texonologik yo'nalishlarning rivojlanish doirasini, balki global ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning mumkin bo'lgan yo'nalishlarini baholash imkonini beradi. Bunday tahlil davlat ilmiy-texnik, innovatsion va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

9.6. Globallashuv jarayonida axborot va kommunikatsion texnologiyalarning roli

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi davrida axborot va kommunikatsion texnologiyalar texnologik rivojlanishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, ushbu soha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ham eng muhim o'rnlardan birini egallaydi. Jumladan, AQSH iqtisodiyotida zamонави axborot texnologiyalari sohasi yuqori darajada rivojlangan bo'lib, uning texnik-tashkiliy negizi axborot texnologiyalar sanoatidan iborat. Uning tarkibiga asosan elektronika sanoati tarmoqlari va ishlab chiqarishlari kiradi. Bu – EHMLarni va yordamchi uskunalarni, kommunikatsion uskunalarni va bir qator boshqa elektron texnika turlarini, ya'ni axborotni to'plash, saqlash va uzatish uchun ishlatiladigan texnik vositalarni ishlab chiqarish kiradi. Ularning elektron sanoati mahsulotining umumiy hajmidagi ulushi 1995 yilda 58 %ni, 1997 yilda – 65 % va 2000 yilda – 60 %ni tashkil etdi.

1992-2002 yillarda axborot texnik vositalarni ishlab chiqarish va ularga keyingi xizmatni ko'rsatish bilan bevosita band bo'lgan ishchilarining umumiy soni 25 %ga ortdi.¹

¹ Василевский Э. Информационные технологии: масштабы и эффективность использования. //МЭиМО, 2006, №5, с. 4.

9.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, axborot texnologiyalar sanoati 1996-2003 yillarda ishlab chiqarish hajmi va NIOKRga xarajatlari bo'yicha ham o'sib bordi. Shuningdek axborot texnologiyalarining iqtisodiyotda tutgan o'rni uning YAIMdagi ulushi o'sib borishi bilan xarakterlanadi.

9.3-jadval. Axborot texnologiyalar sanoati mahsuloti, bandlik va NIOKR xarajatlari

	1992	1995	1998	2000	2001	2002	2003
Mahsulot							
Jami, joriy baholarda mldr.doll	371,1	491,3	739,5	877,8	828,9	831,6	871,9
Shu jumladan - EHM, yordamchi uskunalar va boshqalar	110,1	155,4	242,2	244,1	189,6	189,3	208,0
-dasturiy ta'minot, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash	75,5	111,4	238,0	316,6	320,3	323,7	328,8
- kommunikatsiya uskunalar	24,0	30,8	53,2	67,3	54,9	46,6	43,5
- texnik xizmat ko'rsatish	161,6	193,8	206,1	249,8	264,3	272,1	291,6
YAIMda umumiy ulushi, %	5,9	6,7	8,5	9,9	8,2	7,9	7,9
Bandlik							
Ming kishi	3875	4240	5156	5382	5350	4779	
Iqtisodiyotning xususiy sektorida umumiy bandlar sonidagi ulushi, %	4,3	4,3	4,9	4,9	4,8	4,4	
NIOKR xarajatlari							
Mldr.doll			38,4	46,9	56,5		
NIOKPga umumiy xususiy xarajatlardagi ulushi, %			26,5	26,0	31,2		

Manba: Digital Economy 2003. US Department of Commerce.

Axborot texnologiyalardan foydalanish sohasidagi eng yorqin saxifalardan biri 90-yillarda istalgan kerakli axborotni bir zumda olish imkonini beruvchi Internet tarmog'ining yaratilishi hisoblanadi. IHRTning baholariga ko'ra 1999 yildayoq jahonda Internet tizimidan foydalanuvchilar soni 201 mln.ga yetdi, AQSH va Kanadaga 55,9% ulush, Yevropaga – 23,5, OTMga – 16,7, Lotin Amerikasiga – 2,6, Afrikaga – 0,9, Yaqin va O'rta Sharqqa – 0,4% ulush to'g'ri kelar edi. 90-yillar oxirida AQSH aholisining 40 %, Buyuk Britaniyaning – 18, Yaponianing

-11, Germanianing – 10 va Fransiyaning – 7% i Internet xizmatlaridan foydalanan edi.

1997 yilda AQSH xizmatlar sohasini tashkil etuvchi tarmoqlarning katta guruhi “axborotlar” tarmog’i alohida ajratildi. Uning tarkibiga ilgari mayjud bo’lgan tarmoqlar bilan birga zamonaviy faoliyat va xizmatlar turi kiritildi. Bu – nashriyot ishi, kino sanoati va yozuv yozish, radio uzatishlar va televidenie, telekommunikatsiyalar, kutubxonalar, arxivlar, ma’lumotlarni qayta ishlash va boshqa turdag'i xizmatlardir. Ushbu sohaning 1992-2002 yillardagi rivoji 9.4-jadval ma’lumotlarida aks ettirilgan.

9.4-jadval. Xizmatlar sohasining “axborotlar” tarmog’i

	1992	2002
Mahsulot		
1996 yil baholarida mlrd.doll	481,3	891,2
Xizmatlar sohasining jami mahsulotidagi ulushi, %	6,3	8,1
Bandlar		
Ming kishi	2641	3421
Xizmatlar sohasida bandlarning umumiyl sonidagi ulushi, %	3,0	3,2
Asosiy kapital		
2000 yil baholarida mlrd.doll	554,6	924,3
Xizmatlar sohasining jami asosiy kapitalidagi ulushi, %	3,5	4,1

Manba: Васи́левский Э. Информационные технологии: масштабы и эффективность использования. //МЭ и МО, 2006, №5, с. 5.

Axborotlar texnologiyalari rivojlanishida telekommunikatsion xizmatlarning jadal o’sishi kuzatiladi. Ushbu soha taraqqiyotida TMKlar nihoyatda muhim rol o’ynaydi. Financial Times tomonidan har yili o’tkaziladigan FT 500 reytingida bozor kapitalizatsiyasi bo'yicha jahonning eng yirik kompaniyalari orasida umumiyl kapitalizatsiyasi 1,57 trln. dollarga teng 36 ta telekommunikatsion kompaniyalar kiritilgan (9.5-jadval). Kompaniyalar soni va kapitalizatsiyasi bo'yicha ushbu tarmoq reytingning an'anaviy liderlari – bank va neftgaz tarmoqlaridan so’ng uchinchi o'rinda turadi.

So’nggi yillarda iqtisodiyotda telekommunikatsion xizmatlar ahamiyatining ortishi ularning YAIMdagi ulushi dinamikasini tahlil qilishda yaqqol ko’zga tashlanadi. 1990-2004 yillarda ushbu ko’rsatkich

1,7 %dan 3,1 %gacha o'sdi, telekommunikatsion xizmatlarning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 2,8 %dan 4,5 % gacha ko'paydi.¹

9.5-jadval. FT 500 reytingining ayrim kompaniyalari (2005 yil)

Sektor dagi o'rni	FT 500 dagi o'rni	Kompaniya	Mamlakat	Bozor kapitalizatsiyasi, mlrd.doll.
1	12	Vodafone	Buyuk Britaniya	171,4
3	38	Telefonica	Ispaniya	86,4
4	40	Deutsche Telekom	Germaniya	83,9
7	49	France Telecom	Fransiya	73,9
33	444	MTS	Rossiya	14,0

Manba: Vedomosti. 14.06.2005.

9.6-jadval. Telekommunikatsion TMKlarning rivojlanish evolyutsiyasi

Operator	Mamlakat	Tushum, mlrd.doll		Xorijda olingan tushum ulushi, %		Mobil xizmatlardan olingan tushum ulushi, %	
		1999	2004	1999	2004	1999	2004
Deutsche Telekom	Germaniya	35	63	9	39	11	41
France Telecom	Fransiya	29	52	13	43	15	36
Telecom Italia	Italiya	29	35	6	22	26	37
Vodafone	Buyuk Britaniya	13	55	63	85	100	100
MTS	Rossiya	0,4	4	0	22	100	100

Manba: Ефанов А. Тенденции развития телекоммуникационных ТНК. // МЭ и МО, 2006, № 11, с. 42.

Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi ma'lumotlariga ko'ra 2004 yilda jahon telekommunikatsion xizmatlar bozorining umumiy hajmi 1200 mlrd.dollardan, ularni rivojlantirishga kiritilgan investitsiyalar esa – 200 mlrd.dollardan ortiq. Bunda oxirgi 15 yil ichida ushbu bozor uch martadan ziyyod kengaydi.

Telekommunikatsiya mahsulotlarining kategoriyalari bo'yicha jahon savdosining tarkibida eng katta ulushni kompyuterlar egallaydi, uning

¹ Ефанов А. Тенденции развития телекоммуникационных ТНК. // МЭ и МО, 2006, № 11, с. 42.

hissasi 34,2 foizga teng, yarim o'tkazgichlar – 22,5 foiz, telekommunikatsiya – 20,9 foiz, telekommunikatsiya mahsulotlari kismlari va dasturlar – 11,8 foiz, yarim o'tkazgichlarni ishlab chiqaruvchi dastgoxlar esa 10,6 foizga teng.¹

Xulosa

Innovatsiya – bu fan yutuqlaridan va ilg'or tajribadan foydalanishga asoslangan texnika, texnologiya boshqaruv sohasida yangilik kiritish, va shuningdek bozorda tan olingen moddiylashgan eng yangi ilmiy g'oyadir.

Bozor talabini qondirish nuqtai nazaridan innovatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

3) evolutsion, ular mavjud tovarlar, xizmatlar va boshqalarni takomillashtirishdan (modifikatsiyalash) iborat;

4) revolutsion, ular yangilik kiritishdan so'ng paydo bo'lishi mumkin bo'lган ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan.

Hozirgi vaqtida globallashuv tendensiyalari innovatsion maydonni ham qamrab olgan va unga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Agar industrial davrda innoavatsiyalar bir yoki bir nechta mamlakatda paydo bo'lish, shakllanish fazalaridan o'tgan va keyin dunyo bo'yicha tarqalgan bo'lsa, hozirgi vaqtida ular avval boshidanoq o'zaro chuqur bog'langan mamlakatlarning olimlari, injenerlari, tadbirkorlari, TMKlar, davlat va davlatlararo tashkilotlarining integratsion hamkorligi predmetiga aylangan. Bu innovatsiyalarni o'zlashtirish va tarqatish, jamiyatning texnologik bazasining transformatsiyalashuvi muddatlarini jiddiy qisqartiradi, ko'lamlarini kengaytiradi, ishlab chiqarishning postindustrial usulining shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

Innovatsiyalarning globallashuvi ob'yektiv asoslangan va umuman ilg'or jarayondir. Lekin undan shunday foydalanish muhimki, taraqqiyot mevalari asosan faqat boy mamlakatlar va TMKlarga nasib etmasdan, balki insoniyat rivoji, boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish uchun xizmat qilishi zarur.

Turli mamlakatlarda olib borilgan so'nggi tadqiqotlar asosida quyidagi texnologik yo'nalishlar yaqin 20-25 yil ichida eng dolzarb deb e'tirof etilgan: axborot va kommunikatsion texnologiyalar; sog'liqni saqlash va hayot haqidagi fanlar; atrof-muhit; energetika; ishlab chiqarish tizimlari; transport; materiallar.

¹ World Trade Report 2007. - P. 20.

Barcha ko'rsatilgan tadqiqotlarda texnologik rivojlanishning eng istiqbolli yo'nalishlari sifatida axborot va kommunikatsion texnologiyalar ajratiladi.

Tayanch iboralar:

Innovatsiya, texnika, texnologiya, ilmiy g'oya, evolyutsion innovatsiya, revolyutsion innovatsiya, integratsion hamkorlik, ishlab chiqarishning postindustrial usuli, innovatsiyalarning globallashuvi, texnologik yo'nalishlar, axborot va kommunikatsion texnologiyalar, sog'liqni saqlash va hayot haqidagi fanlar, atrof-muhit, energetika, ishlab chiqarish tizimlari, transport, materiallar.

Nazorat uchun savollar:

1. Innovatsiya, innovatsion faoliyat tushunchalarini yoritib bering.
2. Evolyutsion va revolyutsion innovatsiyalar qanday farqlanadi?
3. Globallashuv jarayonida innovatsion faoliyatning rivojlanish xususiyatlari qanday?
4. Rivojlangan mamlakatlarning innovatsion strategiyasi nimadan iborat?
5. Texnologik rivojlanishning qanday asosiy istiqbolli yo'nalishlari mayjud?
6. Globallashuv jarayonida axborot va kommunikatsion texnologiyalari qanday ahamiyat kasb etmoqda?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljalangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.
2. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va chorralari. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
3. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учебное пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.
4. Мировая экономика: прогноз до 2020 года /под ред. акад. А.А. Дынкина – М.: Магистр, 2008.

5. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.
6. Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия–2050. Стратегия инновационного прорыва. М. «Экономика». 2004.
7. Контуры инновационного развития мировой экономики: прогноз на 2000-2015 гг./Под ред. А.А.Дынкина. М.: Наука, 2000.

10-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING RAQOBATBARDOSHLIGI

10.1. Iqtisodiy raqobatbardoshlik tushunchasining mohiyati

Jahon bozorlarida raqobat kurashining kuchayishi va raqobatbardoshlik masalalarini yechishga bo'lgan talabni oshishi oxirgi yigirma yil davomida birinchi o'rning chiqib, jahon iqtisodidagi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar bilan bog'liqidir. Bunda raqobatning ko'rinishlari va usullari, raqobatbardoshlikka erishish ko'rinishlari xo'jalik hayotining globallashuvi ta'sirida, jahon ishlab chiqarishi va xalqaro kapital bozorining sifat jihatidan o'zgarib borishi natijasida hamda jahon infratuzilmasining tezkor rivojlanishi va global telekommunikatsiya tizimining tashkil etilishi natijasida vaqt ta'sirida o'zgarib bormoqda.

Xo'jalik hayotining globallashuvi ta'sirida tashkil topayotgan zamonaviy raqobat holati uchun quyidagilar xosdir: raqobat qilayotgan tomonlar uchun manfaatlarning xilma-xilligi, turli raqobat parametrlarining hisobi (sarf-xarajatlar, sifat, vaqt, "nou-xau", moliyaviy holat, bozordagi to'siqlar); tutayotgan yo'l-yo'riqlarning ko'p bosqichliligi (tovar bozorlarida, resurslar sohasida, turli tadbirkorlik konsepsiyalari o'rtasida); raqobatchilar pozitsiyalarining o'zgarishi dinamizmi va bozorda kuchlar taqsimoti; raqobatning narxsiz usullarining narxli usullaridan ustun bo'lishi.

Raqobat tushunchasining keng ma'nodagi talqinini I. Spiridonov quyidagicha keltiradi: "Raqobat – bu bozorda o'zi uchun eng ma'qul sharoitlarda o'z mahsulotini sotish, hamda sotib oluvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish va kattaroq daromad ko'rish maqsadida ishtirok etuvchi korxonalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning, o'zaro aloqalar va kurashlarning iqtisodiy jarayonidir".

Raqobat bozor iqtisodiyoti rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchini namoyon etadi deb ta'kidlaydilar B. Doern va S. Uilks. Ularning fikricha, raqobat xam, bozor ham tabiiy rivojlanish natijasida tashkil topmaydi va ularni tashkil etishga to'g'ri keladi.

M. Porterning ta'kidlashicha, xalqaro raqobatdagи muvafaqqiyatni omillarning o'zingga emas, balki ularning qachon va qanday foydalilik bilan ishlatalishi aniqlab beradi. Rivojlanishning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish chegaralari doirasida bozor sharoiti muhitida yangi raqobat sharoitlarini tashkil qiladi.

Xaqiqatan, ishlab chiqarishning globallashuvi sharoitida mamlakat firmalarining mamlakatda mavjud u yoki bu omillarning hajmiga bog'liqligi yo'qoladi. Xom-ashyo va butlovchi mahsulotlarni, ishlab chiqarish dastgohlarini, kapital va ko'pgina boshqa resurslar va xizmatlarni jahon bo'yicha deyarli bir xil shartlar asosida sotib olish mumkin. Kapital o'z navbatida bir mamlakatdan boshqa mamlakatga investitsion muhit yaxshiligiga qarab o'tib boradi. Transportning rivojlanishi ishlab chiqarish omillari va tovarlar bilan mamlakatlararo almashuvni arzonlashtirdi.

Jahon xo'jaligi aloqalariga integratsiyalashuvning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasida (1999 yil aprel) so'zlagan nutqida shuni alohida ta'kidladiki, iqtisodning liberallashuvi – mamlakatdagi jami islohotlarning asosi va bog'lovchi bo'g'ini hisoblanib, real raqobat muhitini shakkantirish va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotni chiqarishni tashkillashtirish bilan uzviy bog'liq.

Mamlakatning raqobatbardoshligi eng avvalo uning iqtisodiyoti raqobatbardoshligi orqali ifodalanadi. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshliligi deganda mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyatini tushuniladi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshliligi – iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyatidir.¹

Jahon tajribasi va amaliyoti bozordagi raqobatni tartibga solish va qo'llab-quvvatlashni, raqobat erkinligi bilan raqobatbardosh kompaniya va tarmoqlarning rivojlanishini rag'batlantirish siyosati bilan mos tushishini namoyish etmoqda.

Qator holatlarda xalqaro kompaniyalar jahon bozorida raqobatchilarining firmalari bilan bellashmaslikka, buning o'rniga birdamlikni namoyon qilish va raqobatchilar bilan bozorni bo'lib olish haqida kelishishni yoki boshqa raqiblar bilan raqobat kurashida kuchlarini birlashtirishni lozim topadi. Ular bu bilan innovatsiya faoliyatini rag'batlantiruvchi va iqtisodiyotni hamda pirovard natijada aholi farovonligining o'sishini ta'minlovchi raqobat mexanizmining harakatini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Мамлакатимизни модернизация килиш ва кучли фуқаролик жамиятини барпо этиш – устувор мақсадимиздир» хамда «Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараккийти ва халқимиз фарононлигини янада юксалтиришдир» номли маърузаларини ўрганиш бўйича ўкув қўлланма – Т.: Иктисолидиёт. – 2010.

chegeyalaydi. Davlatning ma'muriy organlari raqobatning bunday chekhanishiga qarshi tegishli iqtisodiy siyosat bilan kurashadi.

AQSH, Yevropa Ittifoqi, Germaniyaning barcha qonunchilik aktlarida raqobatchi tomonlar o'rtasidagi raqobatni cheklashga yo'naltirilgan har qanday kelishuvlar taqiqlangan. Xususan, AQSH tomonidan kartelga birlashish qonunchilikni buzish sifatida baholanib, qonun buzuvchi shaxsga nisbatan 350 ming AQSH dollari miqdorida, firmaga nisbatan 10 mln. AQSH dollari miqdorida jarima qo'llanilishi va uch yil muddatga ozodlikdan maxrum qilish ko'zda tutiladi.

Yevropa Ittifoqi olib borayotgan raqobatni qo'llab-quvvatlash borasidagi siyosat tarkibi ancha kengdir. YeI raqobat siyosati quyidagi masallarni yechishga qaratilgan:

- milliy bozorlarning mavjud integratsiyasini ta'minlash, milliy bozorlarda bozorni bo'lib olish to'g'risidagi bitimlar asosida o'zining to'siqlarini yaratishga harakat qilayotgan kompaniyalarga to'sqinlik qilish;

- to'planib borayotgan iqtisodiy hokimiyatga qarshi to'siqlarni shakllantirish, ya'ni bozorda ustunlik qilayotgan pozitsiyalarini egallab olishni suiste'mol qilishni taqiqlash.

YEIning raqobat siyosati borasidagi asosiy qonuniy normalari “Yevropa Iqtisodiy Ittifoqini shakllantirish to'g'risidagi Kelishuvning “Kartellar va boshqa cheklovchi kelishuvlar to'g'risidagi” 85-bo'lim, “Yetakchilik holatini suiste'mol qilishlik to'g'risidagi” 86-bo'lim, “Davlat kompaniyalari va kompaniyalar to'g'risidagi” 90-bo'lim, ularga yuklatilgan “Umumiy manfaatlар borasidagi faoliyat haqida” va “Sanoatga davlatning ko'magi haqida”gi 92-94 bo'limlar bilan mustahkamlangan.

Germaniyada raqobatning chekhanishiga qarshi qonun davlatning ichki va tashqi tadbirkorlikni tartibga solish bo'yicha to'rtta asosiy sohasini ko'zda tutadi:

- kelishuvlarni, kelishilgan xatt-harakatni, raqobatni cheklashga qaratilgan bir tomonlama tadbirlarni ta'qilash;

- bozorda hukmronlik qiluvchi korxonalarning suiste'mollari ehtimolini nazorat qilish;

- korxonalar birlashishini nazorat qilish;

- alohida qoidalarning harakat sohalari.

Lekin rivojlangan mamlaktlarning raqobatni qo'llab-quvvatlash buyicha tutayotgan siyosati ishlab chiqarishning globallashuvi sharoitida oxirgi o'n yilliklar davomida mavjud ikki tendensiya ta'sirida o'zarmoqda:

- birinchidan, bojxona to'siqlarining islohotlar doirasida GATT/JST tomonidan bir qator pasaytirilishi. Ochiq bozorlar sharoitida va xorijiy eksportchilar tomonidan ushbu bozorlarga erkin kirib kelish imkoniyatlari mavjud bo'lgan bir davrda birlashish va milliy firmalarni qo'shib olish jarayonlari raqobatni cheklash borasidagi avvalgi xavflarni yaratmayapti, chunki milliy firmalar va kompaniyalarning kamayishi o'z navbatida xorijiy kompaniyalarning raqobatchi sifatida milliy bozorga kirib kelishi bilan qoplanmoqda.

- ikkinchidan, NIOKR maqsadlariga sarf-xarajatlarning tobora o'sib borishi, hattoki, katta-katta korporatsiyalarga ham og'irlik qila boshlayotgani qo'shilish va qo'shib olish jarayonlarini tobora kuchayishiga olib kelmoqda.

10.2. Mamlakat raqobatbardoshligini aniqlovchi omillar

Iqtisod sohasidagi raqobat munosabatlarining ko'p ko'rinishlilagini uch bosqichga bo'lib o'rganish mumkin: mikrodaraja (mahsulotlarning anik kurinishi, ishlab chiqarish, tashkilotlar), mezodaraja (sohalar, korporativ integratsiyalashgan tuzilmalar), makrodaraja (xalq xo'jaligi komplekslari).

Shunga ko'ra, raqobatni aniqlovchi omillar quyidagilarga bo'linadi: mikrodarajali (mahsulotning sifati va miqdori, narxsiz ko'rsatkichlari), mezodarajali (korporativ integratsiyalashgan daraja – KID), makrodarajali (iqtisodning umumiy holati, investitsion holat, soliq rejimi, ilmiy-ta'lim komplekslarining holati, texnik bazasi).

Raqobatbardoshlikning har bir darjasasi o'zining alohida ko'rsatkichlar to'plami, o'ziga xos yondashuvi va tahlil qilish usullariga ega.

Mikro va mezo raqobatbardoshlik. Mikrodarajada raqobatbardoshlikni baholash aniq tovarlar, tovar guruhlari, ishlab chiqarish, tashkilot va aniq tovarlarning narx va sifat munosabatlari asosidagi ishlab chiqarishini qamrab oladi.

Umuman olganda, mikroraqobatbardoshlikni baholash faqatgina aniq tovar va tovar guruhlari asosida olib borilmaydi, balki umuman tashkilotning raqobatbardoshligini baholash asosida olib borilishi mumkin.

Soha yoki tashkilotlar guruhi darajasidagi raqobatbardoshlik bir qator ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Ular qatoriga mehnat samaradorligi, sohaning eksportga yo'naltirilganligi yoki importga bog'liqligi, kapital sig'imi, ilm sig'imi va mahsulotning texnik darjasasi, mahsulotni mustaqil

o'zlashtirishga qaratilgan ilmiy ishlar va bilimlarning umumiy miqdori va boshqalar kiradi.

Sohaning xossasiga ko'ra, ushbu sohada (sanoat guruhlari, korporatsiyalar va konsernlar) faoliyat yuritayotgan korporativ integratsiyalashgan darajasiga (KID) ko'ra ushbu ko'rsatkichlar o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

Shunday bo'lsada, jahon bozorida raqobatbardoshlikni aniqlovchi asosiy omillar sifatida mahsulotning texnik darajasi hisoblanadi va u ilmiy-texnik yutuqlarning ishlatilganlik darajasini, mahsulotni ishlab chiqarishda ketgan davr ichida ishlatilganligini ko'rsatadi. Shuningdek, tovarning mamlakatning ehtiyojlariga javob berishi, iste'molchilar talablariga javob berishi va texnik xizmatning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi ham shular jumlasidandir. Nihoyat, tashkilot va tashkilotlar guruhlarining raqobatbardoshligi tashqi yoki ichki bozorda sotilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligi orqali ifodalanadi.

Makroraqobatbardoshlik. Ma'lumki, raqobatbardoshlik tushunchasi tovarlar yoki tashkilotga nisbatan qo'llanilganda o'zining iqtisodiy ma'nosiga ega, lekin milliy iqtisodga nisbatan bu ma'noni yo'qotadi. Bu holat ko'pgina holatlarda o'zining murakkabliligi, keng kamrovliligi va ko'p tomonlamaliligi bilan tushuntiriladi.

Mamlakatning raqobatbardoshligi turli usullar bilan aniqlanadi. Lozanna Jahon iqtisodiyoti instituti Har yili Davosda o'tkaziladigan Butunjahon iqtisodiy forumi uchun mamlakatlarning raqobatbardoshligini baholash uchun 137 ta mezonlar yoki indekslardan foydalanadi. Ular orasida ko'p sonli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar; ijtimoiy institutlar sifati; bank tizimi samaradorligi; texnika, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mehnat bozorining rivojlanish darajasi; ish xaqi va korrupsiya darajasi va x.k.lar mavjud.¹

Ko'rsatkichlar har bir mamlakat bo'yicha analistiklar hamda ekspertlar baholari va shuningdek, yirik korporatsiyalar rahbarlari tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar yordamida to'ldirib boriladi. Beriladigan baholar barcha mamlakatlarga emas, balki faqatgina sanoati rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarga (eng avvalo yangi industrial mamlakatlar), shuningdek bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarga tegishlidir. Bu mamlakatlar maxsus metodikaga asosan to'plangan ballarning soniga qarab farqlanadi. Ballar yig'indisi nafaqat ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi haqida, balki mamlakatning jahon iqtisodiyotida sodir bo'ladigan o'zgarishlarga

¹ //Мировая экономика и международные отношения. 2009, № 2, С.46.

moslashuvchanlik qobiliyati to'g'risida ham axborot beradi. yetakchi mamlakatlarning 1995 yilda jahon bozorida egallagan raqobatbardoshlik reytingi 10.1-jadvalda keltirib o'tilgan.

10.1-jadval. Mamlakatlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshlik reytingi (1995 y.)

AQSH - 1	Norvegiya - 6	Yangi Zelandiya - 11	Avstriya - 16
Singapur - 2	Niderlandiya - 7	Kanada - 12	Belgiya - 17
Gonkong - 3	Lyuksemburg - 8	Chili - 13	Tayvan - 18
Yaponiya - 4	Shveysariya - 9	Shvetsiya - 14	Buyuk Britaniya - 19
Daniya - 5	Germaniya - 10	Finlyandiya - 15	Fransiya - 20

1987 yildan 1993 yilga qadar Yaponiya davlati ro'yxatda yetakchilikni qo'lga kiritib kelayotgan edi, biroq 1994 yilga kelib, Yaponiya iqtisodiyotining bir qator tarmoqlarida inqirozli holatlarning kuzatilganligi, shuningdek iena qadrining amerika dollariga nisbatan ancha pasayganligi sababli u, mazkur ro'yxatda uchinchi o'ringa, 1995 yilga kelib esa to'rtinchchi o'ringa tushib qoldi.

1994-1995 yillarda AQSH birinchi o'rinni egalladi, bu esa ishchi kuchi qiymati ustidan davlat nazoratini o'rnatish, shuningdek dollar kursining bir qadar pasayishi, ko'plab tarmoqlarda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi bilan bevosita bog'liqdir. Singapur, Gonkong, Chili, Tayvan, Malayziya va Koreya Respublikasi singari bir qator davlatlar mavqelarining yaxshilanishi kuzatildi.

1995 yilga kelib Rossiya ilk bor baholandi va mazkur ro'yxatda 48 o'rinni egalladi. Ilmiy-texnika salohiyati va mehnat zahiralari Rossiya iqtisodiyotining kuchli tomoni bo'lib hisoblansada, davlatning iqtisodiyotda tutgan o'rni, boshqaruv tizimi va moliya-kredit sohasi uning zaif tomonlari bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida milliy (global) raqobatbardoshlik reytingida AQSH yetakchilik qiladi, undan keyingi o'rirlarni Shveysariya, Daniya, Shvetsiya va Finlyandiya egallaydi. Mazkur reytingda O'zbekiston 62-o'rinda, MDH mamlakatlari orasida esa Rossiya va Qozog'istondan keyin 3-o'rinda turadi (10.2-jadval).

10.2-jadval. 2008-2009 yillarda ayrim mamlakatlarning milliy (global) raqobatbardoshlik reytingi

Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar	O'tish iqtisodiyotli mamlakatlar
AQSH – 1	Singapur – 5	Rossiya – 51
Shveysariya – 2	Gonkong – 11	Xitoy – 30
Daniya – 3	Koreya Respublikasi – 13	Estoniya -32
Shvetsiya - 4	Tayvan – 17	Litva – 44
Finlyandiya – 6	Malayziya – 21	Latviya – 54
Germaniya – 7	Chili – 28	O'zbekiston – 62
Niderlandiya – 8	Tailand – 34	Qozog'iston – 66
Yaponiya – 9	Hindiston – 50	Ozarbayjon – 69
Kanada – 10	Braziliya – 64	Ukraina – 72
Buyuk Britaniya – 12		Gruziya – 90
Avstriya - 14		Moldova – 95
Norvegiya – 15		Armaniston – 97
Fransiya - 16		Tojikiston - 116
		Qirg'iziston - 122

Manba: Global Competitiveness Report, 2008-2009. World Economic Forum. 2008.

Hozirgi vaqtida raqobatbardosh bo'lgan tarmoqlar jumlasiga aerokosmika, uskunasozlik, kemasozlik, va shuningdek xarbiy sanoat majmuasining ba'zi bir tarmoqlari kiradi.

10.3. O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini baholash

Milliy raqobatbardoshlikni oshirish muammosi nihoyatda keng ko'lamli xarakterga ega va ayniqsa, O'zbekiston uchun JSTga a'zo bo'lishga intilayotgan davrda uning ahamiyati juda katta. Ma'lumki, JSTga qo'shilishda raqobatbardosh eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar ko'proq yutadi.

Milliy raqobatbardoshlik bir qator omillarga – jami iqtisodiy salohiyat, boshqaruv darajasi, moliyaviy bozor holati va moliyaviy xizmatlar sifati, infratuzilmaning rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish salohiyatining sifati, raqobat muhitini vujudga keltirishga davlatning ta'siri va boshqa omillarga bog'liq.

Amerikalik olim M.Porter tomonidan ko'plab mamlakatlar bo'yicha ma'lumotlarni tadqiq qilish asosida rivojlantirilgan nisbiy ustunliklar

konsepsiyanining yangicha talqinida, mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligi bиринчи navbatda uning ilg'ор firmalarini kompleks raqobat ustunliklari bilan belgilanadi, degan xulosaga kelingan. Bu esa, o'з navbatida, ichki bozor hajmi va ehtiyojlari, mamlakatda zaruriy ishlab chiqarish omillarining mavjudligi, ishlab chiqarish va umumiqtisodiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi va samaradorligi, raqobat muhitining rivojlanganligi, firmalarning qiyinchiliklarga moslashganligi va uni yengib o'ta olishi, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstrukturlik ishlarini (NIOKR) amalgga oshirilishi kabi omillar bilan shakllanadi va shu omillarga bog'liq bo'ladi. O'tish iqtisodiyotida bunday nisbiy ustunliklarning rivojlanishini faqat bozor yordamida amalgga oshirib bo'lmaydi, bu esa davlatning uni shakllantirishdagi ishtirokini talab qiladi.

O'zbekistonning raqobatbardoshlik ustunliklari eksportga yo'naltirilgan muvaffaqiyatlari rivojlanishning negizini tashkil etadi. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston quyidagi nisbiy ustunliklarga ega:

- tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lgan ayrim mineral xom ashyo turlari (oltin, uran, mis, kumush, tabiiy gaz va boshqalar)ning boy sanoat zahiralari;

- ko'plab qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, shuningdek issiqlik va elektr energiyasini tejash imkoniyatini beruvchi qulay tabiiy iqlim sharoitlari;

- 400 dan ortiq tarixiy va me'morchilik obidalariga ega bo'lgan dunyoga mashhur boy madaniy-tarixiy meros. Bu turizm industriyasи va unga yo'ldosh biznes sohalarini rivojlantirish uchun ustunliklarni yaratadi.

- nisbatan yuqori malakali va intizomli kadrlar, arzon ishchi kuchining mavjudligi;

- yuqori ilmiy salohiyat va ilmiy izlanishlarning yuqori darajasi;

- rivojlangan infratuzilma (transport aloqalari, elektrlashtirish, bino va inshootlar, shaharlarda kommunal xizmatlar bilan ta'minlanganlik, aloqa, 4,2 mln. gettardan ortiq sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining mavjudligi).

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo va boshqa Yaqin joylashgan davlatlar ichida O'zbekiston ayrim turdagи mahsulotlarni, ayniqsa, texnik va ilmtalab tovarlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi va bиринчи o'zlashtiruvchisi hisoblanadi. Bu ushbu mintaqada nisbiy ustunliklarni yaratadi, chunki yaqin joylashgan mamlakatlarning ishlab chiqarish ko'lamida yetarli iqtisod, tejamkorlikka erishish imkoniyatlarini kamaytiradi va, demak, ushbu davlatlarda o'xshash ishlab chiqarishlarni vujudga keltirishni qiyinlashtiradi. Yaqin joylashgan davlatlarga

O'zbekistondan tovarlarni eksport qilishdagi transport xarajatlari ushbu tovarlarni sanoatlashgan mamlakatlardan import qilishga nisbatan ancha kamdir. Shu sababli yaqin joylashgan mamlakatlar bozorida O'zbekiston tovarlarining, ayniqsa, keng iste'mol tovarlari raqobatbardoshligini oshirish borasida katta imkoniyatlar mayjud. Bu tovarlar bo'yicha kam transport xarajatlari sharoitida ishlab chiqarish ko'lamida katta tejamkorlikka erishish mumkin.

Mamlakat nisbiy ustunliklarini taqqoslash kompleks reyting usulini talab qiladi. Oddiy ko'rinishda nisbiy ustunliklar ishlab chiqarish xarajatlari yoki ichki narxlarning jahon bozoridagi xarajatlar yoki narxlarga nisbati sifatida baholanishi mumkin. O'zbekiston nisbiy ustunliklarini ekspert baholashlar asosida eksport tovar guruhlarini raqobatbardoshlik darajasiga ko'ra (xarjatlar bo'yicha, mahsulot sifati omilini e'tiborga olmagan holda) quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: 1) raqobatbardosh; 2) raqobatbardoshlikka yaqin va 3) ayni paytda raqobatbardosh emas.

Raqobatbardosh deb ichki ulgurji narxlarning jahon narxlariga nisbati 0,75 bo'lган tovarlarga aytildi. Bu asosan mahalliy xom ashyoga asoslangan tovarlar: elektr energiyasi, tabiiy gaz, oltin, ikkilamchi alyuminiy, volfram, karbamid, ammiakli selitra, lak-bo'yoq mahsulotlari, sement, gips, paxta yog'i, xo'jalik sovuni va atirsovun, margarin, vino materiallari, vino, olma sharbati, paxta tolasi, jun, paxta gazlamalari va b. shu kabilar. Bu guruhga mashinasozlik mahsulotlari (shu jumladan, samolyotlar, qishloq xo'jaligi mashinasozligining ba'zi mahsulotlari) ham kiradi.

Raqobatbardoshlikka yaqin tovarlar deb ishlab chiqarish tarkibi qayta tuzilib, tajriba yig'ilib, davlat tomonidan subsidiyalar berilgandan so'ng jahon bozorida to'liq raqobatbardosh tovarga aylanishi mumkin bo'lган tovarlarga aytildi; bunday tovarlar ichki ulgurji narxlarning jahon narxlariga nisbati 1,25 dan oshmaydi. Ularga: neft, benzin, dizel yoqilg'isi, kerosin, rangli metallurgiyaning yarim tayyor mahsulotlari, kaliyli o'g'itlar, kalsiylashtirilgan soda, ammosof, melamin, kaprolaktam, televizorlar, videomagnitonlar, avtomagnitolalar, changyutkich (pilesos)lar, kir yuvish mashinalari, kabel mahsulotlari, marmar, qurilish oynasi, ohak va boshqalar kiradi.

Ayni paytda raqobatbardosh bo'lмаган tovarlarga ichki ulgurji narxlarning jahon narxlariga nisbati 1,25dan yuqori bo'lган tovarlar kiradi. Agar bunday tovarlar ustuvor sohalarda ishlab chiqarilsa, har bir tovar bo'yicha raqobatbardoshsizlik sabablarini aniqlash va

raqobatbardoshlikni oshirish choralarini ko'rish zarur. Ta'kidlash lozimki, raqobatbardoshzlikning asosiy sabablaridan biri - bu ishlab chiqarishda mavjud uskunalarning yuqori resurs talabligi va ularni modernizatsiyalash uchun yetarli mablag'larning yo'qligidir.

Tovarlar raqobatbardoshligini jahon narxlari dinamikasi bilan birgalikda baholash lozim. Agar tovar raqobatbardosh bo'lsa va jahon narxlaridan ortishi kutilsa, bizningcha, bunday tovar narxlar omili bo'yicha yuqori eksport salohiyatiga ega bo'ladi va aksincha.

Biroq nisbiy ustunliklarning mavjudligi eksportning mustahkam o'sishini ta'minlamaydi. Deyarli barcha eksport tovarlari bo'yicha jahon taklifining jahon talabidan yuqoriligi kuzatiladi. O'zbekiston raqobat kurashini faollashtirishi, eng yaxshi tovarlarni taklif qilishi zarur. Bu, o'z navbatida, quyidagi omillarga bog'liq: qulay makroiqtisodiy sharoitlar (raqobatbardosh valuta kursi, kreditlar olish imkoniyati, foiz stavkalarining past darajalari, shuningdek soliq va infliyatsiyaning past darajalari), eksport imtiyozlari va subsidiyalari. Har qanday eksport uchun qulay sharoitlarni yaratish, qayta ishlash sanoati mahsulotlari eksportini alohida qo'shimcha rag'batlantirish muhimdir.

O'zbekistonning nisbiy ustunliklarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan izlanishlar raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha eksportning uchta tovar guruhini: raqobatbardosh, raqobatbardoshlikka Yaqin va raqobatbardosh bo'limgan tovarlarni aniqlashga imkon berdi.

Hozirgi vaqtida raqobatbardosh tovarlarga elektr energiyasi, tabiiy gaz, oltin va rangli metallurgiyaning ayrim turdag'i mahsulotlari kiradi. SHuningdek, bu tovarlar guruhiга paxta tolasi, jun, ip, gazlamalar, noto'qilma materiallar, karbamid, ammiakli selitra, ko'prik kranlari, ayrim turdag'i qishloq xo'jaligi texnikasi va paxtani qayta ishlash uskunalarini, IL-114 samolyotlari, sement, gips, paxta yog'i, margarin, vino mahsulotlari, olma sharbati va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy maqsadi, nafaqat YAIM o'sish sur'atlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish uchun choratadbirlar kompleksini shakllantirishdan iborat. Strategik yo'naliш sanoatning eksportga yo'naltirilgan tarkibini vujudga keltirish va eksportda xom ashyoga nisbatan chuqr qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish hisoblanadi.

10.4. O'zbekistonning milliy raqobatbardoshligini oshirish omillari

Globallashuv sharoitida mamlakat nisbiy ustunliklarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim vazifalaridan biridir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart.¹

Mamlakatning dinamik rivojlanish istiqbollarini ta'minlash uchun inson va texnologik resurslarning sifati va miqdorini, zaruriy tarkibiy siljishlarni ta'minlovchi natijalarga erishish davlat siyosati orqali amalgalashirishi mumkin. Hozirgi davrda va istiqbolda texnologiyalar global iqtisodiyotda nisbiy ustunliklardagi barcha o'zgarishlarning asosi sifatida muhim rol o'yndaydi.

Xalqaro savdoda bu kabi ob'yektiv siljishlarni oldindan aytish mumkinligiga bog'liq holda mamlakat o'z savdo siyosatida, o'z eksportini texnologik va boshqa "shok"lardan sug'urta qilib, ustuvorliklarni ongli ravishda joylashtirishi mumkin. Dastlabki vaqtida nisbiy ustunliklarni rivojlantirishda eksport daromadini kafolatlash uchun (chunki eksportning muntazam o'sishi yanada ko'proq takomillashgan texnologiyalarni doimiy ravishda xarid qilish va moslashtirishni talab qiladi) mavjud raqobat afzalliliklarga tayanish lozim. Shuning uchun eksportdan olingan xorijiy valuta yetakchi xorijiy texnologiyani (uskunalar, litsenziyalar, o'qitishlar shaklida) doimiy va muntazam xarid qilish va nisbiy ustunliklarni yanada rivojlantirish uchun asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

Eksport salohiyati mamlakat iqtisodiyotining texnik-texnologik, sifat, narx raqobatbardoshligining oshishi bilan bog'liq. Amalga oshirilayotgan tadbirlar va eksportga yo'naltirilgan dasturlarning asosiy maqsadi eksportning qiymat hajmini, birinchi navbatda, qayta ishlanganlik darajasi yuqori mahsulotlar, ilmtalab tovarlar, texnologiya va xizmatlar, ya'ni dinamik tovarlar hisobiga ko'paytirishdan iborat. Birinchi bosqichda eksportda oraliq mahsulotlar (birlamchi qayta ishlangan mahsulotlar) asosiy bo'lishi, keyinchalik esa yuqori texnologiyali mahsulotlarning (mashina va uskunalar, maishiy texnika, kompyuterlar, yarim o'tkazgichlar va h.k.) ulushi ortishi nazarda tutilgan.

¹ I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi T.: O'zbekiston, 2010. - 56 b.

Hozirgi bosqichda xalqaro iqtisodiy aloqalarning jadallahuviga xususiyatlaridan biri - ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotlar sohalarida ixtisoslashuv va kooperatsiyaning doimiy chuqurlashuvi hisoblanadi. An'anaviy savdo aloqalari shakli bo'yicha murakkablashib tobora turli mamlakatlardagi hamkorlarning uzoq muddatli sanoat hamkorligi ko'rishini olmoqda. Xalqaro sanoat hamkorligi – jahon integratsiya jarayonlarining asosiy eng dinamik omillaridan biridir.

Milliy ishlab chiqaruvchilarning eksport qilinadigan tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish jumladan quyidagi vazifalar kompleksini hal qilishni talab qiladi:

- eksport tovarlari ishlab chiqaruvchilarini iqtisodiy rag'batlantirishni kuchaytirish, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini diversifikatsiyalash va takomillashtirish;

- eksport mahsulotlarining xalqaro sifat standartlariga mosligini ta'minlash uchun milliy standartlash va sertifikatsiyalash tizimini isloh qilish;

- maqsadli sotish bozorrlari mavjud bo'lgan mamlakatlarda tashqi savdo infratuzilmasini yaratish orqali xalqaro tovar bozorlari marketing tadqiqotlarining samaradorligini oshirish;

- eksport mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini ularning faoliyati uchun zarur ma'lumotlarga real ega bo'lishlarini ta'minlash orqali axborotlar bilan qo'llab-quvvatlash;

- xorijiy kapitalni eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarga xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning o'z-o'zini valuta bilan ta'minlashi va o'z-o'zini moliyalashtirishi shartlarida jalb qilish.

Mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish va amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi eksportyordi kreditlash va sug'urtalash mexanizmlari ishlashini ta'minlash bo'yicha preventiv vazifalarning bajarilishi bilan bog'liq. Eksport konsorsiumlari va moliya-sanoat guruhlari mashinasozlik va ilmtalab mahsulotlar eksportini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratadilar. Respublika sanoati va xizmatlar sohasi tarkibida bir qator o'ziga xos yuqori texnologiyalar va yuqori eksport salohiyatiga ega sohalar mavjud. Ushbu sohalarning jahon xo'jaligi aloqalariga integratsiyalashuvi eksportga yo'naltirilgan sanoat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ular tomonidan ta'minlanadigan texnologik umumiylilik birgalikda texnik jihatdan murakkab eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarishning vertikal kooperatsiyasi bilan o'zaro bog'langan korxonalar, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, ixtisoslashgan savdo firmalari, banklar va

investitsion jamg'armalarni o'z ichiga oluvchi raqobatbardosh moliya-sanoat guruhlari shakllanishining asosiga aylanishi mumkin.

Dinamik tovarlarni yuqori raqobatli bozorlarga kiritish mahsulotning jahon standartlariga javob beradigan texnik darajasini, marketing, reklama, operatsion xarajatlarga moliyaviy xarajatlarni, huquqiy, maslahat, axborot xizmatlari haqining sezilarli ulushga ega bo'lishini talab qiladi. Ko'plab eksportyorlar bunday xarajatlarni ko'tara olmaydilar. Moliya-sanoat guruhlari va eksport konsorsiumlarining tuzilishi eksportyorlarning hamda yirik investitsiya va moliya institutlarining resurslarini birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Sohalarning eksport salohiyatini oshirish va investitsiya resurslarini ustuvor yo'naliishlarda jamlash maqsadida eksport konsorsiumlari va moliya-sanoat guruhlari tashkil etish uchun qulay sharoitlar yaratish kerak.

Raqobatbardoshlik miqdori ko'p jihatdan valuta bozorining liberallashtirilganlik darajasiga va valuta kursiga bog'liq bo'lib, bu kuchli ta'sirga ega. Milliy tovarlar raqobatbardoshligi tovarlar narxining o'sish sur'atlari so'm devalvatsiyasi sur'atlaridan sekinroq bo'lsa ortadi. Qishloq aholisi ko'p bo'lган iqtisodiyotda liberallashtirish sharoitida sanoatda ish haqining tez o'sishi qiyin kechadi (yuqori malakali xodimdan tashqari), chunki qishloqdan shaharga ishchi kuchining ko'plab kelishi va shaharlardagi mehnat bozoridagi raqobat real ish haqining oshishiga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, aholini ko'pchilik qismining iste'mol xarajatlarida mahalliy oziq-ovqatni sotib olish xarajatlari asosiy ulushga ega, bu tovarlar bozori respublikada yetarli darajada raqobatli bozor, bu esa iste'mol narxlarining ko'tarilishini cheklaydi.

So'mning asta-sekin devalvatsiyalashuvi mahalliy resurslardan foydalanishga asoslangan ko'pgina sanoat sohalari, ayniqsa eksport hajmining ortishi uchun kuchli manba bo'lgan, mehnattalab sohalar tovarlarining tashqi bozordagi yuqori raqobatbardoshligini uzoq vaqt saqlab turishga imkon beradi. Bundan tashqari, import qimmatlashishi tufayli import o'rmini qoplovchi ishlab chiqarishlar ham kuchli rag'bat oladilar. Ish haqining pastligi eksportga yo'naltirilgan sohalarda kapital egalari uchun sezilarli daromad hosil qiladi va shu orqali bu sohalarga investitsiyalar jalb etishni rag'batlanadiradi. Agar investitsiyalar va eksport uchun qulay muhit, milliy kapital olib chiqish keskin cheklanishi saqlansa, iqtisodiy o'sishning asosi bo'lgan investitsiyalar miqdori jadal o'sadi. Eksportning o'sishi ishlab chiqarish unumdarligini oshirish, iqtisodiyotning resurs sig'imiini kamaytirish imkoniyatini beradigan xorijiy uskuna va texnologiyalarni sotib olish imkoniyatini yaratadi.

Albatta, joriy operatsiyalar schyoti bo'yicha valuta bozorining to'liq liberallashtirilishi va natijada so'mning kuchli devalvatsiyasi muayyan xavf-xatarlarga ham ega: inflyatsiya yuqori – yiliga 40-90 % bo'lishi ham mumkin; xorijiy valutada berilgan "qaytmas" kreditlarning ko'payishi; milliy valutada hisoblaganda tashqi qarzning YAIMga nisbatining ortishi; qisqa muddatli davrda aholi xarid qobiliyatining pasayishi; import qismlarni yig'ishga asoslangan korxonalarning bankrot bo'lishi. Ammo eksportni rag'batlantirishga qaratilgan choralar kompleksi so'm devalvatsiyasining qisqa muddatli salbiy ta'sirini kompensatsiyalashi mumkin.

Milliy moliya kapitali bozorini tashqi ochiqligi alohida masala. U mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qiladigan darajada ochiq bo'lishi lozim, albatta. Portfel investitsiyalar, o'rta va qisqa muddatli kreditlar bozori masalasi esa murakkabroq. Jahon moliya inqirozi ko'rsatganidek, qisqa muddatli kapitalning erkin harakati milliy iqtisodiyot rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki "moliyaviy vahima" yuzaga kelganda mamlakatdan kapitalning keskin "qochishi" yuzaga kelishi mumkin. Ayni paytda kredit va jamg'arma resurslarining yetishmovchiligi milliy xo'jalikning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

O'zbekistonning raqobat ustunliklari o'sishini kuchli omili va asosiy shartlaridan biri sog'lom raqobat muhitini yaratishdir. U o'z ichiga quyidagilarni olishi lozim:

- muayyan soha iqtisodiy sub'yektlariga teng imkoniyatlar yaratish (sohalardagi qandaydir korxonalarga xom ashyo olishda, importda, soliq imtiyozi va boshqa imtiyozlar bermaslik) – har qanday imtiyoz butun sohaga berilishi lozim;

- bankrotlik jarayonini tezlashtirish orqali samarasiz firmalarni tugatish;

- resurslarning harakatchanligini oshirish, avvalo bank tizimi samaradorligini ko'tarish orqali moliviy kapitalning erkin harakatini ta'minlash, shuningdek qayta tayyorlashni tezlashtirish orqali ishchi kuchining mehnat unumdarligini oshirish;

- monopoliyadan chiqarish – konsernlar va uyushmalar tizimlarida yuqori monopol narxlar saqlab qolmoqda, bu esa import qilishning cheklanganligi bilan texnologik zanjir bo'yicha narxning oshishi va butun iqtisodiyotda yuqori inflyatsiya bo'lismiga olib kelmoqda;

- yuqorida aytib o'tilganidek, import tomonidan raqobat o'sishi uchun valuta tartibga solinishini erkinlashtirish.

Ammo raqobat ustunliklariga ega sohalarni rivojlantirishda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar, ya'ni xom ashyo emas, balki dinamik tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirish lozim.

Afsuski, respublika iqtisodiyoti hozircha xom ashyo talabi va taklifi qayta ishlash sanoati tovarlariga nisbatan past elastik bo'lganligi tufayli tez o'zgarib turuvchi jahon xom ashyo narxlariga kuchli bog'liq. Valuta tushumlarining o'zgarishi, o'z navbatida, butun makroiqtisodiy holatga ta'sir ko'rsatadi. Tashqi shoklar, jumladan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi iqtisodiyotni, jumladan eksportni diversifikatsiyalash zaruriyatini yana bir bor ko'rsatdi. Mamlakat iqtisodiyoti qancha ko'p xalqaro ishlab chiqarish-texnologik zanjirlariga qo'shilsa, uning ta'sirchanligi shuncha kamayadi va rivojlanish salohiyati ortib boradi.

Barqaror iqtisodiy o'sish va xavfsizlikni ta'minlash hamda jahon xo'jalik tizimida mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi makroiqtisodiy shart-sharoitlar yaratilishi lozim bo'ladi;

- yillik inflyatsiya darajasini 3-4 foizga tushirish;
- iqtisodiyotdagi soliq yukini 22-24 foizga pasaytirishga erishish;
- milliy valuta barqarorligini ta'minlash;
- bank tizimi va iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni davom ettirish;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishni yanada chuqurlashtirish asosida iqtisodiyotda davlat ulushini 15-18 foizgacha kamaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida ularning YAIMdag'i ulushini 50 foizga yetkazish;
- erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirib borish orqali iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlarini uyg'unlashtirish;
- institutsiional islohotlarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotni ma'muriy asosda boshqarishdan voz kechib, uni iqtisodiy vosita va dastaklar orqali tartibga solish mexanizmini shakllantirish.

10.5. Mamlakat raqobatdoshligini oshirishda tarkibiy o'zgartirishlar siyosatining roli

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan murakkab jarayonlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish uchun uning tarkibiy tuzilishini muttasil

takomillashtirib borish zaruratini yanada kuchaytirdi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish vazifasi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning, iqtisodiy rivojlanish borasida erishgan yutuqlarimizning muhim omili hisoblanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig'i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini 2011 yildagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida davom ettirishni taqozo etmoqda”¹.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi – iqtisodiyotning turli qism va bo'laklari o'rtasidagi proporsiyalar va o'zaro nisbatlar. Murakkab tizim sifatida iqtisodiyotning barcha elementlari orasidagi shakllangan va o'zgarib boradigan proporsiyalar va o'zaro nisbatlar tarkibiy o'zgarishlarni tavsiflaydi. Qaysi belgiga ko'ra bo'lak yoki qismlarga ajratilishiga qarab mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishining turlari o'zaro farqlanadi (10.1-rasm).

Tarkibiy o'zgarishlar siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui bo'lib, iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuv darajasini ko'tarish, ya'ni ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish, YAIM, eksport kabi ko'rsatkichlarda alohida tarmoq mahsuloti yoki mahsulot guruhining ustunlik qilishiga barham berish;

- tashqi bozorlardagi kon'yunktura o'zgarishlariga kam ta'sirchan bo'lgan tarmoqlar va sohalarning YAIM va bandlikdagi ulushining yuqori bo'lishini ta'minlash;

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, shuningdek eksport qiluvchi korxona va tarmoqlarning xom ashyo va butlovchi qismlar bilan ta'minlanishida mahalliy korxonalar ulushining ustunligiga erishish;


- yuqori texnologiyalar va zamonaviy texnika bilan bilan qurollangan, arzon va sifatli, tashqi bozorda bemalol raqobatga kirisha

¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

oladigan sanoat tarmoqlarining sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlari dagi ulushini oshirish;

- kon'yunktura o'zgarishlariga tez moslashuvchan, kapital sig'imi past bo'lgan soha va tarmoqlarning yalpi iqtisodiy ko'rsatkichlardagi salmog'ini oshirishga erishish yo'nalishlarida olib borilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishining turlari



10.1-rasm. Mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishining turlari *

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirib borish, chuqur qayta ishlangan, tayyor, qo'shilgan qiymat hissasi yuqori bo'lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish va ularning YAIM hamda mamlakat eksportidagi ulushini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda olib borilgan izchil tarkibiy siyosat natijasida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida sifat siljishlari ro'y berdi. Bu avvalambor YAIMning tarmoq tarkibida ro'y bergen o'zgarishlarda o'z aksini topadi (10.3-jadval).

* Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Мамлакатимизни модернизация килиш ва кучли фуқаролик жамиятни барпо этиш – устувор максадимиздир» хамда «Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараккиети ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир» номли маърузаларини ўрганиш бўйича ўкув кўлланма – Т.: Иктисодиёт. - 2010.

**10.3-jadval. YAIM ishlab chiqarish tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foizda)**

	Yillar				
	2000	2005	2008	2009	2010
Sanoat	14,2	21,1	22,3	23,6	24
Qishloq xo'jaligi	30,1	26,3	19,4	18,2	17,5
Qurilish	6,0	4,8	5,6	7,4	7,7
Transport va aloqa	7,7	10,6	12,7	11,9	12,4
Savdo va umumiy ovqatlanish	10,8	8,8	9,1	9,1	9,2
Boshqa tarmoqlar	18,7	17,8	21,5	23,1	22,2
Sof soliqlar	12,5	10,6	9,3	6,7	7,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari shu yillarda muttasil yuqori sur'atlarda o'sdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siriga qaramasdan tarmoqda o'sish sur'ati 2008 yilda 12,7 foizni, 2009 yilda – 9 foizni, 2010 yilda – 8,3 foizni tashkil etdi. Taqqoslash uchun qayd etish mumkinki, 2009 yilda sanoat ishlab chiqarishi hajmi oldingi yilga nisbatan Qozog'iston Respublikasida atigi 1,7 foizga o'sgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida 10,8 foizga, Ukrainada 21,9 foizga qisqardi.

Sanoatni ustuvor tarzda rivojlantirish, tarmoqqa investitsiyalar jalb qilish borasidagi sa'y harakatlar natijasida tarmoqning YAIMdag'i ulushi keskin ortdi. "Agar o'n yil oldin, ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 37 foizdan 49 foizga o'sdi".¹

2000-2010 yillar davomida sanoat ishlab chiqarish tarkibida yoqilg'i sanoati, metalluriya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati tarmoqlarining ulushi ortdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ining ulushi 2000 yilda 9,9 foizdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2008-2010 yillar davomida 16,2 foizni tashkil etdi.

¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljalangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

– T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.


10.4-jadval. Sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

	Yillar				
	2000	2005	2008	2009	2010
Sanoat	100	100	100	100	100
Elektroenergetika	8,5	11,3	8,6	8,9	8,4
Yoqilg'i	15,3	16,2	20,1	21,5	19,7
Metallurgiya	11,4	19,4	15,5	14,1	14,7
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	9,9	13,0	16,2	16,2	16,2
Qurilish materiallari	5,4	3,6	4,9	4,7	5,0
Yengil sanoat	19,1	16,6	12,9	12,2	12,2
Oziq -ovqat sanoati	13,3	8,2	10,6	11,2	12,6
Boshqalar	17,1	11,7	11,2	11,2	11,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Xizmatlar sohasining jadal rivojlanib borishi sohaning YAIMdag'i ulushining ortib borishiga va 2010 yil yakunlariga ko'ra 49 foiz darajasiga yetishiga olib keldi. An'anaviy xizmat turlaridan tashqari yangi xizmat turlarining ko'lami kengayib bordi (10.2-rasm).

"O'tgan yili xizmat ko'rsatish va servis sohasida 13,4 foiz o'sishga erishildi, so'nggi o'n yilda esa aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi kishi boshiga hisoblaganda, qariyb 20 barobar oshdi. Bu borada mobil aloqa, internet, videotelefon tizimi, raqamli televedenie, zamonaviy bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, injiniring va boshqa zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda".



10.2-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foizda*

¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

- T.: O'zbekiston, 2011. — 48 b.

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish siyosati istiqbolda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mamlakatimizdagi xomashyo va resurslarga boy mavjud manbalardan oqilona foydalanish asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan istiqbolli iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ana shu maqsadlarga erishish uchun "2011-2015 yillarda O'zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari to'g'risida"gi dastur tasdiqlandi. Ushbu dastur sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarni tashkil etadigan 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Yaqin besh yil ichida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamida 60 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2010 yildagi 24 foizdan 2015 yilda 28 foizga ko'paytirishni ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda. Bu borada mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni jadal rivojlantirish hisobidan ushbu tarmoqlarda ikki barobardan ziyod o'sishga erishiladi.¹

To'qimachilik sanoatida eksportbop raqobatdosh mahsulotlar tayyorlashga yo'naltirilgan, yakuniy ishlab chiqarish shakliga ega bo'lgan yangi, zamonaviy to'qimachilik komplekslarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur. Bu, o'z navbatida, paxta tolasini o'zimizda qayta ishlash hajmini 2 barobardan ko'proq, kalava ishlab chiqarishni 2,6 barobar, tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlarini 3 barobar, to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksportini 2 barobar oshirishni ta'minlaydi.

Yuksak texnologiyalar sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu loyihalar sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishni tashkil qilish, polietilen va polipropilen mahsulotlar, suyultirilgan va siqilgan tabiiy gaz ishlab chiqarish bo'yicha yangi, zamonaviy gaz-kimyo komplekslarini barpo etish, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida mineral o'g'itlar hamda yangi turdag'i kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish, eskirgan uskunalarni zamonaviy bug'-gaz qurilmalari bilan almashtirish hisobidan energetika tarmog'ini jadal rivojlantirish kabi sohalarni qamrab oladi.

Xullas, mamlakat hukumati tomonidan iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish siyosati iqtisodiyotning

¹ I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. //Xalq so'zi, 30.01.2010.

raqobatbardoshligini ta'minlaydigan optimal tarkibini shakllantirish maqsadiga xizmat qilmoqda.

10.6. Tashqi iqtisodiy aloqalar tarkibini diversifikatsiya qilish – raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili

Mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlashda tashqi iqtisodiy aloqalar tizimini samarali tashkil qilish, tashqi iqtisodiy omillarni to'g'ri boshqarish va rivojlantirish, ularning tarkibini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Tashqi iqtisodiy aloqalar diversifikatsiyasi deganda tashqi savdo aylanmasida eksport va importning tovar nomenklaturasini, shuningdek xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'nalishlarini, hamkor davlatlar sonining kengaytirilishi tushuniladi.


Eksportni diversifikatsiya qilish, ya'ni xorijga sotilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish, jami eksportda alohida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xom ashyo) ulushining katta bo'lismiga barham berish, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish eksport hajmining barqaror bo'lishini ta'minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o'zgarishlarga ta'sirchanligi darajasini pasaytiradi.

Eksport tarkibida bir yoki bir necha tovarlar ulushining sezilarli darajada ortib ketishi bu tovarlar narxi pasaygan yoki ularga tashqi talab qisqargan holatlarda eksportchi korxonalarini og'ir ahvolga solib qo'yishi mumkin. Buning natijasida eksport hajmining qisqarishi valuta tushumlarining kamayishi, tashqi savdo balansining yomonlashuvi va korxonalar moliyaviy ahvolining tanglikka yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, eksport umumiy hajmining kam sonli davatlarga bog'lanib qolishi ham qaltis holat hisoblanadi.

Shu sababli, Prezidentimiz ta'kidlaganidek "Keyingi vaqtda jahon bozorida narxi keskin tushib ketgan xom ashyo resurslarini eksport qilish amaliyotidan imkon qadar tezroq qutilib, tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirishimiz kerak".¹ Bu vazifani amalga oshirish eksport hajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.

¹ I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. //Xalq so'zi, 30.01.2010.


Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikatsiya qilish, ularni import qiluvchi mamlakatlar geografiyasini kengaytirish bu mamlakatlardan biri yoki bir guruhining iqtisodiyotida muammolar ro'y berganda ham eksport hajmining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi. Respublikamiz eksporti va importining tovar va geografik tarkibini takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish bir qator vazifalarning amalga oshirilishini taqozo etadi (10.3-rasm).



10.3-rasm. Tashqi savdo aylanmasining tovar va geografik tarkibini takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish *

O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo tarkibida ijobjiyligiga erishish, uning hajmini barqaror o'stirish imkonini bermoqda (10.4-rasm).

* Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий рivojlanтириши якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажхамасининг мажлисидаги “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаронволигини оширишга хизмат килади” мавзуусидаги маъruzasini ўрганиш бўйича ўкув кўлланма. –Т.: 2011.



10.4-rasm. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mlrd.doll.) *

2009 yilda eksport hajmini 2,4 foiz oshirib, tashqi savdo aylanmasini 2,3 milliard dollardan ko'proq ijobjiy saldo bilan yakunlangan bo'lsa, 2010 yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 21,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. 4,2 mlrd. AQSH dollarari hajmida ijobjiy saldo ta'minlandi.

Har qanday mamlakat tashqi savdosining holatini uning savdo balansi orqali baholash mumkin. Tashqi savdo balansi tovarlarning eksport, import va reeksport operatsiyalari bo'yicha barcha pul tushumi va to'lovlaring nisbatini ifoda etadi. Savdo balansi, o'z navbatida, mamlakat to'lov balansining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. To'lov balansi xorijiy hamkorlar bilan nafaqat tovar, balki pul sohasida ham amalga oshiriladigan operatsiyalarni aks ettiradi.

Ijobjiy saldog'a ega to'lov-savdo balanslari (xorijiy davlatlardan keladigan pul tushumlari miqdori ularga to'lanadigan pul to'lovlari miqdoridan ko'p bo'lgan holat) aktiv, manfiy saldo (pul to'lovlari pul tushumlaridan ko'p bo'lgan holat) esa passiv balans deb ataladi. Dunyodagi har bir mamlakat aktiv balansga ega bo'lishga intiladi, chunki manfiy saldo davlatning oltin-valuta zahirasi yoki davlat qarzi hisobidan qoplanadi.

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar natijasida 2010 yilda tashqi savdo va to'lov balanslari ham sezilarli darajada mustahkamlandi.

Bugungi kunga qadar davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida eksportning umumiy hajmi 10,8 foiz, tashqi savdo balansining ijobji saldosi esa 1,8 barobar oshdi va 4 milliard 200 million dollarni tashkil etdi. Mamlakatimizning oltin-valuta zahirasi ham shunga muvofiq ravishda ko'paydi.¹

2000-2010 yillar davomida ekport va importni diversifikasiya qilish, uning tarkibini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida ijobji siljishlar ro'y berdi (10.5-jadval).

10.5-jadval. O'zbekiston eksportining tovar tarkibi

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2008	2009	2010
Ekspert jami (mln. AQSH doll.)	3267,6	4853,0	11493,3	11771,3	13044,5
Ekspert jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan (jamiga nisbatan foizda):					
Paxta tolasi	27,5	19,1	9,3	8,6	11,3
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari	2,9	5,3	5,6	5,0	5,1
Qora va rangli metallar	6,6	9,2	7,0	5,0	6,8
Mashina va uskunalar	3,4	8,4	7,6	2,9	5,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	3,8	4,5	6,0	9,7
Energiya resurslari	10,3	11,1	24,7	34,2	24,8
Xizmatlar	13,7	12,2	10,4	8,8	9,1
Boshqalar	30,2	30,5	30,9	29,5	27,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga ma'lumotlari

Ekspert tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, unda xomashyo resurslari ulushi kamaydi va ular borgan sari katta miqdorda respublika miyosida tayyor tovarlar ishlab chiqarishga yo'naltirilmoqda. Paxta tolasining eksportdagagi ulushi yildan yilga kamayib ketayotganini kuzatish mumkin.

¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'naliishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

Uning ulushi mustaqillikning ilk yillarda eksportning 50 foizdan ortig'ini tashkil etgan bo'lsa, hozirda uning ulushi 11,3 % ni tashkil qiladi. 1992 yilda deyarli mavjud bo'limgan xizmatlarning eksportdag'i ulushining o'sish tendensiyasiga egaligi ham eksport tarkibining yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarda import tarkibi ham bir munkha yaxshilandi. Xususan, hukumat tomonidan amalga oshirilgan «don mustaqilligi» hamda «energiya mustaqilligi»ga erishish siyosatlari natijasida importdag'i oziq-ovqat mahsulotlari hamda energiya tashuvchilarining ulushi keskin kamaydi. E'tibor beradigan bo'lsak, importimizda xizmatlarning ulushi jami importning deyarli yarmini (2010 yilda - 44,1%) tashkil etmoqda (10.6-jadval).

10.6-jadval. O'zbekiston importining tovar tarkibi

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2008	2009	2010
Import jami (mln. AQSH doll.)	2944,5	4091,3	9704,0	9438,3	8797,9
Import jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan (jamiga nisbatan %):					
Kimyo mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari	13,6	13,6	11,6	11,1	5,9
Qora va rangli metallar	8,6	10,3	7,7	6,3	6,0
Mashina va uskunalar	35,4	43,3	52,4	56,5	8,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	12,3	7,0	8,3	9,0	10,9
Energiya resurslari	3,8	2,5	4,6	5,3	14,3
Xizmatlar	8,5	10,4	4,4	4,4	44,1
Boshqalar	17,8	12,9	11,0	9,2	4,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Shuningdek mashina va uskunalar so'nngi yillarda mamlakat importining salmoqli kismini tashkil qilmoqda (2009 yilda - 56,5 foiz). Bu shundan dalolat beradiki, birinchi navbatda jalb qilinayotgan chet el investitsiyalari hisobiga loyihalarni amalga oshirish, korxonalar ishlab chiqarish jarayonlari uchun zarur bo'lgan import tovarlariga talab kattaligicha qolmoqda.

Tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibida MDH mamlakatlarining ulushi 2010 yil yakunlariga ko'ra 43,1 foizni tashkil

etdi. O'zbekistonning MDH davlatlariga bo'lgan eksport hajmi 2010 yilda 50,4 foizga oshdi va 5,898 mlrd. dollarni tashkil etdi. Boshqa davlatlarga bo'lgan eksport esa 9 foizga qisqardi va 7,146 mlrd. dollarni tashkil etdi. MDH davlatlaridan bo'lgan import 3,526 mlrd. dollarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 13,8 foizga kamaydi. Boshqa davatlardan ham import hajmi 1,4 foizga kamaydi va 5,274 mlrd.dollarni tashkil etdi.

10.7-jadval. 2010 yilda respublika tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo'lgan davlatlar

	Respublika tovar aylanmasida ulushi, % hisobida	Tovar aylanma hajmi, mlrd doll	2009 yilga nisbatan % hisobida
Rossiya	29,2	6,4	143,4
Xitoy	9,5	2,1	101,7
Qozog'iston	8,3	1,8	138,3
Koreya Respublikasi	7,4	1,6	131,4
Turkiya	4,4	1,0	142,4
Afg'oniston	3,0	0,66	94,3
Eron	3,0	0,65	111,0
Ukraina	2,5	0,53	36,2
Germaniya	2,2	0,48	103,6
Buyuk Britaniya	1,0	0,23	131,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

2010 yilda mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasining 29,2 foizi Rossiya Federatsiyasi, 8,3 foizi Qozog'iston, 2,5 foizi Ukraina hissasiga to'g'ri keldi. Rossiya Federatsiyasi O'zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkor bo'lib qolmoqda. 2010 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Rossiya bilan tashqi savdo aylanmasi hajmi 6,38 mlrd.doll.ni tashkil etib, 2009 yilga nisbatan 43,4 foizga ko'paygan. Jumladan, Rossiyaga eksport 4,4 mlrd.doll.ni tashkil etib, deyarli ikki baravarga oshgan (96,8 foiz). Rossiyadan import esa 1,9 mlrd.doll.gacha tushgan va u 11,6 foizga qisqargan (10.7-jadval).

Xorijiy davlatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan, yoki ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan mahsulotlarga bo'lган talabni o'rganish, bunday tovarlar bozorlariga kirib borish va raqobat

qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi.

Bu borada yangi bozorlar, yangi transport yo'laklarini topish, bir so'z bilan aytganda faol marketingga asoslangan tashqi iqtisodiy siyosat yurgizish zarur.¹

Jahon bozorlarida korxonalarimiz mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

- eksport qiluvchi korxonalarga mahsulot tayyorlash va sotish xarajatlarini kamaytirishda ko'maklashish;

- ularni tashqi bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar, istiqbolli bozorlar, raqobatchilar to'g'risida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish;

- transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish;

- yangi transport yo'laklarini ochish orqali transport xarajatlarini kamaytirish va h.k.

Bu borada har bir tarmoq uchun ishlab chiqilishi ko'zda tutilayotgan 2010-2012 yilga mo'ljallangan tayyor mahsulotni yangi tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha maxsus dasturlarda eksport hajmini oshirish, eksport qilinadigan yuklarni tashish tizimini takomillashtirish, eksportchi korxonalarini marketing, moliya va tashkiliy-huquqiy qo'llab-quvvatlash masalalari o'z aksini topadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini diversifikasiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

Xulosa

Jahon xo'jaligi aloqalariga integratsiyalashuvning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshliligi deganda mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati tushuniladi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshliligi – iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va

¹ I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. //Xalq so'zi, 30.01.2010.

xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyatidir.

Iqtisod sohasidagi raqobat munosabatlarning ko'p ko'rinishliligini uch bosqichga bo'lib ko'rsatish mumkin: mikrodaraja (mahsulotlarning aniq ko'rinishi, ishlab chiqarish, tashkilotlar), mezodaraja (sohalar, korporativ integratsiyalashgan tuzilmalar), makrodaraja (xalq xo'jaligi komplekslari).

Shunga ko'ra, raqobatning ko'p ko'rinishliligi va omillari, ularni aniqlovchilari quyidagilarga bo'linadi: mikrodarajali (mahsulotning sifati va miqdori, narxsiz ko'rsatkichlari), mezodarajali (korporativ integratsiyalashgan daraja – KID), makrodarajali (iqtisodning umumiyligi, holati, investitsion holat, solik rejimi, ilmiy-ta'lim komplekslarning holati, texnik bazasi). Raqobatbardoshlikning har bir darajasi o'zining alohida ko'rsatkichlar to'plami, o'ziga xos yondashuvi va tahlil qilish usullariga ega.

Mamlakatning raqobatbardoshligi turli usullar bilan aniqlanadi. Lozanna Jahon iqtisodiyoti instituti Har yili Davosda o'tkaziladigan Butunjahon iqtisodiy forumi uchun mamlakatlarning raqobatbardoshligini baholash uchun 137 ta mezonlar yoki indekslardan foydalanadi. Ular orasida ko'p sonli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar; ijtimoiy institutlar sifati; bank tizimi samaradorligi; texnika, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mehnat bozorining rivojlanish darajasi; ish xaqi va korrupsiya darajasi va x.k.lar mavjud.

Hozirgi vaqtida milliy (global) raqobatbardoshlik reytingida AQSH yetakchilik qiladi, undan keyingi o'rirlarni Shveysariya, Daniya, Shvetsiya va Finlyandiya egallaydi. Mazkur reytingda O'zbekiston 62-o'rinda, MDH mamlakatlari orasida esa Rossiya va Qozog'istondan keyin 3-o'rinda turadi.

Milliy raqobatbardoshlikni oshirish muammosi nihoyatda keng ko'lamli xarakterga ega va ayniqsa, O'zbekiston uchun JSTga a'zo bo'lishga intilayotgan davrda uning ahamiyati juda katta.

O'zbekistonning raqobatbardoshlik ustunliklari eksportga yo'naltirilgan muvaffaqiyatli rivojlanishning negizini tashkil etadi. O'zbekiston quyidagi nisbiy ustunliklarga ega:

- mineral xom ashyo turlarining boy sanoat zahiralari;
- qulay tabiiy-iqlim sharoitlari;
- 400 dan ortiq tarixiy va me'morchilik obidalariiga ega bo'lgan dunyoga mashhur boy madaniy-tarixiy meros.
- nisbatan yuqori malakali va arzon ishchi kuchining mavjudligi;

- yuqori ilmiy salohiyat va ilmiy izlanishlarning yuqori darajasi;
- rivojlangan infratuzilma.

Tayanch iboralar:

Raqobat, iqtisodiyot raqobatbardoshligi, raqobatbardoshlikni baholash, mikroraqobatbardoshlik, mezoraqobatbardoshlik, makroraqobatbardoshlik, nisbiy ustunliklar, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy institutlar sifati, bank tizimi samaradorligi, texnika, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mehnat bozorining rivojlanish darajasi.

Nazorat uchun savollar:

1. Raqobat, mamlakatning raqobatbardoshligi tushunchalariga ta'rif bering.
2. Rivojlangan mamlakatlarda raqobatni qo'llab-quvvatlashning qanday usullarini bilasiz?
3. Jahon bozorida raqobatbardoshlikni aniqlaydigan asosiy omillarni ta'riflab bering.
4. O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini qanday baholash mumkin?
5. O'zbekistonning raqobat ustunliklarini sanab bering.
6. O'zbekistonning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishda qaysi omillar muhim rol o'yndaydi?

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'naliishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
– T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. //Xalq so'zi, 30.01.2010.
3. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир» ҳамда «Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараккиёти ва халқимиз фаровонлигини янада

юксалтиришдир» номли маъruzаларини ўрганиш бўйича ўқув кўлланма – Т.: Иқтисодиёт. - 2010.

5. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учебное пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.

6. Мировая экономика: прогноз до 2020 года /под ред. акад. А.А. Дынкина – М.: Магистр, 2008.

7. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonuni. 1998 y.
4. O'zbekiston Respublikasining “Xorijiy investorlar huquqlari himoyasi kafolatlari va choralar to'g'risida”gi Qonuni. 1998 y.
5. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. 2000 y.
6. «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-son Farmoni.
7. «Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 martdaggi PQ 26-son qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Qarori. 16.07.2008
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Krizisga qarshi dasturga kiritilgan qo'shimcha infratuzilma ob'yektlari bo'yicha loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi № PQ-1073-son qarori. 17.03.2009 y.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 505-sonli qarori

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

11. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va

2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
– T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

12. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2010. – 56 b.

13. I.A.Karimov. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. //Xalq so'zi. 2010 yil 8 dekabr.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitining Mingyllik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2010 yil 21 sentyabr

15. I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. //Xalq so'zi, 30.01.2010.

16. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

17. I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O'zbekiston, 2005.

18. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.

III. Asosiy adabiyotlar

19. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга багишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича Ўкув-услубий мажмуя. – Тошкент: Иқтисодиёт. - 2011. – 376 б.

20. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир” ҳамда “Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада

юксалтиришдир” номли маъruzаларини ўрганиш бўйича ўкув-услубий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт. - 2010. – 281 б.

21. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг БМТ саммитининг Мингийллик ривожланиш мақсадларига бағищланган ялпи мажлисидаги нутқини ўрганиш бўйича ўкув-услубий мажмуа. Тошкент: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2010. – 146 б.

22. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2010 йил 12 ноябрдаги қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” мавзуусидаги маъruzасини ўрганиш бўйича ўкув-услубий мажмуа, Т.: “Иқтисодиёт” 2010.-281 б.

23. Жумаев Н.Х., Абдурахмонов О.Қ. Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози: сабаблари ва уни бартараф этиш муаммолари. Т.: Академнашр, 2010, - 160 б.

24. Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009. - 581 с.

25. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.

26. Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.- 581 с.

27. Б.Ю.Ходиев ва б. “Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» номли асарини ўрганиш бўйича ўкув кўлланма”. – Т.: Иқтисодиёт, 2009.

28. А.А.Исаджанов. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, - 185 б.

29. Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2008.

30. Мировая экономика: прогноз до 2020 года /под ред. акад. А.А. Дынкина – М.: Магистр, 2008.

31. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - 196 б.

32. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации. Учебник. М. 2007.

33. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и

2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
– T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

12. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2010. – 56 b.

13. I.A.Karimov. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izhil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. //Xalq so'zi. 2010 yil 8 dekabr.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. //Xalq so'zi. 2010 yil 21 sentyabr

15. I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. //Xalq so'zi, 30.01.2010.

16. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

17. I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O'zbekiston, 2005.

18. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.

III. Asosiy adabiyotlar

19. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласи” мавзуусидаги маърузасини ўрганиш бўйича Ўқув-услубий мажмуя. – Тошкент: Иктисодиёт. - 2011. – 376 б.

20. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир” ҳамда “Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада

юксалтиришдир” номли маърузаларини ўрганиш бўйича ўкув-услубий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт. - 2010. – 281 б.

21. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг БМТ саммитининг Мингийллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқини ўрганиш бўйича ўкув-услубий мажмуа. Тошкент: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2010. – 146 б.

22. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2010 йил 12 ноябрдаги қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўкув-услубий мажмуа, Т.: “Иқтисодиёт” 2010.-281 б.

23. Жумаев Н.Х., Абдурахмонов О.К. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози: сабаблари ва уни бартараф этиш муаммолари. Т.: Академнашр, 2010, - 160 б.

24. Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.- 581 с.

25. Фаминский И.П. Глобализация – новое качество мировой экономики: учеб. пособие. - М.: Магистр, 2009. - 397 с.

26. Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.- 581 с.

27. Б.Ю.Ходиев ва б. “Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» номли асарини ўрганиш бўйича ўкув кўлланма”. – Т.: Иқтисодиёт, 2009.

28. А.А.Исаджанов. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви. Т.: ЖИДУ, 2008, - 185 б.

29. Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2008.

30. Мировая экономика: прогноз до 2020 года /под ред. акад. А.А. Дынкина – М.: Магистр, 2008.

31. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - 196 б.

32. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации. Учебник. М. 2007.

33. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и

практики управления /Под ред. В.В. Попкова. Учебник. М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. — 295 с.

34. Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 671 с.

35. Назарова Г.Г. ва бошқалар. Халқаро иқтисодий муносабатлар. Дарслік. Т.: МЧЖ “RAM-S”, 2007.

36. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник /Под ред. Л.Н. Красавиной. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 576 с.

37. Глобализация мирового хозяйства. Учебное пособие /под. ред. М.Н.Осьмовой М.Н., А.В.Бойченко. М.: ИНФРА-М, 2006. - VIII, 376 с.

38. Nazarova va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlari. Darslik – T.: O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2005. - 224 b.

39. Денчев К. Феномен антиглобализма. - М.: Издательский дом ГУ-ВШЭ. 2005.

40. Назарова Г.Г., Хайдаров Н.Х. Халқаро иқтисодий муносабатлар. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2005.-273 б.

41. Ливенцев Н. Международные экономические отношения. Учебник. М.: 2005.

42. Ишмухамедов А.Э. Иқтисодий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Т.: ТДИУ, 2004.

43. Алимов А., Ҳамедов И. Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолият асослари. Т., 2004.

44. Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия–2050. Стратегия инновационного прорыва. М. «Экономика». 2004.

45. Акопова Е.С., Воронкова О.Н. Мировая экономика и международные экономические отношения. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004.

46. К.А.Семёнов. Международные экономические отношения: Учебник для вузов. – М., ЮНИТИ – ДАНА, 2003.

47. Колосова Р.П., Артамонова М.В. и др. Глобализация экономики и занятость населения. Учебное пособие. М.: 2000.

48. Г.Фишер. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, направления, перспективы. - М.: 2000.

49. Контуры инновационного развития мировой экономики: прогноз на 2000-2015 гг./Под ред. А.А.Дынкина. М.: Наука, 2000.

IV. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

50. Доклад о развитии человека 2009. ПРООН, 2009.
51. Потапов М. Мировой экономический кризис и Восточная Азия. //МЭ и МО. 2009, №12, с.19-25.
52. И.Абрамова. Денежные переводы мигрантов: роль в социально-экономическом развитии Африки. //МЭ и МО. 2009, №7.
53. Социально-демографические процессы в современном Узбекистане //Материалы Республиканской научно-практической конференции. – Т., 2009. – С. 126.
54. Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сборник статей /Отв ред. Абдуллаев Е.В. – Т., 2008.
55. Шишков Ю. Регионализация и глобализация мировой экономики: алтернатива или взаимодополнение? //МЭ и МО, 2008, №8, с.7.
56. Центральная Азия и Кавказ. 2007. № 6. с. 43.
57. Васильевский Э. Информационные технологии: масштабы и эффективность использования. //МЭ и МО, 2006, №5, с. 4.
58. Пороховский А.А. Новая экономика: американский вызов. //США – Канада: экономика, политика, культура. 2001, №6 – С.10.
59. Статистическое обозрение Узбекистана. Т.: 2011.
60. UNCTAD World Investment Report -2009.
61. Economic and Social Survey of Asia and Pacific-2009. N.Y., ESCAP, 2009.
62. World Economic Situation and Prospects-2009. N.Y., UN, 2009.
63. Costanza Giovannelli. Trends in international migrant stock: The 2008 Revision. - United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division, Migration Section, Eighth Coordination Meeting On International Migration. - New York, 16-17 November 2009.
64. World Trade Report 2007.
65. UNIDO Industrial Statistical Database. Vienna. November 2007.
66. UNCTAD. Trade and Development Report. 2007.
67. BP Statistical Review of World Energy, June 2007.
68. UNIDO Industrial Development Report 2005. Vienna, 2005.
69. World Economic Outlook. IMF, September 2005.
70. Annual Report, WTO, 2003.
71. World Development Indicators. The World Bank, 2003.
72. World Economic Outlook, IMF, September. 2002.

V. Internet saytlar

73. www.un.org – BMT sayti
74. www.un.org.esa – BMT statistikasi
75. www.worldbank.org – Jahon banki sayti
76. www.unctad.org – YUNKTAD sayti
77. www.wto.org – JST sayti
78. www.uza.uz. – O’zbekiston Respublikasi milliy axborot agentligi
79. www.gov.uz – O’zbekiston Respublikasi hukumat portali
80. www.press-service.uz – O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati
81. www.pravo.vsem.uz – O’zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi yangiliklar
82. www.mfa.uz – O’zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
83. www.mfer.uz – O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo vazirligi
84. www.aci.uz – O’zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi
85. www.mf.uz – O’zbekiston Respublikasi moliya vazirligi
86. www.mineconomy.uz – O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi
87. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Statistika qo’mitasi

GLOSSARIY

Agflyatsiya (agrар inflyatsiya) – oziq-ovqat mahsulotlarning narhlari o'ta darajada oshishi.

Antiglobalizm – globallashuv jarayonlarning hozirgi kunda namoyon bo'layotgan ba'zi jihatlariga qarshi yo'naltirilgan siyosiy harakat.

"ATTAC" (Association for the Taxation of Financial Transactions for the Aid of Citizens) – antigloalistlarning tashkiloti.

Bojxona ittifoqi — ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini o'tkazishidir.

Bojxona tarifi — tovar oqimlarining chegarani kesib o'tishida davlat tomonidan olinadigan soliq mikdori ko'rsatilgan tartiblangan tovarlar ro'yxati.

Valuta — ma'lum bir davlatning qonun bilan o'rnatilgan pul vositasi (milliy valuta), bir yoki bir necha yetakchi mamlakatlarning valutasi ko'rinishidagi jahon rezerv pullari, XVF va Yevropa valuta tizimi a'zolari tomonidan ko'p tomonlama hisob-kitoblarda foydalaniладigan xalqaro valuta birliklari.

GATT - Savdo va tariflar bo'yicha bosh bitim — tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lган mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akt.

Global muammolar — olamshumul ahamiyatga ega bo'lган va o'z yechimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarini talab etuvchi sivilizatsiyamizning eng dolzarb masalalari.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Davlat budjeti – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

Deflyatsiya – inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul - kredit tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus-har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va

korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

Diversifikatsiya strategiyasi – korxona faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir.

Dividend – aksionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to'lanadigan qismi bo'lib, u aksionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.

Jahon banki – 1944 yilda Xalqaro valuta jamg'armasi bilan bir vaqtida tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir, o'z faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

Jahon bozori — moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko'rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol bosqichlarni o'z ichiga oluvchi xalqaro iqtisodiy munosabatlar sub'yektlarining (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalarning) o'zaro iqtisodiy ta'sirlashish global muhitidir.

Jahon bozori kon'yunkturasi - jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.

Joriy kon'yunktura – muayyan davrda tovarlarga bo'lган talab va taklifning tarkibi, dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmui.

Jahon bahosi - talab va taklif egri chiziqlari ta'sirini hisobga olgan holda milliy narx ko'rsatkichlari ta'sirida xalkaro savdo markazlarida hosil bo'ladi.

Jahon savdo tashkiloti (JST) — xalqaro savdoni institutsional va huquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkilot.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtirok etish, jahon bozoridagi o'z o'rni va mavqeini saqlab qolish va kengaytira olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish layoqati.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

Iqtisodiy o'sish – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o'sishi.

Import – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish.

Investitsion hamkorlik - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko’rinishi bo’lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.

Investitsiya – bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobji ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag’lari, banklarga qo’yligan omonatlar, paylar, qimmatli qog’ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.

Investitsiya dasturi – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur.

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

Inqirozga qarshi mo’ljallangan choralar dasturi – O’zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012 yillarga mo’ljallanib inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo’lib, mazkur dasturda talabni rag’batlantirishga yo’naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o’sish sur’atlarini ta’minlovchi chora-tabdirlar majmui o’z aksini topgan.

Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo’llaniluvchi usul va vositalar majmui bo’lib, o’z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Innovatsiya jarayoni - yangilik g’oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste’molchi tomonidan iste’mol qilinishigacha bo’lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon.

Inflyatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valutaning qadrsizlanishi, narxlarning o’sishi.

Inflyatsiya darjasasi – ma’lum vaqt ichida (oy, yil) narxlар darajasining foizdagи o’zgarishi.

Infratuzilma – tovar ishlab chiqarish shartlarini ta’minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo’llar, aloqa, transport, maorif, sog’liqni saqlash.

Ipoteka – bankning garov xat, ko'chmas mulk garovi asosida muayyan muddatga ssuda berishi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoqlar majmui bo'lib, o'z ichiga temir va avtomobil yo'llari, elektr, gaz va suv ta'minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo'jaligi va boshqalarni oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaliv texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi choratdibirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon.

Ihsizlik – iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o'z kuchini qo'llay olmay «ortiqcha» bo'lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo'lib qolish hodisasi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) — BMTning asosiy boshqaruvi organlaridan biri bo'lib, uning xalqaro iqtisodiy munosabatlari sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Iqtisodiy integratsiya — hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarini o'zaro Yaqinlashish va bir-biriga kirib borishi jarayoni.

Iqtisodiy ittifoq — iqtisodiy integratsiyaning oliy ko'rinishi, umumiy huquqiy me'yorlar, soliq bazasini soddallashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valutaga o'tish kabilalar bilan tavsiflanadi.

«Katta yigirmalik» – 20 ta yirik mamlakatlar guruhi bo'lib, unga jahondagi eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi va ular xissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 90 foiz ulushi to'g'ri keladi.

Kon'yunktura – bu bozorda ma'lum bir vaqtida yuzaga kelgan iqtisodiy holatdir (asosan talab hamda taklif nisbati va u bilan bog'liq bo'lgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Kooperatsiya aloqalari – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.

Korxonalarga preferensiya berish – milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarishga chet eldan olib kiriladigan xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek asbob-uskunalarini olib kirishda boj to'lovlari va boshqa jarayonlar bo'yicha yengilliklar (imtiyozlar) berilishi.

Korxonaning innovatsion salohiyati – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o’ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati.

Kredit – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo’sh mablag’larlarini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

Modernizatsiya – ob’yektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me’yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko’rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Moliya-bank tizimi – tarixan shakllangan va belgilangan qonun qoidalar asosida faoliyati yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit muassasalari majmuidir.

Moliyaviy «ko’piklar» – real qiymatga ega bo’lmagan pul va obligatsiyalar hajmining ko’payishi.

Moliyaviy institutlar – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

Moliyaviy manbalar – iqtisodiyotning turli darajasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi moliyaviy mablag’larning kelib chiqish manbalari. Masalan, moliyaviy manbalar aholi va korxonalarning manbalari, davlat budgeti mablag’lari, qarzga olingan mablag’lar, xorijiy investorlarning mablag’lari va boshqa ko’rinishlarda bo’lishi mumkin.

Narx – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

Nou-xau - mualliflik guvohnomasi (patent) bilan himoyalananmagan ishlab chiqarish tajribasi va maxorat sirlari.

Portfel investitsiyalar — xo’jalik ob’yektini ekspluatatsiya qilish tufayli daromad olish xuquqini kafolatlovchi kapital qo’yilmalari.

Preferensiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Proteksionizm – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqланади.

Pul - kredit siyosati – davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

Pul – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniладigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

Saldo - muayyan vaqt davomida moliyaviy tushumlar va sarflar, eksport va import qiymati (savdo balansi saldosi), xorijiy to'lovlar va tushumlar (to'lov balansi saldosi) o'rtasidagi farq.

Samarali iqtisodiy siyosat – davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o'zaro uyg'unlashtirilgan chora-tadbirlari majmui.

Soliqlar – belgilangan va muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budgetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovleri tushuniladi.

Soliqlarni unifikatsiya qilish – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish ob'yekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini bixillashtirish.

Savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YUNKTAD) — BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Savdoda eng qulay sharoit yaratish rejimi — mamlakatlar o'rtasida kelishilgan xolda o'rnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi.

Sanoat taraqqiyoti bo'yicha BMT Anjumani (YUNIDO) — BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Tarkibiy o'zgarishlar – milliy iqtisodiyotning samarali va barqaror tarkibiy tuzilishini ta'minlash maqsadida uning tarmoq va sohalarini izchil ravishda o'zgartirib borish.

Tashqi qarz – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi nodavlat qarzlar – mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalar, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi savdo – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

Tashqi savdo siyosati – bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati.

Telekommunikatsiya – simli, radio, optik yoki boshqa elektromagnit tizimlardan foydalanib signal, belgi, matn, tasvir va tovushlarni yoki boshqa ko'rinishdagi axborotni uzatish, qabul qilish va unga ishlov berish jarayoni.

Tobin solig'i – 1972 yilda Djeyms Tobin tomonidan kiritilgan bo'lib, barcha moliyaviy operatsiyalardan 0,1 foizini qashshoqlikni yo'qotish va uchinchi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirishni ko'zda tutadi.

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) - chet el aktivlariga ega bo'lган yirik kompaniyani iqtisodiy tashkillashtirish ko'rinishi.

Turmush darajasi – aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar kiritish.

To'lov balansi – muayyan muddat davomida mamlakatning chet ellarga to'lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga chet eldan tushgan to'lovlar summalarini nisbatini tavsiflaydi.

Uzoq muddatli depozitlar – jismoniya va yuridik shaxslarning tijorat banklariga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan pul ko'rinishidagi jamg'arma va omonatlar.

Unifikatsiya – turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo'llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xillagini ta'minlash.

Uyali aloqa – uyali tarmoqqa asoslangan mobil radioaloqaning bir turi.

Umumiy bozor — ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko'chib o'tishi ta'minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko'rinishi.

Franchayzing — bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanish.

Fond bozori – qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.

Xalqaro tashkilotlar – ularning har biri xalqaro siyosatda o'zlarining faoliyat maqsadlari yo'nalishlariga qarab, yer yuzi

taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

Xalqaro tranzit - xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir.

Xizmat ko'rsatish sohasi – ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lмаган ишлаб чиқарышнинг моддији-буюмлашган көрнешіне ега болған ишлаб чиқарышның тартибындағы жаңалықтар.

Xususiy tashkilotlar – demokratik davlatlarda, individuallar va xususiy tashkilotlar mustaqil ish yuritishga harakat qiladi. Masalan, ro'znama va oynomalar xususiy tarzda boshqariladi. Davlat maktablari bilan xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi. Ko'plab korxonalar xususiy tarzda boshqariladi. Britaniya, Shvetsiya va ko'plab davlatlarda (ya'ni demokratik davlatlarda) sanoat va xizmat ko'rsatishning ayrim tarmoqlariga davlatning o'zi egalik qiladi. Totalitar davlatlarda esa hukumatning o'zi aksariyat uyushmalar va tashkilotlarni shakllantiradi va nazorat qiladi. Bu davlatlarda odamlar davlatning ruxsatsiz biror-bir guruhgaga birlasha ham olmaydilar.

Xalqaro valuta fondi (XVF) —xalqaro savdo va valuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valuta-moliya tashkiloti.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar — mamlakatlar va xududlar o'rtaсидиги, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalari tizimi.

Xalkaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi — ishlab chiqarish bosqichlarining o'zaro bir-birini to'ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning xamkorlik qilishi.

Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi — mamlakatlar o'rtaсидиги mexnat taqsimoti ko'rinishi bo'lib, unda o'zlarining ichki ehtiyojlaridan ortiqcha bir turdag'i maxsulotlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabaqlanishi yuz beradi.

Eksport – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

Eksport kvotasi - mamlakat eksporti qiymatining unig yalpi ichki mahsulotiga nisbati (foizlarda).

Emissiya – qog'oz pullarning g'aznaxonaga yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi; barcha shakldagi pul belgilarini muomalaga chiqarish.

Embargo - alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay taqiqlash.

Erkin iqtisodiy hududlar - mamlakatning shunday hududiki, bu yerga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyaside tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va solikka tortishdan ozod etiladi, ya'ni - bu milliy iqtisodiyotning bir kismini tashkil etib, bu yerda mamlakatning boshka xududlarida qo'llanilmaydigan o'ziga xos imtiyozlar va rag'batlantirishlar tizimidan foydalilanadi.

Erkin savdo hududlari (ESX) — preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan xoli savdo tartibiga rioya qilinadi.

Yalpi ichki mahsulot — mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

Yangi industrial davlatlar (YAID) — iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi.

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI.....	3
1-BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI.....	7
1.1. Globallashuv tushunchasining mohiyati.....	7
1.2. Globallashuv jarayonini harakatlantiruvchi omillar.....	8
1.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy xususiyatlari.....	11
1.4. Globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari.....	14
1.5. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarning rivojlanish tendensiyalari.....	15
2-BOB. XALQARO SAVDONING RIVOJLANISH TENDENSI- YALARI.....	22
2.1. Global iqtisodiyotning shakllanishida xalqaro savdoning o'rni.....	22
2.2. Global bozorlarning shakllanishi va ularning xususiyatlari.....	25
2.3. Globallashuv sharoitida tashqi savdoni tartibga solish usullari...	28
2.4. Xalqaro savdo dinamikasi va o'zgarishlarining xususiyatlari.....	33
2.5. Xalqaro savdoda rivojlangan mamlakatlarning tutgan o'rni.....	41
2.6. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tashqi savdoning o'rni.....	47
2.7. Xalqaro savdoni rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning roli.....	51
2.8. Mintaqaviy savdo bloklar doirasida xalqaro savdoni erkin- lashtirish jarayonlari.....	54
3-BOB. JAHON MOLIYA BOZORLARI.....	61
3.1. Global moliya bozorlarining shakllanishi.....	61
3.2. Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning xalqaro moliya munosabatlaridagi o'rni.....	66
3.3. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarda davlat moliya siyosati.....	70
3.4. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida xalqaro moliya munosabatlarining o'rni.....	76
3.5. Rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy tizimlar islohotlari...	81
3.6. O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya munosabat- lardagi ishtiroki.....	84
4-BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA MEHNAT BOZORI.....	90
4.1. Jahon ishchi kuchi bozori tushunchasining mohiyati va nazariy asoslari.....	90
4.2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va uning asosiy ko'rinishlari..	95

4.3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining asosiy yo'nalishlari va migrantlarni o'ziga jalb qiluvchi markazlar.....	99
4.4. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining dinamikasi.....	102
4.5. Jahon moliyaviy inqirozining ishchi kuchi bozoriga ta'siri.....	113
4.6. Globallashuv sharoitida O'zbekistonning tashqi migratsiya jarayonlaridagi ishtiroki.....	117
5-BOB. GLOBALLASHUV VA IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI.....	125
5.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati.....	125
5.2. Integratsion birlashmalarning turkumlanishi.....	127
5.3. Globallashuv va integratsiya jarayonlarining umumiyligi iqtisodiy texnologik asoslari.....	131
5.4. Mintaqaviy integratsiya va globallashuv jarayonlarining o'zaro harakat tendensiyalari.....	140
5.5. Iqtisodiy integratsiya doirasida o'zarobog'liqlik.....	144
5.6. Iqtisodiy integratsiya va globallashuv jarayonlarining rivojlanish istiqbollari.....	151
6-BOB. GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA TRANSMILLIY KORPORATSIYALARING TUTGAN O'RNI.....	158
6.1. Transmilliy korporatsiyalarining mohiyati.....	158
6.2. Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarining roli.....	162
6.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida TMKlar faoliyati.....	169
6.4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida TMKlarning tutgan o'rni.....	172
7-BOB. JAHHON IQTISODIYOTINING GLOBAL MUAMMOLARI VA ZIDDIYATLARI.....	182
7.1. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning paydo bo'lishi.....	182
7.2. Global o'zarobog'liqlik jarayonining ziddiyatlari.....	187
7.3. Global energetik muammo va uni hal etish yo'llari.....	191
7.4. Moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar.....	198
7.5. Antiglobalizm fenomeni.....	207
8-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK.....	213
8.1. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	213
8.2. Iqtisodiy xavfsizlikning turlari.....	216
8.3. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi omillarning roli.....	220
8.4. Tashqi iqtisodiy faoliyat va milliy manfaatlarga tahdidlar.....	222

8.5. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida iqtisodiy xavfsizlik.....	228
8.6. O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishida milliy xavfsizlikni ta'minlash.....	232
9-BOB. GLOBALLASHUV JARAYONIDA INNOVATSION RIVOJLANISH.....	240
9.1. Innovatsion faoliyatning asosiy tushunchalari.....	240
9.2. Globallashuv sharoitida innovatsion rivojlanishning ahamiyati..	242
9.3. Globallashuv jarayonining innovatsion faoliyatga ta'siri.....	245
9.4. Rivojlangan mamlakatlarning innovatsion strategiyasi.....	250
9.5. Texnologik rivojlanishning asosiy istiqbolli yo'nalishlari.....	252
9.6. Globallashuv jarayonida axborot va kommunikatsion texnologiyalarning roli.....	259
10-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING RAQOBATBARDOSHLIGI.....	266
10.1. Iqtisodiy raqobatbardoshlik tushunchasining mohiyati.....	266
10.2. Mamlakat raqobatbardoshligini aniqlash usullari.....	269
10.3. O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini baholash.....	272
10.4. O'zbekistonning milliy raqobatbardoshligini oshirish omillari..	276
10.5. Mamlakat raqobatdoshligini oshirishda tarkibiy o'zgartirishlar siyosatining roli.....	280
10.6. Tashqi iqtisodiy aloqalar tarkibini diversifikatsiya qilish – raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili.....	286
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	296
GLOSSARIY.....	302

ОГЛАВЛЕНИЕ

ПРЕДИСЛОВИЕ.....	3
ГЛАВА 1. ГЛОБАЛИЗАЦИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ОСОБЕННОСТИ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ.....	7
1.1. Сущность понятия глобализации.....	7
1.2. Движущие факторы процесса глобализации.....	8
1.3. Основные особенности глобализации мировой экономики.....	11
1.4. Положительные и негативные последствия глобализации.....	14
1.5. Тенденции развития стран с переходной экономикой в условиях глобализации.....	15
ГЛАВА 2. ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛИ.....	22
2.1. Роль международной торговли в формировании глобальной экономики.....	22
2.2. Формирование глобальных рынков и их особенности.....	25
2.3. Методы регулирования внешней торговли в условиях глобализации.....	28
2.4. Особенности динамики и изменений международной торговли.....	33
2.5. Место развитых стран в международной торговле.....	41
2.6. Роль внешней торговли в экономике развивающихся стран.	47
2.7. Роль международных организаций в развитии между- народной торговли.....	51
2.8. Процессы либерализации международной торговли в рамках региональных торговых блоков.....	54
ГЛАВА 3. МИРОВЫЕ ФИНАНСОВЫЕ РЫНКИ.....	61
3.1. Формирование глобальных финансовых рынков.....	61
3.2. Международные финансовые организации и их роль в международных финансовых отношениях.....	66
3.3. Государственная финансовая политика стран с переходной экономикой в условиях глобализации.....	70
3.4. Роль международных финансовых отношений в экономике развивающихся стран.....	76
3.5. Реформы финансовых систем в развивающихся странах.....	81
3.6. Участие Республики Узбекистан в международных финан- совых отношениях.....	84
ГЛАВА 4. РЫНОК ТРУДА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	90

4.1. Сущность и теоретические основы мирового рынка труда...	90
4.2. Международная трудовая миграция и ее основные виды.....	95
4.3. Основные направления международной трудовой миграции и центры притяжения мигрантов.....	99
4.4. Динамика международной трудовой миграции в мировой экономике.....	102
4.5. Влияние мирового финансового кризиса на рынок труда.....	113
4.6. Участие Узбекистана в процессах внешней миграции в условиях глобализации.....	117
ГЛАВА 5. ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ПРОЦЕССЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ.....	125
5.1. Сущность международной экономической интеграции.....	125
5.2. Типология интеграционных объединений.....	127
5.3. Общие экономико-технологические основы процессов глобализации и интеграции.....	131
5.4. Тенденции взаимодействия процессов региональной интеграции и глобализации.....	140
5.5. Взаимозависимость в рамках экономической интеграции.....	144
5.6. Перспективы развития процессов экономической интеграции и глобализации.....	151
ГЛАВА 6. МЕСТО ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫХ КОРПОРАЦИЙ В ПРОЦЕССАХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	158
6.1. Сущность транснациональных корпораций.....	158
6.2. Роль транснациональных корпораций в мировой экономике	162
6.3. Деятельность ТНК в период мирового финансово- экономического кризиса.....	169
6.4. Место ТНК в экономике Республики Узбекистан.....	172
ГЛАВА 7. ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПРОТИВОРЕЧИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	182
7.1. Возникновение глобальных проблем в мировой экономике.	182
7.2. Противоречия процесса глобальной взаимозависимости.....	187
7.3. Глобальная энергетическая проблема и пути ее решения.....	191
7.4. Финансовые и экономические кризисы.....	198
7.5. Феномен антиглобализма.....	207
ГЛАВА 8. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	213
8.1. Сущность понятия экономической безопасности.....	213
8.2. Виды экономической безопасности.....	216

8.3. Роль внешних факторов в обеспечении экономической безопасности в условиях глобализации.....	220
8.4. Внешнеэкономическая деятельность и угрозы национальным интересам.....	222
8.5. Экономическая безопасность в процессе привлечения иностранных инвестиций.....	228
8.6. Обеспечение национальной безопасности в устойчивом развитии Узбекистана.....	232
ГЛАВА 9. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	240
9.1. Основные понятия инновационной деятельности.....	240
9.2. Значение инновационного развития в условиях глобализации.....	242
9.3. Влияние процесса глобализации на инновационную деятельность.....	245
9.4. Инновационная стратегия развитых стран.....	250
9.5. Основные перспективные направления технологического развития.....	252
9.6. Роль информационных и коммуникационных технологий в процессе глобализации.....	259
ГЛАВА 10. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	266
10.1. Сущность понятия экономической конкурентоспособности.....	266
10.2. Методы определения конкурентоспособности страны.....	269
10.3. Оценка конкурентоспособности экономики Узбекистана...	272
10.4.Факторы повышения национальной конкурентоспособности Узбекистана.....	276
10.5. Роль политики структурных преобразований в повышении конкурентоспособности страны.....	280
10.6. Диверсификация структуры внешнеэкономических связей – важный фактор повышения конкурентоспособности.....	286
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....	296
ГЛОССАРИЙ.....	302

G.G' . NAZAROVA, N.M. SALIXOVA

JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI

O'quv qo'llanma

Muharrir: Mirboboeva S.A.
Musahhih: Komilova D.D.,
Kompyuterda sahifalovchi: Nasirxo'jayeva D.

Bosishga ruhsat etildi: 26.09.2011 yil. Bichimi 60x84 1/16.
“Times New Roman” garniturasi. Shartli bosma tabog'i: 20,0. Adadi 100.
Toshkent Davat Iqtisodiyot Universiteti bosmaxonasida chop etildi.
100063, Toshkent sh. O'zbekiston shoh ko'chasi, 49-uy.